O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI

**XUSHNUDBEK MAMADALIYEV**

# FARG‘ONA VODIYSI SHAHARLARI TARIXI

## (XIX – XX ASR BOSHLARI)

MONOGRAFIYA

TOSHKENT – 2022
«FAN ZIYOSI» NASHRIYOTI

**КВК 87.3(5Ўзб)456**
**UO`S: 432.684.24**
**M-21**

**Mamadaliyev Xushnudbek Islomjonovich / Farg‘ona vodiysi shaharlari tarixi(XIX – XX asr boshlari) / monografiya – Toshkent.: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2022. 192 bet.**

Mazkur monografiyada Qo‘qon xonligi davrida Farg‘ona vodiysi shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, shaharlarning ichki va tashqi savdo aloqalaridagi o‘rni, Rossiya imperiyasi tomonidan xonlik tugatilgach, shaharlar hayotidagi hududiy hamda urbanizatsion o‘zgarishlar, vodiy shaharlarining eski va yangi qismlarga bo‘linishidagi ziddiyatli holatlarni tarixiy faktlar asosida tahlil etilgan.

Mazkur monografiya o‘quvchilar, talabalar, magistrlar, tadqiqotchilar, o‘qituvchilar hamda Farg‘ona vodiysi shaharlari tarixini o‘rganishga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

**M a’ s u l m u h a r r i r:**

**Dono Ziyaeva** – tarix fanlari doktori, professor

**T a q r i z c h I l a r:**

**Jannat Ismoilova** – tarix fanlari doktori, professor

**Sanobar Shadmanova** – tarix fanlari doktori, professor

**Akram Xasanov** – tarix fanlari doktori, dotsent

*Ushbu monografiya O‘z R FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi Ilmiy kengashining 2022 yil 31 maydagi 9-sonli Qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

**ISBN 978-9943-747-45-6**

**© Xushnudbek Mamadaliyev**
**© «Fan ziyosi» nashriyoti, 2022**

*Buvijonim Asixon To'raboy qizining yorqin xotiralariga bag'ishlayman*

# MUQADDIMA

Jahon tarixi taraqqiyotida Oʻrta Osiyo sivilizatsiyasi muhim ahamiyatga ega boʻlib, mintaqa shaharlari qadimgi davrlardan boshlab Sharqning madaniy, iqtisodiy va siyosiy shahar markazlari bilan uzviy aloqada, oʻziga xos yoʻnalishda rivoj topgan. Binobarin, u yoki bu davrda taraqqiy etgan urbanizatsiya jarayonlarini tadqiq etish jahon tarixi fanining muhim muammolaridan biri hisoblanadi.

Jahon miqyosida urbanizatsiya va shaharlashuv jarayoni shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda shaharlar tarixini teran yoritishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga ehtiyoj tobora ortmoqda. Shu sababli ham jahondagi yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida Yer sharining turli mintaqalarida urbanizatsiya jarayonlarining oʻziga xos jihatlari, shaharsozlik madaniyatining paydo boʻlishi va rivojlanish qonuniyatlarini oʻrganish boʻyicha tizimli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda shaharlar shakllanishining siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy asoslarini ochib berishga dolzarb ilmiy muammo sifatida qaralmoqda.

Shaharlar yil sayin kengayib, intensiv ravishda oʻsib borayotgan bugungi kunda zamonaviy shahar madaniyati istiqbollarini, tarixiy xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu maqsadda dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida shaharlar tarixi va taraqqiyoti muammolari jumladan, yirik megapolislardagi bosimni yumshatish uchun oʻrta va kichik hamda yoʻldosh shaharlarni rivojlantirish masalalarini oʻrganish, ularning tarixiy xususiyatlarini aniqlashga alohida urgʻu

berilmoqda. O‘z navbatida O‘zbekiston hududida ham mazkur muammolar tadqiqi muhim ahamiyat kasb etib, kun tartibida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shaharlar taraqqiyotini rejalashtirishda ularning tarixiy xususiyatlarini aniqlash va anglab yetish ushbu tadqiqot zaruriyatini alohida ta’kidlaydi.

XIX–XX asr boshlari Turkiston xalqlari tarixida shiddatli o‘zgarishlar davri bo‘lib, shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ham muhim transformatsion jarayonlar ro‘y berdi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida shaharlar o‘z qiyofalarini doimo o‘zgartirib borgan va shu bilan birga, ularning jamiyatda tutgan roli ham oshib borgan. Shuning uchun ham hozirgi kunda Vatanimiz hududidagi shaharlar tarixini chuqur va har tomonlama o‘rganish tarixchilarning eng muhim vazifalaridan biridir. Ana shu jihatdan Farg‘ona vodiysi shaharlari tarixini yoritish masalasi ham dolzarb masalalardan biridir.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston shaharlari taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar doirasida shaharlar taraqqiyotiga alohida e’tibor qaratildi. O‘zbekistonda ilk bor «Shaharsozlik kodeksi»[1] qabul qilindi, deyarli har bir yirik shaharning qurilish rejasi ishlab chiqildi. Shaharlarning rivojlanish istiqbolini belgilashda ularning o‘tmishini chuqur o‘rganish, rivojlanish an’analarini tiklash, mavjud muammolarning sabab va oqibatlarini aniqdash nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhim vazifaga aylandi. Shu o‘rinda O‘zbekiston shaharlari tarixida alohida iz qoldirgan XIX-XX asr boshlari Farg‘ona vodiysi shaharlarida ko‘p asrlik tarixiy an’analarning izdan chiqishi, deurbanizatsiya jarayonlarining sodir bo‘lishi ushbu muammo sabablarini, bunga ta’sir qilgan omillarni o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Aynan shu xolat ya’ni XIX–XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi hududida an’anaviy shahar madaniyati

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Шаҳарсозлик кодекси. - Тошкент, 2015. - 112 б.

tanazzulining sabablarini, unga ta’sir etgan omillarni aniqlash zaruriyati mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Mazkur monografiyada yozma manbalar, ilmiy adabiyotlar, arxiv hujjatlari o‘sha davrda yashab tarixiy jarayonlarni kuzatgan sayyohlar va harbiylarning xotira hamda esdaliklari hamda, etnografik tadqiqotlar tahlili asosida Farg‘ona vodiysi shaharlarining XIX–XX asr boshlaridagi tarixiy-geografik tasnifi va iqtisodiy hayoti, vodiy shaharlarining Qo‘qon xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotida  tutgan o‘rni, shaharlarning geografik o‘rni, tuzilishi va shaharsozlik an’analari, shaharlarning boshqaruv tizimi, aholi tarkibi va mashg‘ulotlari, shaharlardagi urabanizatsion o‘zgarishlar, “Yangi shahar”larning vujudga kelishi,  shaharlarning ichki va tashqi savdoda tutgan o‘rni tahlil etib berildi.

Mazkur monografiya ”Madaniy meros yodgorliklarini saqlash va ulardan foydalanish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni Arxeologiya meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi” Farmoni, 2018 yil 18 yanvardagi F-5881-sonli “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoyishida ko‘rsatilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2019 yil 5 yanvardagi 222-x topshirig‘i asosida “O‘zbekiston tarixini o‘rganish ishlarini samarali” tashkil etishga qaratilgan “Yo‘l xaritasi”ning IV bo‘lim, 23-bandida “O‘zbekiston shaharlari tarixi”ni tayyorlash uchun belgilangan vazifalarni ma’lum darajada bajarilishiga xizmat qiladi.

Mavzuni o‘rganish va uni ilmiy asosda yoritishda Farg‘ona vodiysi shaharlari tarixini manbalar asosida haqqoniy o‘rganish

tamoyiliga qat'iy amal qilgan holda monografiyada muammoni yangi tarixiy tafakkurning kontseptual nuqtai-nazaridan idrok etish, statistik, qiyosiy, arxiv materiallari va mavjud ilmiy adabiyotlarni tahliliy-ilmiy solishtirma tadqiqot usulidan keng foydalanildi. Asar mavzu doirasida erishilgan tajribalar va so‘nggi yutuqlar asosida yaratildi.

Monografiyani nashrga tayyorlash ishlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida bajarildi va bu jarayonda o‘zlarining yordamlarini ayamagan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi ilmiy jamoasiga, kitobni nashrga tayyorlash jarayonida o‘z ilmiy maslahatlarini bergan marhuma ustozim  tarix fanlari doktori, professor Ziyaeva Dono Hamidovnaga cheksiz ehtiromimizni bildiramiz.

Ushbu asar Farg‘ona vodiysi shaharlari tarixi va ularning rivojlanish bosqichlari va tarixiy asoslari bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan bo‘lib, shubhasiz ayrim xato va kamchiliklardan ham xoli emas, albatta.

Muhtaram zukko va sinchkov kitobxonlar, ushbu kitob bilan yaqindan tanishib chiqib, o‘zlaringizning xolisona fikr va mulohazalaringizni bildirasizlar, deb umid qilib qolamiz.

# BIRINCHI BOB

# XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA FARG‘ONA VODIYSIDA SHAHAR MADANIYATI (1800–1865 yy.)

## 1.1. Mavzu tarixshunosligi va manbashunosligi

Farg‘ona vodiysi shaharlarining XIX–XX asrning boshlaridagi tarixi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga doir manbalar, arxiv materiallari, ilmiy adabiyot hamda tadqiqotlarni davriga qarab turkumlashtirgan holda ko‘rib chiqib, quyidagi guruhlarga bo‘lindi: 1. XIX asrda Qo‘qon xonligi tarixi bo‘yicha mahalliy muarrixlarning asarlari. 2. Rossiya imperiyasi hukmronligi davriga oid tadqiqotlar va arxiv ma’lumotlari. 3. Sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar va nashr etilgan asarlar. 4. Mustaqillik yillarida mavzuga doir nashr etilgan tadqiqotlar. 5. Xorijlik mualliflarning asarlari.

**Birinchi guruhga** Qo‘qon xonligi tarixi bo‘yicha mahalliy muarrixlardan Muhammad Fozilbek[1], Mahmud Hakim Yayfoniy[2], Niyoz Muhammad ibn Ashur Muhammad Ho‘qandiy[3], Ishoqxon Ibrat[4], Muhammad Solih Qori Toshkandiy[5], Muhammad Rizo Marg‘iloniy[6], Muhammad Yunus Toyib[7], Mulla Abdulg‘ofur[8], Abu

---

[1] Муҳаммад Фозилбек. Мукаммали тарихи Фарғона / Qo‘lyozma. O‘zR FASHI. – № 5971. 28ª - varaq.

[2] Маҳмуд Ҳаким Яйфоний. Тарихи салотини Фарғона / Qo‘qon shahar o‘lkashunoslik muzeyi. – №46. – 89 varaq.; Yana qarang: Турдалиев Л. Маҳмуд Ҳаким Яйфоний адабий ва илмий меросининг манбалари. Фил. фан. номз. дис.... автореф. – Тошкент: А. Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти, 1997. – 24 б.

[3] Мулла Ниёз Муҳаммад Ҳўқандий. Тарихи Шоҳруҳий / Qo‘lyozma. O‘zR FASHI. – №78. – №4463. – 365 varaq. Yana qarang: Бейсембиев Т. К. «Тарихи Шохрухи» о Восточном Туркестане / Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана в V–XIX вв. – Ташкент, 1987. – С. 162–174; O‘sha muallif: «Тарихи Шохрухи» как исторический источник. – Алма-Ата: Наука, 1987. – 200 с.

[4] Исоҳоқон Ибрат. Тарихи. Фарғона / Qo‘lyozma. O‘zR FASHI. – № 11616. 1б–76-varaqlar.

[5] Муҳаммад Солихҳўжа ибн Қорахўжа. Тарихи жадидаи Тошканд / Qo‘lyozma. O‘zR FASHI. – № 5732. – 747 varaq.

[6] Муҳаммад Ризо Марғилоний. Тарихий Азизий / Qo‘lyozma. O‘zR FASHI. – №11108. – 120 varaq.

[7] Муҳаммад Юнус Тойиб. Тарихи Алиқули амир лашкар / Qo‘lyozma. O‘zR FASHI. – №1213 б. – 92 varaq.; Муҳаммад Йунус Хаджа б. Муҳаммад Амин-Хаджа. Туҳфа-йи Таиб // Islamic Area Studies Project Central Asian research Series. – № 6. – Ташкент-Токио, 2002. – С. 32.

[8] Мулла Абдулғофур. Зафарномаи Худоёрхоний / Qo‘lyozma. O‘zR FASHI. – № 598 б. – 65 varaq.

Ubaydulloh Toshkandiy[1], Mulla Olim Maxdum Hoji[2], Mirzo Olim ibn Mirzo Rahim Toshkandiy[3], Avaz Muhammad Attor Xo‘qandiylarning[4] asarlarini misol sifatida keltirish mumkin.

**Ikkinchi guruh adabiyotlari,** ya’ni Rossiya imperiyasi hukmronligi davriga oid tadqiqotlarga V.V. Bartold[5], A. Kun[6], V.P. Nalivkin[7], M. Mixaylov[8], N. Veselovskiy[9], M. Galkin[10],

---

1 Урунбаев А. Неизвестная рукопись по истории Кокандского ханства // Известия АН УзССР. Серия общественных наук. – Ташкент, 1957. – №3. – С. 33–38.

2 Мулла Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон / Нашрга тайёрловчи Т. Алимардонов, Н. Абдул Ҳаким. – Қарши: Насаф. 1992. – 148 б.; Мирзо Олим Маҳдум Хожи. Тарихи Туркистон / Маъсул муҳаррир З. Чориев, сўзбоши ва изоҳлар Ш. Воҳидовники, араб тилидан табдил Ш. Воҳидов ва Р. Холиқованики, кўрсаткичлар Ш. Воҳидов ва Д. Сангированики. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2008. – 242 б.

3 Мирзоолим Мушриф. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин / Нашрга таёрловчи А. Матғозиев, М. Усмонова. – Тошкент, 1995. – 128 б.; Мирза Алим ибн Мирза Раҳим Тошканди. Ансаб ус-салатин ва таварих ал-хавакин / Введение Ш. Ваҳидова; перевод текста, примечания, указатели и послесловия С. Юлдашева. История Узбекистана а арабографических источниках. Том I. – Ташкент, 2007. – 254 с.

4 Ромодин В. А. Новый источник по истории Кокандского ханства // Проблемы востоковедения. – 1959. – № 3. – С. 10–17; Набиев Р. Уникальный источник по истории Кокандского ханства // Общественные науки в Узбекистане. – № 4. – С. 33–39; Воҳидов Ш. Аваз Мухаммад Аттор Ҳўқандий. Тарихи жахоннамойи // Шарк юлдузи. – 1991. – №8. – Б. 119–140; O‘sha muallif:: О двух редакциях сочинения Аваз Мухаммада Аттара Хуканди / Адабий мерос. – Тошкент, 1989. – С. 31–36.

5 Бартольд В. В. История Туркестана. Конспект лекций // Сочинения. Т.II. – М., 1963. – С. 217–288; O‘sha muallif: Туркестан / Сочинение. – М., Наука, 1963. Т.III. – С. 518–520; O‘sha muallif: Туземец о русском завоевании / Сочинение. – Москва, 1964. Т. II. Ч.2. – С. 333–350; O‘sha muallif: Бабабек / Сочинения. – М.: Наука, 1964. Т. II. Ч. 2. – С. 501–502; O‘sha muallif: Авлия Ата / Сочинения. – М.: Наука, 1965. Т. III. – 340 с.; O‘sha muallif: Ак–Мечеть / Сочинения. – М.: Наука, 1965. – Т. III. – С. 314–317; O‘sha muallif: Коканд / Сочинение. – М.: Наука, 1965. Т.III. – С. 462–466; O‘sha muallif: Маргилан / Сочинения. Т. III. – М., 1965. – С. 481–484; O‘sha muallif: Курама / Сочинения. Т. III. – М., 1968. – С. 552–553; O‘sha muallif: История Коканда и Ферганской долины / Сочинения. Том III. – М., 1965. – С. 462–466; O‘sha muallif: История изучения Востока в Европе и России / Сочинения. Т. VII. – М.: Наука, 1971. – 663 с.

6 Кун А. Некоторые сведения о Ферганской долине // Военный сборник. – Санкт-Петербург, 1876. – № 4. – С. 417–448; O‘sha muallif: Очерк Кокандского ханства // ИРГО. – 1876. – Т. VIII. – С. 59–70.

7 Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. – Казань: Типография императорского Университета, 1886. Т. IV. – 215 с.; O‘sha muallif: Туземцы. Раньше и теперь / Издание А. Л. Кирснера. – Ташкент: Электрич. Типо-лит. «Турк. Т-ва Печатного Дъла», 1913. – 144 с.

8 Михайлов М. Поход в Коканд в 1875 г. // Туркестанские ведомости. – 1884. – №3, 10, 11, 12, 13; O‘sha muallif: Наманган (город в Кокандском ханстве) / ТС. Том 16. – С. 68–73.

9 Веселовский Н. Прием в России и отпуск Среднеазиатских послов в XVII и XVIII столетиях. – Санкт-Петербург, 1884; O‘sha muallif: Бадаулет Якуб-бек Аталик Кашгарский. – Санкт-Петербург: Императорская Академия Наук, 1898. –103 с.; O‘sha muallif: Киргизский рассказ о русских завоеваниях в Туркестане крае / Текст, перевод и приложения. – Санкт-Петербург: Паровая скоро печатания П. О. Яблонского, 1894. – 206 с.; O‘sha muallif: Новые материалы по истории кокандского ханства // Журнал министерства и народрого просвещения, 1886. Ч. 248. – С. 11–13.; O‘sha muallif: Рец. на кн. «Краткая история Кокандского ханства» / Составил В. Наливкин. Ч. VI. – Казань, 1886. – 215 с.

10 Галкин. М. Краткая записка об исторических правах России на Кокандские города Туркестан и Ташкент / Туркестанский сборник. Т. 21. – С. 257–258.

Abulsattarxan Gafarov[1], N.N. Pantusov[2], A.I. Dobromislov[3], A.K. Geyns[4], A. Vamberi[5], A. Maksheyev[6] va A.P. Xoroshxin[7] asarlardan iborat.

Ushbu guruh adabiyotlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur manbalar asosan, Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, harbiy tarix, vodiyning hududiy bo‘linishi, tarixiy ma’lumotlar, xonlikdagi ichki hayot, soliq tizimi, siyosiy tarix, umuman olganda, Rossiya imperiyasi ma’murlarini qiziqtiruvchi boshqa ko‘plab ma’lumotlar qatorida shaharlar tarixiga oid faktlarning keltirilishi bilan alohida ahamiyatga ega.

**Uchinchi guruh adabiyotlarini** Sovet davrida chop etilgan asar va tadqiqotlar tashkil etadi. Ushbu tadqiqotlarda Farg‘ona vodiysining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli hamda uning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishining oqibatlari kommunistik mafkura ruhida tasvirlangan. Shuningdek, Rossiya imperiyasi davrida Farg‘ona vodiysidagi shaharlar haqida ma’lumot beruvchi F.A. Ozodayev[8], I. Azimov[9], V.A. Akramov[10], V. Galiskiy va V.

---

[1] Гафаров Абдул Саттар-хан. Краткий очерк о внутреннем состоянии Кокандского ханства перед завоеванием его русскими // Вестник Русского Географического общества. Ч. 3. 1856. – С. 47–75.
[2] Пантусов Н. Н. О «Тарихи Шахрухи» и других рукописях Кокандского ханства. // Туркестанские ведомости. – 1876. – №.28, 30, 37; O‘sha muallif: Податные сборы в Коканде // Туркестанские ведомости. 1876. – №17.
[3] Добромыслов А. И. Ташкент в прошлом и настоящем. – Ташкент, 1912, Вып. 6. Главы I–II. – С. 1–59.
[4] Гейнс А. К. Управление Ташкентом при Кокандском владычестве. К характеристике администрации среднеазиатских городов / Собрание литературных трудов. – Санкт-Петербург, 1899. Т.П. – С. 413–536.
[5] Вамбери А. Очерки о Средней Азии. – М., 1886. – 365 с.
[6] Макшеев А. Исторический обзор Туркестана и наступательного движения в него русских. – СПБ., 1890. – 376 с; O‘sha muallif: Показания сибирских казаков Милюшина и Батыришкина, бывших в плену у кокандцев с 1849 по 1852 гг. // Вестник Русского Географического общества. – Ч. 17 (II). – СПб., 1856. – С. 20–32.
[7] Хорошхин А. П. Сборник статей, касающиеся Туркестанского края. – Санкт-Петербург, 1876. – 532 с.
[8] Азадаев Ф. А. Ташкент во второй половине XIX в. / Очерки социально-экономической и политической истории. – Ташкент: Изд-во Ан УзССР, 1959. – 242 с.; O‘sha muallif: Тошкент тарихидан очерклар. – Тошкент: Ўзфанакаднашр, 1960. – 268 б.
[9] Азимов И. Фарғона водийсининг архитектура ёдгорликлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1986. – 71 б.
[10] Акрамов В. А. Қўқон шаҳрининг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти (XIX асрнинг II ярми ва XX асрнинг бошлари). – Тошкент: Ўз ФА Тарих институти. 1973. – 220 б.; O‘sha muallif:

Ploskix[1], S.M. Krukovskaya[2], A. Muxtorov[3], V.A. Nil'sen[4], M. Rahimov[5], G. Toshpoʻlatov[6] hamda I. Toʻxtasinov[7] larning tadqiqotlarini alohida qayd etish joiz.

**Toʻrtinchi guruh adabiyotlarini** mustaqillik yillarida tadqiqot mavzusining ayrim jihatlariga bagʻishlangan asarlar, ilmiy maqolalar, chop etilgan manbalar, ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi.

Oʻzbekistonda mustaqillik yillarida O. Abdullayev[8], H. Bobobekov[9], D. Sangirova[10], D. Ziyaeva[11], G. Agzamova[12], J. Ismoilova[13] S. Shadmanova[14], Sh. Vohidov va R. Xoliqova[15], T. Bobomatov[16], M. Jabborov[17], S. Gubayeva[18], Y. Qosimov[19], M.

---

Развитие города Коканда во второй половине XIX – начале XX вв. / История Коканда. – Ташкент: Фан. – С. 5–41.

[1] Галицкий В., Плосских В. Старинный Ош. – Фрунзе: Илим, 1987. – 175 с.

[2] Круковская С. М. Встречи с Кокандом. – Ташкент: Узбекистан, 1977. – 171 с.

[3] Мухтаров А. Очерк истории Ура-Тюбинского владения в XIX в. – Душанбе: Изд-во АН Тадж. ССР, 1964. – 186 с.

[4] Нильсен В. А. У истоков современного градостроительства Узбекистана (XIX – начало XX веков). – Ташкент: Фан, 1988. – 208 с.

[5] Рахимов М. История Ферганы. – Ташкент: Фан, 1984. – 121 с.

[6] Ташпулатов Г. Социально-экономическая и культурная жизнь г. Ферганы в конце XIX – начале XX в. Дисс... канд. ист. наук. – Ташкент: Институт истории АН Узбекистана, 1980. – 172 с.

[7] Тўхтасинов И. Коканд. – Ташкент, 1959. – 52 с.

[8] Абдуллаев О. Наманган вилояти. – Наманган, 1995. – 148 б.

[9] Бабабеков Х. Н. История завоевания Средней Азии Царской Россией в секретных документах. – Ташкент, 2006. – 70 с.; Oʻsha muallif: Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – 240 б.

[10] Сангирова Д. Муҳаммад Азиз Марғилонийнинг “Тарихи Азизий” асари – муҳим манба: Тарих. фан. номз. дисс.... – Тошкент: ЎзР ФАШИ, 1999. – 162 б.

[11] Зияева Д. Ҳ. XIX асрнинг сўнгги чораги – XX аср бошида Фарғона водийсида “янги” ва “эски” шаҳар муаммоси // Ozbekiston tarixi. – 2012. – №3–4. – Б. 22–23; Oʻsha muallif: Ўзбекистон шаҳарлари. – Тошкент: Yangi nashr, 2017. – 440 б.

[12] Агзамова Г. А. Ўзбекстон шаҳарлари XVI–XIX асрнинг ўрталарида. – Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2017. – 228 б.

[13] Исмаилова Ж. Ҳ. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX бошида Тошкентнинг “Янги шаҳар” қисми тарихи. – Тошкент, 2004. – 258 б.

[14] Шадманова С. Б. Ўзбекистон шаҳарларида трансформация жараёнлари (1917–1941). – Тошкент, 2015. – 333 б.; Oʻsha muallif: Туркистон тарихи – матбуот кўзгусида. – Тошкент, 2011. – 255 б.

[15] Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиё давлатларида бошқарув тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 80 с.

[16] Бобоматов Т. М. Репрессивные органы как инструмент колониальной политики царской России в Туркестане (1865–1917 гг.): Автореферат дисс... канд. ист. наук. – Ташкент: НУУ, 2008. – 28 с.

[17] Жабборов М. Р. Фарғона вилояти тарихининг “Туркестанский сборник”да ёритилиши (XIX аср охири – XX асрнинг бошлари): Тарих фан. номз. дисс. – Фарғона: Фарғона давлат университети, 2000. – 159 б.

[18] Губаева С. С. Население Ферганской долины в конце XIX – начале XX в. – Ташкент: Фан, 1991. – 130 с.

[19] Қосимов Й. Қўқон хонлиги тарихи очерклари (1709–1876). – Наманган-Тошкент, 1994. – 135 б.

Yusupova[1], Sh. Qo‘ldoshev[2] hamda U. Mansurov[3] kabi mualliflarning asarlari yaratildiki, ularda Farg‘ona vodiysi shaharlarinig o‘tmish tarixi va bugungi kuni xususida ayrim qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Shuningdek, O‘zbekistonning boshqa shaharlari tarixini tadqiq etilgan ishlarni ham qiyosiy tahlil etish maqsadida keltirish mumkin[4].

**Xorijlik mualliflarning** tadqiqotlari, xususan, K. Beysembiyev[5], M. Saray[6], Kim Xondong[7], S.S. Soodanbekov[8], M. Xoldsvort[9], N. Terleskiy[10] va D.B. Saparaliyevlar[11]ning ishlarining ahamiyati katta.

**Tadqiqotning manbaviy** asoslarini mahalliy muarrixlarning asarlari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivida (bundan keyin O‘zMA) saqlanayotgan hujjatlar, Abu Rayhon Beruniy nomidagi

---

[1] Юсупова М. Полвека трансформации архитектуры Узбекистана. На примере «новых городов» Ферганской долины конца XIX – начала XX в. – Ташкент, 2005. – 176 с.

[2] Қўлдошев Ш. Т. Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон: сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар. – Тошкент: Фан, 2021. – 254 б.

[3] Мансуров У. У. 1917–1924 йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент: ЎзР ФА Тарих институти, 2018. – 134 б.

[4] Ҳасанов А. Қашқадарё воҳаси шаҳарсозлиги ва меъморчилиги (XVI–XIX асрлар). Монография. – Қарши, 2019. – 137 б; Ирисқулов О. Ж. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Самарканд шаҳрида ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2019. – 55 б.; Эштемиров Ж. С. XX–XXI аср бошларида Қарши шаҳар маданияти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – 52 б; Перемкулов Ж. А. XX аср ўрталари – XXI аср бошларида Тошкент вилояти саноат шаҳарлари тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. – 48 б.

[5] Бейсембиев Т. К. Духовенство в политической жизни Кокандского ханства в XVIII–XIX вв. по некоторым сочинениям Кокандской историографии / Духовенство и политическая жизнь на Ближнем и Среднем Востоке в период феодализма. – М., 1985. – С. 213–214. O‘sha muallif: Легенда о происхождении Кокандских ханов как источник по истории идеологии в Средней Азии. – Алма-Ата: Наука, 1989. – 192 с.; O‘sha muallif: «Тарихи Шахрухи» – как исторический источник. – Алма-Ата: Наука, 1987. – 200 с.; O‘sha muallif: Высшая администрация юга Казахстана в период Кокандского ханства 1809–1865 гг. – Алматы: Дайк-Пресс, 2004. – С. 291–313.

[6] Saray M. Rusiyanin Turk yurdlarina yayilmasi. – Istanbul, 1975. – 35 s.; O‘sha muallif: Rus isgali devrinda Osmanli devleti ile Turkistan hanliklari arasindeki siyasi munasabetler (1775–1875). – Ankara, 1994. – 74 s.

[7] Kim Hondong. Holy War in China. The Muslim Rebellion and State in Chinese Central Asia. 1864–1877. – Stanford, 2004. – 295 p.

[8] Сооданбеков С. С. Общественный и государственный строй Кокандского ханства. – Бишкек, 2000. – 144 с.

[9] Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century / A Brief History of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – Oxford, 1959. – 80 p.

[10] Терлецкий Н. Некоторые сведения о ранных работах по истории Хуканда // Международный журнал для исследований в области восточных рукописей. – Санкт-Петербург, 2005. Т.11. – №1. – С. 3–9.

[11] Сапаралиев Довлагбек Бекиш улу. Этнополитическая история Оша и его окрестностей с XVIII до середины XIX вв. – Бишкек: Илим, 1999. – 144 с.

O‘zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasi (bundan buyon O‘zRFASHI), O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros ob’ektlarini Muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish Bosh boshqarmasining joriy arxivi[1] hamda uning Farg‘ona vodiysidagi bo‘limlari joriy arxivlaridan, Qo‘qon Adabiyot muzeyi fondi, Qo‘qon O‘lkashunoslik muzeyi fondi, “Turkestanskiy sbornik” to‘plamidagi materiallardan[2], “Turkestanskiy vedomosti”, “Turkiston viloyatining gazeti” maqolalaridan hamda muallifning dala yozuvlari materiallari tashkil etadi.

Tadqiqot ishiga oid manbalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. Arxiv hujjatlari.

2. E’lon qilingan hujjatlar, rasmiy statistik ma’lumotlar.

3. Qo‘qon xonligida bo‘lgan yevropalik va rossiyalik sayohatchilar, olimlar, harbiylarning esdaliklari

4. Davriy matbuot materiallari.

**Birinchisi**, manbalarning birinchi guruhiga arxiv hujjatlari kiritilgan bo‘lib, ular muhim ahamiyatga ega. Zero, gazeta va jurnallardagi maqolalar ustidan senzura o‘rnatilib, tarixiy haqiqatni buzib qo‘rsatilgan bir davrda arxiv hujjatlarida real voqelikni aks ettiruvchi dalillar saqlanib qolgan. Tadqiqotda O‘zbekiston

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос объектларини Муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий-ишлаб чиқариш Бош бошқармасининг жорий архиви. Тошкент, Хўжанд, Ўратепа ва Фарғона водийсидаги турли меъморий обидаларга бағишланган илмий-тадқиқот, реконструкция ва таъмирлаш бўйича олиб борилган расмий-меъёрий ҳужжатларидан фойдаланилди.

[2] “Туркестанский сборник” тўпламидаги қуйидаги мақолаларидан фойдаланилди: Аристов Н. Наманганский округъ Кокандского ханство. Т.60. – С.139-140; Вельяминов-Зернов В.В. Исторические известия о Кокандском ханстве, отъ Мухаммеда-Али до Худояръ-Хана.Т.372.– С.154-172[a]; Галкинъ М. Краткая записка об исторических правах России на Кокандские города Туркестан и Ташкент. Т. 5. – С. 252-259; Гребенкинь А. Мингъ.Т.95. – С.331-336; Межов В.И. Собрание сочинений о Туркестанском крае вообще и сопредельных с ним странъ Средней Азии; Шу муаллиф. Топографический очерк Туркестанского края. Т. 57. – С.6-110,185-186, 213-218; O‘sha muallif: Мусульманские училище Туркестанского края. Т. 87. – С.120-125; Шу муаллиф. Наманган.Т. 222. – С. 69-73; Шу муаллиф. Очерки Коканда. Т. 116. – С. 39-53; O‘sha muallif: Очерки Кокандского ханства. Т. 76. – С.1-19; O‘sha muallif: Податная система в Туркестанском крае. Т. 152. – С.38-126; Роселъ Ю. Среднеазиатская культура и наша политика на востоке. Т. 222. – С.1-33;

Respublikasi Milliy arxivi (O‘zR MA) quyidagi fondlarida ish olib borildi.

O‘zRMAning I.1 (Turkiston general-gubernatorligi kantselyariyasi fondi), I.19 (Farg‘ona viloyati boshqarmasi fondi), I.17 (Sirdaryo viloyati boshqarmasi fondi), I.23 (Farg‘ona viloyati Skobelev uyezdi boshlig‘i boshqarmasi fondi), I.25 (Farg‘ona viloyati Andijon uyezdi boshlig‘i boshqarmasi fondi), I.300 (Farg‘ona viloyati Qo‘qon uyezdi boshlig‘i boshqarmasi fondi), I.329 (Farg‘ona viloyati Namangan uyezdi boshlig‘i boshqarmasi fondi), I.276 (Farg‘ona viloyati harbiy gubernatorining kantselyariyasi fondi), I.336 (Turkiston harbiy gubernatorining kantselyariyasi fondi ), I.715 (Turkiston o‘lkasining zabt etilishi tarixiga oid materiallar to‘plami) va shuningdek, Qo‘qon shahar o‘lkashunoslik muzeyi fondi materiallaridan unumli foydalanildi.

Manbalarning **ikkinchi** guruhini o‘rganilayotgan davrda e’lon qilingan turli hujjatlar va “Nizom”lar va ularning loyihalari[1], hisobot va ma’ruzalar[2], statistik ma’lumotlar[3], o‘lkada olib borilgan taftish komissiyalarining hisobotlari[4] tashkil qiladi.

---

[1] Временное положение об управлении Туркестансого области // Полное собрание законов Российской империи. Т. XL. 1865. Лл. 41647-42509. – Санкт-Петербург, 1867; Проект положения об управлении в Семиречинской и Сырдаринской областей. – Санкт-Петербург, 1867; Проект временного положения об управлении Туркестанским краем. – Санкт-Петербург, 1888; Положение об управлении Туркестанского края (12 июля 1886 г.). – Санкт-Петербург, 1888; Положение об управлении Туркестанском краем с указаниями, решениями Сената, инструкциями. – Ташкент, 1903; Положение об управлении Туркестанского края с разъяснеиями правительствующего Сената. – Ташкент, 1916 ва б.

[2] Поект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П. Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генарал-губернаторства 7 ноября 1867 – 25 марта 1881 гг.//Составлен титулярным советником П.Хомутовым. – Санкт-Петербург, 1885; Всеподданнейший отчет по Туркестанскому генарл-губернаторству 1889-1895 гг. – Санкт-Петербург, 1895; Всеподданнейший доклад Туркестанского генарал-губернатора генерала от инфантерии Духовского / Ислам в Туркестане. - Ташкент, 1899; Переселенческое дело ва Туркестанском крае (области Сыр-Дарьинской, Самаркандской и Ферганской). Отчет о служебной поездке в Туркестан осенью 1910 г. Чиновника особых поручений при переселенческом управлении Н. Гаврилова. – Санкт-Петербург, 1911

[3] Сборник законов и распоряжений по преселенческому делу и землеустройству в губерниях и областях Азиатской России. – Санкт-Петербург, 1907; Терентьев М.А. Статистические очерки Среденеазиатской России // Записки РГО. Отд. Статистики. – Санкт-Петербург, 1874. Т. IV.

[4] Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный сенатором тайным советником Гирсом, командированным для ревизии края по высочайшему повелению. В двух частях. – Санкт-Петербург, 1888; Отчеть по ревизии Туркестанского края, произведенной о высочайшему

**Uchinchi** guruh manbalar turkumini mazkur davrda O‘rta Osiyo davlatlari xususan Qo‘qon xonligida bo‘lgan yevropalik va rossiyalik sayohatchilar, olimlar, harbiylarning esdaliklari, hisobot va qaydlari tashkil qiladi.

**To‘rtinchi** guruh manbalarni yuqorida ko‘rsatilgan mahalliy mualliflarning asarlari, o‘lkada chop etilgan gazeta va jurnallarning materiallari[1] tashkil qiladi.

## 1.2. Qo‘qon xonligining ma’muriy, hududiy boshqaruv tizimi, shaharlar va aholi

XVIII asr oxirlarida Qo‘qon xonligining hududi faqatgina Farg‘ona vodiysidan iborat edi. Farg‘ona vodiysi esa qulay iqlim va tabiiy geografik mintaqada joylashgan bo‘lib, uning hududi 22,2 ming $km^2$, tog‘li hududlar bilan birga 80 ming $km^2$, sharqdan g‘arbga tomon uzunligi 300 km., shimoldan janubga qadar ba’zan 170 km.ni tashkil qilgan[2]. Ushbu davrda Qo‘qon hukmdori Norbo‘tabiy vodiydagi barcha beklik, shahar va viloyatlarni bosib olib, ularni o‘z davlatiga bo‘ysundirdi. Uning davrida Andijon va Marg‘ilon viloyatlari hamda Qo‘qon hududlari vodiydagi eng katta mulklar hisoblanar edi.

Norbo‘tabiydan so‘ng uning o‘g‘li Olimxon (1798–1810 yy.) taxtga o‘tirib, Qo‘qon xonligining siyosiy qudratini mustahkamlash va mamlakat hududlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratgan. Natijada, Qo‘qon xonligining siyosiy mavqei oshib borgan. Olimxon davriga kelib, Qo‘qon xonligidagi davlat boshqaruvi oldingi ma’muriy tizimdan deyarli farq qilmas edi. Uning davrida

---

повелению Сенатором Гофмейстером Графом К.К. Паленом. – Санкт-Петербург: Сенатская типография, 1910.

[1] Булар Туркистон вилоятининг газети. 1871.-№ 1, 1875.-№ 27, 29; 32; 1876. -№ 10, 11; 31, 33; 1889. -№ 47; 1890-№ 43; 1910. -№ 9, 22, 27, 31, 64, 81; 1911. -№ 19, 1912.-№ 40; Туркестанские ведомости,1876 - №.17, 28,30,37 ; 1877.– № 6; 1884.– № 3,10,11,12,13. 1900.– № 103,104; Русский Туркестан. 1898. -№ 5, 24; 1899. – № 49; Туркестанский курьер. 1914.- № 12, 23 davriy matbuotdan olingan maqolalardir.

[2] Масалький В. И. Туркестанский край / Россия: Полное географическое описание нашего отчества. – Санкт-Петербург, 1913. – С. 31.

xonlik harbiy va siyosiy jihatdan kuchayib borishi bilan davlatning siyosiy maqomi ham oʻzgargan. Agar xonlikning dastlabki hukmdorlari “biy” va “bek” unvoni bilan mamlakatni idora qilgan boʻlsalar, Olimxon davridan boshlab (1805 yil) hukmdorlar rasman “xon” deb yuritila boshlandi[1].

Oʻz davrida Olimxon harbiy yurishlar qilib, oʻziga yangi viloyatlar, shu jumladan, Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent va Turkistonni boʻysundirishga muvaffaq boʻldi. Qisqa muddat Oʻratepani ham egalladi, Jizzax va Zominga ham yurishlar qildi.

Manbalarga qayd etilishicha, Umarxon (1810–1822 yy.) hukmronligi davrida yirik yer egalari, harbiy sarkardalar va ruhoniylarning mavqei yanada oshadi. U davlat boshqaruvi ishlarida izchil tartib va qonun-qoidalar oʻrnatdi hamda diniy ishlarni tartibga soldi. Natijada, 1818-yilga kelganda Umarxon ruhoniylarnng roziligi bilan “amir al-muslimin” unvonini olib, ham diniy, ham dunyoviy hokimiyatga ega boʻldi[2].

Muhammad Hakimxonning bergan ma’lumotlariga koʻra, Umarxon davrida Amir Temur va Sulton Husayn Boyqaro zamoniga taqlidan unvon hamda lavozimlar joriy etilib, ularga hokimiyatga yaqin shaxslar tayinlangan. Shuningdek, Olimxon zulmidan qochib ketgan ayrim amaldorlar Umarxon xizmatiga qaytib kelib, yangi lavozimlarni egallagan[3].

Manbalarning guvohlik berishicha, Qoʻqon xonligining Oʻrta Osiyo mintaqasidagi siyosiy jarayonlar va oʻzaro munosabatlarga faol aralashuvi ham Umarxon davridan boshlangan. Oʻz davrida Umarxonning elchilari Xiva, Xitoy va Turkiya davlatlariga joʻnatilganligi ma’lum.

---

[1] Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. – Тошкент, 2012. – Б. 308.
[2] Бабаджанов Б. М. Кокандское ханство..... – С. 136.
[3] Вохидов Ш., Холиқова Р., Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 24.

Rus tarixchisi N. Petrovskiy Umarxon hukmronligi davri haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi: “Umarning xonligi ham oldingi xonlarnikidek davom etdi, ya'ni, u o‘z yerlarini kengaytirdi. Bu xon davrida Turkiston viloyati musulmonlarning Hazrat (Sulton al-orifin Ahmad Yassaviy davf etilgan Turkiston) shahri bilan birga zabt etildi. Umarxon xalq sevib, ardoqlagan xonlardan biri bo‘ldi[1].

1822 yilda Umarxon kasallanib, vafot etganidan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Muhammadalixon (Madalixon) (1822–1841 yy.) o‘tiradi. Uning hukmronligi davrida Qo‘qon honligining hududi yanada kengayib, qirg‘izlarning ba'zi tumanlari xonlikka qo‘shib olingan hamda Ko‘lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz va Maschoh kabi viloyatlar Muhammadalixon hukmronligini tan oladilar.

Manbalarga ko‘ra, Muhammadalixon hukmronligining dastlabki yillari yaxshi va odilona kechgan. U 1826 –1831 yillar davomida Qashg‘arga yurishlarni amalga oshirib, bu yerdagi musulmonlarni xitoyliklar zulmidan ozod qiladi hamda 70 ming nafar uyg‘ur musulmonlarini hozirgi Andijon viloyati hududiga ko‘chirib keltiradi. Natijada, din peshvorlari Muhammadalixonga “G‘oziy (“din homiysi”, “din yo‘lida kurashuvchi”)” unvonini beradilar.

Umuman olganda, XIX asrning o‘rtalariga kelib, Qo‘qon xonligida siyosiy jarayonlar hamda ichki ahvol yanada og‘irlashgan edi. So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, buning sababi birinchidan, o‘troq aholi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi bo‘lgan qipchoqlar hokimiyatni tan olmaganlar. Xonlik hududlaridagi ba'zi viloyat hukmdorlari Musulmonqulga qarshi chiqqanlar. Ikkinchidan, hokimiyatda yuqori mavqeni egallash hamda xonga ta'sir o‘tkazish uchun qipchoqlar orasida ham o‘zaro kurashlar borar edi. Ushbu kurashlarda qipchoqlarning qulon urug‘idan bo‘lgan Musulmonqul ham faol ishtirok etgan. Uchinchi sababi, qipchoqlarning o‘troq aholiga nisbatan yuritgan siyosati edi. Qipchoqlar o‘troq aholiga

---

[1] Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи..... – Б. 309.

nisbatan bepisandlik nazari bilan qarab, boshqa elat va etnik guruhlarni kamsitganlar. To'rtinchidan esa, tashqi omil – Rossiya imperiyasining asta-sekinlik bilan xonlik hududlariga bostirib kirishi siyosiy jarayonlarning yanada keskinlashuviga sabab bo'lgan edi[1].

XIX asrda Qo'qon xonligi manbalarda beklik, ba'zan viloyat va sarkorlik sifatida tilga olingan ma'muriy-hududiy qismlarga bo'lingan va ularni xon tomonidan tayinlanadigan mos ravishda beklar, hokimlar hamda sarkorlar boshqargan. Rus tarixchi va sayyohi A. Kun o'z esdaliklarida xonlikdagi 15 ta beklikning nomini keltirgan. Bular: Qo'qon va uning atrofi, Marg'ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So'x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobodarxon. Boshqa manbalarda Asaka, Marg'ilon, Baliqchi, O'sh, So'x, Koson va O'zgan sarkorlik sifatida ham tilga olingan[2]. Hokimlar va hududiy bo'linma boshliqlari xon oilasi a'zolari, unga yaqin guruhlar, yuqori tabaqa vakillari hamda yetakchi qabilalar sardorlari orasidan tayinlangan. Jumladan, Xudoyorxon davrida yettita beklik va sarkorlikni xonning o'g'illari hamda yaqin qarindoshlari boshqargan. O'z navbatida, hokimlar viloyatlar, ushbu hududlardagi shaharlar hamda yirik qishloqlarni o'zining farzandlari va qarindoshlariga bo'lib berganlar[3].

Ba'zi beklik, sarkorlik va viloyatlar xon tomonidan kuchli davlat arboblari yoki mahalliy kuchlarning boshliqlariga ular bilan murosa qilish maqsadida berilgan. Jumladan, kuchli guruh vakili va qabila sardori sifatida Rajab qo'shbegi hamda Muhammad Sharif otaliqning Toshkentga, yuzlar qabilasi vakillarining Xo'jand va O'ratepaga hokim etib tayinlanganligi buning dalilidir[4].

---

[1] Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи... – Б. 118.
[2] Кун А. Некоторые сведения о Ферганской долине / Туркестанский сборник. Т. 117. – С. 169; Туркестанские ведомости. – 1876. – №13.
[3] Туркестанские ведомости. – 1876. – №13.
[4] Бейсембиев Т. К. Тарихи Шахрухи – как исторический источник.... – С. 150–152.

Xonlikning ma’muriy-hududiy boshqaruv tizimida bek (hokim, voliy) va uning o‘rdasi alohida o‘rin egallagan. Xon tomonidan tayinlangan hokim va qozi barcha vakolatlarga ega bo‘lgan, lekin ularning vakolatiga o‘lim jazosini berish kirmagan. Bek o‘rdasida ham xon saroyidagidek yuzlab amal va unvonlar[1] joriy qilingan bo‘lib, ular mahalliy aholidan yig‘iladigan soliq hamda to‘lovlar hisobidan kun kechirgan. Beklikda sarkor aholidan soliq va to‘lovlar yig‘ish, sug‘orish tizimi hamda hashar ishlariga mas’ul amaldor bo‘lgan. Manbalarda sarkorlik hisobidan katta mulklarga ega bo‘lgan shaxslarni ko‘plab uchratish mumkin[2].

Beklar xonning itoatkor vassallari bo‘lib, mamlakatni boshqarishda uni qo‘llab-quvvatlashlari, zarur bo‘lganda unga yordam berishlari, uning hurmat-izzatini joyiga qo‘yishlari, kerakli vaqtda o‘z qo‘shinlari bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishlari va sovg‘a-salomlar yuborib turishlari shart edi[3].

Xonlikda Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg‘ilon, Chimkent, Jizzax, O‘sh, Xo‘jand va O‘ratepa kabi aholisining soni jihatidan katta, bekliklarning markazi hisoblangan hunarmandchilik hamda savdo rivojlangan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘nlab shaharlar mavjud edi. Xonlikning poytaxti Qo‘qon shahri bo‘lib, u mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi edi.

Qo‘qon shahri me’morchilik yodgorliklari bilan ham mashhur edi. Bu borada Qo‘qon shu kunga qadar saqlanib qolgan tarixiy me’mor chilik yodgorliklari bilan Samarqand, Xiva va Buxorodan keyin to‘rtinchi o‘rinda turadi. Ammo, XIX asrda qurilgan binolarni taqqoslasak, Qo‘qon shahri birinchilar qatoriga chiqib olishi mumkin. Ushbu qadimiy shaharda bir nechta hashamatli madrasa, masjid va boshqa binolar mustamlaka hamda sobiq ittifoq davrida

---

[1] Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан.... – Б. 6–21.
[2] Набиев Р. Н. Из истории Кокандского ханства.... – С. 104.
[3] Эшов Б. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи.... – Б. 312.

buzilib tashlandi, ayrimlari vaqtida ta'mirlanmay, vayronaga aylandi. Afsuski, shahar devorlari hozirgi kunga qadar saqlanib qolmagan, vayronaga aylanib yo'q bo'lib ketgan. XX asrning 50 yillarida uning ayrim xarobalari bor edi.

Umuman olganda, Qo'qon shahri devorlari muhim tarixiy yodgorlik vazifasini bajargan. XVIII asr o'rtalarida shahar devori to'rt darvozali edi. Masalan, XVIII asrning birinchi yarmida qalmiqlar Qo'qon shahrini bosib olmoqchi bo'lganlarida, shahar devorining mustahkamligidan shaharga kira olmaganlar. Keyinchalik shahar kengayib, devor buzib tashlanadi. 1842-yili esa shahar atrofida yangi devor barpo etiladi. 1875-yil 16-iyulda polkovnik M. D. Skobelev praporshik Rudakov yordamida Qo'qon shahri devori va uning atroflarini harbiy mutaxassis sifatida qayta o'rganib chiqadi.

Qo'qon shahrini xonning o'zi boshqargan. Velyaminov-Zernovning ma'lumot berishicha, XIX asrning 20-yillarida Qo'qonda 3 mingga yaqin xonadon va oltita bozor, asrning 50-yillarida 8 mingta xonadon, 30 mingga yaqin aholi, 9 ta karvon saroy va 6 ta hammom bo'lgan, deb ko'rsatilsa[1], rus sayyohi A.P. Xoroshxinning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrda shaharda 80 ming kishi yashagan va poytaxtda o'z masjidiga ega 540 ta mahalla mavjud bo'lgan. A. P. Xoroshxin Qo'qon shahri haqida quyidagilarni yozadi: "Qo'qon shahri xalq tomonidan va rasmiy ravishda "Latif" chiroyli deb ataladi. Qo'qon juda tekis joyda joylashgan. Shahar atrofida ariqlar, ekinzorlar va o'rmonlar juda ko'p. Ba'zan ular shahar devorlariga yaqin keladi. Shahar atrofi taxminan 16 verst[2], shaharning uzunligi G'azovliq darvozasidan Marg'ilon darvozasigacha 5 vyorstga yaqin. Shahar 12 darvozasi bo'lgani uchun 12 qismga bo'lingan. Shaharda 540 ta mahalla va

---

[1] Ўзбекистон ССР тарихи. Т.I. – Тошкент, 1970. – Б. 640.
[2] 1 verst 6–7 km. ga teng uzunlik o'lchov birligi.

ularning har birida oqsoqol bo‘lgan. 22 mingta uy bor. Aholisi 80 ming nafar. Shahar bo‘yicha 600 ta masjid bor”[1].

Ba’zi manbalardagi ma’lumotlarga qaraganda, Qo‘qon shahri devorining umumiy ko‘rinishida mustahkam istehkomi yo‘q, ammo aylanasi (diametr, sajen) 1/2 dan oshmaydigan minoralari mavjud. Faqat bir nechtalarigina artilleriyali mudofaa qilish uchun moslangan, xolos. Shahar devorining ba’zi qismlari 1/2 dan 1 arshin[2] gacha bo‘lib, uni qo‘l bilan ham qulatish mumkin edi. Ochiq maydonlari ko‘p edi. Qo‘qon atrofida ikkita g‘ov(to‘siq) bor. Ikkinchisi tashqi himoya vazifasini bajarib, u suv bilan to‘ldiriladi. Arava yo‘li esa 4 sajenni tashkil qiladi.

Istisno sifatida Marg‘ilon darvozasidan shimol tomonga 100 sajencha masofa bo‘lgan. Bu yo‘l tomon daladan chuqur soy o‘tadi. Qolgan ikki g‘ov esa umuman qiyin egallanuvchi bo‘lib qoladi, ayniqsa, tepaliklar qismi va aksincha, past joylarda, soy pastligida bu umuman yo‘qoladi.

1867-yilga oid ma’lumotlarga qaraganda, Qo‘qon shahri aylanasi 16 verst, poytaxtning G‘oziyog‘liq darvozasidan Marg‘ilon darvozasigacha bo‘lgan eng uzun masofasi 5 verstni tashkil qilgan. Shahar 12 ta dahaga bo‘linib, 540 ta mahallani o‘z ichiga olgan. 1842-yilda shahar devor bilan o‘rab olinib, balandligi 6 arshin, qalinligi 3,5 arshin, darvozalar yoni esa 5 va 5,5 arshin bo‘lgan. Keyinchalik ushbu devor ustiga yana qo‘shimcha 4 arshinlik devor qurilgan. Xullas, asosi 1,25 arshin, tepasi esa 0,5 arshin bo‘lgan. Shahar devori atrofidagi tashqi g‘ovning chuqurligi 8, eni esa 6 arshinga teng edi.

Shaharga 12 ta darvoza orqali kirilgan. Bular – Xo‘jand, G‘oznyog‘liq (G‘azovliq), Quduqlik, Sarimozor, Namangan,

---

[1] Хорошхин А. П. Заметки о Коканде // Русский инвалид / ТС. – № 23. – С. 39.

[2] “Arshin” atamasi fors tilidagi “arash” va “oron” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “tirsak (bilak)” ma’nosini anglatadi. 1 arshin – bir qadam (o‘rtacha 70 sm.)ga teng.

Chimyon, So‘x, Marg‘ilon, Rishtoya, Mo‘yi Muborak, Qatag‘on va Isfara[1].

XVIII–XIX asrning birinchi yarmidagi Qo‘qon xonlarining saroylari haqida so‘z ketganda, u haqida to‘liq ma’lumotlar mavjud emas. Faqat ularning ayrimlari haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan, xolos. Masalan, V.P. Nalivkinning bergan ma’lumotlariga qaraganda, “Qo‘qon shahri u vaqtlarda Eski O‘rda deb atalgan,... bu qal’aning joyi.,. Moxovzor deb atalgan”[2].

Ma’lumki, 1830-yilda Qo‘qonda Rossiya vakili xorunjiy Potanin ham bo‘lgan edi. Uning so‘ziga qaraganda, “xonning ikki qavatli saroyi shahar markazida joylashgan bo‘lib, baland devor bilan o‘ralgan, bino esa g‘isht va loydan qurilgan. Devorning ikkala tomoni ham alebastr bilan suvalgan”. Ushbu saroy haqida 1867-yilda Qo‘qonda bo‘lgan A. P. Xoroshxin ham yozib qoldirgan bo‘lishi kerak. Chunki, o‘sha yili Xudoyorxon o‘rdasi hali bitmagan, qurilish davom etayotgan edi. Shuning uchun A. P. Xoroshxinning esdaliklari biz uchun muhimdir, chunki o‘sha eski saroy saqlanib qolmagan. “Ark o‘zining baland devorlari bilan uzoqdan katta madrasaga o‘xshaydi, chunki u pishgan g‘ishtdan qurilgan. Aslida esa bu baland katta gumbazliqda turgan katta hovlidir. Buning uchun ham arkka odatda keng toshli zinapoyadan ko‘tariladi.

Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, 1865-yilda Mulla Iso Avliyo marhum Muhammad Alixonning buzilayotgan o‘rdasidagi quriyotgan bog‘ida ark qurishni buyurgan. Ehtimol, A. P. Xoroshxin 1867-yilda ushbu arkni ko‘rib yozgandir, ammo bu haqda boshqa ma’lumotlar ham mavjud. Masalan, 1864-yilga oid arxiv hujjatlariga qaraganda, “Qo‘qonning markazida joylashgan xonning eski saroyi Alimqul farmoniga ko‘ra, buzilib, uning evaziga shaharning chekkasiga yangisini qurish topshirnladi. Ushbu tadbir,

---

[1] Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи.... – Б. 204–207.

[2] Наливкин В. П. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886. – С. 56–57.

xonni uncha yoqtirmagan shahar aholisi to‘satdan saroyga hujum qilmasin, deb amalga oshirilmoqda edi”[1]. Albatta, bu yerda hozirgi Xudoyorxon O‘rdasi haqida gap bormoqda. Ma’lumotlarga qaraganda, eski xon saroyi buzilmagan. Ehtimol, Mulla Alimqul yangi saroyni qurishga buyruq bergan, ammo yangisi bitguncha eskisi ishlatilib turilgan. 1865 yilda Mulla Alimqul Toshkent mudofaasida halok bo‘ladi. Boshlangan qurilnshni Xudoyorxon oxiriga yetkazadi.

Mamlakatning Qo‘qondan keyingi muhim siyosiy, iqtisodiy, madaniy va harbiy-strategik markazlaridan biri Toshkent shahri edi. XIX asrning 50-yillarida Toshkentda 11 mingta xonadon mavjud bo‘lib, unda 50 ming nafar aholi, 310 ta masjid, 15 ta karvonsaroy, 11 ta hammom mavjud edi. Shaharning asosiy ko‘chasiga bozordan to O‘rdagacha tosh taxtachalar yotqizilgan bo‘lib, bu yerda shahar hokimi va Qo‘qon xonining noibi turar edi[2].

Boshqa manbalarga ko‘ra, XIX asrning boshlarida Toshkentda 3 mingta xonadonda 15000–20000 nafar aholi yashagan. Potaninning ma’lumotlariga qaraganda, XIX asrning 20-yillarida Toshkentda faqat erkak aholisining o‘zi 3–4 tadan bo‘lgan 2 mingta xonadon, asrning o‘rtalariga kelib, shahar aholisining soni 60 mingdan ziyodni tashkil qilgan. Shahar to‘rt daha, ya’ni Beshyog‘och, Ko‘kcha, Sebzor va Shayxontohurga bo‘lingan. Jumladan, Beshyog‘och dahasida 32 ta, Sebzorda 38 ta, Ko‘kchada 31 ta va Shayxontohur dahasida esa 48 ta mahalla mavjud edi[3]. Toshkentda XIX asrning birinchi yarmida 50 ta masjid, 5 ta karvonsaroy, katta mehmonxona va 5 ta bozor faoliyat ko‘rsatgan. Toshkent voha va Dashti Qipchoqning poytaxti sifatida katta

---

[1] Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи..... – Б. 208–212.
[2] Ўзбекистон ССР тарихи. Т.I. – Тошкент, 1970. – Б. 639.
[3] Азадаев Ф. А. Ташкент во второй половине XIX в / Очерки социально-экономической и политической истории. – Ташкент: Изд-во Ан УзССР, 1959. – С. 24–25; Малицкий Н. Г. Ташкентские махалля и мауза. –Ташкент: САГУ, 1927. – С. 16; O‘sha muallif: К истории Ташкента под Кокандским владычеством / Протоколы Туркестанского Кружка Любителей Археологии. – 1900. – С. 126–137; Султонов Ў. Муҳаммад Солиҳхўжанинг “Тарихи жадидайи Тошканд” асари – муҳим тарихий манба сифатида.... – Б. 180.

mavqega ega bo‘lib, Dashti Qipchoq hamda Rossiyaga boradigan karvon yo‘llari ushbu shahar orqali o‘tgan.

Qo‘qon xoni Muhammadalixon (1822–1841) o‘z hukmronligining oxirgi yillarida xonlikdagi ichki nizolar sababli Lashkar beklarbegini Toshkent va Dashti Qipchoq hokimligidan olib, 1841 yilning dekabr – 1842 yil may oylari davomida Toshkent mulkini boshqarishni ukasi Sulton Mahmudxonga topshirgan edi. Ammo, Muhammadalixon vujudga kelgan aholi noroziligini tinchitish uchun 1842 yilning boshlarida Marg‘ilonda hokim bo‘lib turgan Lashkar beklarbegini yana qayta Toshkentga hokim etib tayinlashga majbur bo‘lgan. Lashkar beklarbegi Toshkentga kelgach, Qo‘qon itoatidan chiqqan ko‘chmanchi aholiga qarshi qo‘shin tortib, Pishpak (hozirgi Bishkek) qal’asiga borgan va u yerda hokim Yodgorbek bilan til biriktirib, elatiya oqsoqollari bilan bitim tuzish hamda o‘lkani qayta Toshkent itoatiga kiritishga muvaffaq bo‘lgan[1].

Mallaxon davri (1858–1862)da O‘tabbiy qo‘shbegi qipchoq, undan keyin 7–8 oy Muhammad Muso parvonachi turk, so‘ng 1859–1860-yillarda 10 oy Rustambek dodxoh[2] Qozoqbiy oqsoqol Toshkandiy o‘g‘li, 1860–1861-yillarda Qanoatshoh otaliq Qorateginiy, 1861-yilda yana Rustambek dodxoh Qozoqbiy oqsoqol Toshkandiy o‘g‘li Toshkentda hokim bo‘lgan[3]. 1862-yilda Mallaxonning o‘limidan so‘ng Xudoyorxon Toshkent va Dashti Qipchoq mulkini ukasi Sulton Murodbekka bergan. U Toshkentni boshqarish uchun o‘z o‘rniga botirboshisi Do‘stmuhammadni, 1863-yilning yozidan Niyozali qo‘shbegi Shahrisabziyni yuborgan. 1863-yilning iyul-sentabr oylarida Shodmonxo‘ja Toshkandiy parvonachi/qo‘shbegi ikkinchi bor, so‘ngra Normuhammad parvonachi, 1864- yilining avgust – dekabr oylarida Mirzo Ahmad

---

[1] Абу Убайдуллоҳ Тошкандий. Хулосат ул-аҳвол. 82[а–]87[а] varaqlar.

[2] Саройда ариза ва шикоятлар билан келган шахсланинг арз-додларини ҳукмдорга етказадиган амалдор.

[3] Абу Убайдуллоҳ Тошкандий. Хулосат ул-аҳвол. 172[а] ,175[б] varaqlar.

parvonachi/qo‘shbegi ikkinchi bor, 1864-yil dekabr – 1865-yil may oylarida Qo‘sh dodxoh/parvonachi qipchoq Toshkentda hokim bo‘lgan.

1865-yil 15-iyunda Toshkent shahri ikki oylik qamaldan so‘ng rus bosqinchilari tomonidan bosib olindi va Toshkent mulki hamda hokimligi tugatilib, bu yerda rus mustamlakachiligi ma’muriy boshqaruviga asos solindi.

Qo‘qon xonligida o‘z nufuziga ega bo‘lgan yana bir shahar – Namangan edi. Qo‘qon xonligi ma’muriy jihatdan bekliklarga bo‘linib, idora etilgan vaqtda, bular qatorida Chortoq, Koson, Bobodarxon (hozirgi Tojikistonning Asht tumani) va Namangan bekligi ham bor edi. Qo‘qon xonligidagi asosiy yer maydonlari xon va uning avlodlari tasarrufida bo‘lib, “chek yerlar” deb atalgan. Xon avlodlaridan Sheralixon (1842–1845-yillarda Qo‘qon xoni), uning o‘g‘li Xudoyorxon (1845–1875) hamda uning kichik o‘g‘li O‘rmonbeklar o‘z davrida Namanganda hokimlik qilganlar.

Qo‘qon xonligi davrida boshqa shaharlar qatorida Namangan ham savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy hayotda muhim rol o‘ynagan. 1813-yilda Qo‘qon va so‘ngra Namanganga kelgan rus elchisi F. Nazarovning yozishicha, bu vaqtda shaharda aholi ko‘p bo‘lib, paxtani qayta ishlash, ip yigirish, to‘qimachilik ustaxonalari va hunarmandchilik rivojlangan. Savdoda faqatgina Qo‘qon xonligi shaharlari bilan emas, hatto qirg‘izlar bilan ham savdo qilgan[1]. XIX asrning 40-yillarida Buxoro amirligining Qo‘qon xonligiga qarshi urush harakatlari kuchaygach, Muhammad Alixon (Madalixon)ning buyrug‘i bilan Namanganda uncha katta bo‘lmagan harbiy qal’a qurilgan. Farg‘ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan Namangan XVIII asrning boshlarida xonlikning hunarmandchilik taraqqiy etgan shaharlaridan biriga aylanadi.

XIX asrda xonlikning chegara hududlarini bir nechta qal’a va istehkomlar muhofaza qilgan. Ular jumlasiga Oqmasjid, Avliyoota,

[1] Назаро В. Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. М., 1968, с. 50.

Pishpak, To‘qmoq, Qurtka, Niyozbek va Mahramni kiritish mumkin. Chu vodiysi bo‘ylab bunyod etilgan istehkomlar esa nafaqat chegara muhofazasi uchun, balki ularning atrofidagi shahar va qishloqlarni itoatda ushlab turish uchun ham xizmat qilgan[1]. Ushbu maqsad uchun mazkur shahar va qal’alarda harbiy qism hamda ularga rahbarlik qilgan botirboshilar ma’sul hisoblangan. Harbiy qal’alarda mudofaa maqsadlari uchun qurol-aslahalar saqlangan.

Xonlik tarkibiga kiruvchi hududlar aholisining joylashuvi va turmush tarzi bir-biridan farq qilgan. Toshkent vohasi hamda Farg‘ona vodiysining sug‘orib, dehqonchilik qilinadigan qismi aholi joylashuvi jihatidan zich bo‘lib, ular o‘troq hayot kechirgan, sahro, tog‘ va tog‘oldi tekisliklaridan iborat hududlarda ko‘chmanchi hamda yarim ko‘chmanchi aholi yashagan.

XIX asrning boshlarida xonlik (Toshkent va Turkistonni ham qo‘shib hisoblanganda)da aholi soni 1 million kishi atrofida bo‘lgan[2]. Ayrim manbalarda XIX asrning o‘rtalarida xonlikda 1,5 milliondan 2 milliongacha aholi yashaganligi qayd etilgan[3]. Uning asosiy qismi xonlikdagi shaharlar va ularning atroflaridagi qishloqlar, ya’ni Farg‘ona, Qurama, Toshkent, Namangan, Xo‘jand va O‘ratepa hududlarida muqim joylashgan. Qo‘qon atrofida 360 ta, Marg‘ilon, Andijon, O‘sh, Namangan va boshqa shaharlarning atrofida esa jami 1214 ta qishloq bo‘lgan[4].

Shuni ta’kidlash kerakki, mamlakatda hech qachon aholi ro‘yxati o‘tkazilmagan va hatto xonning ma’sul amaldori ham aholining umumiy sonini aniq bilmagan[5].

XVIII asrning O‘rtalaridan boshlab, XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davr ichida Qo‘qon xonligi aholisining soni

---

[1] История Узбекистана. Т. III.... – С. 222.
[2] Ўзбекистон ССР тарихи. Т. I.... – Б. 621.
[3] Петровский Н. Очерки Кокандского ханства // ТС. – №76. – С. 19.
[4] Хорошхин А. П. Заметки о Коканде // Русский инвалид. – № 75 // ТС. – № 23.
[5] Хорошхин А. П. Заметки о Коканде... – С. 3.

o‘sib borgan va XIX asrning ikkinchi yarmiga kelganda mamlakat aholisi 3 million kishiga yetgan. Ammo, Rossiya imperiyasi tomonidan ko‘plab hududlarning bosib olinishi va ularning bosqinchilar ma’muriyati tarkibiga kirishi natijasida xonlik tasarrufidagi Farg‘ona vodiysida 2 millionga yaqin aholi qolganligi taxmin qilinadi[1].

Aholi tarkibida o‘troq aholi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholiga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etgan. XIX asrning boshlarida aholining 40 foizdan ortig‘i ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi bo‘lsa, asrning oxiriga kelib, ular 15 foizni tashkil qilgan[2].

Xo‘jalik mashg‘ulotlariga ko‘ra, o‘troq aholining asosiy qismi dehqonchilik, hunarmandchilik va kosibchilik hamda savdo-sotiq bilan band bo‘lsa, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi chorvachilik bilan shug‘ullangan[3].

Xonlik aholisining ko‘pchiligi o‘zbeklardan iborat bo‘lib, mamlakat shahar va qishloqlarida tojiklar ham istiqomat qilgan. O‘zbeklar va tojiklar asosan, o‘troq tarzda kun kechirib, ulardan o‘zbeklar Andijon, Asaka, Oltiariq, Oqmasjid, Abdusamad, Avliyoota, Botirqo‘rg‘on, Baytak, Beshariq, Buvay, Bukan, Joykasht, Do‘rmancha, Yormozor, Iqon, Qaroqchiqum, Qorayantoq, Kushkon, Qo‘qon va uning atrofida, Qarnaq, G‘urumsaroy, Katta Qaynar, Quva, Kumish, Mankent, Mahram, Merkeda, Mingtut, Namangan, Nav, Naymancha, O‘sh, Parkent, Pong‘az, Polvontosh, Pishpek, So‘zak, So‘lak, Sayram, Sultonrabot, To‘da, Toshkent, To‘qmoq, Turkiston, To‘ngiz lav, Urganji, O‘zgan, Uchqo‘rg‘on, Ultarma, Xamirqo‘rg‘on, Chimkent, Chil mahram, Chortoq, Sho‘rqo‘rg‘on, Shahbekbiy, Yaypan, Yangiqo‘rg‘on hamda Yormozorda yashagan. Tojiklar esa Farg‘ona vodiysining shaharlari

---

[1] Петровский Н. Очерки Кокандского ханства.... – С. 6–19.
[2] O‘sha joyda.
[3] Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши.... – Б. 75.

va tog‘li tumanlaridan tashqari yana Iqon, Toshkent va uning atrofi, Parkent, Piskent hamda Chinozda yashagan[1].

Bundan tashqari, xonlikda qirg‘iz va qipchoqlar ham istiqomat qilgan. Ular Sirdaryoning boshlanish joyidan Balxash ko‘ligacha bo‘lgan tog‘li rayonlardan to Qashqar chegarasigacha bo‘lgan yerda, Yettisuv, Talas vodiysi, Oloy tog‘lari, Badaxshon va Farg‘ona vodiysi hududlarida ko‘chmanchi hamda yarim ko‘chmanchi hayot kechirgan.

Shuningdek, Farg‘ona vodiysida qoraqalpoqlar, Toshkent atroflarida 10 mingta hamda xonlikning sharqiy qismi, Qo‘qon xonligini Buxoro va Rossiyadan ajratib turadigan cho‘llarda esa ko‘chmanchi qozoqlar yashagan.

Manbalarda ta’kidlanishicha, XIX asrning boshlarida qirg‘izlar, qalmoqlar, uyg‘urlar, qoraqalpoq va qozoq-qipchoqlar Xitoy hukumati tazyiqi ostida Sharqiy Turkistondan Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelishga majbur bo‘lgan[2].

Shuningdek, xonlikning ayrim shaharlarida lo‘lilar, hindlar, afg‘onlar va boshqa Osiyo xalqlari istiqomat qilgan[3]. Ayniqsa, Rossiya bosqini va Turkiston general-gubernatorligi tashkil topgandan so‘ng xonlik hududlariga yahudiy hamda armanlar, boshqa millatlarning vakillari ham kelib yashagan[4]. Umuman olganda, XIX asrning birinchi yarmi, ya’ni Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar Qo‘qon xonligining hududlari kengaygan va aholisining soni o‘sib borgan.

---

[1] История Узбекистана. Т III. (XVI – первая половина XIX века). – Ташкент: Фан, 1993. – С. 214–215.

[2] Толстова Л. С. Каракалпаки Ферганской долины (Ист.-этногр. очерк). – Нукус, 1959. – С. 20; Бейсенбиев Т. К. Тарихи Шахрухи... – С. 9.

[3] Вельяминов-Зернов. Сведения о Кокандском ханстве // ВИРГО. Ч. XVIII. – Санкт-Петербург, 1855. – С. 109; Обозрения Кокандского ханства в нынешнем его состоянии / ЗРГО. Кн. III. – Санкт-Петербург, 1849. – С. 190.

[4] Губаева С. С. Населения Ферганской долины в конце XIX – начале XX века: этнокультурные процессы. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 130: Атаханов Ш. Цыганы Ферганской долины (историко-этнологическое исследование). Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент, 2005. – С. 26; Абдуллаев У. С. Межэтнические процессы в Ферганской долине (XIX – начало XX века). Автореф. дисс…докт. ист. наук. – Ташкент, 2006. – С. 49.

Xonlik hududida hajmi, aholisining soni, joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning rivojlanish darajasi turlicha boʻlgan, madaniy taraqqiyotning ayrim jihatlari bilan bir-biridan farqlanuvchi koʻplab katta va kichik shaharlar mavjud edi. Xonlikdagi Qoʻqon, Margʻilon, Andijon, Toshkent va Namangan kabi shaharlari asosiy siyosiy hamda ijtimoiy kuchlar mujassamlashgan markazlar edi.

Xonlik hududida asosan, oʻtroq, qisman koʻchmanchi va yarim koʻchmanchi aholi yashagan. Aholining koʻpchiligini oʻzbeklar tashkil qilib, xonlikda yana tojiklar, qirgʻizlar, qipchoqlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, qozoq-qipchoqlar, qalmoqlar, uygʻurlar, forslar, arablar, hindlar, afgʻonlar, loʻlilar, Turkiston general gubernatorligi tashkil topganidan soʻng yahudiylar hamda armanlar ham istiqomat qilgan[1].

## 1.3. Shaharlarning ijtimoiy-madaniy markaz sifatidagi oʻrni

Soʻnggi oʻrta asrlar shaharlarining jamiyat ijtimoiy hayotidagi oʻrnini aniqlashda ularning hunarmandchilik va savdo markazlari sifatidagi roliga alohida ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq. Chunki, shaharlarda turli kasb-hunar egalari istiqomat qilib, ular yaratgan mahsulotlar nafaqat shaharlar, balki qoʻshni qishloqlar, boshqa shahar va viloyatlar, qoʻshni dasht hamda uzoq-yaqin mamlakatlar aholisining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan edi.

Oʻrganilayotgan davr Qoʻqon xonligi shahar aholisining iqtisodiy hayotida hunarmandchilik va kosibchilik muhim oʻrin tutgan. Uzoq rivojlanish tarixiga ega boʻlgan Qoʻqon xonligi xunarmandchiligi haddan tashqari ixtisoslashgan edi. Hunarmandchilikda hatto buyumlarning bir turi va biror qismini ishlab chiqarishga yoʻnaltirilgan sohalar mavjud boʻlgan. Buni ayniqsa, toʻquvchilik va temirchilikda yaqqol kuzatish mumkin edi. Hunarmandlar oʻz kasbining sir-asrorlarini mukammal oʻzlashtirgan

---

[1] OʻzMA. 19-fond, 1-roʻyxat, 1520-yigʻma jild, 203–204 varaqlar.

mohir ustalari bo‘lib, ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini yuksak san’at darajasiga ko‘tara olganlar[1].

Hunarmand ustalar doimo ishlab chiqargan mahsulotlarining sifat darajasi yuqori bo‘lishini ta’minlashga harakat qilganlar. Bozordagi keskin raqobat esa ularni o‘z kasb sirlarini maxfiy saqlashga undagan. Kasb-hunarlarning nozik jihatlari faqat farzandlar, ba’zan ayrimlari shogirdlargagina o‘rgatilgan va shu yo‘l bilan avloddan-avlodga o‘tib kelgan.

Xonlikda mamlakat poytaxti Qo‘qon va boshqa barcha shaharlar aholisining asosiy qismi hunarmandchilik hamda kosibchilik bilan shug‘ullangan. Mahallalar o‘zi ixtisoslashgan hunar turlariga qarab maxsus ustaxona, tim va do‘konlariga ega bo‘lgan. Buni shaharlardagi mahalla va ko‘chalarning nomlaridan ham ko‘rish mumkin[2].

Mamlakatning deyarli barcha shahar va qishloqlarida hunarmandchilikning rivoji bir xil tarzda kechgan bo‘lsa-da, ishlab chiqarish o‘zining ayrim xususiyatlari, ya’ni mahsulotning turi va sifati bilan ajralib turgan. Mamlakatda hunarmandchilikning temirchilik, zargarlik, to‘quvchilik, degrezlik, kulolchilik, misgarlik va boshqa tarmoqlari[3] keng rivojlangan bo‘lib, xonlikning har bir shahri muayyan sohada ishlab chiqargan mahsulotlari bilan dong taratgan. Jumladan, Qo‘qon shahri zargarlik va qog‘oz ishlab chiqarish, Shahrixon hamda Chust tikuvchilik hamda temirga ishlov berish, xususan, pichoqchilik, Marg‘ilon, Namangan va Andijon esa ipak gazlamalari, Toshkent o‘zining tikuvchilik, cho‘yan hamda temir-mis mahsulotlari bilan shuhrat topgan[4].

Xonlik hunarmandchiligi haqida A. P. Xoroshxin bergan ma’lumotlarga ko‘ra, uning e’tibor ga loyiq sohasi Namangan,

---

[1] Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи.... – Б. 110.
[2] O‘zMA. 300-fond, 1-ro‘yxat, 283-yig‘ma jild, 96- varaq; Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи.... – Б. 110; Маллицкий Н. Г. Ташкентские махалля и мауза. – Ташкент: САГУ, 1927. – С. 16.
[3] Qo‘qon xonlari arxivida ular nomma-nom bilan qayd etilgan. Bu haqla qarang: Троицкая А. Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – Москва, 1968. – С. 67.
[4] Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши.... – Б. 83–85.

Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlarida atlas, shoyi, adras hamda beqasam matolarining ishlab chiqarilganligidir[1].

Ustalar ko‘pchilik shaharlar, ayniqsa, Qo‘qonda juda sifatli mahsulotlar ishlab chiqargan. Qo‘qonda tajribali ustalar ko‘p bo‘lib, ular o‘z mahsulotilarini san’at darajasiga ko‘targan holda doimiy buyurtmachi va mijozlarga ega edi. Bu esa usta-hunarmandlarning doimiy ish bilan ta’minlanib turganlaridan dalolat beradi.

Ayniqsa, Qo‘qon hunarmandlari ishlab chiqargan gazlama va metall buyumlar ancha sifatliligi bilan ajralib turgan. Qo‘qonda temirchilik mahsulotlariga talab katta bo‘lgan. Chunki, ular jamiyat xo‘jalik hayotida alohida o‘rin tutgan va ushbu mahsulotlardan qishloq xo‘jaligi hamda uy-ro‘zg‘orda keng foydalanilgan.

Xonlikning butun hududida bo‘lganidek, Qo‘qon shahrida ham ishlab chiqarish qo‘l mehnatiga asoslangan bo‘lib, asosiy hunar turlari ip va ipak matolar to‘qish, oyoq kiyimi tayyorlash, teriga ishlov berish, sopol idishlar tayyorlash, temirchilik, egar-jabdug‘ yasash, bo‘yoqchilik, misgarlik, zargarlik, duradgorlik, aravasozlik, harbiy qurol ishlab chiqarish, o‘ymakorlik, mum ishlash, pista ko‘mir tayyorlash, kashtachilik, do‘ppichilik, qalin tomlar yopish va shu kabilardir[2]. Shuningdek, mamlakatda xonga qarashli porox ishlovchi hamda qog‘oz tayyorlovchi ustaxonalar ham mavjud bo‘lgan[3].

Qo‘qon xonligida hunarmand va kosibchilikning muhim bir tarmog‘i – bu qog‘oz ishlab chiqarish bo‘lgan. 1871 yilda xonlikda bo‘lgan A. P. Fedchenko ushbu mahsulotning ishlab chiqarish jarayoni, ya’ni Qo‘qon qog‘ozini tayyorlashni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va uni batafsil bayon qilib bergan[4]. Uning xulosasiga qaraganda, O‘rta Osiyoda faqat Qo‘qon shahrida qog‘oz ishlab

---

[1] Хорошхин А. П. Заметки о Коканде.... – С. 43.
[2] Бобобеков Х. Қўқон тарихи.... – Б. 100; O‘zMA. 19-fond, 1-ro‘yxat, 1520-yig‘ma jild, 400- varaq.
[3] Обозрения Кокандского ханства в нынешнем состоянии.... – С. 11–12.
[4] Федченко А. П. Писчебумажная фабрика Оби джуваз в Коканде. – Санкт-Петербург, 1874. – С. 76.

chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Biroq, o‘rganilayotgan davrda ushbu soha Rossiya sanoati ishlab chiqargan arzon fabrika qog‘ozlarining xonlik bozorlarini egallashi natijasida butunlay kasod bo‘lgan[1].

Mazkur davrda boshqa shaharlar qatori Marg‘ilon ham taraqqiy etib borgan. Ayniqsa, shaharning tashqi savdoda Rossiya bilan aloqalari ancha kengaygan. Ushbu davrda dehqonchilik, ayniqsa paxtachilik keng rivojlanib, sug‘orish inshootlari takomillashib, yangilari qurilgan. Yangi yerlarning o‘zlashtirilishi natijasida shahar aholisining ijtimoiy tarkibi ham o‘zgarib, avval faqat chorvachilik bilan shug‘ullanadiganlar endi dehqonchilikni ham o‘zlashtira boshlagan. Buning natijasida ko‘chmanchi aholining o‘troqlashuv jarayoni jadal sur’atda davom etgan. Shaharda paxtachilik va g‘allachilik bilan birga, pillachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik hamda to‘qimachilik rivoj topgan. Iqtisodiy rivojlanish, ichki hamda tashqi savdo, ayniqsa Rossiya, Qashg‘ar va boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarning kengayishi natijasida Farg‘ona vodiysining rivojlangan shaharlari qatori Marg‘ilon ham o‘z o‘rnini saqlab qoldi. Shahar aholisining tarkibida savdo va hunarmandchilik bilan shug‘ullanadiganlarning soni ko‘paya borgan[2].

Xonlikda qurolsozlikka ham alohida e’tibor berilgan. Ushbu tarmoq shahar hunarmandchilik ishlab chiqarishining obro‘li sohalaridan biri hisoblangan. Jumladan, o‘sha davrda Qo‘qon shahrida zambaraklar, miltiqlar, qilichlar, pichoqlar, xanjarlar, qalqonlar, nayzalar va boshqa harbiy anjomlar tayyorlangan.

Rus manbalarida hunarmandchilikdagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuch ayollar bo‘lganligi qayd etiladi. Ular “paxta va ipak yigirib, ulardan nafis hamda sifatli gazlamalar to‘qib, o‘zi va

---

[1] Семенов А. А. О среднеазиатской бумаге / Известия отделения общественных наук АН Тадж. ССР. Вып. 1 (32). – 1963. – С. 3–20; Хабибуллаев Н. Н. Коканд – центр производства бумаги / Позднефеодальный город Средней Азии. – Ташкент, 1990; O‘sha muallif: Ўрта Осиёда қоғоз ишлаб чиқариш тарихи (Феодализм даври). – Тошкент, 1992.

[2] Юферев В. И. Труд хлопковых хозяйств Туркестана. – СПб., 1914. – С. 22.

iste'molchilar ehtiyojlari uchun koʻylak va boshqa kiyimlar tikkan. Erkaklar esa asosan, kulolchilik, koʻnchilik va boshqa ogʻir ishlarni bajargan"[1].

Shaharlarda ham asosiy mol-mulk hukmdor tabaqalar qoʻlida boʻlib, mayda savdogar va hunarmandlar bu yerda foydalanganliklari uchun ma'lum miqdorda haq toʻlaganlar[2].

Xonlik hunarmand-kosibchiligi serqirra va mazmunan boy boʻlib, ijtimoiy holatiga koʻra hunarmandlar ikki: yuqori va quyi tabaqalarga boʻlingan. Yuqori tabaqa vakillariga oʻz ustaxonasi, mehnat qurollari va xom-ashyolariga ega boʻlgan ustalar kirgan. Mulkdor tabaqalar qoʻlidagi ustaxonalar va mehnat qurollaridan foydalanuvchilar, yuqori tabaqaga kiruvchi ustalarning qoʻllarida kunbay yollanib ishlovchilar hamda hammollar quyi tabaqani tashkil etgan.

Xonlikda hunarmandchilik va kosibchilik ishlab chiqarishini asosan, paxtachilik, ipakchilik, chorvachilik tarmoqlari hamda yer osti boyliklarini qazib chiqarish sohalari xom-ashyo bilan ta'minlagan. Hunarmandchilik uchun zarur boʻlgan xom-ashyolar xonlik hududi va chet mamlakatlardan sotib olingan. V. Velyaminov-Zernovning bergan ma'lumotlariga qaraganda, asosiy xom-ashyolardan biri boʻlgan oltin Sirdaryoning yuqori oqimi va Qonsuv daryosi boʻylaridan qazib olingan[3]. Shuningdek, Kosonsoy, Qoratogʻning shimolidagi Kukrev daryosi Chirchiq daryosi boʻylari, Burchmulla yoni va Chotqol daryosining yuqori oqimidan ham oltin qazib olingan[4]. Hunarmandlar temir rudasini Oloy togʻ tizmasining quyi etaklari, qoʻrgʻoshin va boshqa ma'danlarni esa Qoratovdan qazib olganlar[5].

---

[1] Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи.... – Б. 100.
[2] Абдуллаев В. А. Ўзбек адабиёти тарихи.... – Б. 93–94.
[3] Вельяминов-Зернов В. Сведения о Кокандском ханстве.... – С. 124.
[4] Тереньтев М. А. Россия и Англия в борьбе за рынки. – Санкт-Петербург, 1876. − С. 50; Ванюков М. К. Опыт военного обозрения русских границ в Азии. – Санкт-Петербург, 1873. – С. 345–346; Oʻz MA. 329-fond, 1-roʻyxat, 118-yigʻma jild, 56 varaq.
[5] OʻzMA. 19-fond, 1-roʻyxat, 568-yigʻma jild, 134 varaq; Ўзбекистон ССР тарихи. Т. II. – Тошкент, 1957. – Б. 23.

Xonlik jamiyati hayotida savdo munosabatlari alohida oʻrin tutib, mazkur tarmoq ichki va tashqi qismlariga boʻlingan. Ichki savdo oʻtroq dehqonlar, koʻchmanchi chorvadorlar va shahar-qishloq hunarmandlari oʻrtasidagi an'anaviy mahsulot ayirboshlashga asoslangan. Aholining kundalik ehtiyojlari ishlab chiqaruvchilar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar bilan toʻla ta'minlab turilgan. Barcha ichki savdo chakana koʻrinishida boʻlib, ulgurji savdoda bunday holat deyarli kuzatilmagan.

Hunarmandchilik va kosibchilik savdo bilan yaqin aloqada boʻlgan. Hunarmandlar aksariyat hollarda tovarlarini oʻzlari sotishga harakat qilgan. Dehqon va chorvadorlar esa haftaning muayyan kunlari oʻz mollarini xonlik bozorlarida sotgan. Shu bilan birga, xonlikda olibsotarlik[1] ham keng tarqalgan. Bozorlardagi narx-navo bir xilda turmagan. U xonlikdagi tinchlik va osoyishtalik, urushlar, ob-havoning yomon kelishi oqibatida hosildorlikning pasayishi kabi omillarga qarab oʻzgarib turgan.

XVIII asrning oxiri – XIX asrning boshlarida Qoʻqon xonligi kuchli markaziy hokimiyatga ega boʻlgan markazlashgan davlat sifatida qaror topishi va xoʻjalikning birmuncha jonlanishi natijasida madaniy hayot rivojlangan. Mamlakat poytaxti Qoʻqon va boshqa shaharlarda bir qator me'mor iy obidalar, masjidlar, madrasalar, yoʻllar, koʻpriklar, suv inshootlari hamda hammomlar qad rostlagan, amaliy san'at va xattotlik rivoj topgan.

XIX asrning birinchi yarmida xonlikda Umarxon, Muhammadalixon, Nodirabegim, Xudoyorxon, Sulton Murodbek, Sulton Sayidxon, harbiy boshliqlardan Musulmonquli, Aliquli va Xolmuhammad mingboshilar hamda zamonasining ilgʻor ma'rifatli kishilari tomonidan me'mor iy obidalar barpo etilgan, shaharsozlik tez sur'atlar bilan rivojlangan. Natijada, mamlakat poytaxti Qoʻqon

[1] Mol savdosida ular "jallob" deb atalgan.

tez fursatda O‘rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri, ilm-fan va madaniyat markaziga aylangan[1].

Me’mor chilikda asosiy e’tibor, birinchi navbatda, madrasa, masjid, xonaqo, darvesh va qalandarlar uchun takyaxona, qorixona, sardoba, ko‘prik hamda bozor rastalarini barpo qilish va ariqlar qazishga qaratilgan.

Xonlikning shahar va qishloqlarida ko‘zga tashlanadigan birinchi bino madrasa va masjidlar bo‘lib, ular baland hamda hashamatli, naqshinkor va kungirador qilib qurilgan. Madrasa, masjid va o‘rda imoratlari salobatli hamda hashamatli bo‘lishi uchun ular osmono‘par gumbazli qilib bunyod etilgan. Binolarning balandligi va mustahkamligini o‘sha davr me’mor chiligining yutuqlaridan biri, deb hisoblash mumkin.

Qo‘qon shahrida Umarxon hukmronligi davrida mashhur tarixchi Muhammad Hakimxon tomonidan Hakim to‘ra madrasasi, 1840–1842 yillarda Mohlar oyim va Xon madrasalari barpo etilgan. Bulardan tashqari, Oftoboyim, Rizoqulibek, Mingoyim, Muhammad yasovul, Xo‘ja dodxoh, Haqquli mingboshi, Muhammad siddiq to‘nqator, Mahdud Dasturxonchi, Aminxon xishtin, Muhammad Yusuf oxund devon kabi madrasalar bunyod etilgan. Shahar markazi Chorsuda to‘rtta yirik madrasa binosi qad ko‘targan.

Vasiliy Pshenichnikovning bergan ma’lumotlariga qaraganda, 1842 yilda poytaxtda 15 ta madrasa mavjud bo‘lib, ulardan eng ko‘zga ko‘ringanlari Muhammadalixon, Norbo‘tabek, Jomiy, Oliy, Hakim oyim, Sulton Murodbek, Xo‘ja dodxoh va Ming oyim madrasalari edi. Ularda 38 tadan 108 tagacha hujra mavjud bo‘lgan[2]. XIX asrda esa Qo‘qonda barpo etilgan madrasalar soni esa 44 tani tashkil etgan[3].

---

[1] Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи... – Б. 225.
[2] Qo‘qon shahar o‘lkashunoslik muzeyi arxivi. Inv.– №995 – Б. 121; Галкин М. Н. Этнографические и исторические материалы по Средней Азии и Оренбургскому краю. – Санкт-Петербург, 1869. – С. 238–240; История Узбекистана. Т. III. – Ташкент, 1970. – С. 220.
[3] Qo‘qon shahar o‘lkashunoslik muzeyi arxivi. Inv. – № 995 – Б. 118; O‘zMA. 300-fond, 1-ro‘yxat, 568-yig‘ma jild, 254- varaq.

XIX asrda Toshkentda ham bir qancha madrasalar barpo etilgan. Jumladan, Umarxon davrida, taxminan 1816 yillarda Tinchbof guzarida Shukurxon, 1820 yilda Ko‘kcha dahasida esa pishiq g‘ishtdan Eshon Bo‘rixo‘ja Sanchiqmoni madrasalari qurilgan. Shuningdek, XIX asrning 30-yillarida Muhammadalixonning farmoni bilan shahar Registonida madrasa qad rostlagan va unga Mir Inoyatulloh bosh mudarris etib tayinlangan[1].

Muhammadalixon qozikalon etib tayinlagan Isoxo‘ja tomonidan ham o‘z nomida pishiq g‘ishtdan madrasa bunyod etilgan. Shuningdek, 1830 yilda Charxchiko‘cha, 1833-yilda esa Mahmud dasturxonchi madrasalari barpo etilgan. O‘z navbatida shuni ham qayd etish kerakki, Mahmud dasturxonchi madrasasi Degrezlar mahallasida joylashgan bo‘lib, 25 ta hujrani o‘z ichiga olgan edi.

Xonlikda maqbaralar xon, sayyid va xo‘jalarning qabrlari ustida barpo qilingan hamda ularning qurilishi va ta’miri savobli ishlardan biri hisoblangan. Shuni ham qayd etish kerakki, yuqoridagi inshootlarni qurdirish xalq orasida o‘ziga xos obro‘ orttirish vositasi ham hisoblangan. Masalan, 1825-yilda Nodirabegim tomonidan Umarxon va uning avlodlari uchun “Dahmai shohon” – “Shohlar dahmasi” maqbarasi qurdirilgan. Keyinchalik ushbu majmuaga Nodira, Muhammadalixon va boshqa xonlar dafn etilgan. O‘z navbatida shuni ham qayd etish kerakki, 1850–1851-yillarda ushbu maqbara Xudoyorxon tomonidan ta’mirlangan.

Toshkentning Shayxontohur dahasida joylashgan Shayx Xovandi Tohur maqbarasi eng yirik inshootlardan biri bo‘lib, u Normuhammad qo‘shbegi hokimligi davrida pishiq g‘ishtdan qurilgan. Muhammad Solihxo‘janing yozishicha, maqbaraning

---

[1] Султонов Ў. А. Муҳаммад Солиҳхўжа ва унинг “Тарихи жадидайи Тошканд” асари.... – Б. 142–150.

devorlari va tomi avval yog‘ochdan bo‘lgan. Uning shimol tarafidan ariq oqib o‘tgan. Maqbara atrofi katta qabriston bo‘lib, uning g‘arbiy tomoni, ya’ni qabristonning O‘rtasida bir necha xonalar va ichida gumbazdan iborat pishiq g‘ishtdan qurilgan chillaxona mavjud bo‘lgan. Mazkur gumbazni Shayx Xovandi Tohurning nabirasi Xo‘ja Ahror Valiy qurdirgan bo‘lib, uning o‘rtasiga tosh lavha ham o‘rnatgan[1].

Shuningdek, Namangan viloyatining Chodak qishlog‘ida Boyi Hamadon maqbarasi uzunchoq tuzilishdagi qabrning bir-biridan ko‘tarilib borgan uch pog‘onali supadan tashkil topganligi va uning to‘ridagi supada sag‘ana o‘rnatilganligi hamda uni ziyorat qilishga qulay qilib qurilganligi bilan ajralib turadi[2].

Shu bilan birga, Farg‘ona vodiysida XVIII–XIX asrlarda qurilgan maqbaralarning ichki ko‘rinishida XI–XII asrlarga xos an’analar kuzatiladi. Jumladan, Namangan shahridagi Xo‘jam (Xo‘ja Amin)ning qabri maqbarasi bunga yaqqol misol bo‘la oladi[3].

Xonlik me’mor chiligi tarixida jamoat binolari sirasiga kiruvchi hammomlar alohida o‘rin egallaydi. Sharqda hammomlar shaharning jismoniy va ma’naviy tarbiya ahamiyatiga ega bo‘lgan binolaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar hammomlarni tarxi va tuzilishiga ko‘ra, ikki guruh, ya’ni, to‘liq hamda to‘liqsiz ko‘rinishdagi inshootlarga bo‘ladilar. Birinchi guruh hammomlarining umumiy tuzilishi to‘g‘ri to‘rtburchakka yaqin bo‘lib, asosiy xonasi – miyonsaroy imorat markazini egallagan bo‘lsa, ikkinchi turdagi hammomlar kam xonali, soddaroq, tuzilishi jihatidan “G” shaklida, asimmetrik, oddiy va uzunchoq shaklda bo‘lgan. Asosan, mahalla va qishloq hammomlari to‘liqsiz ko‘rinishga ega bo‘lgan[4].

---

[1] Султонов Ў. А. Муҳаммад Солиҳхўжа ва унинг “Тарихи жадидайи Тошканд” асари.... – Б. 174–175.
[2] Нозилов Д. А. Марказий Осиё меъморчилигида интерьер. – Тошкент: Фан. 2005. – Б. 451.
[3] Нозилов Д. А. Марказий Осиё меъморчилигида интерьер...– Б. 451.
[4] Юқоридаги асар.... – Б. 44–46.

Hammomlar pishiq g‘ishtdan, bir necha gumbazli qilib qurilgan va ular egasining nomi bilan atalgan. Muarrix Muhammad Solihxo‘ja o‘z asarida Shayxontohur dahasining Qiyot mahallasida joylashgan Musomuhammad Bekmuhammad o‘g‘li, Ko‘kaldosh madrasasi orqasidagi pastlikda joylashgan Muhammad Karimxo‘ja xalifai qozoq, Ko‘hna Namozgoh ko‘chasidagi Hoji Otaboy va Mulla Badalmuhammad hammomlari haqida to‘liq ma’lumot beradi[1].

A. P. Xoroshxinning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, Toshkentdagi Chorsu bozorining o‘zida 6 ta hammom faoliyat ko‘rsatgan. Ularning har biri bir vaqtning o‘zida 200 kishiga xizmat ko‘rsata olgan[2]. Haftaning bir yoki ikki kunida hammomlar faqat ayollar uchun ishlagan va o‘sha kunlari faqat ayollar xizmat qilgan.

XIX asr oxiri – XIX asr boshlarida Farg‘ona viloyatining turli burchaklarida barpo etilgan madrasa, masjid va boshqa me’mor iy inshootlar qurilishining asosini an’anaviy me’mor chilik uslubi tashkil etgan. Me’mor chilik an’anasiga ko‘ra, madrasa, masjid hammom va timlarning gumbazlari o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lgan.

Xonlikdagi shaharsozlik, ularning joylashuvi, tozaligi, sug‘orish tizimi, umuman olganda, ijobiy ekologik holati haqida A.P. Xoroshxin: “Qo‘qon ko‘chalari juda toza, to‘g‘ri, masjid va madrasalari bahaybat, ko‘priklari mustahkam hamda katta. Ko‘priklaridan biri Madalixon tomonidan toshdan qurilgan bo‘lib, arklar ustida joylashgan va Kattasoy ustida barpo etilgan, uning ikki tomonida do‘konlar joylashgan. Bu uning quruvchisi Xo‘ja dodxohning mohir usta ekanligini bildiradi”, - deb yozgan edi[3].

Shaharlar mamlakat mudofaasi uchun ham xizmat qilgan. Ular mustahkam devorlar bilan o‘ralgan va ko‘chalar ba’zi joylarda tosh

---

[1] Султонов Ў. А. Муҳаммад Солиҳхўжа ва унинг “Тарихи жадидайи Тошканд” асари.... – Б. 174–175.
[2] Хорошхин Н. П. Очерки Ташкента.... – С. 92.
[3] Хорошхин А. П. Заметки о Коканде…. – С. 41.

hamda g‘isht bilan qoplangan. Xonlikdagi markaziy yo‘llar va ularning shoxobchalari doimo nazoratda bo‘lib, qattiq qo‘riqlangan. Xonlik hududi (Dashti Qipchoqdan tashqari)da karvonlar, tijoratchilar va ularning mollarini xavfsizligi to‘la ta’minlangan.

XIX asrda xonlikda me’mor chilikni rivojlanishi savdo-sotiq munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lgan inshootlarning qurilish jarayonida ham kuzatiladi. Xonlik hududida markaziy yo‘llar bo‘ylab rabot va karvonsaroylar faoliyat ko‘rsatgan. Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkentdagi Chorsu bozori 8 ta ko‘chani birlashtirgan. Ushbu bozor 10 ga yaqin savdo maydonlari va 40 ga yaqin savdo-hunarmandchilik rastalarini o‘z ichiga olgan. Bozorda 4500 ta do‘kon mavjud edi. Rastalar ko‘chaning ikki tomoni bo‘ylab joylashgan va ularni ko‘cha o‘rtasini egallagan baland tim birlashtirgan. Tim yog‘och tirkagich va to‘siqlardan tashkil topgan[1]. Bunday bino va inshootlar hukmdorlar, alohida amaldor va shaxslar tomonidan qurdirilgan.

Xonlikdagi aholining uy-joy qurilishi ham o‘ziga xos edi. Masalan, ikki xona o‘rtasiga dahliz joylashtirilganligi va ularning hovli tomondan uzun ayvon bilan birlashtirilganligi Farg‘ona vodiysi shaharlari uy-joy qurilishining o‘ziga xos xususiyati[2] bo‘lib, bu yerda hovlilarning uy bilan tutashgan qismini yozgi xona shakliga keltirish odati mavjud bo‘lgan. Marg‘ilon hovlilarida xonaning markaziy qismida to‘rtta ustun mavjud bo‘lib, ularning ustida shiftdan ancha ko‘tarilgan va to‘rt tomoni oynavand tuynuk o‘rnatilgan, yerda esa kichkina hovuz nazarda tutilgan.

XIX asrda xonlikda qurilgan binolarning umumiy tuzilishi va rejalashtirilishida an’anaviy lik  saqlanib qolgan bo‘lsa-da, Qo‘qon me’mor chiligida  tashqi aloqalarning ham ta’siri seziladi. Binolarning bezaklarida rang-barang g‘ishtlar ko‘p ishlatilgan, shiplarga solingan gullar O‘rta Osiyodagi qadimiy yodgorliklardan

---

[1] Нозилов Д. А. Марказий Осиё меъморчилигида интерьер.... – Б. 51.
[2] Нозилов Д. А. Марказий Осиё меъморчилигида интерьер.... – Б. 12–13.

o‘zining jimjimadorligi, bo‘yog‘ining yorqinligi va ularning ba’zan ko‘zni qamashtiradigan darajada aralash-quralash bo‘lib ketganligi bilan farq qiladi.

Qo‘qon xonligida qurilish va me’mor chilik bilan bir qatorda amaliy san’at  ham rivojlangan. Jumladan, amaliy san’at ning naqqoshlik, yog‘och va ganch o‘ymakorligi yo‘nalishlari yuksak darajada taraqqiy etgan bo‘lib, ulardan me’mor chilikda keng foydalanilgan. Xonlikda amaliy san’atning yuqori darajada rivojlanganligi Xudoyorxon saroyida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Saroyni qurish va bezashda Abdulla, Marasul, Masolih, Hakimboy hamda So‘fi Yo‘ldosh kabi mohir naqqosh ustalar faol qatnashib, xalq amaliy san’at ining yuksak namunasini yaratganlar.

Bundan tashqari, qo‘qonlik me’mor  va naqqosh Yoqub usta rahbarligida qad ko‘targan Oltiariqdagi Do‘sti Xudo masjidi ayvoniga ishlangan islimiy naqshlar shu darajada san’at korona bajarilganki, unda naqqosh turunj[1] ni to‘rtburchakli naqshga aylantirishga muvaffaq bo‘lganligi tahsinga sazovor.

Andijon atrofidagi Otaqo‘zi madrasasi[2] bezaklarida Saydullo ustaning iste’dodi  o‘z aksini topgan. Unda girihlar islimiy naqshlar va Qur’on oyatlari bilan mohirona chatishtirilib, uyg‘unlashtirilgan bo‘lsa, Chodaksoy qirg‘og‘ida, tog‘lar bilan o‘ralgan joyda barpo etilgan, to‘rtburchakli xonaqo va uch tomonidan ochiq ayvondan iborat Chodak masjidi o‘zining yog‘och hamda ganch o‘ymakorligi bilan yuksak badiiy qimmat kasb etadi. Eshonxon va Noriboy ustalar tomonidan qurilgan hamda nafislik bilan bezatilgan Rishtondagi Xo‘ja Ilg‘or masjidining shiftlari o‘zining aniqligi, suratlar va shakllarning tiniqligi, uslublarga boyligi bilan ajralib turadi.

Qo‘qon xonligi me’morchiligi va amaliy san’atida butun O‘rta Osiyo uchun xarakterli bo‘lgan an’anaviy  uslublar bilan bir qatorda

---

[1] Turunj – medalyonga o‘xshash naqsh turi.
[2] XX asrning boshlarida ustalardan Qirg‘izboyev va Mamajonovlar qayta tiklagan.

mahalliy xususiyatlar ham mavjud edi. Qo‘qon va Toshkent me’morchilik maktablarining vakillari jamoat binolarini qurish hamda ularni bezashda, naqshlar tanlashda o‘z an’analariga sodiqlik bilan yondashganlar. Qo‘qon va Toshkent mahalliy me’morchilik maktabi o‘zining keng rejali, hajmli manzaralari, bezak hamda jihozlarning g‘oyat nafisligi, ranglarning sho‘xchangligi, yog‘och va ganch o‘ymakorligi bilan ajralib turadi. Ushbu maktablarning kompozitsiya uslubi va rang tanlashdagi farqni anglash uchun Qo‘qon, Buxoro hamda Xiva me’moriy obidalari, ularning naqshu-nigorlarini taqqoslash yetarlidir. Xonlik me’morchiligida chiroyli qilib, aylantirib urg‘u berilgan, ichiga islimiy naqshlar tushirilgan, ko‘proq qizil hamda yashil bo‘yoqlar bilan jilolangan turunjlar afzal turadi[1].

Qo‘qon va Toshkent me’morchilik maktabi namunalaridan bo‘lgan, Farg‘ona diniy maktablarining umumiy xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan, asakalik usta Isaxon o‘z o‘g‘illari bilan birga bunyod etgan Mirzaqul bo‘lish madrasasi erkin tarx asosida bunyod etilgan bo‘lib, hajmiy tuzilishiga ko‘ra, hech bir qat’iy tartibga bo‘ysundirilmaganligi bilan ajralib turadi. Uning keng, bog‘-rog‘li hovlisining gir atrofida turar joy uchun mo‘ljallangan hujralar va masjid xonaqosi, naqshlar bilan bezatilgan ayvon joylashgan.

Qo‘qondagi tomonlari mutanosib qilib tiklangan katta xona va kunchiqish tomonga qaragan ayvonni o‘z ichiga olgan Xishtin masjidi binosining yozlik qismidagi bezak namunalari diqqatga sazovor. Unda och yashil yuzaga tushirilgan turli gullar tasviri bahorda barq urib, gullagan bog‘ manzarasi bilan qo‘shilib ketgan.

Farg‘ona qadamjoy me’morchiligining eng yorqin namunasi bo‘lgan Jome’, Marg‘ilondagi shirmoypaz novvoylar buyurtmasi bilan Otajon usta va Yaqubjon ustalar qurgan Shirmoypazlik hamda

---

[1] Азимов И. Ўзбекистон нақшу нигорлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 8.

Sho‘ldirama[1] masjidlari o‘zining nozik jimjimador naqshlari hamda ularni aylantirib o‘ragan holda chizilgan pechakgul tasvirlarining girihlar bilan qorishib ketganligi bilan ajralib turadi. Chaqar masjidi[2] ning shiftida esa hayot abadiyligining timsoli sifatida rang-barang gullar solingan guldonlar va islimiy uslubdagi naqshlar chizilgan. Bag‘doddagi Oqil mingboshi, mulla Vali masjidlarining shifti xushvaqtlik ramzi sifatida noan’anaviy , ya’ni alvon rangda bezatilganligi bilan diqqatni o‘ziga tortadi.

Marg‘ilondagi Sayidahmadxo‘ja madrasasi, Toronbozor[3], Ibrohim Eg‘oz, Chustdagi Mavlono Lutfulloh Chustiy[4], Shahrixondagi Ponsod, Qo‘shtegirmon qishlog‘idagi Chorbog‘, Eshonboy va Qirqvoldi  kabi masjidlar binosida ajoyib naqshlar mavjud bo‘lib, naqqoshlar yorqin ranglarda jilolangan asoslarga islimiy naqshlar chekish bilan o‘z xayolot olamlarining juda ham bepoyon ekanligini yana bir karra isbotlagan. Bag‘doddagi katta anhor bo‘yida qurilgan Chuvrindi masjidi mehrobining ustida O‘rta Osiyo me’mor chigiga xos bo‘lmagan manzara-peyzaj tasvirlarining borligi bilan badiiy qimmatga ega.

Ushbu paragrafga xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, o‘rganilayotgan davr Farg‘ona vodiysi jamiyati rivojlanishida shaharlarning ijtimoiy-madaniy markazlar sifatidagi ahamiyati nihoyatda ulkan edi. Xususan, ijtimoiy hayotda hunarmandchilik yetakchi mavqeda bo‘lib, katta va kichik shaharlarda hunarmandchilikning barcha turlari – kulolchilik, temirchilik, zargarlik, to‘quvchilik, tikuvchilik, kosibchilik, misgarlik, bo‘yoqchilik, qog‘oz ishlab chiqarish kabi tarmoqlari taraqqiy etgan. Ko‘pchilik shaharlar hunarmandchiik ishlab chiqarishining muayyan turlariga ixtisoslashgan.

---

[1] Ushbu masjidni xo‘jandlik ustalardan To‘xtabek va Mirbobo hoji qayta tiklaganlar.
[2] Uning yassi bostirmali ayvon qismigina saqlanib qolgan.
[3] 1936 yilda qayta ta’mirlangan va dehqonlar uyiga aylantirilgan edi.
[4] Uning ayvon qismigina saqlanib qolgan.

Mazkur davrda shaharlarning madaniy markazlar sifatidagi ahamiyati Toshkent, Qo‘qon, Namangan, Marg‘ilon va Andijon kabi yirik shaharlar hamda ular atrofida qad ko‘targan masjidlar, madrasalar, hammomlar va maqbaralar qurilishlari orqali o‘z ifodasini topadi. Qurilish va me’mor chilikdagi uslublar, bezaklar hamda rang tanlanishida ko‘p hollarda Buxoro hamda Xiva shaharlari me’mor chiligi bilan o‘xshashlik kuzatiladi.

## 1.4. Rossiya tajovuzi va Qo‘qon xonligi shaharlarining Rossiya tasarrufiga o‘tishi1[1]

XIX asrning birinchi yarmiga kelib, O‘rta Osiyoda uchta xonlik o‘rtasidagi to‘xtovsiz urushlar va kelishmovchiliklar mintaqadagi iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tang ahvolga solib qo‘ydi, madaniy hayot izdan chiqdi. Ushbu vaziyat Rossiya imperiyasiga qo‘l keldi, chunki endi o‘lkada oldindan rejalashtirgan maqsadlarini amalga oshirishga sharoit pishib yetilgan edi.

Ma’lumki, XIX asr o‘rtalarida jahonning yirik davlatlari o‘rtasida yangi mustamlaka siyosati avj olgan edi. Ushbu “kurash”lardan Rossiya imperiyasi ham chetda qolmadi. Shu jihatdan, XIX asr o‘rtalarida Turkistonda Angliya va Rossiya manfaatlari to‘qnash keldi. Rossiya imperiyasi siyosatchilari Buyuk Britaniyaning Turkiston hamda Kaspiy dengizining sharqiy tomonini egallab olishidan g‘oyat xavfsirayotgan edi. Bunga asos ham yetarli bo‘lib, Angliya o‘z tasarrufidagi Hindiston va Afg‘oniston orqali o‘zbek xonliklari bilan savdo-sotiq hamda diplomatik aloqalar olib borar edi. Asosiy maqsad esa, bosib olishga chog‘lanayotgan Rossiya rejalarini barbod qilib, uchchala xonlikni unga qarshi birlashtirish va O‘rta Osiyo bozorlarini egallash edi.

---

[1] Ushbu bo‘lim mavzusi zamonaviy tarixiy-ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Ammo, Rossiya bosqini tafsilotlariga qisqacha bo‘lsa-da, to‘xtalib o‘tmasdan, tanlangan mavzuning mazmun-mohiyatini to‘la ochib berish imkoniyat bo‘lmasligi holatidan kelib chiqib, ushbu bo‘limni kiritishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Turli iqtisodiy va siyosiy sabablarning kun tartibida turishi oqibatida Rossiya imperiyasi dastlabki harbiy harakatlarini boshlab yubordi. Urush dastlab Qo‘qon xonligiga qaratilgan edi. Bosqinchilar zamonaviy qurol-aslahaga ega bo‘lib, ularga Yevropa janglarida tajriba orttirgan generallar rahbarlik qildi. Qo‘qonda esa ichki nizo va hokimiyat uchun urushlar avj olishiga qaramay, xonlik aholisi dahshatli yov bilan o‘z ona yurti, dini hamda g‘ururi uchun astoydil kurashga otlandi.

1850-yilda rus qo‘shinlari qo‘qonliklarning Ili daryosi sohilidagi To‘ychibek qal’asini bosib olish taraddudiga tushdi. 19-apreldagi birinchi urinishlar zoye ketdi. Biroq, 1851-yilda polkovnik Karabashev boshchiligidagi 500 ta otliq kazak guruhi ikki zambarak bilan qal’aga yaqinlashdi. Qo‘qonliklar kuchlarning teng emasligini inobat olib, istehkomdan chiqib ketdilar[1].

1852-yilda Orenburg general-gubernatori Perovskiy 400 kishidan iborat polkovnik Blaramberg boshchiligidagi askarlarga Sirdaryo bo‘ylaridagi hududlarni o‘rganish, Oqmasjid qal’asini buzib tashlash chorasini ko‘rish rejalarini bajarish kabi majburiyatlarni yuklaydi[2]. O‘sha yili 18-iyulda Blaramberg Oqmasjid yaqinida joylashadi. Rus bosqinchilarining birinchi hujumi omadsiz yakunlandi. Ular qal’aning ikkinchi mudofaa devoridan o‘tolmay, orqaga chekinishga majbur bo‘ladi[3].

Polkovnik Blaramberg chekinayotib, Qorao‘zak daryosining o‘ng oqimi bo‘ylab yurib, Qo‘shqo‘rg‘on, Chimqo‘rg‘on va Kumushqo‘rg‘on qal’alari himoyachilarining qarshiligini yengib, nomlari qayd etilgan qal’alarni buzib tashlaydi, shu tarzda Rossiya

---

[1] Исхаков Ф. Центральная Азия и Россия в XVIII–XX вв. – Ташкент: O‘zDAVMATBUOTLITI, 2009. – С. 72.

[2] Yuqoridagi asar... – Б. 95; Донесение командира Оренбургского корпуса Военному министру. 16 августа 1852 года. – № 1208. Ushbu majburiyatlar to‘liq H. Ziyoevning yuqorida ko‘rsatilgan asari (95 b.)da berilgan.

[3] Ba’zi manbalarda bosqinchilardan 15 kishi o‘ldirilib, 57 kishi yaralangan deb qayd etilgan bo‘lsa, boshqasida 72 nafar halok bo‘lingani ko‘rsatilgan. Bu haqda qarang: Зиёев Ҳ. З. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш..... – Б. 96.; O‘sha muallif: Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 131–134.

davlati Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida o‘z mavqeini ancha mustahkamlashga erishgan[1].

1853-yilning iyul oyida diplomatiya va xalqaro huquq qoidalarini poymol qilgan Rossiya generallaridan Perovskiy katta kuch bilan Sirdaryo sohillari sari siljib, Oqmasjidni bir oyga yaqin qamal qiladi[2]. Ushbu hujum haqida mahalliy manbalarda ham ma’lumotlar mavjud [3].

Qamal jarayonida 13-iyul kuni general Perovskiy qal’a boshlig‘iga xat yuborib, unda: “Men Umumrossiya imperatori farmoniga binoan, bizning yerimizda qurilgan Oqmasjidni olish uchun keldim... Bu yerga ruslar bir kunga yoki bir yilga emas, balki abadul-abadga kelganlar agar yashashni istasangizlar, rahm-shafqat so‘ranglar. Agar Oqmasjidda o‘lishni istasangizlar, bu sizlarning ixtiyoringizdadir. Men bu yerga urushish uchun kelganim yo‘q, ammo qal’ani olmasdan ketmayman”[4] - deb dag‘dag‘a qiladi.

Aleksandr Batirishkinning yozishicha, qo‘qonliklar qamal kunlarida ham, ruslarning hujumi vaqtida sodir bo‘lgan dahshatli portlashlardan keyin ham ruhiy tushkunlikka tushmay, mardonavor jang qildilar[5]. G‘arbiy Sibir general gubernatoriga 1853-yil 3-avgust kuni Oqmasjiddan yuborilgan xabarnomada yozilishicha, qal’a 28-iyul kuni zabt etilgan. Unda tirik qolgan qo‘qonliklarning haqiqatan ham mardonavor jang qilganliklari qayd etilgan[6].

Mahalliy muarrixlarning asarlarida xonlik kuchlarining Oqmasjidni qaytarib olish uchun qilgan harakatlari ham o‘z aksini topgan. 1853-yilda Xudoyorxon tomonidan Oqmasjid muhorabasiga jo‘natilgan Shodmonxo‘ja mingboshi Toshkent qo‘shini bilan harbiy

---

[1] Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш... – Б. 105.

[2] Серебренников Г. Туркестанский край / ЎзР МДА. Ф-715 (архив Серебренникова). – № 27 ва 38 ишлар.

[3] Муҳаммад Солиҳ хўжа. Тарихи жадидайи Тошканд. 507[б]–508[б].; Абу Убайдуллоҳ Тошкандий. Хулосат ул-аҳвол. 122[б], 123[а] варақ

[4] Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш... – Б. 99.

[5] O‘zMA. 1-fond. 1-ro‘yxat,1021-yig‘ma jild, 102- varaq; Yana qarang: Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи (Милоддан олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августигача). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 132–133.

[6] O‘zMA. 1-fond. 1-ro‘yxat, 853-yig‘ma jild,, 2-ro‘yxat, 133- varaq.

harakatlar olib boradi. Biroq, harbiy harakatlardagi sustkashlik uchun Xudoyorxon Shodmonxo‘jani Salimsoq va Muhammadkarim dodhohlar bilan birga Toshkent o‘rda maydonida sazoyi qildirgan. Harbiy harakatlarni ta’minotiga E’tibor siz bo‘lgani uchun Toshkent hokimi So‘fibek Davronbek bahodirboshi o‘z vazifasidan ozod qilinadi[1].

Rossiya qo‘shinlari Oqmasjidni bosib olgandan so‘ng Qo‘qon xonligiga nisbatan ochiqdan-ochiq zo‘ravonlik siyosatiga o‘tib ketadi va o‘z siyosatini ham shunga moslab boradi[2]. Oqmasjid urushlarida mag‘lub bo‘lgan Qo‘qon amirlashkarlari xon saroyi oldidagi maydonda xalq ommasi huzurida jazolangan vaziyatda, xon va uning yaqinlari qanday dushmanga duch kelganlarini hali tasavvur qila olmas edilar. Rossiya imperiyasi esa 1854-yili Perovskiy porti, 1-port, 2-port, 3-port va atrof joylarni o‘z ichiga olgan Sirdaryo chizig‘ini tashkil etdi. Ushbu liniya Rossiya va Qo‘qon xonligi O‘rtasidagi chegara hisoblanar edi[3].

Qrim urushi davri (1853–1855 yy.)da Rossiya Turkistonni bosib olishni biroz kechiktirishga majbur bo‘lgan. Rossiya imperiyasi urushda mag‘lub bo‘lib, Qora dengizdagi bandargohlarni qo‘ldan boy bergach, Turkiston yerlari orqali Afg‘oniston, Hindiston va Eron suv yo‘llariga o‘tishni maqsad qilgan edi. Bundan tashqari, rivojlanayotgan rus sanoati uchun bozorlar va xom-ashyo manbalari kerak edi. Shu va boshqa omillar Rossiyaning Turkistondagi harbiy harakatlarini qayta boshlashiga sabab bo‘ldi. Boshqa tomondan, Turkiston xonliklari O‘rtasidagi ittifoqsizlik, urush va nizolar ham Rossiya imperiyasi uchun qulay sharoitni yaratdi[4].

---

[1] Тарихи жадидайи Тошканд…. – 513[а], 518 варақ

[2] Юдин М. А. Взятие Ак-Мечети в 1853 году как начало завоевания Кокандского ханства. – Москва: Издание Владимира Балашева, 1912. – С. 140.

[3] Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш... – Б. 108.

[4] Брежнева С.Н. Проблема присоединения Средней Азии к России в отечественной историографии 1920-1950-х годов // Отечественная история. 2005. – № 1. – С. 148.

Darhaqiqat, Rossiya imperiyasi oʻzining tashqi siyosatida turli yoʻllar bilan Oʻrta Osiyo xonliklaridagi millatlararo va qabilalararo urushlarni qoʻzgʻash, qoʻllab-quvvatlash, hatto Rossiya fuqarolari boʻlmish Oʻrta osiyoliklar orasida ham nizo keltirib chiqarishga harakat qilardi. Masalan, Sibir okrugi komandiri G. Gosfordning Olatov okrugi boshligʻiga yozgan xatida: “Biz, atabanlar va saribagʻishlarning bir-biriga qilgan qaroqchilik (qoʻy, otlarni oʻgʻirlash)dan kelib chiqqan mojarolaridan foydalanib, soʻnggi kuchli zarbani berishimiz kerak. Buning uchun qoʻqonliklarni va qirgʻiz (qozoq) qabilalarini yomon koʻradigan va ularning chorva mollariga qaroqchilik yurishlarini uyushtirib turgan mashhur Suranchining xizmatidan foydalanish kerak. Oxirida esa Suranchini Umbet-Aliga qarshi qilib qoʻyish kerak”[1], deyiladi.

H. N. Bobobekovning maʼlumotlariga koʻra, 1858 yilda Qoʻqon xonligida bir necha yirik qoʻzgʻolonlar boʻlib oʻtgan. Ayniqsa, qozoqlarning gʻalayoni Qoʻqon-Rossiya munosabatlariga ham salbiy taʼsir etgan. Chunki, qozoqlar Qoʻqon xonidan norozi boʻlib, rus hukumati tasarrufiga oʻtib ketmoqchi boʻldilar, koʻpchiligi oʻtib ham ketdi. Shu munosabat bilan chegaradosh rus maʼmuriyati nomiga Toshkent va Turkiston hokimlari maktublar yuborib turdi. Ushbu maktublarda chor maʼmuriyatidan Qoʻqon xonligining ichki ishlariga aralashmaslik, qozoqlarning Rossiya tasarrufidagi yerlarga oʻtib ketishiga yoʻl qoʻymaslik va oʻtib ketganlarini Qoʻqon xonligiga qaytarish soʻralgan edi. Ammo, chor maʼmuriyati turli bahonalar bilan ushbu talablarni rad etgan[2].

1858–1859 yillarda Rossiya imperiyasi Buxoro va Xivaga polkovnik N. P. Ignatʼevni yuborgach, u qaytgandan keyin ushbu missiyaning natijasiga koʻra, Oʻrta Osiyoni bosib olish rejasini

---

[1] Oʻz MA. I-715-fond, 1-roʻyxat, 22- yigʻma jild, 292 varaq.

[2] Qoʻzgʻolonlar haqida toʻliqroq maʼlumot olish uchun H.N.Bobobekovning «Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки» nomli kitobiga qaralsin..

takomillashtirgan[1]. Qrim urushi tufayli to'xtab qolgan harbiy harakatlar 1860 yilning yozida yana jonlandi. O'sha yili 26 avgustda polkovnik Simmermann boshchiligidagi guruh To'qmoq istehkomiga hujum qilib, uni egalladi. 1860-yilning 5 sentyabrida Pishpak qal'asi taslim bo'ldi, ko'p narsalar o'lja olindi[2]. 1861-yilda Yangiqo'rg'on (general-leytenant Debu boshchiligida) bosib olindi[3].

Rossiya generallari diplomatik munosabatlarni poymol etib, 1862 yil may oyida Qo'qon xonligiga qarashli Oqsuv, Pishtepa va Choldevor qal'alarini egalladi, 1863 yilning mayida esa Turkiston shahriga qo'shin tortib borib, 8 iyunda Cho'loq qo'rg'onini bosib oldi. 1864 yil 1 may kuni Ver'niy (Olma-Ota) istehkomidan yo'lga chiqqan polkovnik Chernyaevning otryadi qattiq jangdan keyin Avliyoota qal'asini ham bosib oladi. 1847-1864 yillarda chor hukumati Qo'qon xonligining hozirgi Qozog'iston va Qirg'iziston yerlaridagi mavqeiga zarba berib, ko'p yerlarni qo'lga kiritgan. 1864 yilning 12 iyulida Turkiston zabt etilib, Veryovkin Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasidagi noyob tarixiy asori-atiqalarni talon-taroj qilib, Rossiyaga jo'natgan[4]. General Chernyaev boshchiligidagi qo'shinlar Chimkentni qamal qilar ekan, bu yerda sarkarda Aliquli (ba'zi manbalarda Alimqul) zarbasiga uchradi. Nihoyat, 1864 yil sentyabrda Chimkent ostonasida shiddatli janglar boshlandi. Harbiy-texnik ustunlikka ega bo'lgan dushman 22 sentyabrda shaharni egalladi[5].

Turkiston va Chimkentning bosib olinishi natijasida[6] chor harbiy qo'shinlari uchun bosqinchilik harakatlari yanada kengayib, endilikda mintaqaning eng katta va boy shaharlaridan bo'lgan

---

[1] Исхаков Ф. Центральная Азия и Россия в XVIII–XX вв..... – С. 79–82.
[2] Ushbu istehkom ikkinchi marta 1862 yil 13 oktabrda boshlangan qamal natijasida 24 oktabrda qayta egallandi. Bu haqda qarang: Донесение генерала Госфорда. 10 ноября 1860 г. – № 1719.
[3] Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи.... – Б. 134.
[4] Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. (Чоризм ва совет даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 353–400.
[5] Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи... – Б. 136.
[6] Chimkent hijriy 1281 yil 3 jumod ul-avval / milodiy 1864 yil 5 oktabrda bosib olingan. Bu haqda qarang: Аваз Муҳаммад Аттор. Тарихи жаҳоннамойи. (таржима). – Б. 124; Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш.... – Б. 126–140.

Toshkentni bosib olishga keng yo‘l ochildi. 1864 yil 1 oktyabrda general Chernyaev katta harbiy qo‘shin bilan birga Toshkent shahri sharqidagi Darvishak Qopqa degan joydagi Kaykovus arig‘idan o‘tib, Xo‘ja Ahrorning Oqqo‘rg‘ondagi vaqf yerlarida to‘xtadi.

2-oktyabrda Toshkentga dastlabki hujum boshlandi. Ammo, toshkentliklar shahar himoyasini tashkil etib, Toshkent hokimi Qo‘sh parvonachi qipchoq navkarlari bilan shaharning sharqiy qismi, Mirzo Ahmad qo‘shbegi Oqqo‘rg‘on darvozasi, Xayr Muhammad afg‘on yovar to‘pchiboshi esa o‘rdaga joylashib, shu darajada qarshilik ko‘rsatdilarki, general Chernyaev mag‘lubiyatga uchrab, Chimkentga qaytib ketishga majbur bo‘ldi[1]. Rus bosqinchilari 80 nafarga yaqin askaridan ayrildi[2]. M. G. Chernyaev Eski Qo‘qon yo‘li bilan Salor arig‘i ko‘prigidan o‘tib, Afrosiyob tepaligiga kelganda, Aliquli amirlashkar va Sulton Saidxonlarning kelayotganini eshitib, Bo‘zsuv ko‘prigi orqali Chimkentga qaytadi. Toshkentga kelgan Aliquli amirlashkar mudofaada jonbozlik ko‘rsatganlarni taqdirlaydi[3].

Mag‘lubiyat o‘chini olish maqsadida general Chernyaev 1865 yilning 28 aprelida Niyozbek qal’asini egallashga buyruq beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, Toshkent mudofaasini tashkil etishda Aliquli sarkardaning xizmatlari katta bo‘ldi. U 1865-yil 15–16-may kunlari Andijon, O‘ratepa, Namangan, Xo‘jand va Marg‘ilon navkarlaridan iborat qo‘shini bilan Qo‘qondan Toshkentga yetib keladi hamda Afrosiyob tepaligidagi Mingo‘rik chorbog‘iga joylashadi. Toshkent shahri uchun bosqinchilar va shahar mudofaachilari O‘rtasida qattiq kurash bo‘lib o‘tganini mahalliy muarrixlar keng yoritgan[4].

---

[1] Тарихи жадидайи Тошканд. – 581 варақ; Хулосат ул-аҳвол. – 225 варақ

[2] Абаза К. К. Завоевание Туркестана. – Санкт-Петербург, 1902. – С. 85.

[3] Тарихи жадидайи Тошканд. – 581[б]; Султонов Ў. А. Муҳаммад Солтиҳхўжа ва унинг “Тарихи жадидайи Тошканд” асари…. – Б. 123.

[4] Тарихи жадидайи Тошканд.... – 608[а],[б]; Хулосат ул-аҳвол, 232[а],[б].

Qo‘qon–Rossiya munosabatlari 1867-yildan boshlab asosan, Toshkentda hal qilinadigan bo‘ldi. O‘rta Osiyo xonliklari bilan o‘zaro bitimlarga imzo chekish vakolati Turkiston general-gubernatori K. P. fon Kaufmanga berildi. Shuning uchun xonliklarga ham Rossiya bilan emas, balki Turkiston general-gubernatorligi orqali shartnoma tuzish ma’qul edi. Bu – diplomatik va ma’naviy nuqtai nazardan qaralsa, mustaqil davlatlarning haq-huquqlarini kamsitishdan boshqa narsa emas edi.

1872-yilning boshlarida Qo‘qon xonligi taxtining valiahdi, shahzoda Nasriddinbek Toshkentga kelganida, fon Kaufman uning sharafiga berilgan ziyofatda Xudoyorxonni G‘arbga borib, ko‘p narsalarni o‘rganib qaytgach, o‘z mamlakatini bir necha pog‘ona yuksaklikka ko‘tara olgan Pyotr I ga o‘xshatgan, “Yashasin, Xudoyorxon!” deya qadah ko‘targan va eng to‘g‘ri yo‘ldan borayotgan rahnamo sifatida rosa ulug‘lagan edi.

Qo‘qon xonligining so‘nggi yillarida Xudoyorxon toju taxt uchun kurash girdobida qolgan paytlarida fon Kaufman unga yordam berish o‘rniga “nasihat”dan nariga o‘tmaydi. U soxta Po‘latxon qo‘shinlariga bas kela olmagan Xudoyorxonga Toshkentga kelishini buyuradi. Uni qo‘riqlab kelish uchun 60 nafarlik kazak askarlarini yuboradi. Fon Kaufman xonning barcha qarshiliklariga qaramay, majburan Orenburgga jo‘natadi. Orenburg general-gubernatoriga maxsus xat yozib, Xudoyorxonni ushlab turishga erishadi.

1875-yil 16-oktyabrda Kaufman Namanganga general Skobelev boshchiligida 14 ta rota, 500 nafar kazak, 4 ta raketa stanogi va 16 to‘pdan iborat harbiy kuchni qoldirib, Xo‘jandga jo‘naydi[1]. U Namangan bekligining Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilganligini e’lon qilib, xonlikka yana bir bor qaqshatqich zarba beradi. Skobelev bu vaqtda Namangan bo‘limining boshlig‘i etib tayinlangan edi. Vodiy xalqi qanchalik azob uqubatlar va misli

---

[1] Туркистон вилоятининг газети // 1875-йил 28-октябрь. – №27.

ko‘rilmagan qirg‘inlarni ko‘rmasin, baribir, ozodlik kurashidan voz kechmadi. Aksincha, xonlikning turli hududlarida g‘alayonlar ko‘tarildi. Hasan Kalla boshchiligida Yangiqo‘rg‘on va Bachqir qishloqlarining aholisi Qo‘qon shahriga bostirib kirib, xon saroyini taladilar hamda Sulton Murodbekni tutib, Po‘latxonga jo‘natdilar. Bu yerda uning kallasini tanasidan judo qildilar.

Fayziobod jangida g‘olib kelgan Valixon o‘z atrofiga yangi kuchlarni to‘plab, Namanganni bosqinchilardan ozod etishni rejalashtiradi. Marg‘ilonliklar, qirg‘izlar va boshqa qishloqlarning odamlari Baliqchi tomon yo‘l olganda, Valixon ular bilan birgalikda Qoradaryo atrofida Skobelev soldatlariga qarshi jangda mag‘lubiyatga uchraydi. U Marg‘ilonga kelganda, halok bo‘lganlarning oilalari unga tashlanadilar. Pirovardida, jazodan qo‘rqqan Valixon shahardan qochib ketadi. Ushbu urushda ruslardan 1 kishi o‘ldiriladi, 10 kishi yaralanadi. 1875 yilning 18 oktyabrida polkovnik Pichugin Ashobaga borib, qo‘zg‘olonchilar bilan jang qilib, qishloqni butunlay xarobaga aylantiradi. Mazkur urushda 3 nafar bosqinchi o‘ldirilib, 11 nafari yaralanadi, qo‘zg‘olon qatnashchilari esa qattiq jazolanadi[1].

Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida Namanganning sobiq hokimi Botir To‘rabek ham atrofiga odam olib, bosqinchilarga qarshi bosh ko‘tardi. “Bul tarafda, Namanganda, - deb yozadi Ibrat, - Botura degan kishi chiqib, eski sipohlardan yig‘ib, muhoraba qilmoq bo‘lub, uchto‘rt ming odamni jamlab, Turaqurg‘onni g‘arb tarafidagi Sarsonchap degan qirg‘a askar yig‘ib ulamolar so‘zlariga quloq solmay harakatda erdilar”. Botir To‘ra qo‘li ostidagilar Xo‘jand va Namanganni birbiriga bog‘lovchi yo‘lda Svyatopolk Mirskiy boshchiligida 20 soldat qo‘riqlab ketayotgan yuk ortilgan bosqinchilar transportiga hujum qilib, ularni bitta qoldirmay o‘ldirganlar. Skobelev 1875-yil 23-oktyabrda To‘raqo‘rg‘on

---

[1] Зиёев Ҳ. Қўқон хонлигининг тугатилиши. Худоёрхон ва Россия тажовузига қарши халқ ҳаракатлари // http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/274

qo‘zg‘olonchilarini yengib, ko‘p odamlarni o‘ldirdi. Ayniqsa, qo‘zg‘olonda faol qatnashganligi uchun to‘raqo‘rg‘onliklarning ko‘pchiligi o‘limga mahkum etiladi. 23–27 oktyabrda To‘raqo‘rg‘onda bo‘lgan to‘qnashuvlarda bosqinchilardan 6 kishi o‘ldirildi va 50 kishi, jumladan, 3 nafar ofitser yarador qilindi.

Bu paytda Namanganda bosqinchilarga qarshi kayfiyat kuchaygan edi. Shu bois, barcha aholi qochib kelgan Botir To‘ra tarafiga o‘tib ketgan. Shundan keyin uning rahbarligida himoyachilar Namangan shahri biqinidagi rus harbiy qismiga hujum qildilar. Bundan xabar topgan Chustdagi Skobelev shoshilinch ravishda qaytib, 26-oktyabrda Namanganga kelib, ertasi kuni vatan himoyachilariga qarshi hujum boshladi va shaharning bir qismini ostin-ustun qildi. Uning farmoniga binoan, shahar shu darajada qattiq o‘qqa tutildiki, himoyachilardan 8800 kishi halok bo‘ldi. Ular orasida yaradorlar son-sanoqsiz edi. Bu gal ham bosqinchilar o‘zlarining vahshiyliklarini yana bir bor namoyish qildilar, ammo bunday qirg‘inbarotlar xalqni ozodlik kurashlaridan qaytara olmadi[1].

1875-yil 25-dekabrda general Skobelev Namanganda 4 ta rota, 40 nafar kazak va 10 to‘p, Chustda 2 ta rota, 20 nafar kazak, 6 ta to‘p, Oqjarda 2 ta rota, 100 nafar kazak hamda 2 to‘p qoldirib, 2800 kishi va 12 ta to‘pdan iborat qo‘shin bilan Andijonga yo‘l oladi. “Shundan keyin Skobelev, -deyiladi rus manbasida, - Norin daryosi orqali Qoradaryoning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab qipchoqlarning eng katta qishlog‘i Poytug‘gacha bordi. U keta turib, yo‘lning ikki tomonidagi O‘zgan shahri va daryoning chap qirg‘og‘iga qochib ketgan aholining qishloqlarini yondirib, yo‘q qilib tashladi. Shundan keyin general Skobelev Qoradaryoni kechib o‘tib, 1876 yil 3 yanvarda o‘zining barcha harbiy qismlarini Andijondan 5 chaqirim masofadagi Mirravot degan joyga o‘rnashtirdi. Bu vaqtda Andijonda

[1] Туркистон вилоятининг газети // – 1875. – №27; Зиёев Ҳ. Qo‘qon xonligining tugatilishi. Xudoyorxon va Rossiya tajovuziga qarshi xalq harakatlari // http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/274.

Abdurahmon oftobachi 20 ming qurollangan xalq lashkari, 5000 nafar sarboz va 10 ming otliqni to‘plagan edi”.

1876-yil 13-yanvarda general Skobelev Asakaga yaqinlashib, uni har jihatdan o‘rganadi. Ruslar 18 yanvarda 2 ta rota piyoda askar, 240 nafar otliq, 500 nafar kazak, raketa batareyasi va 4 ta to‘p bilan Asakaning himoyachilar o‘rnashgan sharqiy tomoni hamda o‘rdani to‘plardan o‘qqa tutadilar. So‘ngra soldatlar hujumga o‘tib, tepaliqdagi himoyachilar qarshiligini yengib, chekinishga majbur etadilar. Bosqinchilar Margilon yo‘lida chekinayotgan himoyachilarni ortidan hujum qilib, 800 kishini o‘ldiradilar. Ushbu mag‘lubiyat yuqori tabaqa vakillarini shu darajada vahimaga tushirganki, 20 yanvarda Abdurahmon oftobachi o‘zining 12 safdoshi, shu jumladan, Botir To‘ra, Isfandiyor, Xoliqul Parvonachi, Normuhammad dodxoh va boshqalar hamda 700 yigiti bilan Skobelevga taslim bo‘ladi[1].

Oradan ko‘p o‘tmay, Qo‘qon xonligi ichki nizolar, Rossiya ma’muriyatining buzg‘unchiligi va va’dasiga xilof harakatlari oqibatida bo‘hron girdobiga tushib qoladi. Toju taxt uchun olib borilgan nizolar, amaldorlarning xiyonatlari, davlat arboblarining kaltabinligi, xurofot va jaholat Qo‘qon xonligini zaiflashtiradi. Rossiya ma’muriyati Turkiston general-gubernatorining sharqiy chegaralarida tinchlik o‘rnatish bahonasida Farg‘ona vodiysini bosib oladi. 1876- yil 19-fevralda Qo‘qon xonligiga shu tariqa rasman barham beriladi.

Rossiya ma’muriyati Buxoro va Xiva xonliklarini o‘ziga tobe qilgandan so‘ng Sharq (Xitoy chegarasidagi munosabatlarining taranglashmasligi uchun)da Qo‘qon xonligidan “bufer” davlat sifatida foydalanmoqchi ham bo‘lgan. Xonlikda sodir bo‘layotgan ichki voqealar esa mamlakatning kelajagini Rossiya ma’muriyatining unga nisbatan keskin choralar ko‘rishga qulay

---

[1] Туркистон вилоятининг газети // – 1875. – №32; Nabiyev A. Mustaqillik uchun kurash yoxud parchalangan Turkiston tarixi. – Toshkent: Yozuvchi‖, 1998. – B. 61.

sharoit yaratib berdi. Qo‘qon xonligiga barham berilgach, ko‘p o‘tmay, Sharqiy Turkiston Xitoy tomonidan bosib olindi, natijada Yaqubbek Badavlatning Yettishahar davlatiga ham barham berildi.

Umuman olganda, Qo‘qon xonligiga barham berilishi, Buxoro va Xivaning tobe davlatlar sifatida saqlab, ularga nisbatan mustamlakachilik siyosatini olib borgan chor ma’muriyati keyinchalik ushbu hududlarda rus shovinizmi, ruslashtirish hamda Rossiyadan aholini ko‘chirib kelishni amalda joriy etdi. Mustamlakachilik siyosati to‘liq ma’noda O‘rta Osiyoning boshqa davlatlariga nisbatan Qo‘qon xonligida izchil amalga oshirildi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, XIX asrning o‘rtalariga kelib, Rossiya imperiyasi qozoqlar yashaydigan yerlarni turli bahona va sabablar bilan bosib olib, bevosita Qo‘qon xonligi chegarlarini bosib o‘tishi, Rossiya hamda Buyuk Britaniya manfaatlarining to‘qnashuvini tezlashtirdi. Rossiya harbiy yo‘l bilan 1876-yilgacha Qo‘qon xonligining ko‘pgina shahar va istehkomlarini bosib olgach, ularni o‘zining mustahkam tayanchiga aylantirdi.

# IKKINCHI BOB

# QO‘QON XONLIGIDAGI SIYOSIY, MA’MURIY VA HUDUDIY O‘ZGARISHLAR

## 2.1. Qo‘qon xonligining tugatilishi va Farg‘ona shaharlaridagi siyosiy-hududiy o‘zgarishlar

Rossiya imperiyasi Buxoro amirligi va Xiva xonligiga qarshi urush olib borayotgan yillari Qo‘qon xonligida chuqur siyosiy-iqtisodiy inqiroz hukmronlik qilar edi. Qolaversa, bu vaqtda xonlik yerlarining yarmini ruslar egallagan, xonlik hududi asosan, Farg‘ona vodiysidan iborat bo‘lib qolgan edi. Xudoyorxonning so‘nggi hukmronlik yillari (1865–1875) davom etardi. “U, - deb yozgan edi Ibrat o‘zining ”Farg‘ona tarixi” asarida, – Rusiyadan xotirjam bo‘lib, vaqtini o‘yin-kulgi bilan o‘tkazib, ulamo va fuzalo nasihatlariga amal qilmay, jabru zulm tarafiga o‘tib turganida rayiyatu xalq undan yuz o‘gurdi...[1].

Xudoyorxonning qattiq zulmi, og‘ir iqtisodiy hayot hamda uni Rossiyaning itoatli xizmatkoriga aylanishi xalq g‘azabini qo‘zg‘atdi. Xonga qarshi xalq bilan birgalikda saroy harbiy va amaldorlari, ruhoniy hamda savdogarlari ham bosh ko‘tardilar. Bunda o‘zbek, qirg‘iz va tojiklar faol qatnashib, Xudoyorxon va rus davlatining tajovuziga qarshi kurashdilar[2].

Xudoyorxonning poytaxtdan qochishi va xonlikdagi vaziyat rus ma’muriyatiga juda qo‘l keldi. Kaufman Yettisuvdan Toshkentga qaytib, xonlik hududlarini bosib olish choralarini ko‘ra boshlaydi. Shu o‘rinda, Ovliq qo‘qonliklar tomonidan egallab olinadi va 16 nafar rus askari asirlikka olinadi. Savdogar Isayevning oyna zavodiga o‘t qo‘yiladi. Kaufmanning buyrug‘i bilan Sirdaryo viloyatining gubernatori Golovachev harbiy harakatlarni boshladi.

---

[1] Ибрат. Тарихи Фарғона. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 310.
[2] Ўзбекистон тарихи / Р. Ҳ. Муртазаева таҳрири остида. – Тошкент: Университет, 2001. – Б. 190.

Rus ma’murlari o‘z harbiy kuchlarini Qurama, Xo‘jand (Garnovskiy qo‘mondonligida), Toshkent atrofidagi Parkent (Skobelev rahbarligida) va boshqa joylarga yuboradilar. Kaufmanning o‘zi 1875-yil 13-avgustda Piskentga yetib kelganida, podpolkovnik Noldedan Xo‘jand bosib olingani haqida ma’lumot oladi. 18 avgustda esa Kaufman Xo‘jandga keladi. Bundan oldinroq Xo‘jandga Samarqanddan polkovnik Yefimovich 200 nafar kazak artilleriya divizioni bilan yetib kelgan edi.

1875-yilda o‘z atrofiga 200 nafardan ziyod navkarni to‘plagan Po‘latxon O‘zganga kelib, xonga qarshi katta xavf tug‘diradi. Ularga qarshi Iso Avliyo, Abdurahmon oftobachi va Sarimsoq eshikog‘asi boshchiligida 4000 kishilik askar yuboriladi. Biroq, 1875-yil 28-iyulda yirik amaldorlar o‘z qo‘shini, Xudoyorxonning o‘g‘li Andijon hokimi Nasriddinbek 5000 kishilik qo‘shini bilan qo‘zg‘olonchilar tomoniga o‘tib, birlashadi. Xonlikning asosiy harbiy qism va lashkarboshilarining qo‘zg‘olonchilar tomoniga o‘tib ketishi Xudoyorxon taqdirini hal etgan asosiy omil edi. Shundan so‘ng Xudoyorxon fon Kaufman huzuriga oila a’zolari bilan qochishga majbur bo‘ldi. Qo‘qonda esa Abdurahmon oftobachi boshchiligidagi guruhlar Nasriddinni taxtga o‘tkazadilar. Nasriddinxon Turkiston general-gubernatori Kaufmanga xat yuborib, go‘yo yaxshi aloqalar o‘rnatish maqsadi va o‘zining taxtga o‘tirganini ma’lum qilish bilan birga do‘stona aloqada bo‘lish xaqida so‘z yuritadi.

Rossiya hukumatiga qarshi xonlikning Sharqiy hududida aholisi bosh ko‘taradi. Marg‘ilon aholisi Otaqul bahodirboshini “bu ruslarga sotilgan xoin” deb, tutib olib o‘ldiradi. Shahar aholisi qo‘zg‘oloniga Valixon to‘ra, Hayitboy eshikog‘asi boshchilik qiladi. Po‘latxon ruslarga qarshi katta qo‘shin jamlaydi. Qo‘qonga hujum qilmoqchi bo‘lganida, Nasriddinbek mustaqil xonlikning o‘n uchinchi kuni taxtga o‘tirib, 1875 yil 25 sentyabrda ruslar bilan

bitim tuzadi[1]. Bundan xabardor bo‘lgan aholi yana qo‘zg‘olon ko‘tarib, O‘rdaga hujum qiladi, Nasriddinbek esa Xo‘jandga qochadi.

Qo‘qon xoni mag‘lub bo‘lgach, Fozil Ahmad Mahdumi A’zamiy va mullo Muhammad Iso Avliyolarni maktub bilan fon Kaufman huzuriga yuboradi. Elchilar bilan ikki bosh ot, ikki bo‘g‘cha sovg‘a hamda 18 nafar rus asirlari jo‘natiladi. Maktubda hamma ayb qirg‘iz-qipchoqlarga yuklanadi va bosqinchilarning har qanday shartlariga Nasriddinxonning roziligi ma’lum qilinadi.

Biroq, fon Kaufman xonlikka butunlay barham berilishini xohlar edi. 29 avgustda Qo‘qonga yaqinlashgan Kaufmanga Nasriddinxon boshliq nufuzli kishilar peshvoz chiqib, rahm-shafqat so‘raganlar. Kaufman buni mamnuniyat bilan qabul qilib, shahar tinch yo‘l bilan egallanganini Rossiya imperatoriga bildiradi. Ushbu axborot orqali Kaufman Namanganni Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘i bilan Rossiyaga qo‘shib olishni so‘raydi. Imperator agar ushbu tadbir kelajakda chegara xavfsizligining oldini olish uchun xizmat qilsa, uni amalga oshirishga ijozat beradi[2].

Kaufman xon orqali xonlikning katta shaharlaridagi nufuzli aholini o‘z huzuriga chorlaydi. Ammo, ular tabrik maktubi jo‘natish bilan cheklanadi. Kaufman 5-sentyabrda Marg‘ilon sari harakat boshlab, 8 sentyabrda shaharni egallaydi. U kelguncha Abdurahmon oftobachi shaharni tark etadi. 8 sentyabrda Marg‘ilonga ruslar kiradi. Shahardan polkovnik Skobelev boshchiligida katta kuchlar Abdurahmon Oftobachi qo‘shinini ta’qib qilish uchun jo‘natiladi. Biroq, himoyachilar Mingtepaga yaqin joyda tarqalib ketgan edi.

Kaufman Nasriddinbekni Marg‘ilonga chaqirib, uni sulh shartlari bilan tanishtiradi. Shunga ko‘ra, Sirdaryoning o‘ng qirg‘oqlari Rossiya imperiyasi tarkibiga kirishi hamda

---

[1] Nasriddinbek 22 moddadan iborat shartnomaga imzo qo‘yib, har yili 500 ming rubl jarima to‘lashga rozi bo‘ldi. M. Skobelev esa Marg‘ilon aholisiga ham 125 ming tillo jarima soldi. Bu haqda qarang: История народов Узбекистана. Т.2.... – С. 140.
[2] Туркистон вилоятининг газети // – 1875. – №20; №23; №32.

bosqinchilarga 600 ming tanga tovon to‘lash kerak edi. Nasriddinxon 23-sentyabrda Kaufmanga xat yozib, butun ixtiyorini Rossiya imperatoriga topshirganini ma’lum qiladi. Uning maktubi chekkasida Kaufmanning shunday qaydi bor: “Men Nasriddinxondan shartnomaning bajarilishini so‘raganimda, u mening ishonadigan odamlarim yo‘q, atrofdagilarga tayanib bo‘lmaydi, dedi”[1].

1876-yilning 28-yanvarida Uchqo‘rg‘onda mag‘lubiyatga uchragan Po‘latxon Oloy vodiysida so‘nggi kuchlari bilan tor-mor etildi. Skobelev hiyla va nayrang bilan Po‘latxonni Asaka hamda Andijon orasi (Chavay degan joy)da qo‘lga oladi. Po‘latxonni tutishga yordam bergan O‘rozboy Xudoyorxon va Hoshimberdi Shambarov Rossiya tilla nishonlari bilan taqdirlandilar[2].

1876-yil fevralda Namanganda turgan general Skobelev general-gubernator Kolpakovskiydan podsho imzosi bilan Qo‘qon xonligini butunlay bosib olish uchun buyruq oladi[3]. 1876-yil 15-fevralda Qo‘qon qamal qilingach, Nasriddinxon taslim bo‘ladi va Abdurahmon oftobachi bilan Toshkentga jo‘natiladi[4].

Abdurahmon oftobachi Rossiyaning Yekaterinoslav guberniyasiga surgun qilindi, Nasriddinxon esa Vladimir guberniyasiga yuborildi. Po‘latxon (Isoqboy ibni Hasanboy qirg‘iz o‘g‘li) esa Sayid Mavlonbek va Aliakbarbek ibn Saidmurodbek talablari bilan Marg‘ilonda 1876-yili 1-mart kuni dorga tortildi[5]. Uning homiysi mullo Abdulmo‘min ibni Muhsinbek Toshkandiy hamda Abdulmo‘min Toshkentga olib borilib, Salar anhori labida

---

[1] Nasridinxon maktubining matnini H. Ziyoev keltirgan. Bu haqda qarang: Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш... – Б. 347–348; Туркистон вилоятининг газети // – 1875. – №23.

[2] Зияев Х. Средняя Азия и Сибирь вторая половина XVI–XIX вв. – Ташкент, 1964. – С. 67–68; O‘z MA. И., 19-фонд, 1-рўйхат 30-йиғма жилд, 37-варақ.

[3] Mazkur murojaatnoma 7 fevralda 1876 yil uch tilda ko‘paytirilib Farg‘onaning barcha shaharlari, qishloq va ovullariga tarqatildi. Bu haqda qarang: Туркестнский календарь на 1880 год. – Ташкент: Типография Военно-народного Управления. – 1879. – С. 161–162.

[4] Туркестанские ведомости. – 1876. – №8.

[5] Корытов Н. Самозванец Пулатхан (историческая заметка). Отд. Отт. – С. 19–40.; История Узбекистана... Т.2. – С. 144.

dorga osiladi. 1876-yil 19-fevralda Qo‘qon xonligining yerlari Rossiya qo‘shini tomonidan to‘la bosib olinib, Farg‘ona viloyati tuziladi[1]. Unga general M. D. Skobelev harbiy gubernator etib tayinlandi[2].

Shunday qilib, 150 yildan ko‘proq Markaziy Osiyoda muhim o‘rin egallagan Qo‘qon davlati barham topadi[3]. Rus hukumati 1853–1876 yillarda o‘zbek xonliklar va ularga qarashli shahar va qishloqlarni birin-ketin bosib olib, O‘rta Osiyoning hukmdori bo‘lib qoldi[4]. Buxoro amirligi va Xiva xonligi rasman o‘z mustaqilligini saqlagan bo‘lsalar-da, aslida Rossiya davlatiga butunlay tobe bo‘lib qolgan edi. Rossiya Amudaryo bo‘ylarigacha bo‘lgan yerlarni o‘z tasarrufiga kiritadi[5].

1876-yilda xonlikka barham berilgandan so‘ng vodiy shaharlari ma’muriy va xo‘jalik boshqaruvi jihatidan xonlik davridagi beklik va sarkorlik hududlarida tuzilgan Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, O‘sh, Chimiyon, Namangan hamda Chust uyezdlarga bo‘lindi[6]. Farg‘ona viloyati shimoldan Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari bilan, g‘arb hamda janubiy-g‘arbdan Samarqand viloyati, Sharqdan Xitoy va janubdan Qorategin, Darvoz hamda Vaxon bilan chegaradosh bo‘lgan. Viloyatning g‘arbiy qismidan tashqari barcha tomoni tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan edi. 1883 yilda viloyat maydoni 83.664 kv. verst bo‘lgan[7]. 1905 yilda esa uning maydoni 121.141 kv. verst (Pomir bilan birga, uning hududi 40000

---

[1] Марков Е. Л. Фергана. Путевый очерки Кокандского ханства // Русский вестник. Т. IX. – Санкт-Петербург, 1893. – С. 12–24.

[2] Imperatorning 1876-yil 26-noyabrdagi farmoni bilan Qo‘qon xonligini tugatilishida qatnashgan askarlar Georgiy va Vladimir lentasiga osiladigan “Qo‘qon xonligini bosib olish uchun. 1875–1876 yy. “yozuvli bronza medali bilan taqdirlandilar. Bu haqda qarang: Серебренников А. Из истории Кокандского похода // Военный сборник. – 1901. – № 10. – С. 74.

[3] Воейковь А. И. Очерки Туркестана (Фергана). – Санкт-Петербург, 1913. – С. 19–39.

[4] Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи... – Б. 154.

[5] Воҳидов Ш. Аваз Мухаммад Аттор и его сочинение “Тарихи жахоннамойи”... – С. 8.

[6] Туркистон вилоятининг газети // – 1876. – №11–12; Положение об управлении Туркестанского края. – Санкт-Петербург, 1886. – С. 1.; Фармонова Б. А. Ремесленное производство в Ферганской долине во второй половине XIX – начале XX вв. Дисс. канд. ист. наук. – Ташкент: Институт Истории АН Уз. 1995.– С. 23.

[7] Обзор Ферганской области за 1883 год. Приложение к всеподданнейшему отчету.

kv. verst bo‘lgan)ga to‘g‘ri kelgan[1]. 1883-yilda Sirdaryo viloyatidan 2 ta volost Farg‘ona viloyatiga o‘tkaziladi. 1884-yilda Dasht general-gubernatorligi roziligi bilan Yettisuv viloyatining To‘qmoq uyezdidan Ketmontepa volosti Namangan uyezdiga qo‘shiladi[2].

Bosib olingan hududlarda imperiya hukmronligini o‘rnatish, mustahkam o‘rnashib olish, istilo qilingan joylarni qo‘ldan chiqarmaslik uchun, eng avvalo, mustamlakachilar o‘zlariga mos boshqaruv tartiblarini ishlab chiqishi va uni o‘lkada joriy qilishi kerak edi. Mustamlakachilik siyosatining to‘liq amalga oshirilishida boshqaruv tartiblari asosiy tayanch hisoblangan. Boshqaruv tartiblari istilochilik yurishlari bilan birga turli ko‘rinishlarda tashkil qilinib, tajriba-sinovlardan o‘tkazilgan holda o‘zgartirib borilgan.

Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoda olib borgan bosqinchilik siyosatining davom ettirilishi natijasida mustamlakaga aylantirilgan hududlar kengayib borgan. Bosib olingan hududlarni boshqarish tartiblari va uning qanday bo‘lishi kerakligi masalasi juda ko‘p hamda uzoq vaqt imperiya hukmron doiralarida turli soha vakillari ishtirokida muhokama qilingan. Ushbu masalani hal qilishda ehtiyotkorlik bilan uzoqni ko‘zlab ish ko‘rish, hech nimada tavakkal qilmaslik tamoyiliga tayangan holda ish olib borilgan. Turkiston general-gubernatori S. M. Duxovskoy (1898–1901): “Turkiston o‘lkasi boshqa o‘lkalarga nisbatan tarixiy o‘tmishi va etnografik xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida e’tibor berilishini talab qiladi”[3], - degan edi.

Podsho hukumati Toshkentni bosib olgandan so‘ng 1865 yil 6 avgustda Aleksandr II “Turkiston viloyatini idora qilish

---

[1] Статистический обзор Ферганской области за 1905 год. – Скобелев, 1908. – С. 3.

[2] O‘zMA. 1-fond. 35-ro‘yxat, 10-yig‘ma jild, 55, 69,70-varaqlar; Приложение к всеподаннейшему отчету. Обзор Ферганской области за 1884 году.... – С. 3.

[3] Топилдиев Н. Р. Қўқон хонлигининг Россия билан дипломатик алоқалари тарихидан. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 127.

to‘g‘risidagi Muvaqqat Nizom”ni tasdiqlaydi. Natijada, boshqaruv harbiy zobitlar qo‘liga o‘tadi. Ushbu nizomda boshqaruv tizimi “Harbiy-xalq boshqaruvi” nomi bilan gubernator qo‘lida harbiy va fuqarolik ishlari mujassamlashtiriladi. Viloyat bo‘limlarga bo‘linib, ularning boshliqlari bir vaqtning o‘zida harbiy komendant ham hisoblangan. Bo‘lim boshliqlariga mahalliy aholi ustidan nazorat qiluvchi mustamlakachi hukumat vakillaridan tayinlanadigan boshqaruvchilar bo‘ysungan.

1908–1910-yillarda Turkiston o‘lkasini podsho topshirig‘i bilan taftish qilgan senator K. Palen ta’kidlaganidek, “o‘lkada eng kichik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqaruv ham harbiy boshliqlar qo‘lida” bo‘lgan. Mahalliy aholi vakillariga boshqaruvning eng quyi bosqichidagi lavozimlar berilgan. Bularga volost boshliqlari (mingboshilar), qishloq oqsoqollari, ovul boshliqlari, qozi, biy va ularning yordamchilari kirgan.

General-gubernatorlik devoni katta vakolatlarga ega bo‘lgan asosiy ijrochi organ hisoblangan. Rossiya imperiyasidagi hech bir gubernada bunday katta vakolatga ega bo‘lgan boshqaruv organi mavjud bo‘lmagan. Turkiston o‘lkasi ma’muriy-hududiy jihatdan viloyatlarga bo‘linib, ularni o‘z qo‘lida fuqarolik va harbiy hokimiyatni birlashtirgan harbiy gubernatorlar boshqargan. Viloyatlar uyezdlarga bo‘linib, ular harbiy zobitlar boshqaruvida bo‘lgan. Uezdlar uchastkalarga, volostlarga, qishloq va ovullarga bo‘lingan. Uchastkalarni uchastka pristavlari boshqargan.

Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyoning bosib olingan hududlarida o‘z hukmronligini saqlab qolish, uni mustahkamlashni birinchi darajali vazifa hisoblagani uchun dastlab boshqaruv sohasida katta o‘zgarishlarni amalga oshirmagan. Yuqori organlar nazoratida bo‘lgan mahalliy aholi vakillaridan iborat quyi boshqaruv organlari va soliq tizimi

saqlab qolingan. Quyi boshqaruvning saqlab qolinishiga asosiy sabab mahalliy aholining ichki hayotiga dastlabki davrda keskin aralashish va aholining an’anaviy turmush tarziga katta o‘zgartirishlar kiritish salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin edi.

Bundan tashqari, yangi bosib olingan yerlarda hali qarshilik va norozilik harakatlari davom etayotganligi, boshqaruv tizimida faoliyat olib boruvchi odamlar bo‘lmaganligi, o‘lka sharoitini to‘liq bilmasliklari dastlabki vaqtda mahalliy aholi vakillarining quyi boshqaruvda ishtirok etishiga yo‘l bergan. Quyi boshqaruv tizimining saqlab qolinishi o‘lka ma’muriyatiga imperiya manfaatlari uchun xizmat qiladigan, o‘lkadagi sharoitlarni yaxshi biladigan mahalliy aholi vakillaridan o‘zlariga eng ishonchli bo‘lgan kishilarni topish muammosini ko‘ndalang qo‘yardi. Uni hal qilishda imperiya hukumati Turkistondagi hukmronlikning dastlabki vaqtidayoq ishlab chiqilgan saylov tizimi yordam berdi.

Uezdlar volostlarga, volostlar esa o‘troq aholi yashaydigan hududlarda qishloqlarga, chorvador aholi yashaydigan hududlarda esa ovullarga bo‘lindi. Boshqaruv tizimining quyi bosqichida volostboshlig‘i, qishloq oqsoqoli, ovul boshlig‘i, xalq sudyalari va ularning yordamchilari, ariq oqsoqoli, mirob, o‘nboshi, ellikboshilar kabi lavozimlarda yerlik aholi vakillari ish olib borgan.

1867-yildagi “Nizom” loyihasi asosida o‘troq aholi bir bosqichli tizim shaklida, ya’ni oqsoqolliklarga, chorvador aholi esa ikki bosqichli tizim ko‘rinishidagi volost va ovullarga birlashtirilgan. Har bir oqsoqollik 100–200 xonadon, ovul 100–200 o‘tov, har bir volost esa 1000–2000 o‘tovdan iborat holda

tashkil qilinishi belgilangan[1].

O‘rta Osiyoda bosib olingan hududlar ma’muriy jihatdan bo‘linib, ular to‘liq harbiy zobitlar qo‘l ostida bo‘lgan. 1877-yilda Toshkentda “Shahar nizomi” joriy etilgan bo‘lib, unga muvofiq, shahar boshqaruvi Duma qo‘liga o‘tgan edi. Duma a’zolarining 1/3 qismi Eski shahar, 2/3 qismi esa Yangi shahar qismidan saylangan. Bunga ko‘ra, shaharning 80 ming nafar mahalliy aholisidan 21 ta deputat, 3900 nafari, asosan, ruslardan iborat aholidan esa 48 ta deputat qatnashgan.

Shahar xo‘jaligiga oid barcha ishlar Dumaning qo‘lida bo‘lgan. Dumaga rahbarlik qiluvchi shaxs general-gubernator tavsiyasi bilan harbiy vazir tomonidan tasdiqlangan. 1886-yil 12-iyulda imperator Aleksandr II tomonidan yangi “Turkiston o‘lkasini idora qilish to‘g‘risidagi Nizom” tasdiqlandi. Mazkur Nizomning asosiy maqsadi o‘lkada ma’muriy boshqaruvni mustahkamlash va yerdan foydalanish tartiblarini o‘zgartirishdan iborat bo‘lgan. Nizomga muvofiq, Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirildi. Xo‘jand, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on va Samarqand uyezdlari uning tarkibiga kiritildi. Qurama uyezdining nomi “Toshkent uyezdi” deb o‘zgartirildi.

1886-yilda Turkiston general-gubernatorligining umumiy hududi 1,7 million kv.km. bo‘lib, aholisining soni 5,2 million kishidan iborat bo‘lgan. O‘zbeklar va boshqa tub xalqlar 1897 yilda 5 millionga, 1911- yilda esa qariyb 6 millionga yetgan. Rus aholisining umumiy soni ukrainlar va beloruslarni ham qo‘shib hisoblaganda, 1897 yilda 197 ming kishi, 1911-yilda esa 400 ming kishini tashkil qildi. Podsho hukumati hamisha ko‘chirib keltirilganlar sonining ortib borishiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirib bordi.

[1] O‘zMA. 19 -fond. 1025- ro‘yxat, 7-yig‘ma jild, 236- varaq.

Ular mustamlaka siyosatini amalga oshirishda tayanch bo‘lib xizmat qilishi kerak edi.

1886-yildagi “Nizom”ga muvofiq, Turkiston general-gubernatorligining ma’muriy boshqaruvi yangi idora – Turkiston general-gubernatori Kengashi bilan to‘ldirilgan. Viloyat harbiy gubernatorlari, general-gubernator devoni boshqaruvchisi, Turkiston harbiy okrugi shtabi boshlig‘i bu – Kengashning doimiy a’zolari bo‘lgan. Buxoroda esa 1885 yilda Rossiya imperatorining siyosiy agentligi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Uning ruxsatisiz Buxoro amiri tashqi va ichki siyosatda mustaqil ish olib bora olmagan.

Farg‘ona viloyati 1886-yildagi Nizom bo‘yicha ma’muriy-hududiy jihatddan uyezdlarga bo‘lingan[1] va 1904-yilga kelib, vodiydagi beshta uyezd – Marg‘ilon, Andijon, Namangan, Qo‘qon va O‘shda jami 100 volost (80 ta o‘troq va 12 ta ko‘chmanchi, 8 aralash aholi volostlari), 629 ta qishloq jamoalari (549 ta o‘troq, 80 ta ko‘chmanchi aholi jamoalari) bo‘lgan[2]. Rus qishloq jamoalari Marg‘ilon uyezdida Rus, Namangan uyezdida Uspenskoye, Andijon uyezdida Nikolayevskiy, O‘sh uyezdida esa Pokrovskiy posyolkalari mavjud bo‘lgan[3].

1882-yilda viloyat aholisi 657390 kishidan iborat bo‘lib, undan harbiy qo‘shindan tashqari 2388 kishi rus millatiga mansub edi. Viloyatdagi aholining 150938 nafari shaharlarda, 506452 nafari esa qishloqlarda yashagan[4].

1900-yilga kelib, viloyat maydoni 86130 kv. verst, aholisi 1620000 kishidan bo‘lib, viloyat hududi Turkiston o‘lkasining 1/7

---

[1] Положение об управлении Туркестансокго края. – Санкт-Петербург, 1886. – С. 1.

[2] Статистический обзор Ферганской области за 1904 год. – Новый Маргелан, 1905. – С. 2.; Сухарева О. А., Турсунов Н. О. Из истории городских и сельских поселений Средней Азии второй половины XIX – начала XX в / Жилище народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1977. – С. 10–48.

[3] O‘zRMA 19-fond, 1 ro‘yxat, 6079-yig‘ma jild, 39- varaq; Тиллабаев С. Б. XIX аср охири – XX асрнинг бошларида Туркистон ўлкасининг маъмурий-ҳудудий бошқарув тизими ва унда маҳаллий аҳоли вқакилларининг иштироки (Фарғона вилояти мисолида). Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент: ЎзР ФА Тарих институти, 2006. – Б. 45.

[4] O‘sha joyda.

qismini tashkil qilgan. 1904-yilda viloyat aholisi 1837418 nafarga yetgan. Undan 994940 tasi erkaklar, 842478 nafari ayollardan iborat boʻlgan. Aholining 19 % shaharlarda yashagan. Shahar aholisi 1897-yilga nisbatan 1904-yilda 1 % ga koʻpaygan. 1908-yilga kelib, viloyat aholisi 2 mln. kishiga yetgan. Shundan, erkaklar 54 % (1054383 nafar)ni ayollar, 46 % (895950 kishi)ni esa tashkil qilgan. Ruslar esa harbiylardan tashqari 3025 kishidan, oʻtroq aholi esa 122805 kishini tashkil qilgan[1].

XX asrning boshlari (1910-yil)da esa viloyatning maydoni kengayib (812420 kv.verst), aholi soni ham oshib borgan (2062531 kishi). Shundan, Qoʻqon uyezdining maydoni 13312 kv.verst, aholisi 366.407 kishi[2]; Skobelev uyezdining maydoni 14069 kv. verst, aholisi 402.547 kishi; Namangan uyezdining maydoni 152273 kv. verst, aholisi 359.554 kishi; Andijon uyezdining maydoni 13333 kv.verst, aholisi 386004 nafar, Oʻsh uyezdining maydoni 25252 kv. verst, aholisi 152.664 kishidan iborat boʻlgan[3].

1910-yilda viloyat uyezdlaridan Andijonda 1 ta shahar, 23 ta volost (undan 15 oʻtroq aholi, 6 ta koʻchmanchilar ovuli, 2 aralash aholi jamoalari), Qoʻqonda ham 1 ta shahar, 23 volost (2 koʻchmanchilar qishlogʻi, 21 ta oʻtroq aholi volostlari); Skobelevda 2 ta shahar, 19 volost (undan 18 ta oʻtroq aholi va 1 ta koʻchmanchilar jamoasi); Namanganda 2 ta shahar,27 volost (22 ta oʻtroq aholi va 5 koʻchmanchilar ovullari); Oʻshda 1 ta shahar, 11 volost (ulardan 7 ta oʻtroq aholi jamoasi, 3 ta koʻchmanchilar

---

[1] Статистический обзор Ферганской области за 1907 год. – Скобелев, 1909. – С. 13.

[2] Manbalarda ushbu raqamlar turlicha berilgan. Masalan, 1897 yilda uyezd maydoni 13213 kv. verst, aholisi 364658 kishi deb koʻrsatilgan. Bu haqda qarang: Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане. Отд. I. – Санкт-Петербург, 1911. – С. 48. 1898 yilda roʻyxatga olinganlar soni Qoʻqon uyezdida ruslar 2821 nafar, yerli aholi soni 362589 nafar boʻlgan. Uchastkalar – 3ta, volostlar 23 ta, qishloq va ovul jamoalari 137 ta. Soliqlardan xiroj – 317945 rubl, yurtalardan olinadigan soliq – 7900 rubl, Zomskoy, yurtalar va vaqflardan olinadigan soliq miqdori 91918 rubl 70 kopyekdan iborat boʻlgan. Shundan mahalliy ma’muriyat uchun 49448 rubl, 5 kopyek sarf qilingan. Bu haqda qarang: OʻzMA. 19- jamgʻarma, 1-roʻyxat, 5512-ish, 4–5- varaqlar orqasi.

[3] OʻzMA. 19-fond. 1-roʻyxat, 1520-yigʻma jild, 143–144- varaqlar; Статистический обзоръ Ферганской области за 1910 год. – Скобелев: Типография Ферганского областного управления, 1912. – С. 1–3.

ovullari va 1 ta aralash jamoa) mavjud edi[1]. O‘sha yili viloyatda 362894 ta hovli (dvor) bo‘lganligini mazkur manbadan ham ko‘rish mumkin.

1910-yilga oid statistik ma’lumotlariga qaraganda, aholining 19,1 % yirik shaharlarda istiqomat qilgan. Jumladan, Qo‘qonda 115600 kishi (shundan 51378 nafari ayollar); Andijonda 79496 (36496tasi ayollar); Namanganda 75567 (36598 tasi ayollar); Eski Marg‘ilonda 47152 (ayollari 21959 nafar); O‘shda 47149 (23027 nafari ayol); Chustda 18466 (ayollari 8766 nafar); Skobelevda 11466 (ayollari 4072 nafar) kishi yashagan. Butun uyezdlarda musulmonlarning soni 2018305 nafar (97,86 %), pravoslavlar esa 31556 nafarni tashkil qilgan[2].

1914-yil 1-yanvarga kelib, Farg‘ona viloyati aholisinng soni 2182374 kishi, jumladan, shahar aholisining soni 420182 nafar yoki viloyat bo‘yicha jami aholi soniga nisbatan 19,3 % tashkil etgan. Faqatgina Marg‘ilon va Skobelev uyezdlarida aholining 12,4 % yashaganligi ma’lum bo‘ldi[3].

Yuqoridagi fikr-mulohazalar, izlanish va tahlillardan kelib chiqib, mazkur bo‘lim bo‘yicha shunday xulosalar chiqarish mumkin:

– Rossiya imperiyasi Qo‘qon xonligiga qarashli Sirdaryoning quyi oqimidagi shahar va istehkomlar, Toshkent, Jizzax, O‘ratepa, Xo‘jand, amirlikka qarashli Samarqand, Yangiqo‘rg‘on, Zarafshon vodiysining yuqori qismi, Shahrisabz hamda Kitob, Xivaga qarashli ba’zi hududlarini bosib olib, Markaziy Osiyoning ma’muriy-hududiy va siyosiy qiyofasi hamda davlat tizimini butunlay o‘zgartirdi;

---

[1] O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 1521-yig‘ma jild, 55, 74–75- varaqlar; Статистический обзоръ Ферганской области за 1910 год.... – С. 1.

[2] O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 1520-yig‘ma jild, 177-varaq; Статистический обзорь Ферганской области за 1910 год.... – С. 2–3.; Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Ферганский район / Составиль ген.штаба полковник князь Стокасимов. – Ташкент: Издание штаба Туркестанского военного округа, 1912. – С. 79.

[3] O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 1520-yig‘ma jild, 203–204-varaqlar; Заорская В.В., Александер К.А. Промышленные заведения Туркестансокго края. – Пг., 1915. – С. 76.

– Rossiyaning imperialistik hukumati Buxoro va Xiva xonliklarini o‘ziga tobe bir davlatlar sifatida saqlab qolishga urinib, unga erishgan bo‘lsa ham, Qo‘qon xonligini butunlay barham berishga erishdi. Rossiya imperiyasining bunday siyosat olib borishi bir qancha tashqi va ichki omillar, ob’ektiv hamda sub’ektiv sabablar bilan bog‘liq edi;

– Qo‘qon xonligidaga xon va uning avlodi O‘rtasidagi toju taxt uchun kurashlar, o‘troq va ko‘chmanchi aholi O‘rtasidagi qarshiliklar, rus harbiylarining bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan goh u, goh bu guruhlar hamda kuchlarni qo‘llab turishi natijasida XIX asrning 70-yillarida xonlikdagi vaziyatni murakkablashtirib, izdan chiqib ketishiga olib keldi. Xalq harakatlari esa bosqinchilarga qarshi kurashga aylanib ketdi;

– xon va uning amaldorlari o‘z hukumatlarini saqlash uchun Rossiya harbiylaridan yordam so‘raganlar, natijada Rossiya xonlikning ichki nizolariga faol aralasha boshlagan. Qarama-qarshilik ruslarga qarshi millliy-ozodlik kurashga aylanayotganda, bosqinchilar xonlikka barham berish bilan undan qutulish yo‘lini tan oladilar. O‘zaro urush va janjallardan charchagan aholi ham viloyatning ba’zi shahar hamda qishloqlarda rus qo‘shinlarini quchoq ochib, kutib olganlar;

– Rossiya imperiyasi Farg‘ona viloyatidagi shaharlarni bosib olgach, u yerda yangi ma’muriy va harbiy tizimni joriy qildi. Viloyatda siyosiy va hududiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. O‘lkada harbiy-ma’muriy tizim joriy qilindi.

## 2.2. Farg‘ona vodiysidagi urbanizatsiya jarayonlari

1876-yilda Qo‘qon xonligi tugatilgach, uning o‘zagida tashkil etilgan Farg‘ona viloyati hududiy jihatdan 81.032 kv. verstni tashkil qilar, bu o‘lka umumiy yer maydonining 1/7 qismiga teng kelar edi. Viloyat ma’muriy jihatdan 7 ta uyezd – Qo‘qon, Andijon, Namangan, Marg‘ilon, O‘sh, Chust va Chimyon (1879-yildan Isfara) uyezdlariga

bo‘linadi[1], 1881-yilda Isfara uyezdi bekor qilinib, uning hududi Qo‘qon uyezdi tarkibiga kiritiladi[2].

1886-yilda tasdiqlangan “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom” ga ko‘ra, viloyat 5 ta, ya’ni Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon, Namangan va O‘sh uyezdlariga bo‘linadi[3], natijada, Chust uyezdi ham bekor qilinadi. Barcha uyezdlar uchun shu nomdagi shaharlar ma’muriy markaz sifatida belgilanadi. Faqatgina Marg‘ilon shahri bundan mustasno bo‘lib, Marg‘ilon uyezdi markazi uchun Yangi Marg‘ilon (1907- yildan Skobelev, keyinchalik esa Farg‘ona) shahri barpo etildi. Uezdlar tumanlarga bo‘lingan holda boshqarilib, viloyatda o‘sha paytda 20 ta tuman bor edi[4].

Mustamlaka sharoitida Marg‘ilonning yirik sarmoyador boylari shahardagi qarovsiz qolgan ijtimoiy hayotni imkon qadar tartibga solish uchun o‘z mablag‘larini ayamaganlar. O‘sha davrda Marg‘ilon uyezdi boshqarmasida xizmat qilgan Muhammad Aziz Marg‘iloniyning qayd etishicha, mahalliy sarmoyadorlar o‘z hisobidan hammom, yangi masjid va maktablar barpo etib, eskilarini ta’mirlaganlar, bozorlarda yangi rastalar qurdirganlar.

Jumladan, Muhammad Aziz Marg‘iloniy o‘z asarida 15 ta tujjor va nufuzli kishilarning ism-shariflarini keltirib, ularning xayrli ishlarini ko‘rsatadi: “Shahar aholisi yil sayin o‘sib borgan. Uning soni 1910-yilda 47152 kishiga yetgan[5]. Ammo, Marg‘ilon uyezdi ma’muriyatining shahar ijtimoiy hayoti uchun sarflagan mablag‘i aholi ehtiyojlarini qondira olmas edi. Butun Marg‘ilon shahri aholisi uchun bu paytda 2 nafar dorishunos, 1 nafar vrach, 20

---

[1] Кауфман К. П. Проект всеподданейшего отчета Ген. – Аъдютанта К. П. фон Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. – 1881. – СПб., 1885. – С. 32.

[2] O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 256-yig‘ma jild, 354- varaq.

[3] Положение об управлении Туркестанского края. – Санкт-Петербург, 1886. – С. 1; Свод Законов Российской Империи. В пяти книгах. Книга первая. Том 2. – СПб., 1912. – С. 427–446.

[4] Зияева Д. Ҳ. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг охири – XX аср бошларида. – Тошкент, 2013. – Б. 70.

[5] Статистический обзор Ферганской области за 1910 год. – Скобелев, 1912. – С. 170

o‘rinli 1 ta kasalxona va 10 o‘rinli 1 ta ayollar hamda bolalar shifoxonasi, 1 ta dorixona xizmat qilgan[1].

Marg‘ilon shahrining havosi hamda iqlimi sof va toza bo‘lganligi tufayli bu yerda tibbiy xizmat o‘ta cheklangan bo‘lishiga qaramay, kasallanish darajasi nisbatan kam edi. Atrof shaharlar, xususan, Yangi Marg‘ilon (hozirgi Farg‘ona shahri – X. M.) aholisi ham betob bo‘lsa, Eski Marg‘ilon shahriga kelib, davolanib ketganlar. Shaharning geografik jihatdan qulay va tabiati go‘zal yerda joylashganligini bu yerga XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tashrif buyurgan xorijlik sayyohlar ham alohida ta’kidlaganlar.

Marg‘ilon shahrida sanoat ob’ektlari ham vodiyning boshqa shaharlariga nisbatan kam edi. Shaharda 4 ta uncha katta bo‘lmagan paxta tozalash korxonalari, ipakchilik korxonalari hamda Rossiya-Xitoy bankining filiali faoliyat ko‘rsatgan. Manbalarda qayd etilishicha, Farg‘ona vodiysidagi Qo‘qon, Andijon va Namangan shaharlaridagi yirik savdo-sanoat korxonalari egalarining asosiy qismi, eng avvalo, Moskva firmalari vakillari, ulardan keyin esa mahalliy yahudiylar tashkil etsa, Marg‘ilonda ularning ko‘pchiligi asosan, mahalliy aholi vakillaridan iborat edi. Mustamlakachilik sharoitida hukumat shahar madaniy hayotini butkul E’tibor dan chetda qoldirishiga qaramay, ushbu davrda Marg‘ilonda nufuzli va fidoiy kishilar sa’yi harakati bilan ta’lim tizimi, adabiyot va san’at sohasidagi an’anaviy bilimlar saqlanib qoldi va imkon qadar keyingi avlodlarga yetkazildi.

Viloyatda 7 ta yirik shahar – Qo‘qon, Namangan, Marg‘ilon, Andijon, Chust, O‘sh va Yangi Marg‘ilon (hozirgi Farg‘ona shahri – X. M.) mavjud edi. Bulardan tashqari, vodiy hududidagi Isfara, Rishton, Shahrixon, Asaka va O‘zgan kabi shaharchalar aholisining soni hamda maydoni bo‘yicha boshqa shaharlardan qolishmas edi[2].

---

[1] O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 1520-yig‘ma jild, 363–378–379- varaqlar; Статистический обзор. – 1912... – С. 171.

[2] Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань, 1886. С. 21.

Shaharlar dahalarga, dahalar esa mahalla va jamoalarga bo‘lib idora qilingan. Dahalar, mahalla hamda shahar oqsoqollarn asosan, soliq to‘plash va ma’muriyat farmonlarini xalqqa yetkazish kabi vazifalarni bajarganlar. Istilo arafasida xonlikdagi shaharlarda aholi soni haqida rus manbalarida turlicha ma’lumotlar mavjud. Jumladan, 1865–1866-yillarda Bekchurin tomonidan aniqlangan ma’lumotlarga ko‘ra, Qo‘qon shahri va uning atrofida 100.000, Namanganda 30.000, Marg‘ilonda 20.000, Kosonda 30.000, Chustda 20.000, Konibodomda 15.000, O‘shda 5.000, Toshkentda 100.000, Chimkentda 4.000 aholi yashagan[1]. Ammo, negadir ushbu ro‘yxatda vodiydagi yirik shaharlardan biri Andijon qayd etilmagan.

1876-yilga kelib, ya’ni Qo‘qon xonligi tugatilishi arafasida A. L. Kun qayd etgan ma’lumotlarga ko‘ra, Farg‘ona vodiysidagi Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon hamda Namangan shaharlari hamda O‘zgan va Baliqchi kabi kichik shaharchalarda jami 26.000 ta uy-joy, 1.170 ta masjid, 390 ta maktab, 68 ta Madrasa, 5.200 ta yoyma do‘kon bo‘lgan[2]. 1876 yilda, ya’ni istilo arafasida A. L. Kun tomonidan tuzilgan ushbu jadvalga vodiydagi Asaka, Shahrixon, Chust, O‘sh, Konibodom va Koson kabi nisbatan kichik shaharchalar kiritilmagan.

Jami mintaqaga Rossiya imperiyasi tajovuzi boshlanishidan avval Qo‘qon xonligi tarkibida Toshkent, Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon, Namangan, Turkiston, Sayram, Chimkent, Koson, Chust, O‘sh, Konibodom, Baliqchi, O‘zgan, Shahrixon va Asaka kabi 15 dan ortiq shahar hamda shaharchalar mavjud bo‘lib, ulardagi aholi soni 400.000 nafarga yetgan. Xonlik 15 ta beklikka bo‘linganligi, poytaxt Qo‘qondan tashqari 15 ta beklik markazi, ya’ni ham ma’muriy, ham iqtisodiy markazlar mamlakat hayotida muhim o‘rin tutgan.

Rossiya imperiyasining Qo‘qon xonligiga qarshi qaratilgan harbiy xujumlari va ularga qarshi xalq kurashlari jarayonida baland

---

[1] Романовскй Д. И. Заметки по Средне-Азиатскому вопросу. – СПб., 1868. – С. 281.

[2] Кун А. Л. Очерк Кокандского ханства (Отдельный оттиск из известний Имперторского Русского Географического общества. Том XII). – СПб., 1876. – С. 6.

devorlar bilan o‘ralgan va mudofaa markazi bo‘lgan shaharlar hamda ularning atrofidagi uy-joylar xarobaga aylandi. Farg‘ona vodiysi shaharlari istilo jarayonida juda katta talafotlar ko‘rdi. Ushbu talafotlar tufayli ko‘plab uy-joylar vayron bo‘ldi, harbiy qo‘shin va tinch aholidan to‘plangan xalq lashkari qirilib ketdi. Har bir shahar mudofaasida bir necha o‘n minglab mudofaachilar qirilib ketdi. Bularning barchasi vodiydagi aholi soni va shahar madaniyatiga katta talafot yetkazdi.

XIX asrning so‘nggi choragi – XX asr boshida Farg‘ona vodiysidagi shaharlar hayotidagi o‘zgarishlar va urbanizatsiya jarayonlarini har bir shahar misolida yanada aniqroq tasavvur qilish mumkin.

Xonlik poytaxti, Farg‘ona vodiysidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatida asrlar davomida ma’lum hamda mashhur bo‘lib kelgan Qo‘qon shahri Rossiya imperiyasi istilosi arafasida baland devor bilan o‘ralgan bo‘lib, unga 12 ta darvoza orqali kirilgan. Shaharda xon saroyi, ya’ni O‘rda joylashgan edi.

Shahar hududidan o‘tgan Katta soy, Kichik soy va Qorasuv daryolari Qo‘qon aholisini suv bilan ta’minlagan. Shahar o‘zining ozodaligi, ko‘chalarining kengligi, ikki tomonlama daraxtlar ekilganligi va asrlardan beri yashab kelayotgan qadimiy qayrag‘ochlari bilan ajralib turgan. Uylar puxta qurilgan bo‘lib, pishiq g‘ishtli binolar ko‘p bo‘lgan.

Mamlakat poytaxti va hamda yirik savdo markazi bo‘lgan Qo‘qon shahri yil sayin kengayib, aholisi ortib borgan. 1820-yilda K. Meyendorf shaharda 6.000 uy-joy borligini qayd etgan. Bu esa shahardagi aholi taxminan 40.000 dan ortiq bo‘lganligidan dalolat beradi. Shaharga oradan 40 yil o‘tib, tashrif buyurgan A. Vamberi esa Qo‘qon Xivadan 6 marta, Buxorodan 3 marta, Tehrondan ikki marta katta ekanligini qayd etgan. 1866–1867-yillarda Turkiston

viloyatining harbiy gubernatori lavozimida ishlagan D. I. Romanovskiy shahar aholisi 100 ming kishi ekanligini ta'kidlagan[1].

1876-yilga oid ma'lumotlarda Qo'qon shahridagi uy-joylar haqida bir yilda ikki xil ma'lum ot qayd etiladi. Xususan, A. L. Kun Qo'qonda 10.000 xonadon borligini qayd etsa[2], A. P. Xoroshxin 22.000 xonadonda 80.000 nafar aholi bor, deb ko'rsatadi[3]. Shaharda aholining nihoyatda zich yashaganligi, saroy ahli, xizmatchilari, qo'riqchi va harbiy kuchlar hamda madrasalar joylashganligi nazarda tutilsa, undagi xonadonlar soni 20.000 uy-joyga ega bo'lgan Toshkentdan kam bo'lmaganligini tasavvur qilish qiyin emas. 1820 yilda shaharda 6.000 xonadon bo'lsa, 55 yil davomida uning aholisi 2,5 marta ko'payib, 40.000 dan 100.000 nafarga yetgan bo'lsa, uy-joylar soni ham bir necha marta ko'payganligi tabiiy hol edi.

XIX asr o'rtalariga oid ma'lumotlarga ko'ra, Qo'qon shahri 280 ta mahallaga bo'linib[4], ellikboshilar tomonidan boshqarilgan. Katta oqsoqolga bo'ysunuvchi daha oqsoqollari mirshablar yordamida aholidan soliq to'plaganlar. Istilo arafasida shaharda 9 ta karvonsaroy, 6 ta hammom, 12 ta Madrasa, 1 ta qorixona va 1 ta mirshabxona, 1876-yilga kelganda esa shaharda 10 ta karvonsaroy, 15 ta madrasa (ularda 1500 nafar talaba tahsil olgan) faoliyat ko'rsatgan[5]. Ushbu davrda shahar 12 ta qism va 540 ta mahallaga bo'lingan[6]. Demak, so'nggi 25 yil davomida shahardagi mahallalar soni deyarli 2 barobarga ko'paygan. Shahardagi uy-joylar va aholi soni ham mos ravishda ortib borgan va o'sha paytda 22.000 xonadonda 100.000 aholi yashaganligi qayd etilgan[7].

---

[1] Романовский Д. И. Заметки по Средне-Азиатскому вопросу.... – С. 281.
[2] O'sha joyda.
[3] Сборник статьей, касающихся до Туркестанского края А. П. Хорошхина. – СПб., 1876. – С. 40.
[4] O'zMA. 300-fond. 19-ro'yxat, 154-yig'ma jild, 38,39,45-varaqlar; Вельяминов-Зернов В. В. Исторические известия о Кокандском ханстве // Вестник Императорского Географического Общества. – СПб., 1856. Ч. XVIII. Кн. 5. Отд. 2. – С. 107–132.
[5] Сборник статъей, касающихся до Туркестанского края А. П. Хорошхина. СПб.,... – С. 281.
[6] O'sha joyda.
[7] Сборник статъей, касающихся до Туркестанского края А. П. Хорошхина... – С. 42.

Shuningdek, Qo‘qondan keyingi ikkinchi markaz sifatida qayd etilgan Marg‘ilon shahrida 1875-yilda 57 ta, 1898 yilda 55 ta, 1903-yilda esa 51 ta madrasa ishlab turgan. Shuningdek, 1875-yilda shaharda 433 ta maktab, 1898-yilda 324 ta maktab mavjud edi[1]. Shu bilan birga, 1908 yilda shaharda 56 ta maktab, 25 ta otinoyi maktabi, 1875-yilda Farg‘ona viloyatida mavjud bo‘lgan 235 ta qorixonadan 21 tasi Marg‘ilon shahrida joylashganligi manbalardan ma’lum.

Umuman olganda, xonlikning yirik shaharlari hisoblangan Marg‘ilonda 25 ta, Toshkentda 14 ta, Andijonda 18 ta, Namanganda 14 ta, Xo‘jandda 10 ta madrasa faoliyat olib borganligi manbalardan ma’lum. Ushbu davrda Marg‘ilonning ko‘zga ko‘ringan inshootlari – Pir Siddiq majmui (kaptarlik, XVIII asr O‘rtalari), Xo‘ja Mag‘iz maqbarasi (XVIII asr birinchi yarmi), Chokar, Toranbozor masjidlari (XX asr boshlari), Saidahmad Xoja Eshon madrasalari (XIX asr oxiri) edi.

Rossiya imperiyasi tajovuzi natijasida 1876-yil 19-fevralda xonlik tugatilgach, Qo‘qon shahri Turkiston general-gubernatorligi tarkibida tashkil etilgan Farg‘ona viloyatining markaziga aylantirildi[2]. O‘sha yili 15-iyulda tuzilgan shahar boshqarmasiga shahar boshlig‘i, uning katta va kichik yordamchilari, mirza hamda tarjimon tayinlanadi. Oradan ko‘p o‘tmay, 1877-yil 27-aprelda viloyat markazi Yangi Marg‘ilonga ko‘chirilishi munosabati bilan Qo‘qon shahri o‘sha yili 1 iyundan Farg‘ona viloyati tarkibidagi Qo‘qon uyezdining ma’muriy markaziga aylantiriladi[3]. 1917-yilgacha Qo‘qon shahri uyezd boshlig‘i tomonidan boshqariladi.

Uezd boshlig‘i ko‘lida ma’muriy va xo‘jalik boshqaruvi to‘plangan bo‘lib, ijtimoiy masalalarni hal etishda unga aholining nufuzli vakillaridan 3 yil muddatga saylanadigan 3 ta deputat

---

[1] O‘zMA. I.1-fond, 18-ro‘yxat, 29-ish. 563- varaq; O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 1520-yig‘ma jild, 356–357- varaqlar.
[2] O‘zMA. I. 19-fond. 1-ro‘yxat, 1520-yig‘ma jild, 310–313-varaqlar; История Коканда.... – С. 7.
[3] O‘zMA. I.1-fond, 20-ro‘yxat, 1063-yig‘ma jild, 8–11-varaqlar.

(shundan 1 tasi mahalliy aholi, 2 tasi rus aholisi vakillari) yordam bergan. Shahar hududi va xo‘jaligi kengayib, aholi soni ortib borishi bilan, boshqaruv apparata ham o‘sib borgan, deputatlar soni esa, 1907 yildan 6 kishiga (shundan 4 kishi rus aholisi vakillari edi) ko‘paytirilgan[1].

Mahalliy vakillar, ya’ni deputatlarga asosan, soliq to‘plash, ma’muriyat buyruqlarini xalqqa yetkazish kabi quyi ijrochilik vazifalari topshirilgan. Ma’muriy va xo‘jalik masalalari bilan esa uyezd boshlig‘i shug‘ullangan.

1896-yilda Qo‘qonda katta oqsoqol o‘rniga shahar politsiya boshqarmasi joriy etiladi. Ruslardan tayinlangan politsiya boshlig‘i shahar boshlig‘i funktsiyasini bajargan va mahalliy aholi yashagan eski shaharni qattiq nazoratda tutgan. Shahar daromadining 24,1 foizi politsiya xizmati ta’minotiga sarflangan[2].

O‘lkadagi boshqa shaharlar kabi Qo‘qonda ham rus ma’murlari uchun alohida uylar qurila boshlangan. Shu maqsadda 1881-yildan rus ma’murlari va harbiylari uchun “yangi shahar” qurilishi boshlangan[3]. Sobiq xon saroyining atrofida bog‘lar buzilgan, uning yonida joylashgan qabriston boshqa joyga ko‘chirilgan va shu yerlarda “yangi shahar” qurilishi uchun joy ajratilgan.

Ijtimoiy tarkibi jihatidan “yangi shahar” aholisi dastlab harbiylar, savdogarlar, amaldorlar va xizmatchilardan iborat bo‘lgan. Keyinchalik, shaharda sanoat korxonalarining paydo bo‘lishi, Andijon – Samarkand temir yo‘lining ochilishi, 1899 yilda Qo‘qonga temir yo‘lning yetkazilishi bilan shahar aholisining nafaqat soni, balki ijtimoiy va milliy tarkibida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Andijon ham Farg‘ona vodiysining qadimiy shaharlaridan biri bo‘lib, Rossiya tajovuzi arafasida Qo‘qon xonligidagi Andijon bekligining markazi edi. Bu yerdan Farg‘onaning turli qismlari,

---

[1] O‘zMA. I.17-fond, 1-ro‘yxat, 20308-yig‘ma jild, 22-varaq.
[2] O‘zMA. 465-fond. 1-ro‘yxat, 20-yig‘ma jild, 17–21 varaqlar; История Коканда.... – С. 9.
[3] Фарғона водийсидаги шаҳарлари. Қўқон. – Тошкент, 1963. – Б. 32–33.

Yettisuv va Qashqarga olib boradigan yo‘llar o‘tgan. Istilo arafasida shahar aholisi taxminan 35.000 kishini tashkil etgan[1]. 1876-yilda xonlik tugatilgach, beklik Andijon uyezdiga aylantirildi va shahar Andijon uyezdi markazi maqomini oldi.

Uezd markazi bo‘lgan Andijonda uyezd ma’muriyati joylashgan bo‘lib, shaharda politsiya xizmati, amaldorlar va harbiylar ko‘pchilikni tashkil etgan. Andijon shahri ushbu davrda ham xuddi Qo‘qon xonligi davridagidek 4 dahaga bo‘lingan. Ushbu dahalarda jami 43 ta mahalla mavjud bo‘lgan[2]. Mahallalar oqsoqollar tomonidan, dahalar esa volost boshqaruvchilari tomonidan boshqarilgan. Andijon shahrining xo‘jalikka oid masalalari ham uyezd boshlig‘i boshqargan. 1 ta mahalliy, 2 ta rus aholisi vakillaridan iborat guruh aholidan soliq to‘plash bilan shug‘ullangan. 1877-yilda Andijonning janubi-sharqiy tomonida, shahar devori tashqarisidagi Xoqon qishlog‘ida rus ma’muriyati va aholisi uchun “yangi shahar” qurilishi boshlandi. Bu yerda yelpig‘ich shaklidagi yo‘nalishda yangi tosh ko‘chalar yotqizilib, daraxtlar ekilgan, yo‘l bo‘ylariga ariqlar qazilgan, bozor uchun alohida joy ham ajratilgan.

Juda tez suratlar bilan barpo etilgan yangi shaharchada rus ma’murlari va harbiylari uchun pochta, telegraf, savdo do‘konlari, turli ko‘ngilochar maskanlar, parklar hamda yevropacha usuldagi bir qavatli imoratlar qad ko‘tardi. Kasalxona, dorixonalar va kutubxonalar ochildi, bog‘lar barpo etildi. Shaharni obodonlashtirish ishlari ham keng ko‘lamda olib borildi, tekis va ravon ko‘chalar ochilib, daraxtlar o‘tkazildi, tungi yoritkichlar – kerosinli fonarlar o‘rnatildi.

Andijonda rus aholisi uchun 5 ta boshlang‘ich (shundan 2 tasi rus-tuzem maktablari edi), 2 ta O‘rta, ayollar va erkaklar gimnaziyalari, kechki kurslar tashkil etildi. 1915-yildan boshlab shaharda rus aholisi uchun “Izvestiya”, “Telegramma” va

---

[1] Военно-статический сборник. Выпуск 3. – СПб., 1868. – С. 132.
[2] O‘zMA. 276-fond. 1-ro‘yxat, 117-yig‘ma jild, 8-varaq.

Turkestanskiy golos" gazetalari nashr etila boshlangan[1]. Bundan tashqari, Andijondagi "yangi shaharcha"da pochta va telegraf xizmati yo'lga qo'yildi.

O'lkaning boshqa shaharlari singari Andijonning "yangi qismi" aholisi ham dastlab harbiy ma'murlar, rus amaldorlari va savdogarlardan iborat edi. Keyinchalik Andijonda sanoat korxonalarining ko'payishi, temir yo'llar kurilishi bilan shaharga ko'chib keluvchilar soni tobora ortib bordi[2]. "Yangi shahar"da dastlab 215 ta xonadon mavjud bo'lsa, 1914-yilga kelib, ularning soni 1332 taga yetgan[3]. Shaharda turli millat vakillari – ruslar, ukrainlar, tatarlar, boshqirdlar, yahudiylar va beloruslar istiqomat qilgan[4].

1902-yilda 3-dekabrda Andijonda sodir bo'lgan zilzila shaharni xonavayron qilgan. Zilzilaga qadar shaharning yangi qismida 123 ta, eski qismida 10.000 ta xususiy uylar mavjud bo'lib, ularda 50000 nafar aholi yashagan[5]. Zilzila natijasida eski shahar qismida 9622 ta, yangi shahar qismida esa 123 ta uy vayron bo'ldi[6], 1.021 kishi halok bo'ladi, shundan 433 tasi bolalar edi.

Zilziladan so'ng tiklash ishlari jarayonida shaharning "yangi qismi"da yashovchi aholi uchun o'lka ma'muriyati tomonidan jami 77667 rublь yordam puli ajratildi[7]. Tiklash bilan bir qatorda yangi qurilishlar ham olib borilib, ma'muriy binolar, uy-joylar, sanoat ob'ektlari, bank va jamoat joylari, xiyobonlar, bozorlar hamda do'konlar barpo etildi. Eski shaharda esa tiklanish ishlari juda sust olib borildi. 1910-yilda shaharda 7795 ta xonadon mavjudligi qayd etilgan (shundan 150 tasi ruslarga tegishli edi)[8.] Shahar aholisi esa

---

[1] O'zMA. 25-fond. 1-ro'yxat, 97-yig'ma jild, 155–156-varaqlar; История Андижана... – С. 37–38.

[2] Обзор Ферганиской области за 1892 г.; Обзор Ферганиской области за 1897 г.; Обзор Ферганиской области за 1901 год.

[3] O'zMA. 19-fond. 1-ro'yxat, 1520-yig'ma jild, 74–76- varaqlar; Жалилов С. Андижон. – Тошкент, 1989. – Б. 38.

[4] O'zMA. 19-fond. 1-ro'yxat, 1520-yig'ma jild, 120–124-varaqlar.

[5] Ежегодник Ферганской области. Том 2. Выпуск 1903 года. – Новый Маргелан, 1903. – С. 175.

[6] Ежегодник Ферганской области. Том 2. Выпуск 1903 года..... – С. 222.

[7] Yuqoridagi manba.... – С. 229.

[8] O'zMA. 19-fond. 1-ro'yxat, 1520-yig'ma jild, 200–207-varaqlar; Россия. Полное географическое описание нашего отчества. Том 19.... – С.709.

79496 kishini tashkil etgan[1]. 1913 yilga kelib, uning soni 119612 kishiga yetgan. Bunga shaharda sanoat ob’ektlarining ko‘payishi, temir yo‘llar faoliyati, ko‘chib kelgan aholi nufuzining ortishi, mehnat migratsiyasi kabi omillar sabab bo‘lgan. Shahar aholisi tobora zichlashib borar, bir xonadonga O‘rtacha 10 kishidan to‘g‘ri kelar edi.

Namangan shahrida esa 1871-yilda 5.000 ta xonadon[2], kamida 25.000 aholi mavjudligi manbalarda qayd etilgan[3]. Demak, O‘rta hisobda shahar aholisi 30.000 dan kam bo‘lmagan. 1885 yilda Namanganda 31.803 kishi, 1897-yilda tuzilgan Rossiya imperiyasining umumiy aholi ro‘yxatida esa 62.017 kishi yashaganligi qayd etilgan[4].

Mazkur davrda Namangan shahri to‘rtta, ya’ni Sardoba, Labbaytog‘a, Chuqur ko‘cha va Degrezlik dahalariga bo‘lingan[5]. Namanganda shahar markazida joylashgan eng katta va gavjum Chorsu bozori 500 ta yoyma do‘konga ega edi. Qo‘qon xoni tomonidan barpo etilgan ushbu yangi bozor haftaning dushanba, payshanba, shanba va yakshanba kunlari faoliyat yuritgan. Juma kungi bozorlar yirik jome’ masjidlari va madrasalar atroflarida bo‘lgan, chunki juma namozini o‘qish uchun jome’ masjidlariga uzoq qishloqlardan ham musulmonlar kelar edi.

1876-yilda Qo‘qon xonligi tugatilib, shahar Farg‘ona viloyati tarkibidagi Namangan uyezdi markaziga aylantirildi. General-gubernator fon Kaufman shaharni kengaytirib, uni ikki qismga bo‘lish, uyezd ma’muriyati va harbiylari uchun alohida joy ajratish, yangi shahar barpo etish haqidagi loyihani tasdiqladi[6]. Mazkur

---

[1] Статический обзор Ферганской области за 1910 год. – СПб., 1912. – С. 2.
[2] Туркестанские ведомости. – 1871 год 16 август. – №29.
[3] Материалы для статистики Туркестанского края (численность населения) // Туркестанские ведомости. – 1885. – №38.
[4] O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 1520-yig‘ma jild, 297–298, 310-varaqlar; Первая Всеобщая перепись населения Российской империи 1897 года (Губернские итоги). Т.Т. 1–89. – СПб., 1903–1905; Приложение – №2. Ведомость о населении Ферганской области за 1913 год / В книге: Азиатская Россия. Том 2. Земля и хозяйство. – СПб., 1914.
[5] Ибрат. Фарғона тарихи / Мерос. – Тошкент, 1994. – Б. 326.
[6] Обзор Ферганской области за 1899 г. – Новый Маргелан. 1901. – С. 13.

loyihaga ko‘ra, Namangan o‘lkaning boshqa shaharlari singari “eski shahar” va “yangi shahar” ga bo‘linadigan bo‘ldi.

Loyihaga ko‘ra, “yangi shahar” to‘g‘ri va keng ko‘chalar, tosh terilgan yo‘llardan iborat bo‘lishi kerak edi. Bu yerda asosan, uyezdning ma’muriy binolari, rus harbiylari va savdogarlari yashashi uchun uy-joylar qurish rejalashtirilgan. Shu maqsadda, shahardagi bek qo‘rg‘oni devorining tashqi tomonidan alohida yer ajratildi va markazi shu yerdan boshlangan 6 ta ko‘chaga asos solindi. Ko‘chalar keng, ikki tomoniga tol va qayrag‘ochlar o‘tqazilgan, yo‘llarga tosh yotqizilgan, tunda kerosinli fonarlar yoritib turgan.

“Yangi shahar” hududida harbiy mashqlar o‘tkaziladigan kapa maydoni, shahar bog‘i va bu yerda yashovchilar uchun bozor tashkil etildi, uyezd ma’muriyati uchun boshqarma binosi, amaldor hamda harbiylar oilasi uchun uy-joylar barpo etildi, harbiy qo‘rg‘onni o‘z ichiga olgan yangi rus harbiy qal’asi qurildi. Yangi shahar”da 1877-yilda jami 34 ta xonadon mavjud edi. Eski va yangi shahar chegarasida ikki qavatli yevropacha usuldagi uylar qad ko‘taradi. “Yangi shahar”da rus aholisi uchun kutubxona[1], o‘g‘il bolalar va qizlar uchun alohida ikki sinfli bilim yurti[2], 50 ta o‘ringa mo‘ljallangan harbiy lazaret hamda 20 ta o‘ringa mo‘ljallangan kasalxona ochildi.

1912-yilda Namanganga Qo‘qon tomonidan qurilgan temir yo‘l shaxobchasining ulanishi va ishga tushishi bilan shahar hududi temir yo‘l tomonga qarab kengayib bordi. 1913-yilga kelib, Namangandagi xonadonlar soni 12100 taga yetdi. Tarixiy adabiyotlarda shaharda 75346 kishi yashayotganligi qayd etilgan[3].

Shahar vodiydagi sanoat-savdo markazlaridan biri hisoblangan. 1913-yilga kelib, shaharda 38 ta paxta tozalash zavodlari, 3 ta yog‘-

[1] Абдуллаев О. Наманган вилояти. – Наманган, 1995. – Б. 43.
[2] O‘zMA. 329-fond, 7-ro‘yxat, 94-yig‘ma jild, 171-varaq.
[3] Приложение №2. Ведомость о населении Ферганской области за 1913 год / В книге: Азиатская Россия. Том II. Земля и хозяйство. – СПб., 1914.

moy korxonasi[1], shuningdek, 3 ta pilla quritish, 1 ta pivo tayyorlash, 3 ta g‘isht zavodlari faoliyat yuritar edi[2]. Sanoat korxonalari shahardan chetda barpo etilishi natijasida ekologik vaziyat ancha yaxshilangan edi.

Shahar hunarmandlari asosan, paxta va ipak tolasi yigirish, qog‘oz tayyorlash, metall idishlar, kulolchilik, zargarlik, temirchilik, tunukasozlik, chilangarlik, kosibchilik, duradgorlik, atlas to‘qish hamda ichoqchilik kabi hunarlari bilan mashhur edi. Shuningdek, o‘sha davrda shaharda 20 ta madrasa, 100 dan ortiq boshlang‘ich maktab, 331 ta masjid faoliyat yuritar edi[3].

Marg‘ilon nafaqat Fag‘ona vodiysi, balki butun Turkistondagi yirik shaharlardan biri edi. Shahar baland paxsa devorlar bilan o‘ralgan bo‘lib, juda qulay geografik hududda joylashgan edi. Shahar hududi geoografik jihatdan qulay va tabiati go‘zal yerda joylashganligini bu yerga XIX asr oxiri XX asr boshlarida tashrif buyurgan xorijlik sayyohlar ham alohida ta’kidlaganlar[4]. 1840-yillarda rus tadqiqotlarida Marg‘ilon shahri kattaligi jihatidan Qo‘qonga yaqinligi va juda qadimiy ekanligi qayd etilgan.

Shahar atrofida va ichki qismida katta-kichik bog‘lar, hovuzlar ko‘p edi. Ayniqsa sobiq, Marg‘ilon bekiga qarashli eng katga bog‘ nihoyatda go‘zal bo‘lib, bodomzor, uzumzor, o‘rikzor, shaftolizor kabi bog‘lardan iborat edi.

Ilgari Marg‘ilon bekligining markazi bo‘lgan ushbu kent Qo‘qon xonligidagi eng katta shaharlardan biri edi. Shahar aholisi savdo va hunarmandchilik sohasidagi katta tajribasi va ishbilarmonligi bilan mashhur edi. Muhammad Aziz Marg‘iloniyning qayd etishicha, Chimyon va Oltiariq oralig‘idagi dashtlikda topilgan neft qudug‘ining yer ostida archadan qilingan yog‘och zinalari saqlanib qolgan bo‘lib,

[1] Россия. Полное географическое описание нашего отчества. Том 19.... – С. 703.
[2] O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 1520-yig‘ma jild, 292–293- varaqlar.
[3] Обзор Ферганской области за 1892 г. – Новый Маргелан, 1895. – С. 11.
[4] Россия. Полное географическое описание нашего отчества. Том 19…. – С. 704.

ushbu holat juda qadimdan bu yerlagi mahalliy aholi yerosti moylaridan ham foydalana olganligidan dalolat berar edi.

Qo‘qon xonligining so‘nggi yillarida Marg‘ilon muzofotida 15 ta, vodiyda esa jami 200 ta neft buloqlari mavjud bo‘lib, aholi undan turli maqsadlarda foydalanar edi. 1860 yilda Marg‘ilon viloyati hokimi Sulton Murodbekning farmoni bilan neft buloqlari boshida ariqlar va hovuzlar qazildi, ularni muhofaza qilish uchun atrofi devorlar bilan o‘raladi. Hovuzlarda to‘plangan neft teridan tiqilgan meshlarga quyilib, Marg‘ilon shahriga keltirilgan va cho‘yan qozonlarda qaynatilib, kerosin olingan. Kerosin juda xaridorgir bo‘lib, undan dastlab arzon yorug‘lik manbai, keyinchalik esa temir yo‘llar faoliyatida keng foydalanilgan[1].

1876-yilda Qo‘qon xonligi rasman tugatilgach, Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon uyezdi tarkibiga kiritildi. Ushbu davrdan boshlab Marg‘ilon shahri o‘zining ma’muriy markaz sifatidagi ahamiyatini yo‘qotdi. Garchi, Marg‘ilon shahri uyezddagi eng yirik shahar bo‘lsa-da, uyezd markazi Marg‘ilondan 12 km. chetda joylashgan hududda tashkil etildi. Bu yerda rus shaharchasi tashkil etilib, uni “Yangi Marg‘ilon” deb yurita boshladilar. Aynan shu paytdan Marg‘ilon shahri esa Eski Marg‘ilon deb atala boshlandi.

Marg‘ilonda vodiyning boshqa shaharlaridan farqli ravishda rus aholisi deyarli yo‘q bo‘lganligi tufayli uyezd ma’muriyati shahar obodonchiligi va qurilishiga umuman E’tibor bermagan. Ammo, azaldan savdo, hunarmandchilik va madaniyat markazi bo‘lib kelgan Eski Marg‘ilon shahri o‘z ma’muriy ahamiyatini yo‘qotishiga qaramay, ijtimoiy-iqtisodiy mavqeini saqlab qolgan.

Shahardagi ta’lim tizimi, obodonchilik, qurilish masalalari hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda mahalliy tadbirkor va nufuzli sarmoyadorlarning saxovati muhim rolь o‘ynagan. O‘sha

---

[1] Мурахина Л. По Средней Азии и Тибету. Путешествие Свена Хедина // Вокруг света. – 1899. – №3. – С. 38–42.

davrda Marg'ilon uyezdi boshqarmasida xizmat qilgan Muhammad Aziz Marg'iloniyning qayd etishicha, Marg'ilondagi yirik sarmoyador boylar shahardagi qarovsiz qolgan ijtimoiy ahvolni imkon qadar tartibga solish uchun o'z mablag'larini ayamaganlar.

Mahalliy sarmoyadorlar o'z hisoblaridan hammom, qorixona, yangi masjid, maktablar barpo etib, eskilarini ta'mirlaganlar, bozorlarda yangi rastalar qurdirgan. Muhammad Aziz Marg'iloniy o'z asarida 15 ta tujjor va nufuzli kishilarning ism-shariflarini keltirib, ularning xayrli ishlarini alohida qayd etgan[1].

XX asr boshlarida O'rta Osiyoga kino kirib kela boshlashi bilan Marg'ilonda mahalliy boylar o'z mablag'lari hisobidan kinoteatr tashkil qiladi. Marg'ilon shahridagi san'at sevar aholi adabiyot va she'riyatga ham katga qiziqish bilan qaragan. Shaharda mahalliy aholi vakili bo'lgan Hojimuhammad Azimjon Marg'iloniy tomonidan xususiy bosmaxona ochilib, adabiyot, she'riyat va dinga oid kitoblar chop etiladi. Bundan tashqari, Marg'ilonda 16 ta mahalliy kitob rastalari muntazam ishlab turgan[2].

1876-yilda Farg'ona viloyati tashkil etilgach, uning markazi sifatida Qo'qon shahri belgilansa-da, ma'muriyat bundan qoniqmay, yangi markaz qurish uchun joy tanlashga kirishadi. Shu maqsadda, 1877-yilda Turkiston general-gubernatori Marg'ilon uyezdi boshqaruvchisiga harbiy injenerlar, malakali vrachlar va yer tuzuvchi mutaxassislardan iborat maxsus komissiya bilan belgilangan hududni o'rganib chiqishni topshiradi. Tekshiruvlardan so'ng Marg'ilon shahridan 10-12 km janubda joylashgan, Yormozor va Chim qishlog'i aholisiga qarashli hudud tanlab olinadi[3].

Belgilangan rejaga ko'ra, katta maydonni qurshab olgan qal'a ichida 1000 ta uy-joy, harbiylar uchun bino, xristianlar ibodatxonasi

---

[1]Муҳаммад Азиз Марғиноний. Тарихий Азизий (Фарғона чор мустамлакаси даврида) / Нашрга тайёрловчилар, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов, Д. Сангирова. – Тошкент, 1999. – Б. 66–67, 87–90.
[2] Статический обзор Ферганской области за 1910 год. – Скобелев, 1912. – С. 174.
[3] Чабров Г. Н. Из истории города Ферганы // Труду САГУ. Новая серия. Вып. 45, Гуманитарные науки. Книга 5. – Ташкент, 1953. – С. 56.

(cherkov), bozor, harbiy kazarma, omborxona qurish mo‘ljallanadi[1]. Qisqa fursatda bularning bari tartib va puxtalik bilan qurib, bitkaziladi[2]. Shaharchaga “Yangi Marg‘ilon” deb nom berilib, Farg‘ona viloyatining markazi shu yerga ko‘chiriladi[3]. “Yangi Marg‘ilon” dastlab Marg‘ilon uyezdi boshlig‘i, keyinchalik esa viloyat gubernatori tomonidan boshqariladi[4]. 1907-yildan boshlab “Yangi Marg‘ilon” shaharchasining nomi o‘zgartirilib, o‘lkani zabt etishda jonbozlik ko‘rsatgan eng shafqatsiz general Skobelev nomi bilan yuritila boshlandi[5]. (1917-yildan keyin esa mazkur shaharcha Farg‘ona deb ataladigan bo‘ldi).

Yangi Marg‘ilon shahri barpo etilgan dastlabki o‘n yil ichida unda 196 ta xonadon bo‘lsa, 1913-yilga kelib, ularning soni 998 taga, aholi soni 1897-yilda 8.928 kishiga, 1913-yilda esa 13218 kishiga yetgan[6].

Aholi tarkibida amaldorlar va harbiylardan tashqari savdo-sanoat vakillari ham paydo bo‘lgan. Ammo, shaharda savdo va sanoat ishlab chiqarishi boshqa shaharlarga nisbatan ancha sust rivojlangan edi. 7 ta sanoat korxonasi asosan paxta tozalash, yog‘-moy ishlab chiqarish, pivo tayyorlovchi va spirt tozalovchi zavodlardan iborat edi.

XX asr boshlarida shaharda sanoat korxonalari qurila boshlandi. 1914-yilga qadar shaharda 21 ta korxona barpo etildi va shahar aholisi tarkibida yollanma ishchilar sinfi paydo bo‘ldi. XX asr boshiga kelib, shahar hududi harbiy garnizonlar qurilishi hisobiga janub tomonga kengayib borgan.

Rossiya imperiyasi istilosiga qadar Chust shahri shu nomdagi beklik markazi bo‘lib, unga atrof hududdagi 18 ta qishloq qarar edi. Shahar 4 qismga - Mavlono Lutfullo, Ko‘nchilik, Xonmasjid, Yangi

---

[1] Тиллоходжаев С., Юлдашев Т., Гафуров А. Фергана. – Ташкент, 1977. – С. 9.
[2] O‘sha yerda.
[3] O‘zMA. 1-fond.16-ro‘yxat, 1889-yig‘ma jild, 36-varaq.
[4] Обзор Ферганской области за 1899 г.... – С. 30.
[5] Обзор Ферганской области за 1907 г.... – С.14.
[6] O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 1520-yig‘ma jild, 382-varaq; Преложение №2. Ведомость. О населении Ферганской области за 1913 год / В книге: Азиатская Россия. Том 2. Земля и хозяйство. – СПб., 1914.

yo‘l dahalariga bo‘lingan. Har bir daha jami 40 ga yaqin mahallalardan iborat bo‘lgan. Mahallalar oqsosollar yoki ellikboshilar tomonidan boshqarilgan. Har bir dahada 1 tadan katta masjid va madrasa bo‘lgan[1].

Qo‘qon xonligi tugatilgach, Chust shahri 1876-yildan Farg‘ona viloyati tarkibidagi Chust uyezdi markazi maqomini oladi. Sobiq bek kal’asiga uyezd ma’muriyati va harbiylar joylashtirildi. Ilgari bekka tegishli bo‘lgan yerlar, bog‘lar ham uyezd boshlig‘i ixtiyoriga o‘tkazildi.

Chust shahridagi markaziy bozordan 2 km. masofada rus aholisi uchun yangi shaharchaga asos solinib, bu yerda ma’muriy binolar, uy-joylar va shifoxona qurilishi boshlandi.

1886-yildagi “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom”ga ko‘ra, Chust uyezdi Namangan uyezdi bilan qo‘shiladi. Endilikda Namangan uyezdi tarkibida Chust oqsoqolligi tashkil etildi. Chust oqsoqolligiga Chust shahridan tashqari Hisoraksoy va Sho‘rkent qishloq jamoalari ham qarar edi. Chust uyezdi Namangan uyezdi bilan qo‘shilib, shahar markaz maqomini yo‘qotgach, yangi shaharning qurilish jarayoni ham sustlashdi.

1876-yilda shaharda 2116 xonadon mavjud bo‘lib, unda yashovchi aholi soni 10580 nafarni tashkil etgan. 1897-yilda o‘tkazilgan aholi ro‘yxatida shaharda 13785 kishi[2], 1913-yilda esa 19814 kishi yashayotganligi qayd etilgan[3]. Ushbu davrda Chustda 2700 ta uy-joy, 84 ta masjid (shundan 12 tasi jome’ masjidi), 50 ta maktab faoliyat olib borar edi[4].

Qo‘qon xonligi davrida beklik markazi bo‘lgan O‘sh shahrida XIX asrning 70-yillarida 1000 ta uy-joy mavjud edi. Shahar nisbatan

---

[1] O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 1520-yig‘ma jild, 392–393-varaqlar; O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 1170-yig‘ma jild, 96- varaq.

[2] Первая Всеобщая перепись населения Российской империи 1897 года (Губернские итоги.) Т.Т. 1–89. – СПб., 1903–1905.

[3] Преложения №2. Ведомость. О населении Фергенской области за 1913 год / В книге: Азиатская Россия. Том 2. Земля и хозяйство. – СПб., 1914.

[4] O‘z MA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 1170-yig‘ma jild, 138–147- varaqlar; Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том. 19.... – С. 702.

kichik va aholisi kam bo‘lishiga qaramay, strategik ahamiyatga molikligi sababli 1876-yilda Farg‘ona viloyati tarkibidagi O‘sh uyezdi markazi sifatida belgilandi va bu yerga harbiy kuchlar joylashtirildi.

Shaharning janubida rus aholisi uchun yangi manzilgoh, ya’ni shaharga asos solingan. Vaqt o‘tishi bilan shahar aholisining soni o‘sib borgan va 1913-yilga kelib, bu yerdagi xonadonlar soni 6253 taga yetgan[1]. Aholi soni 1885-yilda 12.976 kishi[2], 1897-yilda 34.157 kishi[3], 1913-yilga kelib esa 47401 kishini tashkil qilgan.

Shahar aholisi atrofdagi kishloq va shaharlardan kelganlar hamda ruslar hisobiga ko‘payib borgan. Aholi asosan, dehqonchilik va qisman chorvachilik bilan shug‘ullangan. Dehqonchilikda asosan, bugdoy, jo‘xori, keyinchalik esa paxta yetishtirilgan. Chorvachilik qisqarib, yordamchi xo‘jalikka aylanib borgan va asosan, ishchi hayvonlar – ho‘kiz hamda ot muhim ahamiyat kasb etgan.

Hunarmandchilik ichki ehtiyojlarni qondiruvchi eng zarur kasblar – kiyim-kechak (bosh kiyim, chopon), poyabzal, tegirmonchilik kabi sohalar misolida rivojlangan. 1884-yilda shaharda 75 ta hunarmandchilik ustaxonasi bo‘lsa, aholi sonining o‘sib borishi bilan 1914-yil arafasida bir necha yuzga yetgan. Ishlab chiqarishda asosan, tegirmonchilik va yog‘-moy korxonalari ustuvorlik qilgan. O‘z o‘rnida shuni ham qayd etish kerakki, shaharda 1913-yilda 100 ta masjid, 1 ta cherkov va 56 ta o‘quv muassasasi mavjud edi.

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, o‘rganilayotgan davr Farg‘ona vodiysi urbanizatsiya jarayonlari asosan, qadimdan ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markaz bo‘lib kelgan shaharlar atrofida sodir bo‘ldi. Ularning qadimdan savdo va hunarmandchilik markazi bo‘lganligi hamda savdo yo‘llarida joylashganligi urbanizatsiya jarayonlariga katta imkoniyat yaratdi. Shaharlarda barpo etilgan “yangi” qismlarda nafaqat ma’muriyat va harbiylar, balki

---

[1] Туркестанский сборник. Том 152.... – С. 164.
[2] Материалы для статистики Туркестанского края // Туркестанская ведомости. – 1885. – №38.
[3] Первая Всеобщая перепись населения Российской империи 1897 года.... – С. 95.

savdo-sanoat ahli, temir yo‘l va korxonalar ishchilari, sarmoyadorlar, rus aholisi, boshqa yevropaliklar hamda yahudiylarning soni ham ortib bordi.

E’tibor berish kerakki, vodiydagi shahar madaniyatining rivojlanishi asosan, rus ma’murlari, harbiylari va aholi yashaydigan “yangi” qismda zamonaviy infratuzilmalar yaratilishi bilan cheklanib, mahalliy aholi yashaydigan qismlari esa, deyarli o‘zgarmasdan XIX asr darajasida qoldi. Eski shaharlardagi an’anaviy infratuzilmalar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lsa-da, zamon talablari va yangiliklardan ancha ortda qolgan edi.

Umuman olganda, 1876-yilda Rossiya imperiyasi Qo‘qon xonligini yo‘qotib, uning hududida Farg‘ona viloyatini tuzgach, ma’muriy markaz qurish uchun o‘ziga qulay joylarni tanladi. Shahar qurilishi loyiha bo‘yicha 1877-yil iyunda boshlandi. Qurilish harajatlari, asosan, mehnatkashlar zimmasiga yuklandi (soliq solindi). Ushbu shaharni katta maydonni qurshab olgan qal’a ichida qurish ko‘zda tutildi. Qal’adan shimoliy-g‘arb va g‘arbga tomon radius shaklida uchta uzun ko‘cha qurildi. Ulardan biri eski Marg‘ilon tomonga yo‘naldi va parallel, tor ko‘chalar bilan tutashtirildi.

General-gubernator shaharni Yangi Marg‘ilon deb atashni buyurdi. Shaharning qurilishi 1904-yilda yakunlandi. Yangi Marg‘ilon, asosan, Marg‘ilonsoyning chap sohilida joylashdi. O‘ng sohili bozor uchun mo‘ljallandi. Shaharning janubiy qismida kazarmalar qurildi, g‘arbiy qismida harbiy boshqarma joylashtirildi. 1880-yilda ushbu boshqarma yozgi harbiy lagerga o‘zgartirildi.

Shahar ko‘chalarining har ikki tomoniga daraxtlar ekildi. Shaharda sanoat korxonalari qurilmadi. 1898-yilda Samarqand-Andijon temir yo‘l o‘tkazilishiga qaramasdan, shaharning kengayishi va rivojlanishi sekinlik bilan bordi. 1891-yilda shaharda 2 ta pivo pishirish va bitta ko‘nchilik zavodi faoliyat ko‘rsatdi. Mahalliy yarim kustar korxonalar mahalliy xom ashyoni qayta ishlash bilan shug‘ullanardi. Paxta tozalash zavodi faqatgina temir yo‘l

o‘tkazilgandan keyin qurildi. 1899-yilda Yangi Marg‘ilon shahri aholisi atigi 4 ming kishini tashkil etgan edi. 1907-yilda mustamlakachi ma’murlar shahar nomini o‘zgartirib, uni Skobelev deb atadilar. O‘sha yili shaharda temir yo‘l vokzalining ham qurilishi boshlandi.

1914-yilda shaharda yana 4 ta paxta tozalash zavodi va 8 ta pilla quritish moslamasi foydalanishga topshirildi. Shaharda asosan, podsho ma’muriyati va amaldorlari, harbiylar, savdogar hamda mahalliy boylar yashar edi. 1913-yilda shahar aholisi 14 ming kishiga yetib, shundan o‘zbeklar atigi 3216 kishini tashkil etar edi.

Shahar tunda 80 ta yoritkich (fonus) bilan yoritilar, bir qancha do‘konlar aholiga xizmat ko‘rsatar edi. 1917-yilgacha shahardagi 3 ta gimnaziyada 600 o‘quvchi, 5 ta maktabda esa 821 o‘quvchi tahsil olar edi. Ularga 20 nafar o‘qituvchi saboq berar edi. Shaharda birgina kasalxona (35 o‘rin) va bir dorixona mavjud edi.

1917-yil 6–7 dekabrda Skobelevda hokimiyatni sho‘rolar egalladi. 1921-yilda O‘rta Osiyo ipakchilik sanoatining dastlabki korxonasi – pillakashlik fabrikasi foydalanishga topshirildi. 1917-yilgacha shaharda quvvati 700 kvt. bo‘lgan xususiy (Lipinskiyga qarashli) elektr stantsiyasi bo‘lgan. O‘sha yildan keyin Farg‘ona vodiysida yagona bo‘lgan issiqlik elektr markazi ishga tushirildi. Quvasoy issiqlik elektr stantsiyasi faoliyat ko‘rsata boshlagandan keyin ular yagona energiya sistemasiga birlashtirildi. Shundan keyin to‘qimachilik fabrikasi va yog‘ zavodi ishlay boshladi. Paxta tozalash zavodlari, tegirmonlar hamda kustar korxonalar qayta qurilib, kengaytirildi va elektr quvvati bilan ishlay boshladi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda ishga tushirilgan Xo‘jaobod-Farg‘ona, shimoliy So‘x-Farg‘ona-Quvasoy gaz quvurlari Farg‘onani Buxoro yaqinidan boshlangan yagona gaz sistemasi bilan bog‘ladi.

O‘rganilayotgan davrda vodiyning shahar madaniyati va shaharsozligi mustamlaka manfaatlari doirasida rivojlanib, mahalliy aholi manfaatlari inobatga olinmadi. Ammo, iqtisodiy markaz

maqomi baribir tarixiy an’analar hamda katta salohiyatga ega bo‘lgan eski shaharlarda qoldi. Yangi ma’muriy markazlar, yangi shaharchalar, rus posyolkalarida rusiyzabon aholi uchun tegishli shart-sharoit, infratuzilmalar yaratilsa-da, ular savdo, hunarmandchilik va iqtisodiy markaz mavqeiga erisha olmadi.

### 2.3. Shaharlarning boshqaruv tizimidagi siyosiy mavqei hamda ma’muriy boshqaruv tartiblaridagi o‘zgarishlar

XIX asrning ikkinchi yarmida mahalliy Farg‘ona vodiysi shaharlari radial-kontsentristik (radius bo‘ylab bitta markazga ega bo‘lgan) tuzilishga ega bo‘lgan. Shaharlar xom g‘isht yoki paxsadan bino qilingan doirasimon mudofaa devorlar bilan o‘rab olingan bo‘lib, bir nechta darvozalardan o‘tgan asosiy ko‘chalar orqali shaharning markaziga borilgan. Markazda esa hashamatli va mahobatli binolardan hukmdorning o‘rdasi, katta madrasalar, xonaqoh va masjidlar bo‘lgan. Ushbu binolar bir yoki ikki qavatli, aksar holarda pishiq g‘ishtdan barpo etilgan bo‘lib, ular hovli va uning atrofida qurilgan uylardan iborat bo‘lgan. Mazkur binolar o‘zining hajmi, me’mor iy mahobati va peshtoqlarining yorqin bezaklari bilan atrofidagi bir qavatli loydan qilingan uylardan ajralib turgan.

Mahalliy aholi yashaydigan mahallalar katta yo‘llardan ajralib chiqqan mayda va tor ko‘chalardan iborat bo‘lgan. Mahallalarning eng gavjum joyi mahalla hovuzi atrofi va masjidi bo‘lgan.

1876-yilda xonlikka barham berilgandan so‘ng vodiy shaharlari, ya’ni Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, O‘sh, Chimyon, Namangan va Chust uyezdlarga bo‘lindi[1]. Ushbu shaharlarning aksariyatida “yangi” qismlarning qurilishi boshlanib ketdi. Yangi rus ma’muriyati hamda harbiy garnizon ushbu shaharlardagi xon yoki beklarning qasr va istehkomlarida joylashgan edi. Hukumatdan

---

[1] Фармонова Б. А. Ремесленное производство в Ферганской долине во второй половине XIX – начале XX вв. Дисс. канд.ист. наук. – Ташкент: Институт Истории АН Узбекистана, 1995. – С. 23.

chetlashtirilgan mahalliy hukmdorlarning mulklari Rossiya davlati ixtiyoriga o‘tdi. Biroq, mahalliy aholining mulk va binolari daxlsiz bo‘lgan. Rus ma’muriyati zarur bo‘lgan holda ularni ijaraga olgan yoki sotib olgan.

Istilodan keyin Rossiyadan kelgan harbiy muhandislar ruslar yashaydigan manzilgohlarni shaharlarning eski qismida loyihalashtirib, joylashtirganlar. Ushbu manzilgohlar “rus” yoki “yangi shahar” deb atalgan. “Eski” va “yangi” qismdan iborat shaharlarni “ikki strukturali” yoki “ikki qismli” shahar deyish mumkin[1]. Farg‘ona vodiysidagi barcha shaharlar Yangi va Eski Marg‘ilondan tashqari shunday “ikki qismli” bo‘lgan. Rus muhandislari yevropalik aholi uchun joylarni maxsus hay’at va tanlangan joyning sanitariya-iqlim sharoitini tekshirib bergan mutaxascis ishtirokida belgilaganlar.

O‘rganilayotgan davrda vodiy shaharsozligidagi o‘zgarishlar O‘rta Osiyo temir yo‘lining ishga tushirilishi bilan uzviy bog‘liq holda kechdi. Samarqand- Toshkent-Andijon yo‘nalishidagi temir yo‘lining ishga tushirilishi natijasida vodiy mintaqaning shiddatli mahsulot ayirboshlash jarayoniga tortildi va bu yerga arzon qurilish materiallarining olib kelinishiga ham sabab bo‘ldi. Mintaqa tovar-pul ayirboshlashga asoslangan kapitalistik munosabatlariga tortildi. Ushbu davrda Farg‘ona vodiysidagi shaharlarning “yangi” qismlarida savdo-sanoat va uy-joy qurilish ishlari ancha rivojlandi[2].

Mutaxassislar o‘lkadagi temir yo‘l qurilishi bilan bog‘liq holda vodiydagi shaharsozlikni ikki davrga bo‘lganlar. Birinchisi, XIX asrning oxirgi choragini o‘z ichiga olib, ushbu davrdagi rus shaharlari asosan, mahalliy qurilish materiallari asosida barpo

---

[1] O‘zMA. 1-fond. 13-ro‘yxat, 516-yig‘ma jild, 325–327- varaqlar; O‘zMA. 1-fond. 13-ro‘yxat, 928-yig‘ma jild, 154–155-varaqlar; Юсупова М. Полвека трансформации архитектуры Узбекистана: на примере «новых городов» Ферганской долины конца XIX – начала XX вв. / Научный редактор: Э. В. Ртвеладзе. – Ташкент, 2005. – С. 28.

[2] O‘zMA. 1-fond. 13-ro‘yxat, 1547-yig‘ma jild, 124–126- varaqlar; Лаврентьев В. Л. Капитализм в Туркестане. – Москва, 1930. – С. 151; Мусаев Н. У. Туркистонда капиталистик ишлаб чиқариш муносабатларининг вужудга келиши (XIX асрнинг охири – XX асрнинг бошлари). – Тошкент: Тошкент давлат техника университети, 1995. – Б. 106.

etilgan. Ikkinchisi esa 1920-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Mazkur davrda temir yo‘l orqali olib kelingan arzon qurilish materiallari asosida shaharlar bino etilgan, ba’zi qurilish mollarini shu yerda ham ishlab chiqarishi yo‘lga qo‘yilgan.

Farg‘ona vodiysining 7 ta asosiy shaharlari – Qo‘qon, Andijon, Namangan, Marg‘ilon, Chust, Yangi Marg‘ilon va Rishton umumiy bo‘lgan tamoyillardan tashqari, shakllanishi hamda rivojlanishi bo‘yicha o‘ziga xos tuzilishga ham ega edi. Jumladan, vodiyda eng katta shaharlardan biri bu – Qo‘qon (manbalardagi Havoqandi latif – latif Ho‘qand[1]) bo‘lgan. U shahristoni 19 km.lik xandaq va mudofaa devori bilan o‘rab olingan bo‘lib, 12 ta darvozasi bor edi[2]. Shaharning ikkita markazi – biri hukmdor O‘rdasi atrofida, ikkinchisi esa Chorsu bozorining maydonida bo‘lgan shu markazlarda madrasa va Jome masjidi joylashgan edi[3].

Qo‘qon shahri 1876-yildan Farg‘ona viloyatining mamuriy markaziga aylandi[4]. Bosqinchilarning harbiy boshqaruvi, garnizoni va ma’muriyati shaharning eng obod joyi Xudoyorxonning 1870-yilda barpo qilgan O‘rdasiga joylashtirildi. Keyinroq xon o‘rdasining janubi-g‘arbiy qismidagi hududda ruslarning istehkomi barpo etildi. O‘rdaning mudofaa devori General Skobelev farmoni bilan “erli aholini qo‘rqitish uchun” butunlay portlatib yuborildi[5].

1876-yilning oxirlarida Qo‘qonning iqlimi, sharoiti va sanitariya holatining yomonligi (albatta, ruslar nuqtai-nazari bo‘yicha)dan harbiy boshqaruv Yangi Marg‘ilonga ko‘chirildi. Qo‘qonda kichik bir garnizon qoldirilib, u uyezd markaziga aylantirildi. Biroq, Qo‘qon aholisining soni, savdoning rivoji va

---

[1] Havoqandning etimologik ma’nosi “Havo kent”, ya’ni “shamollar shahri” demakdir. Bu haqda qarang: Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик.... – Б. 3.

[2] Кушелевский В. И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Том I. – Новый Маргелан: Издание Ферганского Областного Статистического Комитет, 1890. – С. 67; Юсупова М. Полвека трансформации архитектуры Узбекистана.... – С. 32.

[3] O‘zMA. I.1-fond. 13-ro‘yxat, 1738-yig‘ma jild, 187-varaq; История Коканда.... – С. 5–41.

[4] O‘zR MA. I.19-fond, 1-ro‘yxat, 126-ish, 1,13,21,24-varaqlar;

[5] O‘zMA. I.19-fond. 1-ro‘yxat, 251-yig‘ma jild, 187–188-varaqlar; Кушелевский В. И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Том I.... – С. 78.

ishlab chiqarish bo‘yicha vodiyda yetakchi o‘rinni egallagan. 1883-1884-yillarda shahar yangi qismining bosh loyihasini ishlab chiqarish va uni hayotga tatbiq qilish uchun eski shaharga yaqin joy tanlandi[1]. Тиббиёт ходимлари бундай маъқул жой учун шаҳарнинг жанубида жойлашган Афғонбоғни маъқул кўрдилар[2]. Lekin, ma’muriyat shaharning eski qismidagi xon O‘rdasi atrofini ma’qulladi. Ba’zi olimlar rus ma’muriyatining ushbu qarorini xato, tez iqtisodiy foydani ko‘zlab qilingan ish deb, xulosa qilganlar. Mazkur qaror shaharning keyinchalik “erkin” rivojlanishiga mone’lik qilgan[3].

Shaharning rivojlanishiga uning “eski” qismidagi yer narxining oshib borishi to‘sqinlik qilgan. Fikrimizcha, buning asosiy sababi, bosqinchilarning shahar markazini egallab, xuddi shu joyda eski hukmdor hukumati binosida yangi ma’muriyatini barpo etib, mahalliy aholiga kuch-qudratini ko‘z-ko‘z qilishdan iborat edi. Bosqinchilar O‘rdadagi joy yetarli bo‘lganidan u yerda harbiylar va ma’muriyatini joylashtirib, cherkov (qabulxona va taxt turgan xonada), erkaklar hamda ayollar uchun gimnaziya, telegraf, pochta va boshqa xizmatlarni tashkil etdi[4]. Vodiyning boshqa shaharlarida ruslarning “yangi shahar” qismlari shaharning chekkasida barpo etilib, alohida istehkomlar va turar-joylarning ko‘proq qurilishiga olib keldi.

XX asrning boshlariga kelib, Qo‘qon shahrining “yangi qismi” (rus qismi) to‘g‘ri burchakli ko‘chalardan iborat bo‘lib, ular g‘arbga qarab Rozenbax shohko‘chasi bo‘ylab yoyilgan edi. Rozenbax ko‘chasining O‘rtasidan janubga qarab temir yo‘li vokzali tomon

---

[1] O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 245-yig‘ma jild, 124- varaq; O‘zMA. 23-fond. 12-ro‘yxat, 127-yig‘ma jild, 268–327- varaqlar;

[2] Кушелевский В. И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области… Том I. – С. 85. Ushbu muallifning qaydlariga ko‘ra, Afg‘onbog‘ning maydoni 25 verst bo‘lib, u yerda qayrag‘och, terak, yong‘oq va boshqa mevali daraxtlardan iborat bog‘ bo‘lgan. Ruslar Urganjibog‘, Sulton Murod va Nasriddinbek bog‘lariga ham qoyil qolganlar. Biroq, ushbu bog‘lar tez orada rus kazak askarlari qo‘lidan xarob bo‘lgan. Bu haqda qarang: Кушелевский В. И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области… Том I. – С. 87.

[3] Юсупова М. Полвека трансформации архитектуры Узбекистана... – С. 32.

[4] Кушелевский В. И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания... – С. 77.

Skobelev prospekti joylashgan. Shaharning ma’muriy va jamoat markazi O‘rda atrofida, ikki shohko‘cha burilishi joyida esa shaharning savdo markazi joylashgan edi.

XX asrning boshlarida me’mor M. Mauer shaharning asosiy planini tuzadi. Uning taklifiga binoan, Rozenbax ko‘chasining ikki tarafi to‘g‘ri burchaklarga bo‘linib, uni kesib o‘tadigan ko‘chalar o‘tkazilishi kerak edi. Shaharning “eski” qismi esa to‘rtta doira shaklida O‘rdadan Chust, Rishton, So‘x va Afg‘on darvozalariga olib boradigan ko‘chalar bilan kesishishi kerak edi. Shunda O‘rda markazi yana Piyon bozor va Go‘sht bozor orqali Chorsuga ulanar edi. Markaz tez va qulay holatda shaharning chekkalari bilan aloqa o‘rnatishi oson edi. Biroq, M. Mauerning ushbu rejasi moliyaviy sabablarga ko‘ra amalga oshmay qoldi[1].

Farg‘ona vodiysida ruslar tomonidan alohida maxsus reja bilan barpo etilgan shaharlardan biri Yangi Marg‘ilon (bugungi Farg‘ona) shahridir. Rus harbiy ma’muriyati Qo‘qon shahri iqlimini sog‘liq uchun zararli, vodiyning jo‘g‘rofiy markazidan uzoq, deb topgan edi[2]. Farg‘ona gubernatori qarori bilan maxsus komissiya viloyatning yangi markazi uchun sanitar va hududiy jihatlardan mos keladigan joyni tanlashi kerak edi. Gubernator Skobelevning talabiga binoan, Eski Marg‘ilonning yonidan bir maydon tanlab olindi[3].

Turkiston general-gubernatori K. P. Kaufman ushbu qarorni ma’qullab, komissiyaning bayonnomasiga “Viloyatning markaziy shahri Marg‘ilonda barpo etilsin va u yerda imkoni boricha kattaroq zaxiramiz joylashtirilsin... ”, degan rezolyutsiya qo‘ydi. 1876-yil 13-apreldagi Oliy buyruqqa binoan, viloyat markazi Qo‘qondan Yangi Marg‘ilonga ko‘chirildi.

---

[1] O‘zMA. 300-fond. 1-ro‘yxat, 183-yig‘ma jild, 128–129- varaqlar; Из Коканда // Туркестанские ведомости. – 1893. – №32.
[2] Yuqoridagi manba... – B. 38.
[3] Нильсен В. А. У истоков современного градостроительства Узбекистана (XIX – начало XX веков). – Ташкент: Фан, 1988. – С. 119.

Qayd etish kerakki, rus ma’muriyatini viloyatning yangi markazini tanlash va uni barpo etishda arxiv ma’lumotlari qiziqarli ma’lumot beradi. Marg‘ilon 1875 yil sentyabrda bosqinchilar tomonidan egalangach, keyingi yili bahoridan uning janubiy devorlari yaqinida yangi shaharning qurilishini boshladilar. Avval Yangiqo‘rg‘on (Tuproqqo‘rg‘on[1]) da shahar devoridan 170 sajen[2] (357m.) uzoqlikda, Jilmon va Yoyilma darvozalari yaqinida ruslarnig dastlabki harbiy istehkomi qurildi[3].

Yangi Marg‘ilonning ma’muriy va jamoa markazini Toshkent shohko‘chasida joylashgan 83 ming kv.metr hajmdagi katta maydon tashkil qilardi. Ushbu maydon atrofida park, gubernator uyi, gubernator yordamchisining uyi va boshqa binolar joylashgan edi. Shu yerdan Gubernator ko‘chasi orqali bozor maydoniga va katta ommaviy parkka olib boruvchi yo‘l o‘tgan.

Yangi Marg‘ilon Toshkent hamda Samarqanddan farqli ravishda katta va keng maydonda joylashtirildi. Shaxsiy uy-joylarning kengligidan ularda bog‘ va hovuzlar qurish tavsiya etildi. Yaxshi va shinam binolar quradiganlarga eng yaxshi hovli berildi. Ularning egalari ikki yil o‘tmasdan qurilishni tugatib, bog‘ barpo etishga kirishishlari kerak edi. Xom g‘ishtdan uy qurilishi uchun faqat toshli yoki pishiq g‘ishtdan fundamenti bo‘lsagina ijozat berildi. Reja va binolarning tashqi ko‘rinishlari qurilish bo‘limlarida muhokama qilingan. Uylar oldidan oqib o‘tgan ariqlar bo‘ylarda daraxtlar o‘tqazish majburiy edi[4].

Yangi Marg‘ilon vodiydagi ruslarning mahalliy aholidan alohida joylashgan va faqat bitta Yevropa qismidan iborat bo‘lgan shahri edi. Uning qurilishining birinchi bosqichida barcha jamoa, ma’muriy va savdo markazlari, shahar xiyoboni barpo etildi. Yangi

---

[1] Кушелевский В. И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания... – С. 29.
[2] Sajen – uch gaz yoki 2,134 metrga teng bo‘lgan uzunlik o‘lchovi.
[3] O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 1520-yig‘ma jild, 25–27- varaqlar; O‘zMA. 300-fond. 13-ro‘yxat, 516-yig‘ma jild, 363- varaq.
[4] O‘zMA. 47-fond. 1-ro‘yxat, 95-yig‘ma jild, 2- varaq; Чабров Г. Очерк истории планировки и строительства русских городов Туркестанского края (1865–1916). – Ташкент, 1945. – С. 232.

Marg‘ilon obod, ko‘klamzor va salqin shaharga aylandi. Biroq, ikkinchi bosqichda shahar temir yo‘ldan uzoq bo‘lganligi uchun, savdo-sanoat munosabatlarining rivojlanishi davrida boshqa shaharlaridan ancha orqada qoldi. Qo‘qon, Andijon va Namanganda kapitalizmga xos bo‘lgan yangi uslubdagi binolar ko‘proq qurila boshlagan davrda, Yangi Marg‘ilon Farg‘ona viloyatining rasmiy harbiy-ma’muriy markazi sifatida faoliyat olib borardi, xolos. Ushbu shaharda faqat madaniy hayot yuqori sur’atda rivojlangan edi (bu yerda kutubxonalar, turli jamiyatlar, muzey bo‘lgan, artistlarning tez-tez chiqish bo‘lib turgan).

Eski Marg‘ilonning XIX asr oxirida 12 darvozasi bo‘lgan[1], Shahar markazi qal’aning shimolida joylashgan edi. Ruslar bosqini davrida shahar mudofaa devori ancha buzilgan bo‘lsa-da, ammo u bog‘u rog‘lar soyasida ko‘milib ketgan, toza va obod shahar edi. Shaharda eng obod va go‘zal joy xonning bog‘i edi. Ushbu bog‘ Xudoyorxon davrida yevropacha uslubda, keng xiyobonlari bilan barpo etilib, turli mevali daraxtlardan alohida-alohida bog‘chalari bo‘lgan. Birgina uzumlarning 20 dan ortiq navi ushbu bog‘da parvarish qilingan. 1890 yildan keyin bu yerda Yangi marg‘ilonlik (evropaliklar)ning ommaviy sayillari va tomoshalari bo‘lib turgan[2]. Mahalliy aholi bog‘dorchilik, g‘allachilik bilan bir qatorda jun, qog‘oz va ipak matolar to‘qishi bilan mashg‘ul bo‘lgan[3].

Eski Marg‘ilon nihoyatda sekinlik bilan rivojlangan. Rossiya mustamlakachilik ma’muriyati uning obodonchiligi va har tomonlama taraqqiy topishiga kam ahamiyat berar edi. Uning sanoati ham orqada edi. 1890 yilgacha bu yerda bitta paxta tozalash

---

[1] Bular: Maoz ibn Jabal, Nadimat, Toshloq, Xotun ariq Bahrin, Gulchaman, Mashad, Eshon darvoza, Olti ariq, Sari mazor, Suk tepa va Chimyon. Bu haqda qarang: Писарчик А. К. Некоторые данные по исторической топографии городов Ферганы / Сборник статей, посвященных исскуству таджикского народа. – Сталинабад, 1956. – С. 157.

[2] O‘zMA. 47-fond. 1-ro‘yxat, 95-yig‘ma jild, 57-varaq; Кушелевский В. И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Том II. – Новый Маргелан: Издание Ферганского Областного Статистического Комитета, 1891. – С. 56.

[3] Юсупова М. А. К истории архитектурного облика Маргилана конца XIX – начала XX века / Марғилон шаҳрининг жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. – Тошкент-Марғилон: Фан, 2007. – С. 136–141.

zavodi va bir nechta teriga ishlov beradigan kosibchilik korxonalari bo‘lgan, xolos.

Farg‘ona vodiysidagi yana bir katta shahar – Andijondir. Mazkur shahar 40$^{o}$ 49 $^{o}$ 49 $^{o}$ shimoliy kenglik va 41$^{o}$ 58 $^{o}$ 38 $^{o}$ $^{o}$ sharqiy uzunlikda, dengiz sathidan 1500 fut balandlikda joylashgan[1]. 1876-yil yanvarda Andijon va undan uzoq bo‘lmagan Asaka qal’asi ruslar tomonidan bosib olingach, Andijon uyezd markazi sifatida Farg‘ona viloyati tarkibiga kirdi.

1877-yili “Rus Andijoni” nomini olgan shaharning yevropacha qismini qurish rejalashtirildi va u shaharning janubi-sharqidagi bir tepalikda barpo etildi. Oradagi maydonda bir uyezd shaharchasini barpo qilish mumkin bo‘lgan. Gultepada joylashgan qal’adan shaharning eski qismigacha keng va to‘g‘ri bir shohko‘cha (bugungi Navoiy shohko‘chasi) o‘tkazildi. 1879 yilda Andijon va O‘sh shaharlarining me’mor i qilib injener-poruchik Neminushiy tayinlanganidan so‘ng yangi shaharning qurish ishlari tezlashib ketdi [2].

Rus qo‘shinlari va harbiy ma’muriyati xonning ikkita o‘rdasi hamda Gultepa qal’asida joylashdi. Shaharning shimol-sharqida xonning kattagina bog‘i bo‘lgan. 1884-yilgacha bu yerdagi o‘rdada avval uyezd boshlig‘i yashagan, shifoxona ham shu yerda bo‘lgan. Turkiston artilleriya brigadasining 3- batareyasi askarlari shu bog‘da joylashtirildi. Shahar O‘rtasidagi o‘rdada avval cherkov, lazaret va 16 ta batalьon rotasi mavjud edi[3]. Shaharning eski qismida ushbu davrda 30 ming aholi yashagan va ularning aksariyati qipchoqlar edi[4].

---

[1] Кушелевский В. И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Том I... – С. 104.

[2] O‘zMA. 19-fond, 1-ro‘yxat, 3125-yig‘ma jild, 12-13-varaqlar; Туркистон вилоятининг газети // – 1876. – № 31.

[3] O‘zMA. 25-fond. 1-ro‘yxat, 154-yig‘ma jild, 85- varaq; Кушелевский В. И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Том I.... – С. 106–107.

[4] O‘sha joyda.

1891-yilda rus mualliflaridan biri Andijonning yangi qismini barpo etishda ichimlik suvi ta’minotiga ahamiyat bermaslik natijasida hamma ishning pachavasi chiqdi, deb yozgan edi. Vaholanki, bu uchun mablag‘ va imkoniyat ham bor edi, deb ta’kidlaydi. Muallif ma’muriyat rus shahri uchun alohida ariq o‘tkazishi kerak edi, endi 1891-yilda barcha mablag‘lar talon-toroj qilingandan so‘ng bunday imkoniyat qo‘ldan ketganiga alohida urg‘u beradi[1].

Shaharning qayta qurilishi, ko‘chalarining kengayishi, shaharning yangi qismining sanoat texnologiyasi jihatidan yuksalishi va temir yo‘lning mavjudligi uning tez rivojlanishi, mahalliy, rus, xorijiy firma va shirkatlarning ko‘payishi hamda rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Vokzaldan cherkovgacha bo‘lgan masofada pishiq g‘ishtdan savdo rastalari, mehmonxona va banklarning binolari qad ko‘tardi. Shaharning savdo markazi shu joyda shakllana boshladi. Shaharning g‘arbida katta sanoat hududi paydo bo‘ldi. Turmush va hayotda Yevropa madaniyatiga xos bo‘lgan alomatlar ko‘proq ko‘zga tashlana boshladi. 1905 yilda qurilgan kichik bir elektrostantsiya shaharning yangi qismini elektr energiya bilan ta’minladi. 1915 yilda Troitsk ko‘chasiga tosh yotqizildi, sutkada 400 chelakka mo‘ljallangan ichimlik suvi o‘tkazish ham rejalashtirildi[2].

Shaharning markaziy ko‘chalarining chorrahasida yangi majmualar, shaharsozlikning yangi g‘oyalari asosida qurilgan bichimlar, qarama-qarshi tarzda qurilgan bir xil binolar va go‘zal bezaklari bilan paydo bo‘ldi. Bunday Yevropa va Rossiyadagi amalda bo‘lgan me’mor iy ko‘rinish XX asr Adijon shaharsozligida ham namoyon bo‘la boshladi. Ularning ichida yaqqol ko‘zga ko‘ringani tashqi ko‘rinishi va hajm jihatidan yechimi bir xil

---

[1] O‘zMA. 25-fond. 1-ro‘yxat, 36-yig‘ma jild, 12-varaq; Кушелевский В. И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Том I.... – С. 108.
[2] Нильсен В. А. У истоков современного градостроительства Узбекистана... – С. 132.

bo‘lgan ikki qavatli savdo-sotiq hamda mehmonxona tipidagi binolar bo‘lgan.

Shunday qilib, XX asr boshlaridagi Andijon shaharsozligida birinchidan, funktsional zonalarning aniq differentsiatsiyasi, ya’ni savdo va jamoat markazlari, aholi yashaydigan joy, parklar hamda sanoat tumanlarining alohida shakllanishi, ikkinchidan, ifodali shaharsozlik majmualari va shakllarining paydo bo‘lishi, ularning miqdori hamda badiiy darajasi Andijon shaharsozligini vodiyning boshqa shaharlaridan ajratib qo‘yadi.

Vodiyning yana bir shahri Namangan 40$^{o}$ 59$^{o}$ shimoliy kenglik, 41 $^{o}$ 17 $^{o}$ 36 $^{o}$ sharqiy uzunligida, 1500 fut dengiz sathidan balandlikda, Yangiariq bo‘yida joylashgan[1]. Yangiariq kanalini 1816–1821-yillarda amir Umarxon hashar usuli bilan barpo ettirgan bo‘lib, uzunligi taxminan 80 verstga teng. Yangiariq to Namanganga kelgunicha undan 55 ta ariq suv olib, uning suvi 47 ta tegirmonni harakatga keltirgan. Undan 16 ta mahalliy va 36 ta qipchoq qishloqlari suv bilan ta’minlangan[2]. Ushbu davrdan Namangan shahri kengayib, rivojlana boshlagan. Rus bosqinchilari shaharni 1876-yilda bosib olgan va Namangan uyezdining markaziga aylantirgan. Ruslarning ma’muriyati va harbiy garnizoni eski Namanganning g‘arbida joylashtirilgan[3].

XIX asrning oxirgi choragida Namangan shahrining yangi qismida to‘g‘ri va keng ko‘chalar yaxshi aeratsiya (yun.ἀήρ)*, yagona ma’muriy, savdo, ibodat hamda sanoat markaziga ega bo‘lgan shahar barpo etildi. Biroq, ko‘p vazifali shahar markazida sanoat hududining paydo bo‘lishi ushbu davr Namangan shaharsozligining salbiy tomonlaridan biri bo‘ldi[4].

---

[1] Кушелевский В. И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Том I.... – С. 93.

[2] O‘zMA. 19-fond, 1-ro‘yxat, 290-yig‘ma jild, 13-varaq; Қосимов Й. Наманган воҳасининг суғорилиш тарихидан. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 50.

[3] Чабров Г. Очерк истории планировки и строительства русских городов Туркестанского края... – С. 194.

* Aeratsiya – (yun. ἀήρ –“Havo”) – bino ichi va tashqarisidagi tabiiy-tashkiliy havo almashinish jarayoni.

[4] Юсупова М. Полвека трансформации архитектуры Узбекистана.... – С. 54.

XIX asrning oxirida viloyatga temir yo‘lning o‘tkazilishi bilan Namangan sanoati ham rivojlanib ketdi[1]. “Rus Namangan”i paxta markaziga aylandi, zavod va fabrikalarning soni oshib bordi. Shaharning yangi qismini kengayishi uchun uyezd boshlig‘i Arvanitaki 1899-yilda Yangiariq va Rozenbax ariqlari orasidagi bo‘sh yotgan 37 gektarli maydonda har biri 113 ta hovlidan iborat 10 ta daha barpo etishni taklif qildi. Ushbu imtiyozlar yevropaliklarga ikki yil davomida haqini to‘lash sharti bilan uy-joy uchun berildi[2]. Natijada, yangi shahar eski qism bilan tutashib, mahalliy aholi yashaydigan qismni shimolga qarab kengayishini oldini oldi.

XX asrning boshlarida Namanganning XIX asrning oxirlarida shakllangan yagona va ko‘p vazifali o‘zagidan shaharning yaqin atrofida joylashgan ma’muriy, jamoa va savdo markazlari ajralib chiqdi. Shaharning sanoat zonasi ham shahar chekkasiga olib chiqilgani uning tuzilmasi va ekologik holatini yaxshilashga olib keldi. Namanganning yangi shahari qurlishi jarayoni, me’mor iy g‘oyalarining yechimi va amalga tatbiqi uni viloyatning boshqa shaharlaridan ajralib turishiga sabab bo‘ldi.

Shaharning ko‘chalariga vodiydagi yangi shaharlardagi kabi faqat ruscha nomlar qo‘yilgan edi. Namanganning “Yangi shahar” qismida 1905-yilga kelib, Baronskaya, Pushkinskaya, Granovskaya, Golovachevskaya, Kaufmanskaya, Averyanovskaya, Peterburgskaya, Moskovskaya, Kiyevskaya va Novgorodskaya ko‘chalari mavjud edi[3].

1877-yilda Chust Farg‘ona viloyati Chust uyezdining markaziga aylantirildi. Ruslarning garnizoni va harbiy ma’muriyati sobiq bekning qal’asida joylashtirildi. Bosqinchilar qal’a mudofaa

---

[1] Акрамов З. М. Наманганская область (историко-географический очерк). – Ташкент: Фан. 1954. – С. 11–24.
[2] Чабров Г. Очерк истории планировки и строительства русских городов Туркестанского края... – С. 197.
[3] O‘zMA. 19-fond, 1- ro‘yxat. 26524-yig‘ma jild, 34-varaq.
* Barbet (fr. Barbette) – harbiy ishlarda himoya tushunchasi.

imkonini kengaytirish va kuchaytirish uchun uning shimoli-sharqida katta yo‘lga qaratib, barbet (fr. Barbette)* qildilar. Istehkomning janubi-sharqida Chust bozoriga qarab ham barbet qurish rejalashtirildi, qal’a oldidagi maydonni bo‘shatib, maydaroq esplanada barpo qildilar. Rus vrachlarning maslahati bilan bozor maydonidan 2 km. uzoklikda ruslarning yangi shahri uchun 10 gektar joy tanlandi. Muhandis A. Rijikov loyihasi asosida bu joyda Chustning aholisi uchun shahar barpo etila boshlandi.

1879–1880-illarda yangi shaharning asosini ikkita T-shaklida joylashgan ko‘chalar tashkil etildi. A. Rijikov loyihasida davlat muassasalarining binolaridan uyezd ma’muriyati, sudьya xonasi, qamoqxona, shifoxona, kazarma va uy-joylar qurilishi ham rejalashtirilgan edi[1]. Sobiq bekka tegishli barcha yerlar uyezd hokimi uyiga biriktirilib, park va bog‘i saqlab qolindi. 1887 yilda Chust uyezdi Namangan bilan qo‘shildi va Chust chekka shaharga aylandi[2]. U yerda faqat uchastka pristavi joylashgan edi. Chustning yangi shahar qurilishi ancha susayib ketdi. Ushbu shaharda ruslarning hatto cherkovi ham mavjud bo‘lmagan. 1901 yilda rus maktabining devori mustahkamlanib, tomi ta’mirlangach, u yerda ibodatxona ochildi.

XX asrning boshlarida Namangan va Chust shaharlari paxta ishlab chiqarish markaziga aylanib, savdogarlar hamda tadbirkorlar diqqatini torta boshladi. 1912-yilda Qo‘qon-Namangan temir yo‘li Chust shaxobchasining qurilishi bu yerda paxta tozalash zavodlarining ko‘payishiga olib keldi.

Chust shahrining kengayishi temir yo‘l va vokzal tomoniga qarab amalga oshirildi, shu tarafda sanoat hududi barpo etildi. Chustning ruslar shahrida ba’zi obodonchilik ishlar amalga oshirildi.

---

[1] O‘zMA. 19-fond, 1- ro‘yxat. 1520- yig‘ma jild, 46–154- varaqlar.

[2] Кушелевский В. И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Том I.... – С. 99.

Jumladan, ko‘chalarning bir qismiga tosh yotqizildi, ko‘chalar kerosin lampalar bilan yoritiladigan bo‘ldi.

1887-yildan uyezd markazi Namanganga ko‘chirilgach, Chustning ruslar yashaydigan yangi qismi asta-sekinlik bilan rivojlana boshladi. Ushbu rivojlanish XX asrning boshlarida temir yo‘lning kirib kelishi bilan biroz jonlandi, obodonchilikka ahamiyat berila boshladi. Rus ma’murlari Koson, Qamishqo‘rg‘on, Olmos va eski Axsini dam olish uchun qulay deb belgilab, bayramlar va yozning issiq kunlarida shu yerlarga dam olganlar[1].

Farg‘ona vodiysining sharqida, Oqbo‘ra daryosining ikki tomonida joylashgan[2] O‘sh shahri XVIII asrda Qo‘qon xonligi tarkibiga kirgan edi. 1876-yili ushbu qadimiy shahar ham Turkiston general gubernatorligining Farg‘ona viloyati tarkibiga kiritildi. O‘sh shahrining savdo va strategik ahamiyatidan kelib chiqib, bosqinchilar bu yerda katta garnizonlarini joylashtirdilar. Rus va yevropaliklar uchun mo‘ljallangan yangi shahar eski O‘shning janubida, Oqbo‘ra daryosining chap tomonida istehkom qurish bilan boshlandi.

1911-yildagi shaharning rejasiga qaraganda, uning yangi qismi shaharning markazidagi katta maydonni egallagan edi. Uning trapetsiya shaklidagi rejasiga O‘rtasida kazarmalar, qolgan joylarida xo‘jalik binolari qurilgan edi. 1891-yilgacha shaharning ruslar yashaydigan qismi 1 verst uzunlikda, Oqbo‘ra daryosi bilan qarama-qarshi tomonda bir ko‘chadan iborat bo‘lgan[3]. 1880-yilda qal’adan uncha uzoq bo‘lmagan masofada uyezd boshlig‘ining uyi, 22800 kv.m. maydonda esa Jome maydoni, janubroqda esa 1910-yiligacha cherkov vazifasini o‘tagan ibodatxona qurildi. Undan shimolda

---

[1] Yuqoridagi manba... – C. 103–104.
[2] Yuqoridagi manba... – C. 108.
[3] O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 1872-yig‘ma jild, 11-varaq; Кушелевский В. И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Том I.... – С. 109.

diniy maktab, harbiylar uchun turar joy, atrofida esa ma’muriy binolar barpo etildi[1].

XX asrning boshlarida O‘shning “ruslar shahri” eski qism bilan qo‘shilib ketdi. Ruslar shaharning janubiy qismidagi harbiy lagerlarga joylashdi. Shaharning sharqqa qarab kengayishiga Oqbura daryosi monelik qilgan. Daryoning g‘arbiy sohilida ruslar xiyobon bino qildilar. O‘shning yangi qismida bittagina mehmonxona binosi, magazin va do‘konlar, savdo rastalari bino etildi. Shaharning g‘arbida Verxniy (Piyon) bozor ham mavjud edi.

Bu yerda sanoat hududlari, zavod va fabrikalar ham bo‘lmagan. Unda bittagina Orlov degan tadbirkorning pivo zavodi (shahar xiyoboning janubida) bo‘lgan. 1913-yilda O‘sh shahrida 915 nafar ruslar, eski qismida esa 44 mingdan ortiq mahalliy aholi vakillari yashagan. O‘sh temir yo‘l va muhim sanoat markazlaridan uzoq bo‘lganligidan XX asrning boshlarida ham chegaradagi harbiy istehkom vazifasini o‘tagan[2].

O‘lka bosib olingach, aytilganidek, ushbu hududlarda ruslashtirish va ko‘chirish siyosati avj oldi. Farg‘ona vodiysida ham ruslar istiqomat kiladigan qishloqlar vujudga keldi. Farg‘ona viloyatidagi birinchi rus manzilgohi “Pokrovskiy” nomi bilan O‘sh uyezdining Qurshab degan joyida barpo etildi. 1897-yilda esa Namangan uyezdida Uspenskaya, 1898-yilda Andijonda Nikolayevskaya nomli qishloqlar paydo bo‘ldi[3]. 1898-yilda sodir bo‘lgan Andijon qo‘zg‘olonidan keyin vodiyga rus aholisining ko‘chib kelishi davlatning qo‘llab-quvvatlashi va ko‘magida yanada avj oldi. 1899-yilda Mingtepa qishlog‘i o‘rnida yangi Russkoye qishlog‘i paydo bo‘ldi[4]. Qishloqning aholisi bir qismi haydalib, bir

---

[1] O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 1520-yig‘ma jild, 253-varaq.

[2] Yuqoridagi manba... 254–255-varaqlar.

[3] Акбаров Р. Г. Хозяйственные взаимоотношения и социально-экономическая жизнь населения Ферганской долинв во второй половине XIX – начале XX века. Дисс... канд.ист. наук. – Ташкент: НУУ им. Улугбека. 2003. – С. 46.

[4] O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 6079-yig‘ma jild, 39-varaq; Стокасимов. Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Ферганский район... – С. 113.

qismi yo‘q qilingandan keyin Rossiyaning markaziy rayonlaridan 200 ta rus oilasi bu yerga ko‘chirib olib kelindi.

1899-yilda Andijon uyezdida Blagoveshenskoye, 1901 yilda esa Spasskoye qishlog‘i barpo etildi[1]. 1902-yilining oxiriga kelib, viloyatda 674 ta oiladan iborat 7 ta rus qishloqlari paydo bo‘ldi[2]. Yangi ko‘chib kelgan rus aholisi uchun ko‘plab imtiyozlar berilganligiga qaramasdan, ular zo‘ravonlik bilan mahalliy aholi yerlarini ham tortib ola boshladilar. Bundan xavotirga tushgan rus mahalliy ma’muriyati 1904-yilda Turkiston general-gubernatoriga murojaat qilib, markaziy guberniyalardan ko‘chib kelayotganlarning o‘zboshimchalik va bosqinchiliklariga chek qo‘yish uchun yordam so‘ragan[3], biroq mahalliy aholining murojaatlariga rad javob berilgan[4].

Andijon uyezdidagi Ko‘gart, Yassi va O‘zgan volostlarida vaziyat ancha qaltis edi. Ushbu volostlarda Turkiston general-gubernatorligiga qarashli Semirechinsk va Samarqand viloyatlari hamda Poltava, Tomsk va Voronej guberniyalaridan ko‘chib kelgan aholi joylashgan edi. Shundan Ko‘gart volostidagi 4 ta posyolka Ko‘kyong‘oq, Jirgatol, Qorachelak va Toron mahalliy ma’muriyat ruxsatisiz barpo etilgan edi[5].

1908-yilda Ko‘gartga yana 200 ta oila kelganini Andijon uyezdi hokimi Farg‘ona harbiy gubernatoriga ma’lum qilib, ularning og‘ir moddiy ahvolda ekanligi va tez orada ularning orasida ocharchilik boshlanishi mumkinligi haqida xabar bergan[6]. Ayni vaqtda mahalliy aholi va ko‘chib kelganlar O‘rtasida to‘qnashuv

---

[1] O‘zMA. 1- fond, 17-ro‘yxat, 428-yig‘ma jild, 1–25 varaqlar. Yana qarang: Ферганская область в 1902 году. / Ежегодник Ферганской области. Том III. Выпуск 1903 года. – Новый Маргелан, 1903. – С. 7–8.
[2] O‘sha joyda.
[3] O‘zMA. 1- fond, 17-ro‘yxat, 294- yig‘ma jild, 11- varaq.
[4] O‘zMA. 19-fond, 1-ro‘yxat, 505-yig‘ma jild, 4- varaq.
[5] O‘zMA. 17-fond. 1-ro‘yxat, 5049 yig‘ma jild. 1- varaq.
[6] O‘zMA. 25 fond. 1-ro‘yxat, 56-yig‘ma jild, 30-varaq.

bo‘lmasligi uchun uyezd boshlig‘iga harbiy kuchlarni yuborilishi so‘ralgan[1].

1911-yilga kelib, Farg‘ona viloyatidagi rus manzilgohlarining soni 23 taga yetgan edi. Bular – Skobelev uyezdida 1 ta, O‘shda 5 ta, Namangan uyezdida 3 ta, Andijon esa uyezdida 14 tani tashkil qilar edi[2]. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, 1913-yilga kelib, Farg‘ona viloyatida 42 ta rus posyolkasi bo‘lib, ularda 12648 kishidan iborat 2323 ta oila istiqomat qilgan. Ularning ixtiyorida 22995 desyatina ekin maydonlari bo‘lgan[3]. Birinchi jahon urushi davrida viloyatga frontdan qochoqlar ko‘chib kela boshlagan. Shu yilning 21 oktyabriga kelib, bunday kishilardan Skobelev shahrida 8918 nafari joylashtirilgan edi. Ular bilan mashg‘ul bo‘luvchi maxsus komitet tuzilgan. Ularning ko‘pchiligi kazarmalar va 68 ta shaxsiy uylarga joylashtirilgan. Tibbiy xizmat yaxshi ko‘rsatilmaganidan qochoqlar orasida tif, bezgak va boshqa yuqumli kasalliklar tarqalib ketgan[4].

Skobelev shahriga yana 14000 nafar harbiy asir joylashtirilganligi Farg‘ona viloyati harbiy gubernatorini ancha xavotirga solib qo‘ygan: “Shahar aholisidan 2,5 barobar ko‘p harbiy asirlarning kelishi shaharni juda og‘ir ahvolga solib qo‘ygan”, deb yozgan edi general[5].

Mazkur bobning xulosasi sifatida shuni ta’kidlash kerakki, Rossiya imperiyasining Qo‘qon xonligiga qilgan harbiy yurishlari bosqinchilik xarakteriga ega bo‘lib, uning natijasida xonlikning

---

[1] O‘sha joyda.
[2] Масальский В. И. Туркестанский край... – С. 300; Переселенческое дело ва Туркестанском крае (области Сыр-Дарьинской, Самаркандской и Ферганской) / Отчет о служебной поездке в Туркестан осенью 1910 г. Чиновника особых поручений при переселенческом управлении Н. Гаврилова. – Санкт-Петербург, 1911. – С. 152.
[3] Статистический обзор Ферганской области за 1913 г. – Скобелев, 1916. – С. 21.; Яна қаранг: Губаева С. С. Население Ферганской долины... – С. 101–110; Жабборов М. Р. Фарғона вилояти тарихининг “Туркестанский сборник” да ёритилиши... – Б. 104.
[4] Тиллабаев С. Б. XIX аср охири – XX асрнинг бошларида Туркистон ўлкасининг маъмурий-ҳудудий бошқарув тизими... – Б. 62.
[5] O‘sha joyda.

katta hududlari XIX asrning O‘rtalaridan rus imperiyasi tarkibiga kiritildi. 1865 yil iyunda Toshkent shahri bosib olingach, bosqinchilar ushbu shaharni O‘rta Osiyoni bosib olish uchun asosiy tayanch markazga aylantirdi. Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach, Rossiyaning Turkistonni bosib olishi yana tizimli tarzda, uzoq maqsadlarni ko‘zda tutilgan holda olib borildi. 1876-yil 19-fevralda Qo‘qon xonligi tugatildi va uning o‘rnida yangi ma’muriy hudud – Farg‘ona viloyati tuzilib, uni harbiy gubernator boshqaradigan bo‘ldi. Viloyat shaharlar, uyezdlar, volost va qishloq jamolariga bo‘lindi. Ruslashtirish va rus aholini Turkistonga ko‘chirib keltirish siyosati izchillik bilan amalga oshirila boshlandi.

Yangi ko‘chib keltirilgan aholi va rus qo‘shinlari uchun viloyat shaharlarida rus qism (yoki yangi qismlar, yevropaliklar yashaydigan qism) lar tashkil qilindi. Shaharlarning mahalliy aholi yashaydigan qismlarda rus aholisi kamdan-kam yashagan. Shu bilan vodiy shaharlari yangi urbanizatsion va yangi iqtisodiy munosbatlar doirasiga tortildi. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi o‘zgarishlar shahar memorchiligi, shaharsozlik an’analari va madaniyatiga ta’sir etdi.

# UCHINCHI BOB

# FARG‘ONA VODIYSIDAGI SIYOSIY, MAЪMURIY-HUDUDIY O‘ZGARISHLAR JARYONIDA SHAHAR MADANIYATI TRANSFORMATSIYASI (1865–1917 yy.)

## 3.1. Shaharlarning tuzilishi va ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi

O‘rta Osiyo, shu jumladan, O‘zbekiston sivilizatsiyasidagi shaharlar masalalarini o‘rgangan ko‘pgina tadqiqotchilarning xulosalariga ko‘ra, ushbu jarayon o‘zining boshlangan davridan boshlab keyingi (O‘rta asrlar, zamonaviy) rivojlanish bosqichlarigacha aynan urbanistik xususiyatga ega bo‘lgan edi. Urbanizatsiya jamiyat taraqqiyotining eng murakkab jarayonlaridan biri hisoblanib, mazkur jarayon jadal o‘sib borayotgan taraqqiyotni o‘zida aks ettirish bilan birga ixtisoslashgan savdo-sotiqning o‘sib borishi, mahsulot almashinuvi, ijtimoiy tuzilmalar va boshqaruv organlarining mavjudligi, ishlab chiqarishni nazorat qilish va qo‘riqlash, jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishni ifodalaydi. Farg‘ona vodiysidagi biz o‘rganayotgan davr urbanizatsiya jarayonlari ham bundan mustasno emas.

XIX–XX asr boshlarida butun O‘rta Osiyo, shu jumladan, Farg‘ona vodiysi hududida katta-kichikligi va geografik joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning rivojlanish darajasi turlicha bo‘lgan, madaniy taraqqiyotning ayrim jihatlari bilan bir-biridan farqlanuvchi shaharlar mavjud edi. Mazkur shaharlarning jamiyat hayotida tutgan o‘rni turli darajada bo‘lib, ularning mavqei ko‘p hollarda mazkur markazning qulay tabiiy-geografik shart-sharoitlari mavjud bo‘lgan hududlarda shakllanishi hamda ravnaq topishi bilan izohlanadi. Vodiydagi bunday shaharlari jumlasiga o‘rganilayotgan davrning yirik siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy urbanizatsiya

markazlari bo‘lmish Qo‘qon, Namangan, Andijon, Yangi Marg‘ilon (Skobelev), Chust va boshqalarni kiritish mumkin.

1865-yilda tuzilgan Turkiston viloyati ilgari Orenburg general-gubernatorligi tarkibida edi. 1867-yildan boshlab alohida Turkiston general-gubernatorligiga aylantirildi. O‘rta Osiyo to‘liq zabt etilib bo‘lganidan so‘ng u 1533255 kv. chaqirimdan iborat keng hududni o‘z ichiga oladi va maydonining kattaligi bo‘yicha Frantsiya, Germaniya va Avsto-Vengriyaning tenglashar edi. Toshkent shahri general-gubernatorlikning markazi edi. 1867 yilda Turkiston general-gubernatorligi tarkibida faqat ikki viloyat mavjud edi. Farg‘ona viloyati 1876 yilda Qo‘qon xonligining janubiy qismida tashkil etildi.

Farg‘ona viloyatining ma’muriy markazi avval Qo‘qon shahri bo‘lgan. 1877-yil 27-aprelda viloyat markazi Eski Marg‘ilon shahridan 12 verst uzoqlikda joylashgan Yangi Marg‘ilonga ko‘chirildi. 1877-yilda 1 iyunda Qo‘qondagi alohida shahar boshqaruvi tartibi tugatilib, shahar boshqaruvi 1917-yilgacha uyezd boshlig‘i ixtiyoriga o‘tkazildi[1].

Viloyat 6 ta uyezddan tashkil topib, bular Qo‘qon uyezdi (markazi Qo‘qon), maydoni 13213 kv. verst; Marg‘ilon – maydoni 14040 kv. verst; Andijon (markazi Andijon) – maydoni 13314 kv. verst; Namangan uyezdi (markazi Namangan)[2], maydoni 5652 kv. verst; Chust uyezdi (markazi Chust) – maydoni 9590 kv. verst; O‘sh uyezdi (markazi O‘sh) – maydoni 25228 kv. verst edi[3].

Bulardan Qo‘qon uyezdi 1876-yil 6 martda tashkil topib, uchta uchastkaga bo‘lindi. Ushbu uyezdda 23 ta volost, 57440 ta xonadon mavjud bo‘lib, ulardan 793 tasi yersiz edi. Aholining yersiz qatlami boylar yerlarida mardikor-chorikor yoki shaharlarda hunarmandchilik, mavsumiy ishchi bo‘lib faoliyat ko‘rsatgan. 1887-

---

[1] O‘zMA. 1-fond, 16 -ro‘yxat 1889-yig‘m jild, 36- varaq.
[2] Акрамов З. М. Наманганская область. – Ташкент: Фан, 1964. – С. 29.
[3] Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный сенатором тайным советником Гирсом.... – С. 7.

yilda Qo‘qon shahri aholisi 150 ming nafarni tashkil qilgan va ulardan 3069 nafari sanoatchi va hunarmand, 2169 nafari savdogar, qolganlari esa dehqonlar, ishchi hamda mardikorlardan iborat bo‘lgan. Shahar aholisi harbiylar va Rossiyadan ko‘chib kelganlar hisobidan ko‘payib borgani uchun 100000 sajen mahalliy aholinig yerlari ko‘chib kelganlar uchun tortib olindi[1].

Qo‘qonga temir yo‘lning yetib kelishi natijasida shaharning tuzilishi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvolida o‘zgarishlar yuz berdi. 1907-yilga kelib, shaharda 15793 ta uy mavjud bo‘lsa, 1916 yilda ularning soni 18400 taga yetgani aniqlangan[2].

Qo‘qon politsiya boshlig‘i – politsmeysteri shahar hokimi (gradona-chalьnik) hisoblangan. Uning shahardagi vazifalari politsiya boshqaruviga berilgan. Uning yordamchisi viloyat harbiy gubernatori tomonidan tayinlanadigan qo‘rboshi[3] bo‘lgan. Qo‘rboshi o‘z mirshablari bilan asosan, shaharning eski qismida faoliyat olib borgan. Politsiyaning moddiy ta’minoti aholining zimmasiga tushgan.

Marg‘ilon uyezdida 1877-yilda 15 ta volost, 119 ta oqsoqollik, 21 qozi bo‘lgan[4]. Keyinchalik Marg‘ilonning o‘zida yana 4 ta oqsoqollik tashkil etildi. Uezd markazi bo‘lgan Marg‘ilon shahrida 46780 kishi yashagan va unda 137 ta maktab, 254 ta masjid hamda 14 ta zavod mavjud bo‘lgan[5].

Andijon uyezdi 1876-yil 6 martda Turkiston general-gubernatori buyrug‘i asosida tashkil qilingan[6]. XX asrning boshlariga kelib bu yerda ikkita mehmonxona, cherkov, 7795 ta xonadon (ulardan 150 tasi yevropaliklar oilasi), 236 ta masjid, 36 ta paxta tozalash, 2 ta yog‘-moy zavodlari bo‘lgan[7].

---

[1] Губаева С. С. Население Ферганской долины... – С. 102.
[2] Тиллабаев С. Б. XIX аср охири – XX асрнинг бошларида Туркистон ўлкасининг маъмурий-худудий бошқарув тизими... – Б. 50.
[3] Qo‘rboshi – qo‘r, qurol-aslaha, urush asbob-anjomi saqlanadigan joyning boshlig‘i.
[4] O‘zMA. 19-fond, 1-ro‘yxat, 635-yig‘ma jild, 19–28- varaqlar orqasi.
[5] Масальский В. Туркестанский край.... – С. 705.
[6] Описание границ Андижанского уезда. Bu haqda qarang: O‘zMA. I-19, 1-ro‘yxat, 172-ish, 67- varaq.
[7] Масальский В. Туркестанский край.... – С. 708.

Andijon shahari bo‘yicha aholi tarkibi quyidagicha edi:

| **Millati** | **Erkaklar** | **Ayollar** | **Umumiy** |
|---|---|---|---|
| O‘zbek | 13.604 | 16.095 | 29.699 |
| Rus | 105 | 63 | 168 |
| Tojik | 415 | 380 | 795 |
| Qirg‘iz | 30 | 24 | 54 |
| Xind | 33 | - | 33 |
| Yaxudiy | 120 | 102 | 222 |
| Lo‘li | 27 | 30 | 57 |
| **Jami** | **14.334** | **16.694** | **31028** |

Andijon uezdi bo‘yicha  esa aholi tarkibi quyidagicha edi:

| **Millati** | **Erkaklar** | **Ayollar** | **Umumiy** |
|---|---|---|---|
| O‘zbek | 21082 | 29302 | 50384 |
| Rus | 12 | 4 | 16 |
| Tojik | 3475 | 3704 | 7179 |
| Qirg‘iz | 17005 | 18300 | 35305 |
| Xind | 67 | | 67 |
| Yevrey | 281 | 172 | 453 |
| Lo‘li | 397 | 305 | 702 |
| **Jami** | **42319** | **51787** | **94106** |

Umuman olganda, uyezd bo‘yicha ayollar soni 68481 nafarni, erkaklar soni esa 56653 kishini tashkil etgan. Andijon uyezdida

1885 yilga oid ma’lumotlarga qaraganda, jami 125134 kishi yashagan[1].

Namangan uyezdi ham 1876-yil 6-martda tashkil qilingan. Markazi Namanganning eski shahar qismida 12100 ta xonadon, 331 ta masjid, 11 ta qabriston, 120 dan ortiq boshlang‘ich va O‘rta maktab bo‘lgan. Shahar aholisi 73 ming kishi, ulardan 900 nafari ruslardan iborat bo‘lgan. XX asrning boshlarida shaharning yangi qismida 60 ta xonadon (aksariyati yevropalik aholi), uyezd ma’muriyati, kazarma, pravoslav cherkovi, bilmi yurti, rus-tuzem maktabi, pochta-telegraf, kasalxona, harbiylar uyi va xiyobon joylashgan edi[2].

1881-yilga kelib, Namangan uyezdida 12 ta volost mavjud bo‘lib, ular qishloq jamoalari va ovullarga bo‘lingan edi[3]. 1897-yilga oid ma’lumotlarga qaraganda, Namangan uyezdida 26 ta paxta tozalash zavodi, 1 tadan vino va pivo zavodlari, 726 ta tegirmon, 1231 ta yog‘ tegirmoni[4], 32 ta sovun ishlab chikarish korxonasi, 15 ta cho‘yan quyish korxonasi, 78 ta kulolchilik, 30 ta charm korxonasi, 12 ta g‘isht zavodi, 49 ta to‘quv, 67 ta ipak ishlab chiqarish korxonasi va 45 ta ipak yiguruv korxonasi mavjud edi[5].

Arxiv ma’lumotlariga qaraganda 1885 yilda Namangan shahri aholisi tarkibi quyidagicha ko‘rinish olgan edi:

| **Millati** | **Erkaklar** | **Ayollar** | **Umumiy** |
|---|---|---|---|
| O‘zbek | 1625 | 14005 | 30259 |
| Rus | 74 | 67 | 141 |

[1] O‘zMA 19- fond, 1-ro‘yxat, 1520- yig‘ma jild , 74- varaq orqasi va 75-varaq.

[2] O‘sha joyda.

[3] Сведения об отделении Наманганского уезда на волости, общества и числа домов и кибиток / O‘zMA. I.19-fond, 1-ro‘yxat , 635- yig‘ma jild, 29–36- varaqlar.

[4] Ushbu sanoat sohasining viloyatdagi o‘rni haqida qarang: Гофмейстер В. Г. Использование семян хлопчатника в Среденй Азии. – Санкт-Петербург, 1914. – С. 2. Ushbu muallifning ma’lumotiga qaraganda, 1909 yilda viloyatning beshta uyezdida 4334 ta yog‘ tegirmoni mavjud bo‘lib, unda 4545 nafar ishchi mehnat qilar edi.

[5] / O‘zMA. I.19-fond, 1-ro‘yxat, 5512--yig‘ma jild, 29- varaq. Yana qarang: Хлопководство в Наманганском уезде / Ежегодник Ферганской области. Том II. Выпуск 1903 года. – Новый Маргелан, 1903. – С. 14–16.

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qorategin | 44 | 17 | 61 |
| Qipchoq | 11 | 10 | 21 |
| Yevrey | 58 | 56 | 114 |
| Xind | 22 | | 22 |
| Dungan | 6 | | 6 |
| **Jami** | **16488** | **14155** | **30643** |

Namangan uyezdi bo‘yicha esa aholi tarkibi quyidagicha edi:

| **Millati** | **Erkaklar** | **Ayollar** | **Umumiy** |
|---|---|---|---|
| O‘zbek | 2801 | 2296 | 5097 |
| Sart | 14628 | 12454 | 27082 |
| Rus | 6 | 3 | 9 |
| Tojik | 2164 | 1735 | 3899 |
| Qipchoq | 982 | 801 | 1783 |
| Qurama | 181 | 111 | 292 |
| Qoraqolpoq | 514 | 353 | 867 |
| Turk | 880 | 612 | 1492 |
| Qirg‘iz | 9673 | 9424 | 19097 |
| Xind | 3 | | 3 |
| **Jami** | **31832** | **27789** | **59621** |

Jami shahar va uyezd aholisi 90264 nafar kishidan iborat edi[1].

O‘sh uyezdi Turkiston general-gubernatori farmoniga binoan, 1876-yil-6 martda tashkil etilgan. 1888-yil 19-yanvarga kelib, O‘sh uyezdida Jalolquduq (9 ta qishloq jamoasi, 628 uy va yurtalari bilan), G‘ulcha ( 10 ovul, 1608 ta yurta bilan), Buloqboshi (12 qishloq jamoasi, 1710 ta uy va yurtalari bilan), O‘sh (qishloq

[1] O‘zMA. I.19-fond, 1-ro‘yxat , 1520- yig‘ma jild, 297–298- varaqlar.

jamoasi 11 ta, 1796 uy va yurta bilan), Oloy (12 qishloq jamoasi, 1168 uy va yurtalar bilan), Navkat (6 ta qishloq jamoasi, 550 ta uy va yurtalar bilan) volostlari bo‘lgan[1]. XX asrning boshlariga kelib, shaharda 6253 ta xonadon (44204 nafar, ulardan 915 nafari rus), cherkov, 100 dan ortiq masjid, 56 ta o‘quv muassasasi bo‘lgan[2]. O‘z o‘rnida shuni ham qayd etish kerakki, 1898 yilda O‘sh uyezdida 1275 nafar rus, 61089 nafar mahalliy aholi vakillari istiqomat qilgan[3].

Chimyon uyezdi Chimyon va So‘x sarkorligi hududida yuqorida ko‘rsatilgan sanada tashkil etilgan. Markazi dastlab Vodil qishlog‘i edi. 1879-yil 3, 6, 7 va 13-mart kunlarida uyezdning chegaralari va tarkibi qaytadan ko‘rib chiqildi hamda uyezdga Isfara nomi berildi va markazi ham ushbu shaharga ko‘chirildi[4]. 1881 yilda mazkur uyezd ham tugatilib, uning bir qismi Isfara rayoni, bir qismi Qo‘qon uyezdiga qo‘shildi[5]. Isfara, Rishton, So‘x, Navg‘ut, Qipchoq, Laylak, Qo‘qoncha, Chimyon, Oltiariq, Nayman va Yaypan volostlari Marg‘ilon uyezdiga qo‘shib yuborildi.

Yangi Marg‘ilon uyezdi ham 1876-yil 6-martdagi farmon bilan tashkil etildi. Uezdning markazi Yangi Marg‘ilon etib tanlandi va markaz qurish uchun 1877-yil 19-aprelda ruxsat berildi. 1916-yil 15-dekabrda shahar hududi 850 desyatinani tashkil qilgan edi. Undan 232 desyatinada xususiy uylar, 185 desyatinasida ko‘cha va maydonlar, 74 desyatinasida davlat hamda jamoat binolari, 239 desyatinasida harbiy qismlar joylashgan edi. Ekin yerlari 56

---

[1] O‘zMA. 19-fond, 1-ro‘yxat, 635-yig‘ma jild, 37–40- varaqlar.

[2] Масальский В. Туркестанский край.... – С. 712.

[3] O‘zMA. 19-fond, 1-ro‘yxat, 5512-yig‘ma jild, 15–16- varaqlarning orqasi.

[4] 1879 yil 6 avgustda Isfara uyezdi tarkibiga Oltiariq, Rishton, Qirg‘iz-qtpchoq, Isfara, Abahat, Marg‘ilon uyezdidan Nayman volostlari o‘tkazilgan. Bu haqla qarang: O‘zRMDA. I-19, 1-ro‘yxat, 172-ish, 91 varaq.

[5] Isfara uyezdi boshlig‘i Farg‘ona viloyati harbiy gubernatoridan uyezd markazini Rishtondan Vodilga ko‘chirishni so‘rab, murojaat qilgan xatida Rishtonda ichimlik suvining yomonligi, sanitariya holati og‘irligini sabab qilib ko‘rsatgan. Vodil bilan birga Isfara ham markaz sifatida nomzod qilib ko‘rsatgan. Biroq, Isfara uyezdning chekkasida joylashganligini ham ta’kidlagan. Bu haqda qarang: O‘zMA. 19-fond, 1-ro‘yxat, 404-yig‘ma jild, 21-varaq.

desyatina, 35 desyatina esa o‘tloqlarni tashkil qilgan[1]. 1877-yilning yanvariga kelib, shaharda 16023 nafar kishi yashagan. Ulardan 9500 kishi ruslar, 5850 nafari sart (o‘zbek)lar, 10 nafari hind, 110 nafari yahudiy, 538 nafari esa kavkazliklardan iborat edi[2].

Yangi Marg‘ilon viloyatdagi barcha yangi shaharlar singari harbiy kuchlarni saqlash markazi sifatida barpo etilgan[3]. Ma’muriy va harbiy markaz sifatida amal qilishi uchun, qo‘shin hamda harbiy inshootlar uchun 1877–1883- yillarda 844736 rublь miqdorida mablag‘ sarflangan. Ma’muriy binolarga 689134 rublь, shahar qurilishiga 283716 rublь, jami 1817586 rublь sarflandi. Shaharda 312 bino, shu jumladan, 77 ta uy, 205 ta mayda savdo rastalari qurilgan. 1876 yil 15 iyulda shaharda asosan, ruslar yashaganlari uchun o‘zini-o‘zi boshqarish huquqi berildi. Shahar ma’muriyati tarkibiga shahar boshlig‘i, katta va kichik yordamchilari, ish boshqaruvchilari, tarjimon hamda kotiblar kirgan[4]. Mustamlakachi ma’muriyati o‘z yovuz niyati, maqsadi va jinoyatlarini “abadiylashtirish” yo‘lida shaharga 1907-yilda Yangi Marg‘ilon[5], 1910 yilda uyezdga Skobelev nomini berdi.

Yangi Marg‘ilon aholisi boshqa shaharlarga nisbatan tez oshib borgan. Buning sababi, bu yerda shaharning yagona – yevropalik qismdan iboratligi, savdo-sotiq uchun qulayligi va madaniy hayotning rivoji bo‘lgan. 1887-yilda shaharda 196 ta xonadon (4 mingga yaqin aholi bilan) bo‘lsa, 1913-yilga kelib, ularning soni 2005 taga yetadi. Aholining soni 1900-yili 6518 kishi, 1911 yilda 11000 kishi bo‘lib, ulardan 7000 nafari ruslardan iborat bo‘lgan[6].

---

[1] O‘zMA. 19-fond, 1-ro‘yxat, 35173-yig‘ma jild, 17- varaq.
[2] Yuqoridagi manba... 16- varaq.
[3] Нильсен В. А. У истоков современного градостроительства Узбекистана... – С. 119–129.
[4] O‘zMA. 1-fond, 20-ro‘yxat, 10663-yig‘ma jild, 1- varaq.
[5] Приказ по Военному Ведомтству от 2 ноября 1907 года за №563. В “Статистичекий обзор Ферганской области за 1907 годъ” Скобелев: Типография Ферганского Областного Правления, 1909. – С. 9.
[6] Тиллабаев С. Б. XIX аср охири – XX асрнинг бошларида Туркистон ўлкасининг маъмурий-ҳудудий бошқарув тизими... – Б. 59.

Buyuk ipak yo‘lida joylashgan Marg‘ilon aholisi qadimdan atlas to‘qish bilan shug‘ullanib kelgan va shu tariqa, uni jahonga mashhur qilgan. Marg‘ilonning shoyi matolari Misr, Eron va Yunoniston, Qashg‘ar savdogarlari tomonidan ko‘plab harid qilingan. Shuningdek, Marg‘ilonda do‘ppido‘zlik, misgarlik rivojlangan, shaharda vaqt-vaqti bilan tanga ham zarb qilingan. Shahar turli davrlarda Temuriylar va Shayboniylar, keyingi davrda Qo‘qon xonligi tarkibida bo‘lgan, 1875-yilda esa rus qo‘shinlari tomonidan bosib olingan.

Marg‘ilonda oq podsho ma’murlari zulmiga qarshi qaratilgan, tarixda ma’lum bo‘lgan “Po‘latxon qo‘zg‘oloni (1873–1876)”, mahalliy aholini Rossiyadagi front orti ishlariga zo‘rlab olib ketilishiga qarshi ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘oloni (1916) bo‘lib o‘tgan. Marg‘ilon 1876–1926-yillarda Farg‘ona viloyatining uyezd shahri bo‘lgan, so‘ngra Farg‘ona okrugi miqyosidagi shaharga aylantirilgan.

Farg‘ona viloyati shaharlarida aholining ko‘payishi imperiyaning markaziy hududlaridan ko‘chirib keltirilganlar va Birinchi jahon urushi yillarida ko‘chib kelganlar hamda qishloq joylaridan og‘ir iqtisodiy ahvol natijasida tirikchilik uchun kelayotgan sobiq dehqonlar hisobidan bo‘lganligini ta’kidlash kerak.

Farg‘onaning sharqida joylashgan O‘shning yangi qismi esa eski shahar yonida barpo etilgan to‘g‘riburchakli-trapetsiyali ko‘chalardan iborat tarhdan iborat bo‘lgan. Yangi qismi O‘sh shahrida Oq bo‘ra daryosi bo‘ylab qarama-qarshi tarzda qurildi. Keyinchalik ushbu prospektga qarama-qarshi bo‘lgan yana ikkita mavze barpo etildiki, ularni mayda ko‘chalar kesib o‘tgan. XX asrning boshlarida O‘sh shahrida bir-birini ko‘chalar bilan bog‘laydigan to‘g‘riburchakli, trapetsiya shaklidagi uchta parallelь prospekt barpo etildi.

Vodiydada barpo etilgan rus shaharlari bir tomondan mudofaa inshootlari shaklida ham barpo etilgan. Bunday shaharlar radialь-yoysimon ko‘chalardan iborat bo‘lib, bir nechta istehkomlarga ega edi. O‘lkada rus va yevropaliklar uchun yangi shaharlarning eng progressiv va istiqbolli bo‘lgan shakli eski shahardan nariroqda, biroq oldindan rejalashtirilgani bo‘lgan. Yangi Marg‘ilon, Andijon va Namangandagi “yangi qism”lar xuddi shunday shaharlar tipiga kirardi. Ushbu shaharlarda oldindan qal’a-istehkom, ma’muriy qism, bog‘ va xiyobon, jamoat markazlari rejalashtirilgan edi. Biroq, ularda sanoat hududlarining bo‘lishi rejalashtirilmagan edi.

Ushbu yangi shaharlarning har biri eski shahardan tashqarida barpo etilishi uchun alohida sabablarga ega edi. Misol uchun, Andijon bosib olinishi davrida ko‘p, shu jumladan, ma’muriy binolari xarobaga aylantirildi. Binobarin, bosqinchilar bir muddat bu yerda turib shahar tashqarisida, eski shaharga yaqin masofada yangi, yevropacha qismini qurishga kirishdi.

Namanganda esa bosib olingan istehkom shaharning chekkasida joylashgan edi. Shuning uchun shaharning yangi qismi shu istehkomga yaqin bo‘lgan aholi kam yashaydigan g‘arbiy qismida barpo etildi. Yangi Marg‘ilon uchun, yuqorida qayd etilganidek, general Abramov o‘zidan oldingi viloyat gubernatori Skobelevning rejasiga qarshi chiqib, yangi shaharni Marg‘ilondan 8 km. uzoklikda barpo etishni taklif qilgan[1].

Yuqoridagi har uchala shaharning asosini ruslar istehkomi tashkil qilgan. Qal’adan nur taralayotganidek qurilgan magistrallar, yoysimon ko‘chalar bilan bog‘lanib yarim doirani tashkil qilar edi. “Qal’ali yelpig‘ich shaklidagi reja” variantini birinchi bo‘lib V. Voronina aniqlagan[2]. Undan oldingi ba’zi tadqiqotchilar esa ushbu

---

[1] Письма К. Абрамова А. К. фон Кауфману от 19 марта 1877 г. / O‘zMA.19-fond, 1-ro‘yxat, 194-yig‘ma jild, 17–27- varaqlar.
[2] Воронина В. Л. Деятелность русских градостроителей в Туркестане во второй половине XIX в. // Архитектурное наследие. – 1976. – №25. – С. 83.

shaklni “radialь-kontsentrik” va “radialь-doirasimon” deganlar[1]. Vaholanki, kesma ko‘chalarning hech birida doira shakli bo‘lmagan. Bunday shakldagi yangi shaharlarni taniqli arxitektor olima M. Yusupova “elpig‘ichsimon”, “radial” va “nurli (bir nuqtadan taralgan)” degan nomlar bilan birga “radialь-yoysimon” deb atalishini taklif qiladi[2].

Olima Turkistonda bunday shakldagi shahar qurilishi Rossiyada uzoq asrlar davomida shakllangan shaharsozlik an’anasi bilan bog‘laydi[3]. Turkistonda barpo etilgan yangi shaharlar Sibirdagi Tyumen (1696-yilda qurilgan)[4] hamda Bobruysk (1836-yilda qurilgan, hozir Belorussiya tarkibidagi shahar)ga o‘xshash bo‘lgan. Faqat Turkistonda ba’zi shaharlarning yonidan yoki o‘rtasidan daryo va soylar o‘tib, shaharlarni suv bilan ta’minlash hamda aeratsiyasiga yaxshi ta’sir etgan. Shahar xiyobonlarni ham vodiy shaharlarining yangi qismida barpo etilgan.XX asrning boshlarida vodiyda temir yo‘li bilan bog‘langan ikki tuzlishli shaharlar barpo etildi. Savdo va paxtani qayta ishlab chiqaruvchi markazlarga aylangan Namangan, Qo‘qon va Andijon shunday shaharlar sirasiga kiradi.

Yangi Marg‘ilon esa o‘zining obodonchiligi, keng va bahavoligiga qaramasdan, ishlab-chiqarish hamda hunarmandchilik markazi bo‘lgan. Eski Marg‘ilon esa temir yo‘ldan uzoqlikda joylashgani bois boshqa shaharlardan ham iqtisodiy ham qurilish soxalarida orqada qolib ketdi. Yangi shaharsozlik Yevropa madaniyatining kapitalistik munosabatlari davriga xos bo‘lgan progressiv g‘oyalar va rejali qurilish printsiplarining O‘rta Osiyodagi transformatoriga aylanib, butun vodiyni ham o‘zgartirib

---

[1] Нильсен В. А. У истоков современного градостроительства Узбекистана... – С. 208; Чабров Г. Н. Из истории города Ферганы... – С. 55–65; O‘sha muallif: Русские архитекторы дореволюционного Туркестана / Архитектурное наследие Узбекистана. – Ташкент, 1960. – С. 221–243.
[2] Юсупова М. Полвека трансформации архитектуры Узбекистана.... – С. 68.
[3] O‘sha joyda.
[4] Проскурякова Т. С. Старое и новое в градостроительстве Сибири (вторая половина XVII–XVIII вв.) // Архитектурное наследие. – Москва, 1955. – №33. – С. 40–51.

yubordi. Uning natijalaridan nafaqat bosqinchilar, balki mahalliy aholi ham keng foydalana boshladi.

Eski shaharlar yaqinida barpo etilgan ruslarning yangi shaharlari ikkala qismni ham uzoq muddat doimiy ravishda qayta qurishi va rivoji uchun sabab bo‘ldi.

Shunday qilib, yagona markazga ega bo‘lgan bir vaqtning o‘zida ikkita tipdan iborat ikkita tizim – shaharlarning yevropacha va osiyocha uslubining baravar mavjudligi va rivojlanishidagi hamkorligi bugungi kunlarda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgan emas. Bunday munosabatni O‘zbekistonning turistik shaharlari, qadimiy yodgorliklari ko‘p bo‘lgan shaharlarda ko‘rish mumkin.

Farg‘ona me’morchilik maktabi islom me’mor chiligining bir qismini tashkil qiladi. Ushbu maktabda hukm surgan qurilish hamda rejalashtirish printsiplari shiddatli kontinental iqlim va seysmik mintaqaga xos ravishda shakllangan[1]. Farg‘ona vodiysida “sinch (qo‘sh sinch va yakka sinch)li uylar” qurishi keng yo‘lga qo‘yilgan. Binoning karkasi yog‘ochdan, oralari esa xom g‘ishtdan to‘ldirib qurilganda uyning interьeri turli tokcha va mexrobdan iborat bo‘lib qolgan. Uylarning oldida sharqqa, quyoshga qarab, albatta peshayvonlar bo‘lgan. Farg‘ona uylarining mikroklimatini yana tekis loydan qurilgan ayvon, ichki uzumlarning soyasidagi hovli, atrofida daraxtlar ekilgan hovuz(cha)dan iborat bo‘lgan. Uylarning intererini “qashg‘archa” uslubidagi pardevor, mo‘rilar va soyabonlar bezatib turgan. Uylarning ichki dekoratsiyalarini vassalar (yakvassa, duvassa, qo‘shvassa), havzak (havzi furo‘mon) kabi qurilmalar ham bezatgan. Boylarning uylari, masjid va madrasalar, jamoat binolarining yog‘ochli kesson (naqsh)li shiftlari, tokchalari rangbarang naqshlar hamda ganchkorlik bilan oro berilgan. Bu esa Farg‘ona me’mor chilik maktabi interьerridagi o‘ziga xos bezak uslubini tashkil qilgan[2].

---

[1] Нильсен В. А. У истоков современного градостроительства Узбекистана... – С. 124–125.
[2] Юсупова М. Полвека трансформации архитектуры Узбекистана.... – С. 75.

Farg‘ona vodiysi Rossiya imperiyasi qo‘shinlari tomonidan bosib olingach yangi shaharlarning qurilishi va me’mor chiligida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ruslar barpo etilgan shaharlarda yevropacha uslubiga xos bo‘lgan me’morchilik hukm surgan. Mazkur davrdagi shaharlarning me’morchiligi infratuzilmasidagi o‘zgarishlar (shaharsozilikni ham)ni ikki davrga bo‘lish mumkin. Birinchisi, XIX asrning oxirgi choragi, ikkinchisi XX asrning boshlari. Ikkinchi davr kapitalistik munosabatlari davriga xos bo‘lgan me’mor chilikning shakllanishi va rivojlanishi davriga to‘g‘ri keladi.

XIX asrning oxirigi choragida ruslarning yangi shaharlari Yevropa qurilishida ishlatilayotgan yog‘och, beton, pishiq g‘isht, tom yopilish uchun tunuka va oynalar yetishmasligidan mahalliy qurilish materiallar sanalmish xom g‘isht, tunuka tom hamda loy bilan shuvagan farshdan iborat tarzda qurilgan. 1890-yildan so‘ng Rossiyadan kamyob qurilish materiallarining olib kelinishi va vodiyda g‘isht zavodlarining qurilish natijasida ruslarning binolari yevropa me’mor chiligi uslublari asosida quriladigan bo‘ldi. Endi binolarning fundamenti va sokoli (devorning pastki qismi) xom g‘isht, ko‘proq pishiq g‘ishtlardan, ikki nishabli ko‘p hollarda stropilli tunukali tomlar va taxtali farshlar bilan qurilgan. Uylarning ichkari va tashqarisi ohak bilan bo‘yalgan, ko‘cha derazalari katta, tashqi devorlari, davrozalar va uning oldi bezatilgan edi.

Lekin, shuni ham ta’kidlash kerakki, rus quruvchilari asrlar davomida davr sinovidan o‘tgan Farg‘ona me’mor chiligining ba’zi uslublarnini to‘g‘ri baholab, undan salmoqli tarzda foydalangan. Ular yevropacha uslubidagi binolarni mahalliy iqlim sharoitiga moslashtirib qurilganda, peshayvon, ochiq ayvon, sinchlardan foydalanganlar. Sinch binolari esa nafaqat zilzilaga bardoshli, balki juda arzon ham bo‘lgan.

Farg‘ona vodiysining o‘rganilayotgan davrdagi urbanizatsiyasiga xos bo‘lgan o‘zgarishlardan biri – bu shaharlar

me’mor chiligi mustamlakachilar uchun mos keladigan rasmiy-kazarma tipidagi shaklda ekanligidir. Buning namunasi bir qavatli xom g‘ishtli bo‘lgan, tashqarisi shuvalgan binolar edi. Ushbu qurilmalar orasida muhtasham pishiq g‘ishtdan qurilgan uyezd boshlig‘ining uyi, shahar cherkovi ajralib turgan. Ularning bezaklari oddiy, biroq toza bo‘lib, soxta klassitsizm uslubida qurilgan.

XX asrning boshlaridagi vodiy urbanizatsiyasidagi yangi me’mor chi-likka xos bo‘lgan jihatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu ikkinchi davrda Farg‘ona shaharlari o‘z iqtisodiy imkoniyatlariga qarab rivojlanish uchun turli sharoitlarga ega bo‘ldilar. Natijada, ularning me’morchiligidagi sifat va badiiy darajalari turlicha edi.

Qo‘qon, Andijon va Namanganda kapitalistik munosabatlarga xos bo‘lgan me’mor chilik shakllandi. XX asrning boshlarida bosqinchilar bilan olib kelingan sanoat, savdo-sotiq va boshqaruv binolari bilan birga banklar, mehmonxonalar, savdo uylari, sinemotograf, fotostudiya, restoran, va b. binolar ham qurila boshlandi[1]. Yevropa, rus va mahalliy mulkdorlar va kapitalistlarning uy-joylari, qasru ko‘shklari endi turkistonlik mashhur me’mor lar loihalari bilan quriladigan bo‘ldi. Ahamiyatsiz bo‘lgan oddiy binolar esa shahar me’mori va viloyat mahkamasining qurilish bo‘limi nazorati ostida barpo etilgan.

Kapitalistik me’mor chiligiga xos bo‘lgan muhtasham binolar Qo‘qon shahrida ko‘proq bino etilgan. XX asr boshlarida shaharning yangi qismi yer tanqisligidan ancha zich qurila boshlandi. Uylar pishiq g‘ishtdan, bir-birlariga jips holda qurilgan. Shaharning bosh chorraxasida va uning ikkita asosiy magistralida bank binolari (ularning soni 12 ta bo‘lgan), zo‘r bezatilgan hovli-qasrlar (ulardan beshtasi I. Markevich loyihasi asosida qurilgan) qad

---

[1] Зияева Д. Ҳ. Аср бошларида Туркистон шаҳарларида тадбиркорлик тарихидан // O‘zbekiston tarixi. – 2007. – №3. – Б. 18–29.

rostladi[1]. Shular jumlasidan 1910-yili qurilgan Rus-Osiyo bankining binosini alohida qayd etish joiz[2].

Mazkur shaharda XIX asrning oxirida barpo etilgan yagona hajmiy-fazoviy majmua yuqorida tilga olingan bir qavatli bank binolari O‘rtasidan ko‘chaning oxirida ko‘rinadigan avliyo Konstantin va Yelenaning cherkovlari bo‘lgan. Qo‘qon shahrining qurilishida XX asrning Rossiya me’mor chiligiga xos bo‘lgan turli uslubdagi eklektizmni ko‘rish mumkin. Vodiyning biror-bir boshqa shahrida Qo‘qondagidek oliy darajali, biroq ba’zan hammadan ajralib turish uchun qurilgan g‘aroyib binolar ko‘p bo‘lmagan[3].

Ma’lumki, Qo‘qon qadimdan hunarmandchilik markazi bo‘lgan. Shaharda misgarlik, zargarlik, o‘ymakorlik, qurolsozlik, kulolchilik, qog‘ozgarlik, badiiy to‘qimachilik, do‘ppichilik, kashtachilik, temirchilik, ko‘priksozlik kabi hunarmandchilik tarmoqlari rivoj topgan. Qo‘qon gazmollari Sharqda va Rossiyada anchagina mashhur bo‘lgan. Ayniqsa, Qo‘qon qog‘ozi hunarmandchilikning alohida tarmog‘i sifatida nom qozongan. Rus tabiatshunosi A.P. Fedchenkoning ta’riflashicha (1871-yilda), O‘rta Osiyodagi eng sifatli qog‘oz Qo‘qonda ishlab chiqarilgan.

Shahar hayotida savdo muhim o‘rin tutgan va ichki hamda tashqi savdoga bo‘lingan. Shahar rus qo‘shinlari tomonidan zabt etilgach, podsho Rossiyasi hukumati bu yerda Rossiya manfaati uchun zarur bo‘lgan paxtachilik sanoatini rivojlantirishga ahamiyat berdi. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib shahar va uning atrofida 31 ta paxta tozalash, 5 ta yog‘-moy, 7 ta pilla quritish va 2 ta ipak qurti urug‘i zavodlari bunyod etilib, ishchilar soni 3000 kishiga yetgan.

Turkiston Umumrossiya tovar muomalasiga tortilishi natijasida bir qancha shaharlar, shu jumladan, Qo‘qonda ham paxta xarid

---

[1] Чабров Г. Очерк истории планировки и строительства русских городов.... – С. 251.
[2] Нильсен В. А. У истоков современного градостроительства Узбекистана... – С. 116.
[3] Чабров Г. Очерк истории планировки и строительства русских городов..... – С. 164–192.

qilish va uni tashish bilan shugʻullanuvchi rus hamda chet el shirkatlari (“Andreyev shirkati”, “Rossiya jamiyati”, “Kavkaz va Merkuriy”, “Eron savdo-sanoat shirkati”, “Sharqiy jamiyat” va boshqalar) tashkil qilingan. 1913-yilda Qoʻqonda 5 mingdan ortiq savdo doʻkoni, 44 ta karvonsaroy, 20 ta bozor, 10 ta bank, kasalxona, tugʻruqxona va 2 ta dorixona ishlab turgan. Xonlik davrida Qoʻqonda 52 ta madrasa faoliyat koʻrsatib, ulardan dastlabkisi “Madrasai xishtin (1729)” boʻlsa, soʻnggi qurilgani “Soʻfiyon (1891)” madrasasidir.

XX asr boshlarida Qoʻqonda 120 ta eski maktab, oʻndan ortiq jadid maktabi, 3 ta rus-tuzem maktabi, temir yoʻl va savdo-tijorat maktablari va boshqa oʻquv maskanlari bor edi. XX asrning boshlarida Qoʻqonda “Sadoi Fargʻona”, “Yangi Fargʻona” va “Qoʻqon sadosi” gazetalari chop etila boshladi. 1917 yilning kuzida Qoʻqonda “Turkiston muxtoriyati” e’lon qilindi. Ammo, koʻp vaqt oʻtmay, ushbu ozodlik harakatining markazi Qoʻqon bolьsheviklar tomonidan qonga botirildi (1918 yil fevralь). Tarixiy ma’lumotlar boʻyicha ushbu qirgʻinda 10 mingdan ziyod kishi qurbon boʻlgan. 1918-yilda esa Qoʻqonda shoʻrolar hokimiyati oʻrnatildi.

1902-yildagi zilziladan keyin Andijon me’mor chiligi qayta tiklash xarakteriga ega edi. Andijonda ishlagan maxsus komissiyaning xulosasiga koʻra eng mustahkam binolar pishiq gʻishtdan qurilgan va sinchli uylar boʻlgan. Shaharning eski qismida koʻpgina sinchli uylarning vayron boʻlishi esa ularning pastgi qismi va yuqorisining suv tegib chirishi natijasida yuz bergan. Yer qimirlashidan qoʻrqqan rus me’mor lari uylarni yogʻochdan, sinchli qilib qurishni ma’qulladilar. Ushbu uylarning tomlari yengil tunukalar, farshi taxtali, fasadlari oqlangan, deraza va eshiklarning atrofi yogʻoch oʻymakorligi bilan bezatilgan edi.

1905-yilda zilzila xavfi boʻlgan hududlarda xom gʻishtdan binolarni qurish cheklanib, uylarning balandligi (4,25 m.), devorlarning qalinligi (71 sm.), xonalar devorlarining orasi (5,7–6,4

m.) qilib ko‘rsatildi. Uylarning fundamenti yer namligidan yaxshi saqlangan bo‘lsa, sinch usulida ikki qavatli uylarni qurishiga ijozat berildi. Shunday uslub va texnik qoidalarga rioya qilinib qurilgan uylar sirasiga advokat Ruboning uyini kiritish mumkin[1].

Farg‘ona vodiysida faqat Andijon shahrida ruslarning istehkomi saqlanib qolgan. Rombga o‘xshagan ushbu istehkomning ikkita o‘tkir burchagida barbetlar bo‘lib, devorlarida shinaklar, markazida esa kazarma binolari bo‘lgan[2].

Shunday qilib xulosa qilish mumkinki, Andijonning me’mor chiligi Qo‘qonga nisbatan bezak jihatdan ancha oddiy, alohida binolar hajmi jihatidan esa ancha keng bo‘lgan. Biroq, undagi juz’iy xususiyatni umumiylik bilan uyg‘un birlashtirilgani butun shaharning memoriy siymosi va tafakkurini yaxlit qilib ko‘rsatgan.

Namanganda me’mor iy jihatdan ajralib turgan xos serhasham uy-joylar va hovlilar ko‘p bo‘lmagan. Ulardan eng ajoyibi 1915-yili 12x17m. maydonda qurilgan Namangan uyezdi boshlig‘ining qizi uchun qurilgan uydir. Uning fasadi g‘ishtlar bilan neorus uslubida terilgan. Binoni yana uning doira shaklidagi monsardaga o‘xshagan tomi, chiqib turgan balkonining qismlari va tuynuklari muhtashamroq qilib ko‘rsatadi[3].

Namanganda muhtasham binolar 1912-yildan keyin, temir yo‘l kelishi bilan ko‘proq qurila boshlandi. Ushbu davrda temir-beton tuzilmalaridan foydalanishi natijasida binolarda ko‘proq derazalar va keng intererlardan[4] foydalanish imkonini berdi. Ulardan 1911 yilda qurilgan ikki qavatli Rus-Osiyo va Yusuf kulolboy banklari binolarini qayd etish mumkin. Biroq, mazkur binolar 2004 yilda ta’mir qilingan va ushbu tarixiy binolarga tuzatilmas darajada zarar yetkazilgan. Binolarning me’mor iy-badiiy tuguni va ko‘rinishi o‘zgartirib yuborilgan. Ular oldin zamonaviy uslubda, O‘rta

[1] Чабров Г. Очерк истории планировки и строительства русских городов..... – С. 166.
[2] Yuqoridagi asar.. – S. 207–217.
[3] Нильсен В. А. У истоков современного градостроительства Узбекистана... – С. 129–130.
[4] Bino va inshootlrning ichki qiyofasi, badiiy bezalgan va jihozlangan ko‘rinishi.

Osiyoga xos peshtoq, guldasta, peshtoq va arkali teshiklar bilan bezatilgan edi. Yusuf kulolboy bankida esa tomidagi boloxonasida qorishma modern va neorus uslubidan foydalanilgan.

Qayd etish kerakki, viloyatning markazi bo‘lgan Yangi Marg‘ilonda iqtisodiy jihatdan orqada qolganligi uchun XX asrning boshlarida ham shaharning me’morchiligida  katta o‘zgarishlar yuz bermagan. Binolar asosan, shaxsiy qurilishlarda keng quloch yoygan edi. Pishiq g‘isht bilan qurilgan ikkita bino shaharning me’mor iy ko‘rinishini uncha o‘zgartirmagan. Ulardan biri bu me’mor  G. Svarichevskiy tomonidan loyihalashtirilgan ikki qavatli erkaklar gimnaziyasi (shu binoning tarhi asosida Samarqand va Chorjo‘yda ham gimnaziya binolari qurilgan), ikkinchisi esa bir qavatli Yevtixidining pilla zavodi kontorasining binosi bo‘lgan[1].

O‘sh shahrining me’morchiligi birinchi va ikkinchi qurilish davrida ham biror-bir o‘zgarishlarni boshdan kechirmagan. O‘sh shahridagi qurilish ishlari XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida ham bir xil sekin-asta davom etgan. Ushbu shaharning Yevropa qismida ikkita xususiyat ko‘zga tashlanadi: biri ruslar istehkomining shahar markazi va shu yerning o‘zi yagona ibodat markaziga aylanishidir. Bu yerda 1879-yilda qurilgan vodiydagi birinchi cherkov (oldin u ibodatxona sifatida qurilgan) keyinchalik butun shahar ibodatxonasiga aylandi.

Yangi ma’muriyat Chust shahrining qurilishiga kam e’tibor berganligi uni uyezd markazi statusidan chekka shaharga aylanishida edi. Bu yerda bir qancha bir qavatli g‘ishtli ma’muriy va davlat muassasalarining binolari, me’moriy jihatdan ko‘rimsiz bo‘lgan uy-joylar qurilgan edi, xolos[2].

Mazkur bo‘lim bo‘yicha xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, viloyat infratuzilmalari shaharlari yangi ma’muriyat

---

[1] Нильсен В. А. У истоков современного градостроительства Узбекистана...  – С. 126.
[2] Гейер И. И. Путеводитель по Туркестану (с двумя картами и одним портретом). – Ташкент: Типо-литография В. М. Ильина, 1901. – С. 251.

davrida urbanizatsion va memorchilik jihatlaridan katta o‘zgarishlarga duch keladi. Shaharlarning eski qismlarida yangi rus qismining tashkil etilishi viloyat shaharlarining birinchi hududiy va infratuzilmaviy o‘zgarishi bo‘lsa, alohida hududda yangi shahar, ya’ni, rus qismini barpo etish uning ikkinchi xarakterli tomoni bo‘lgan.

Shaharlar rus aholisining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotlarining markaziga aylangach, shahar me’morchiligi ham shaharliklar hayotining turli sohalariga moslashtirib barpo etildi. Ma’muriy, jamoat va shaxsiy binolar an’anaviy va yangi uslublarda bino etila boshlandi. O‘lka kapitalistik munosabatlarga faol tortilgani, temir yo‘llarning o‘tkazilishi ham viloyat shaharlarning qiyofasini o‘zgartirdi. Aholining didi va estetik zavqiga qarab turli binolar va imoratlar qurila boshlandi.

## 3.2. Shaharlar aholisining tarkibi va mashg‘ulotlari

Qo‘qon xonligi murakkab etnik tarkibga ega bo‘lib, aholining asosiy qismini mamlakatning turli qismlarida yashagan o‘zbeklar tashkil qilgan. Tadqiqotchilar ularning tarkibini uchta yirik subetnos tashkil qilishini ko‘rsatadilar. Ularning birinchisini shahar va qishloqlarda qadimdan yashab kelgan o‘troq aholi tashkil etib, ushbu guruh urug‘-qabila tizimiga ega bo‘lmagan. Ularni ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi “sart” deb ataganlar. Ma’lumki, ushbu guruh O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘ida yashagan qadimgi turkiy zabon va forsiy zabon aholining assimilyatsiyasi natijasida shakllangan.

Ikkinchi subetnos turkiylar bo‘lib, ular turk va turk-mo‘g‘ul urug‘laridan tashkil topgan va O‘rta Osiyo hududiga Muhammad Shayboniyxon yurishlaridan oldin kelib joylashganlar. Bular – yag‘mo, qarluq, chigil, ashpar, turukshar, cho‘g‘roq, qavchin, jaloyir, barlos, nayman, xitoy, ming, qirq, churas, qangli, bahrin,

norin, tog‘ay, duglot, o‘tarchi, arg‘in va boshqalar[1]. Zahiriddin Muhammad Boburning Andijon aholisi haqidagi ushbu so‘zlari mazkur toifadagi aholini aniq tavsifini o‘zida ifodalagan: “Eli turkdir. Shahar va bozorisida turkiy bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzik alam bil arosttur”[2].

O‘zbek aholisiing uchinchi subetnosi Movarounnahrga XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida Muhammad Shayboniyxon bilan kelgan  Dashti Qipchoq urug‘larining avlodlari hisoblanadi[3]. Ular tarkibiga qo‘ng‘irotlar, qiyotlar, qatag‘onlar, kenagaslar, mang‘itlar, saroylar, yuzlar, qipchoqlar, uch-urug va boshqalar kirgan[4]. Ular asosan, Marg‘ilon, Andijon, Aravon, O‘sh va O‘zgan atroflarida yashagan. Shuningdek, ushbu guruhga kirgan urug‘lar Namangan, Chortoq va Navkat orasidagi yerlarni XVII asr oxiri – XVIII asrning boshlarida o‘zlashtirib, bu yerda ular o‘troqlasha boshlagan”[5].

Qo‘qon xonligi aholisining asosini tashkil qilgan o‘zbeklar va boshqa etnoslarning etnik tarkibini o‘rganish hamda unga xolis baho berishda mahalliy tarixnavislar tomonidan yozib qoldirilgan asarlar muhim o‘rin tutadi va bu tarix fanining murakkab, o‘z navbatida kam o‘rganilgan masalalaridan biri hisoblanadi. Xonlik aholisining etnik tarkibi va etnik guruhlarning joylashgan o‘rni xususida mahalliy tarixnavislari tomonidan yozilgan tarixiy asarlarda ayrim qimmatli ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ularda aholi “jamoa”, “urug‘”, “elat”, “toifa”, “qabila” kabi iboralar bilan qayd etiladi.

Qo‘qon xonligida aholining katta qismini tashkil ettan etnik guruhlardan biri qipchoqlardir. Qo‘qon xonligida hokimiyatni egallash uchun qipchoq va ming urug‘larining vakillari ham isha kurash olib borgan. Ayniqsa, XIX asrning 50- yillarida shunday

---

[1] Губаева С. С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX – начале XX вв. (по данньм топонимии). – Ташкент, 1983. – С. 49–60.
[2] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома... – Б. 34.
[3] Губаева С. С. Население Ферганскойдолины в конце XIX – начале XX вв..... – С. 30.
[4] Губаева С. С. Этнический состав населения Ферганы... – С. 60–74.
[5] Наливкин В. П. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886. – С. 20.

voqealarning avj olganligi ko‘pgina tarixiy manbalarda yoritilgan. Mirzo Olim Mushrifning “Ansob as-salotin va tavorixal-havoqin” asarida Musulmonquli[1]ning davlat boshqaruvi ishlarida qipchoqlarga juda katta imtiyozlar va imkoniyatlar berib, boshqa etnik guruhlarga nisbatan turli tazyiqlar o‘tkazganligi, hokimiyatni minglardan tortib olish uchun olib borilgan harakatlar, buning natijasida qipchoqlarga nisbatan boshqa urug‘larning norozilik harakatlari avj olishi keng yoritib berilgan. Muallif ushbu ma’lumotlarni XIX asrning 50- yillarida yuz bergan siyosiy voqealarga bog‘liq holda bayon qilingan.

“Muntaxab at-tavorix” asarida qipchoqlarning

asosan Andijon viloyatida joylashganligi ko‘rsatilgan[2]. “Ansobas-salotin va tavorix al-havoqin” asarida ham qipchoqlarning joylashgan hududi Ikki Suvorasi deb qayd etiladi. Shuningdek, Muhammad Umarqori Umidiyning “Maktubchayixon” asarida ham qipchoqlar yashagan markaz sifatida Ikki suv ko‘rsatiladi[3]. Ikki suvorasini R. Nabiyev Andijon viloyatiga qarashli Baliqchi tumani ekanligini qayd etgan[4]. Demak, Andijon viloyatining Baliqchi tumani hududidan o‘tgan Norin va Qoradaryo XIX asrlarda “Ikki suv” deb yuritilgan.

Shuni ham alohida qayd etish kerakki, xonlikda qipchoqlar faqatgina Andijon viloyatida joylashibgina qolmasdan, xonlikning Namangan va Marg‘ilon viloyatlari hamda Qo‘qon atrofida ham yashagan.

Qo‘qon xonligi aholisi tarkibida yuz, turk, afg‘on va alqor urug‘lari hamda qirgiz, tog‘liq, qoraqalpoq, tojik hamda arablar ham yashaganligini Mirzo Olim Mushrif o‘zining “Ansob us-salotin” asarida qayd etadi. Xususan, mazkur asarda Sheralixon (1842–

---

[1] Musulmonquli Xudoyorxonning qaynotasi hamda uning Qo‘qon xonligi taxtiga chiqishida asosiy rol o‘ynagan shaxs bo‘lib, otaliq unvoni va mingboshilik lavozimida faoliyat olib borgan.
[2] Муҳаммад Ҳакимхон. Мунтахаб ат-таворих / O‘zFAShI qo‘lyozma. Inv. – № 594. 274 a-varaq.
[3] Муҳаммад Умаркори Умидий. Мактубчайихон. O‘zRFA SHQI. Qo‘lyozma. 6a varaq.
[4] Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 34.

1845)ning taxtga o‘tirishida muhim o‘rin tutgan etnik guruhlar haqida ma’lumot berilar ekan, “Ho‘qanddin bir necha hushyor va oqil odamlar maslahat qilib, jamoai qirgiz va qipchoq va turk va qoraqalpoq va tojik va cho‘n bog‘ish va tog‘liq afg‘on va alqorlar so‘zni bir joyga qo‘yib, Talos mavzei g‘abir necha hushyor odamni yuborib, Sheralixonni To‘ra qo‘rg‘ongacha olib kelib, oqkiyg‘izga solibxon ko‘tardilar”, deb ko‘rsatilgan[1]. Shuningdek, ushbu asarda qirg‘iz, qipchoq, turk va cho‘nbag‘ishlarning Mallaxon (1858–1862) hukmronligidagi siyosiy jarayonlarda asosiy ishtirokchilardan ekanligi yoritiladi[2]. “Ansob us-salotin” asarida keltirilgan cho‘nbag‘ishlar qirg‘izlarning bir urug‘i bo‘lishi hamda ushbu ikki etnik nom bir guruhga mansub bo‘lishiga qaramasdan, muallif ularni alohida tilga olgan. Asarda qayd etilgan tog‘liqlar esa Sharqiy Turkistondan ko‘chib kelgan aholi vakillaridir.

So‘fibek (Xudoyorxonning ukasi)ning o‘g‘li Nazirbek Qo‘qonga xon bo‘lish maqsadida Buxorodan Qorategini orqali yo‘l olganligi xabaridan so‘ng Xudoyorxon sarkardalarga harbiy harakatga tayyorlanishga buyruq beradi[3]. “Ansobas-salotin”da yozilishicha, Xudoyorxon ukasi Sulton Murodbekni Marg‘ilon askari bilan Abdurahmon oftobachini barcha qipchoq jamoasi bilan, Xolnazar parvonachini esa turk jamoasi bilan Nazirbekka qarshi jangga yuboradi. Ushbu ma’lumotdan ko‘rinadiki, sarkardalar qaysi etnik guruhga mansub bo‘lsa, harbiy bo‘linma tarkibidagi askarlarning asosiy qismi ham shu etnik guruhdan tashkil topgan.

Xonlikda Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg‘ilon, Chimkent, Jizzax, O‘sh, Xo‘jand, O‘ratepa kabi aholisining soni jihatidan katta, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘nlab shaharlar mavjud bo‘lgan. Ular o‘zining tuzilishiga

---

[1] Мирзо Олим Мушриф. Ансоб ас-салотин... 29a-varaq

[2] Yuqoridagi manba... 99 b-varaq.

[3] Yuqoridagi manba... 138a- varaq.

ko‘ra, uchta qism, ya’ni ark, shahriston va rabotga bo‘lingan. Arkda xon, uning oilasi va qarindosh-urug‘lari yashagan bo‘lsa, shahristonda shahar aholisi, hunarmand-kosiblar, savdo ahli istiqomat qilgan. Shahristonda hovli, uy-joylar, ustaxonalar, do‘konlar, karvonsaroylar, bozorlar, masjid va madrasalar ham joylashgan. Shahriston mahallalarga, mahallalar esa guzar va rastalarga bo‘lingan. Shaharliklarning bog‘-rog‘lari joylashgan qismi esa “rabot” deb atalgan.

Namangan XVIII asrning boshlarida xonlikning hunarmandchilik sanoati taraqqiy etgan shaharlaridan biriga aylandi. Chunonchi, u yerda avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan temirchilik hunari rivojlangan bo‘lib, garchi qoloq, juda sodda ishlab chiqarish texnikasiga ega bo‘lsa-da, xalq xo‘jaligida muhim o‘rin tutar edi.

Shahar ko‘chalarining ikki tomonida alohida do‘konlar joylashib, ular “temirchilar rastasi” deb atalgan. Bir guruh temirchilar – eshik zanjirlari va halqalari, ot va eshak taqalari, kovush va etik nahallari, har xil mix, arava g‘ildiragi uchun temir halqalar, uzangi va temir randalar tayyorlagan bo‘lsa, ikkinchi guruh temirchilar ketmon, o‘roq, bolta, tesha yasar, uchinchi guruhdagi temirchilar esa pichoq, qaychi, arra, otashkurak, qora chiroq, bigiz singari mahsulotlarni tayyorlar edi. Temirchi ustalar o‘z ishxonalarida oila a’zolari bilan birga ishlashar, shuningdek, shogird ham saqlar edi. Ular pichoq, xanjar va qilichlarga har xil qimmatli suyaklardan turli o‘yma gulli dastalarni ham tayyorlashar edi. Chust va Namanganda yasalgan o‘zbek po‘lat pichoqlari uzoq asrlar davomida Sharq va G‘arbda mashhur bo‘lgan. Boshqa shaharlarda bo‘lgani kabi Namanganda ham alohida miskarlik rastalari bo‘lgan. Miskarlar turli idishlarga gul kesish san’at i bilan shug‘ullaigan.

Qo‘qon xonligi shaharlarining iqtisodiy taraqqiyotida va hunarmandchiliknnng o‘sishida xorijiy mamlakatlar Afg‘oniston, Hindiston, Eron, Qashg‘ar, xususan, Rossiya bilan bo‘lgan savdo-sotiq katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Buxorolik, toshkentlik, qo‘qonlik

va marg‘ilonlik savdogarlar bilan birga namanganlik savdogarlar ham XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Rossiya imperatorining roziligi bilan Astraxaнь, Orenburg, Semipalatinsk va boshqa shaharlarga borib, o‘z maxsulotlarini sotish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu ishni XVIII asrning 70-yillarida Qo‘qon xonligiga birinchi marta kelgan rus unter-ofitseri F. Yefremov boshchiligidagi delegatsiya boshlab berdi.

1868-yilda Qo‘qon xonligi bilan Rossiya O‘rtasida tuzilgan savdo shartnomasi esa xonlik shaharlari bilan rus shaharlari O‘rtasidagi savdo aloqalarining yanada kengayishiga yordam berdi. Farg‘ona vodiysi savdogarlari Rossiyaga paxta, kalava ip, bo‘z, turli terilar, quruq mevalar olib borib sotgan. Namanganlik savdogarlar ham o‘z navbatida rus savdogarlariga xom paxta, jun, kalava ip, meva qoqisi, qimmatbaho matolar sotganlar. Bu yerga esa Moskva ro‘mollari, movut, charm, turli bo‘yoqlar, tomga yopadigan tunuka, samovar, nemis baxmali, ingliz va frantsuz mollari ham keltirilgan.

Qo‘qon orqali Namanganga rus va chet el tovarlarining kelishi bilan savdo aloqalari yanada kengaydi. Bu esa, oz bo‘lsa-da, mahalliy aholining dunyoqarashi ma’lum darajada kengayishiga olib keldi. Qirg‘iz va qipchoqlar hamda atrof rayonlarda yashovchi aholi bilan Namangan bozori gavjum bo‘lgan. Shu boisdan bo‘lsa kerak, rus sayyohi F. Nazarov o‘z esdaliklarida Namangan bozorini Qo‘qon bozoridan kattaroq edi, deb yozgan.

XIX asrda Qo‘qon xonligining chegara hududlarini bir necha qal’a va istehkomlar saqlab turgan. Ular jumlasiga Oqmasjid, Avliyo ota, Pishpak, To‘qmoq, Qurtka, Niyozbek va Mahramni kiritish mumkin. Chu vodiysi bo‘ylab qurilgan istehkomlar esa nafaqat chegara muhofazasi uchun, balki ularning atrofidagi shahar va qishloqlarni itoatda ushlab turish uchun ham xizmat qilgan[1]. Shu maqsadda ushbu shahar va qal’alarda harbiy qism va ularga boshliq bo‘lgan botirboshilar xizmat o‘tagan. Mudofaa maqsadlari uchun

[1] История Узбекистана. Т. III. (XVI – первая половина XIX века). – Ташкент: Фан, 1993. – С. 222.

qurol va aslahalar zaxirasi mavjud bo‘lgan.

Xonlik tarkibiga kiruvchi hududlar aholisining joylashuvi va turmush tarzi bir-biridan farq qilgan. Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysining sug‘orib dehqonchilik qilinadigan qismi aholi joylashuvi jihatidan zich bo‘lib, ular o‘troq hayot kechirgan, sahro, tog‘ va tog‘ oldi tekisliklaridan iborat hududlarda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi yashagan.

XIX asrning boshlarida xonlik (Toshkent va Turkistonni ham qo‘shib hisoblanganda)da aholi soni bir million kishi atrofida edi[1]. Ayrim manbalarda XIX asrning O‘rtalarida xonlikda 1,5 milliondan 2 milliongacha aholi yashaganligi qayd etiladi[2]. Mazkur aholining asosiy qismi xonlikdagi shaharlar va ularning atroflaridagi qishloqlar, ya’ni Farg‘ona, Qurama, Toshkent, Namangan, Xo‘jand va O‘ratepa hududlarida turg‘un yashagan. Qo‘qon atrofida 360 ta, Marg‘ilon, Andijon, O‘sh, Namangan va boshqa shaharlar atrofida esa jami 1214 ta qishloq mavjud bo‘lgan[3].

Shuni ta’kidlash kerakki, mamlakatda hech qachon aholi ro‘yxati o‘tkazilmagan va hatto xonning o‘zi ham aholining umumiy sonini aniq bilmagan[4]. XVIII asrning O‘rtalaridan boshlab, XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davr ichida Qo‘qon xonligi aholisining soni o‘sib borgan va XIX asrning ikkinchi yarmiga kelganda mamlakat aholisi uch million kishiga yetgan. Ammo, Rossiya imperiyasi tomonidan ko‘plab hududlarning bosib olinishi va ularning bosqinchilar ma’muriyati tarkibiga kirishi natijasida xonlik tasarrufidagi Farg‘ona vodiysida ikki millionga yaqin aholi qolgani taxmin qilinadi[5].

---

[1] Ўзбекистон ССР тарихи. I том.... – Б. 621.
[2] Петровский Н. Очерки Кокандского ханства // ТС. Т. 76. – С. 1.
[3] Хорошхин А. П. Заметки о Коканде.... – С. 43; O‘sha muallif: Очерки Коканда / Сборник сататей касающихся до Туркестанского края. – СПб.: Типография и хромолитография А.Траншеля, Стремянная. – 1876. – №12. – С. 42.
[4] Yuqoridagi asar... – S. 3.
[5] Петровский Н. Очерки Кокандского ханства.... – С. 6–19.

Aholi tarkibida o‘troq aholi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholiga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etgan. XIX asrning boshlarida aholining 40 foizdan ortig‘i ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi bo‘lsa, shu asrning oxiriga kelib ular 15 foizni tashkil qilgan[1].

Xo‘jalik mashg‘ulotlariga ko‘ra, o‘troq aholining asosiy qismi dehqonchilik, hunarmandchilik va kosibchilik hamda savdo-sotiq bilan band bo‘lsa, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi chorvachilik bilan shug‘ullangan[2].

Xonlik aholisining ko‘pchiligi o‘zbek (sart)lar bo‘lib, mamlakat shahar va qishloqlarida tojik (sart)lar ham yashagan. O‘zbeklar va tojiklar asosan o‘troq tarzda kun kechirib, ulardan o‘zbeklar Andijon, Asaka, Oltiariq, Oqmasjid, Abdusamad, Avliyoota, Botirqo‘rg‘on, Baytak, Beshariq, Buvay, Bukan, Joykasht, Do‘rmancha, Yor mozor, Iqon, Qaroqchiqum, Qorayantoq, Kushkon, Qo‘qon va uning atrofida, Qarnaq, G‘urumsaroy, Katta Qaynar, Quva, Kumish, Lug‘umbek, Mankent, Mahram, Merkeda, Mingtut, Namangan, Nav, Naymancha, O‘sh, Parkent, Tang‘az, Polvontosh, Pishpek, So‘zak, So‘lak, Sayram, Sultonrabot, To‘da, Toshkent, To‘qmoq, Turkiston, To‘ngiz lav, Urganji, O‘zgan, Uchqo‘rg‘on, Ultarma, Xamirqo‘rg‘on, Chimkent, Chilmahram, Chortoq, Sho‘rqo‘rg‘on, Shahbekbiy, Yaypan, Yangiqo‘g‘on va Yormozorda istiqomat qilgan.

Tojiklar esa Farg‘ona vodiysining shaharlari va tog‘li tumanlaridan tashqari yana Iqon, Toshkent va uning atrofi, Parkent, Piskent hamda Chinozda yashagan[3].

Qo‘qon xonligida xon sulolasi o‘zbeklarning ming[4] urug‘idan bo‘lib, saroy ayonlari va amaldorlar o‘zbeklardan iborat bo‘lgan

---

[1] O‘sha joyda.

[2] Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши.... – Б. 75. A. P. Xoroshxin “ko‘chmanchi aholi chorvachilik va ... qaroqchilik bilan mashg‘ul” degan edi. Bu hada qarang: Хорошхин А. П. Очерки Коканда.... – С. 42.

[3] История Узбекистана. Том III. – С. 214–215.

[4] Гребенкин А. Мингъ... – С. 331–336.

(ming, saroy, targ‘ova, qipchoq elatlari) esa-da, davlatda ish yuritish hujjatlari asosan, fors tilida olib borilgan, lekin o‘zbek tilida ham yorliq va inoyatnomalar yozilgan[1].

Xonlikda yana qirg‘izlar, qipchoqlar ham istiqomat qilganlar. Ular Sirdaryoning boshlanish joylaridan Balxash ko‘ligacha bo‘lgan tog‘li rayonlardan to Qashqar chegarasigacha bo‘lgan yerda, Yettisuv, Talas vodiysi, Oloy tog‘lari, Badaxshon, Farg‘ona vodiysi hududlarida ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi hayot kechirgan.

Bundan tashqari, Farg‘ona vodiysida qoraqalpoqlar, Toshkent atroflarida 10 ming uydan iborat bo‘lgan qozoqlar, xonlikning sharqiy qismida, Qo‘qon xonligini Buxoro va Rossiyadan ajratib turadigan cho‘llarda esa ko‘chmanchi qozoqlar yashagan.

Manbalarda ta’kidlanishicha, XIX asrning boshlarida qirg‘izlar, qalmoqlar, uyg‘urlar, qoraqalpoq va qozoq-qipchoqlar Xitoy hukumati tazyiqi ostida Sharqiy Turkistondan Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelishga majbur bo‘lgan[2].

Shu bilan birga, yahudiylar xonlikning barcha shaharlarida tarqoq holda sochilib yashagan. Shuningdek, xonlikning ayrim shaharlarida lo‘lilar, hindlar, afg‘onlar va Osiyoning boshqa xalqlari vakillari istiqomat qilgan[3]. Rossiya bosqini va Turkiston general-gubernatorligi tashkil topgandan so‘ng xonlik hududlariga boshqa yahudiylar hamda armanlar, boshqa millatlarning vakillari ham kelib yashagan[4].

---

[1] Иванов П. П. Архив хивинских ханов / Записки ИВ АН СССР. Т.7. – 1939. – С. 9; Троцкая Л. А. Каталог архива кокандских ханов.... – С. 3.

[2] Толстова Л. С. Каракалпаки Ферганской долины... – С. 20; Бейсенбиев Т. К. Тарихи Шахрухи... – С. 9.

[3] Вельяминов-Зернов. Сведения о Кокандском ханстве.... – С. 109; Обозрения Кокандского ханства в нынешнем его состоянии // ЗРГО. Кн. III. – СПб., 1849. – С. 190.

[4] Губаева С. С. Населения Ферганской долины в конце... – С. 130; Атаханов Ш. Цыгане Ферганской долины (историко-этнологическое исследование). Автореф. канд. ист. наук. – Ташкент, 2005. – С. 26; Абдуллаев У. Межэтнические процессы в Ферганской долине (XIX – начало XX века). Автореф. докт. ист. наук. – Тошкент: Институт Истории АН Уз. 2006. – С. 49; O‘sha muallif: Фарғона водийсида этносллараро жараёнлар (XIX – XX асрнинг бошлари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – 216 б.

Umuman olganda, XIX asrning birinchi yarmi, ya’ni Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar Qo‘qon xonligining hududlari kengaygan va aholisining soni o‘sgan.

XIX asr Qo‘qon xonligi, xususan, Farg‘ona vodiysining sug‘orilishi tarixida yangi davrni boshlab berdiki, aynan ushbu davrdan boshlab vodiyda yirik sug‘orish inshootlari, ariqlar, kanallar va to‘g‘onlar qurila boshlandi. Masalan, Sirdaryoning asosiy irmoqlaridan bo‘lgan Norin va Qoradaryolardan suv oladigan Shahrixonsoy kanali, Namangandagi Yangiariq, Chinobod arig‘i, Andijonsoy va boshqa sug‘orish tarmoqlarining qazilishi Farg‘ona vodiysida sug‘orish tarmoqlarining ko‘payishi, sug‘oriladigan maydonlarning sezilarli darajada kengayishi hamda dehqonchilik va bog‘dorchilikning rivojlanishiga olib kelgan.

XIX asrning birinchi yarmida Farg‘ona vodiysida sug‘orish tarmoqlarining rivojlanishida muhim roль o‘ynagan omillardan yana biri bu yerga muhojir xalqlarning ko‘chirib keltirilishi bo‘lgan. Xususan, Muhammad Alixon 1829 yilda Sharqiy Turkistondan 70 mingga yaqin uyg‘urlarni ko‘chirib kelib[1], ularni vodiyning sharqiy tumanlari, ya’ni Oqbo‘ra daryo vodiysining yuqori qismi, Qurshob vodiysi, O‘zgan atroflari, Ko‘gartsoy vodiysining Jalolobod va Suzoq hududlari Shahrixonsoy, Yozyovon, Andijon atroflariga joylashtirgan[2]. Natijada bu hududlarda yangi yerlar o‘zlashtirilib, qishloqlar barpo etilgan.

Qo‘qon xonligi shahar aholisining kundalik mashg‘ulotlarida hunarmandchilik va kosibchilik muhim o‘rin tutgan. Uzoq rivojlanish tarixiga ega bo‘lgan Qo‘qon xonligi hunarmandchiligi haddan tashqari ixtisoslashgan edi. Hunarmandchilikda hatto buyumlarning bir turi va biror qismini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan sohalar mavjud bo‘lgan. Buni ayniqsa to‘quvchilik,

[1] Сагдуллаев А. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. I қисм.... – Б. 312.
[2] Семёнов А. А. Отношение Кокандского ханства к Кашгару. Рукописный фонд института истории и археологии. АН Уз ССР. Инв. – № 78. – С. 18.

temirchilikda kuzatish mumkin. Hunarmandlar o‘z kasbining sir-asrorlarini mukammal o‘zlashtirgan mohir ustalari bo‘lib, ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini yuksak san’at darajasiga ko‘tara olgan[1].

Hunarmand ustalar ishlab chiqargan mahsulotlarining sifat darajasi yuqori bo‘lishini ta’minlashga harakat qilgan. Bozordagi keskin raqobat esa ularni o‘z kasblari sirlarini maxfiy saqlashga undagan. Kasb-hunarlarning nozik jihatlari faqat farzandlar, ba’zan ayrimlari shogirdlargagina o‘rgatilgan va u shu yo‘l bilan avloddan-avlodga o‘tib kelgan.

Qo‘qon xonligida mamlakat poytaxti va boshqa barcha shaharlar aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va kosibchilik bilan shug‘ullangan. Mahallalar o‘zi ixtisoslashgan hunariga qarab maxsus ustaxona, tim va do‘konlariga ega bo‘lgan. Buni shaharlardagi mahallalar va ko‘chalarning nomlaridan ham ko‘rish mumkin[2].

Mamlakatning deyarli barcha shahar va qishloqlarida hunarmandchilikning rivoji bir xil bo‘lgan bo‘lsa-da, ishlab chiqarish o‘zining ayrim xususiyatlari, ya’ni mahsulotning turi, sifati bilan ajralib turgan. Hunarmandchilikning temirchilik, zargarlik, to‘quvchilik, degrezlik, kulolchilik, misgarlik va boshqa tarmoqlari[3] keng rivojlangan bo‘lib, xonlikning har bir shahri muayyan sohada ishlab chiqargan mahsulotlari bilan dong taratgan. Jumladan, Qo‘qon zargarlik va qog‘oz ishlab chiqarish, Shahrixon va Chust tikuvchilik hamda temirga ishlov berish, xususan, pichoqchilik, Marg‘ilon, Namangan va Andijon esa ipak gazlamalari, Toshkent o‘zining tikuvchilik, cho‘yan, temir-mis mahsulotlari bilan shuhrat topgan[4]. Xonlik hunarmandchiligi haqida

---

[1] Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи.... – Б. 110.
[2] Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи.... – Б. 110; Малицкий Н. Г. Ташкентские махалля и мауза.... – С. 16.
[3] Qo‘qon xonlari arxivida ular nomma-nom sanab o‘tilgan. Bu haqda qarang: Троицкая А. Л. Каталог архива кокандских ханов XIX века. – М., 1968.
[4] Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши.... – Б. 83–85.

A. P. Xoroshxin bergan ma’lumotlarga ko‘ra, uning e’tibor ga loyiq sohasi Namangan, Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlarida atlas, shoyi, adras hamda beqasam matolarining ishlab chiqarilganligidir[1].

Ustalar ko‘pchilik shaharlar, ayniqsa, Qo‘qonda juda sifatli mahsulotlar ishlab chiqarganlar. Qo‘qonda tajribali ustalar ko‘p bo‘lib, ular o‘z mahsulotlarini san’at darajasiga ko‘targan holda doimiy buyurtmachi va mijozlarga ega bo‘lganlar. Bu esa usta-hunarmandlarning doimiy ish bilan ta’minlanib turganlaridan dalolat beradi.

Ayniqsa, Qo‘qon hunarmandlari ishlab chiqargan gazlama va metall buyumlar ancha sifatliligi bilan ajralib turgan. Qo‘qonda temirchilik mahsulotlariga talab katta bo‘lgan. Chunki. ular jamiyat xo‘jalik hayotida alohida o‘rin tutgan va bu mahsulotlardan qishloq xo‘jaligi hamda uy-ro‘zg‘orda keng foydalanilgan.

Xonlikning butun hududida bo‘lganidek, Qo‘qon shahrida ham ishlab chiqarish qo‘l mehnatiga asoslangan bo‘lib, asosiy hunar xillari ip va ipak matolar to‘qish, oyoq kiyimi tayyorlash, teriga ishlov berish, sopol idishlar tayyorlash, temirchilik, egar-jabdug‘ yasash, bo‘yoqchilik, misgarlik, zargarlik, duradgorlik, aravasozlik, harbiy qurol ishlab chiqarish, o‘ymakorlik, mum ishlash, pista ko‘mir tayyorlash, kashtachilik, do‘ppichilik, qalin tomlar yopish va shu kabilardir[2]. Shuningdek, xonga qarashli porox ishlovchi va qog‘oz tayyorlovchi ustaxonalar ham bo‘lgan[3].

Qo‘qon xonligida hunarmand va kosibchilikning muhim bir tarmog‘i – bu qog‘oz ishlab chiqarish bo‘lgan. 1871-yilda A. P. Fedchenko ushbu mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni, ya’ni Qo‘qon qog‘ozini tayyorlashni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va uni batafsil bayon qilgan[4]. Uning xulosasiga qaraganda, O‘rta Osiyoda

---

[1] Хорошхин А. П. Заметки о Коканде.... – С. 43.
[2] Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи.... – Б. 100.
[3] Обозрения Кокандского ханства в нынешнем состоянии // ЗРГО. Кн. III. – СПб., 1849 г. – С. 11–12.
[4] Федченко А. П. Писчебумажная фабрика Оби джуваз в Коканде. – СПб., 1874.

faqat Qo‘qon shahrida qog‘oz ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Biroq, o‘rganilayotgan davrda ushbu soha Rossiya sanoati ishlab chiqargan arzon fabrika qog‘ozlarining xonlik bozorlarini egallashi natijasida butunlay kasod bo‘lgan[1].

Xonlikda qurolsozlikka ham alohida E’tibor berilgan. Mazkur tarmoq shahar hunarmandchilik ishlab chiqarishining obro‘li sohalaridan biri hisoblangan. Shuningdek, Qo‘qon shahrida zambaraklar, miltiqlar, qilichlar, pichoqlar, xanjarlar, qalqonlar, nayzalar va boshqa harbiy aslaha-anjomlar tayyorlangan.

Rus manbalarida hunarmandchilikdagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuch ayollar bo‘lganligi qayd etilgan. Ular “paxta va ipak yigirib, ulardan nafis hamda sifatli gazlamalar to‘qib, o‘zi va iste’molchilar ehtiyojlari uchun ko‘ylak va boshqa kiyimlar tikishgan. Erkaklar esa asosan kulolchilik, ko‘nchilik (teriga ishlov berish) va og‘ir ishlarni bajargan”[2].

Shaharlarda ham asosiy mol–mulk hukmdor tabaqalar qo‘lida bo‘lib, mayda savdogar va hunarmandlar bu yerdan foydalanganliklari uchun ma’lum miqdorda haq to‘lagan[3].

Xonlik hunarmand-kosibchiligi serqirra va mazmunan boy bo‘lib, ijtimoiy holatiga ko‘ra, hunarmandlar ikki: yuqori va quyi tabaqalarga bo‘lingan. Yuqori tabaqa vakillariga o‘z ustaxonasi, mehnat qurollari va xom ashyolariga ega bo‘lgan ustalar kirgan. Mulkdor tabaqalar qo‘lidagi ustaxonalar va mehnat qurollaridan foydalanuvchilar, yuqori tabaqaga kiruvchi ustalarning qo‘llarida kunbay yollanib ishlovchilar, hammollar quyi tabaqani tashkil etgan.

Qo‘qon xonligida poytaxtdan tashqari Toshkent, Turkiston, Chimkent, O‘ratepa, Marg‘ilon va Andijonda shaharliklar ko‘pgina

---

[1] Семенов А. А. О среднеазиатской бумаге / Известия отделения общественных наук АН Тадж. ССР. Вып. 1 (32). 1963. – С. 3–20; Хабибуллаев Н. Н. Коканд – центр производства бумаги / Позднефеодальный город Средней Азии. – Ташкент, 1990; O‘sha muallif: Ўрта Осиёда қоғоз ишлаб чиқариш тарихи.... – Б. 92.
[2] Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи.... – Б. 100.
[3] Абдуллаев В. А. Ўзбек адабиёти тарихи.... – Б. 93–94.

kasb-hunarlar bilan mashg‘ul bo‘lardi. Har bir hunar ahli o‘z mahallarida yashab, maxsus ustaxona, rastalar, tim va do‘konlarda ishlab, kun kechirardilar. Xonlikning ko‘p shaharlarida miskar, temirchi, kulol, bo‘zchi, qulf-zanjirsoz, degrez (qozon quyuvchi), parchabof (gazlama to‘quvchi), kamongar va boshqa hunar egalarining mahallalari bo‘lardi. Hunarmand va kosiblar qadimdan meros bo‘lib kelayotgan ishlar bilan shug‘ullanib, o‘z kasblarida mohir va usta bo‘lib ketgan edilar. Xonlikning ko‘p shahar va tumanlari biron-bir hunarga mutaxassislashib, shu mahsulotlari bilan mashhur edi. Yuqorida ta’kidlanganidek, Qo‘qon zargarlik va qog‘oz mahsuloti (“abri bahor” nomli qog‘ozi bilan), Shahrixon va Chust tikuvchilik hamda temirdan yasalgan mahsulotlari, ayniqsa mashhur pichoqlari bilan, Marg‘ilon va Andijon ipak gazlama chiqarish (atlas, alacha, beqasam), Toshkent esa tikuvchilik va temir-mis mahsuloti bilan mashhur edilar.

Zargarlar o‘z mahsulotlari uchun xom-ashyoni Qo‘qon va Marg‘ilon bozorlaridan sotib olardilar. Oltin rudasi Sirdaryoning boshlanish hududlari, Qashg‘ar, Davon va Oltoy tog‘laridan olinar edi. Masalan, rus olimi V. Velyaminov-Zernov Qonsuv daryosidan oltin olish jarayoni haqida qiziqarli ma’lumotlar bergan[1].

XIX asrning 60-yillarida Qoratepa tog‘larida ochilgan oltin koni ham qo‘qonliklarga katta daromad keltirgan. Oltin, kumush, mis kabi nodir metallar tanga zarb qilish maqsadida xon o‘rdasida joylashgan zarbxonada ham ishlatilardi.

Zargarlik mahsulotlari arzon narxda sotilardi va u asosan xonlik savdogarlari tomonidan Rossiya bozor va yarmarkalariga eltib sotilar va shu zayl arzon-garov ushbu mollar Yevropa boylari xazinalarini to‘ldirardi. Xonlik zargarlari har xil tillo halqalar, oltin tuzuvli bo‘yinbog‘i, tilla-qosh, uzuk, bilak uzuk, bozuband, tumordon kabi bezak buyumlarini mahorat bilan yasar va qilich,

---

[1] Вельяминов-Зернов В. В. Сведения о Кокандском ханстве... – С. 124.

pichoq dastasi, g‘iloflarni qimmatbaho toshlar bilan bezatishga usta edilar.

Qo‘qon xonligidagi talay ma’dan konlarida kumush ham qo‘rg‘oshin rudasi bilan birga qazib olingan. Namangan atrofidagi tog‘larda, Qoratog‘da, O‘ratepaning La’lkoni degan joyida, Bog‘iston, Sazaq, No‘g‘oy qishloq yaqinida ana shunday kumush konlari bor edi. Mis esa Ohangaron vodiysining Qoraxitoy qishlog‘i yaqinida, Xo‘jand tog‘larida qo‘lga kiritilar edi. Zargarchilikning muhim xom ashyosi bo‘lgan feruza, yoqut, la’l, zumrad, qizil-yoqut, lojuvard a’qiqlar esa Xo‘jand atrofida, So‘x va Isfara tog‘larida, Oloyda bor edi. Ular Qo‘qon, Marg‘ilon, Toshkent bozorlarida sotilardi. XIX asrda bir pud lojuvard 25 tillodan 40 tillogacha bahoda sotilar edi[1].

Qo‘qon hunarmandlari ichida qurol-aslaha hamda jang kiyim-kechaklari ishlab chiqaradigan ustalar va kosiblar katta obro‘ va hurmatga ega edilar. To‘p quyuvchilar, aslahachi-qo‘rchilar, jibachi, miltiqsoz, ketmon yasovchi, nayzasoz, zirehsoz, kulohdo‘zlar Qo‘qonda, O‘ratepa va Marg‘ilonda yashar edi. Qo‘qonda Xudoyorxon davrida porox kukuni ishlab chiqaradigan maxsus korxona bor edi. Porox kukuni Marg‘ilon, Andijonning Chaykent qishlog‘i va viloyatlar markazlarida ham ishlab chiqarilar edi. Andijonda yevropacha uslubdagi miltiq korxonasi qurilgan bo‘lib, unda miltiq va boshqa qurollar ta’mirlanar edi[2].

Qo‘qon ustalari rus qo‘shinlariga qarshi borayotgan askarlar uchun faqatgina Sulton Saidxon (1863–1865 yy.) davrida Mulla Alimqul amirlashkar uchun 70 ta katta to‘p, o‘n mingga yaqin miltiq yasab bergan edi[3]. Ammo, ana shu qurol-aslaha 1865 yilda Xudoyorxonni qaytadan taxtga chiqarish maqsadida yordamga kelgan, ammo xon iltimosiga binoan, Qo‘qonga kirmay, alamzada

---

[1] Юқоридаги асар... – С. 125.
[2] Набиев Р. Из истории Кокандского ханства.... – С. 206–208.
[3] Тарихи жаҳоннамойи... – 317а-варақ.

holda Buxoroga qaytib ketayotgan amir Muzaffar qo‘liga tushib, Buxoroga olib ketiladi. Bu esa Qo‘qon davlatiga katta zarba bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, shu yili amir Qo‘qon xazinasi bilan birga ko‘p hunarmandlarni ham Buxoroga ko‘chirib ketgan edi.

XIX asrning o‘rtalarida tikuvchilik, paxta va ipak bilan ishlaydigan hunarmandlar hamda kosiblar og‘ir ahvolga tushib qoladi. Buning birinchi sababi, hokimlarning o‘zaro to‘qnashuvlari – ichki nizolar bo‘lsa, ikkinchidan paxta va ipak Rossiya bozorlarida sotilar hamda ular Rossiya manufakturalarida qayta ishlab chiqarilib, ushbu mahsulotlar esa yana Qo‘qonga keltirilib, aholiga arzon narxlarda sotilar edi. Natijada, to‘quvchilar bozori kasodga uchrab, ahvollari og‘irlashadi. Bunday kasb-hunarlardan anchasi asta-sekin yo‘qolib ketdi.

Qo‘qon xonligida qog‘oz mahsuloti ishlab chiqarish ham rivojlangan edi. Qo‘qon, Marg‘ilon va Toshkentda ushbu Objuvoz – qog‘oz ishlab chiqaradigan tegirmonlar faoliyat ko‘rsatar edi. Qog‘oz sanoati mahsulotidan kotib, xattot, muqovachi-sahhof, attoru musavvir, naqqoshu lavh chizuvchilar o‘z ishlarida unumli foydalanar edilar. Qo‘qondagi objuvoz korxonasi hatto XX asrning 40-yillarida ham ishlab turgan. Qo‘qonning “abri bahor” nomi bilan mashhur qog‘ozi chet elliklar tomonidan ham yuksak baholangan. Qo‘qon xattot va kotiblari xitoy ipak qog‘ozi, Rossiya manufaktura qog‘ozlarini ham ishlatgan. Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, xonlik hududidagi Qo‘qon, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Xo‘jand, O‘ratepa, Andijon, Namangan, O‘sh va boshqa shaharlar mamlakatning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy markazlari bo‘lgan.

Xonlik aholisini turkiy va eroniy xalqlar tashkil qilib, ular o‘troq va ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi tarzda hayot kechirganlar. Vodiy va shaharlarda muqim yashayotgan o‘zbeklar va tojiklar dehqonchilik, uy chorvachiligi, hunarmandchilik hamda savdo bilan shug‘ullangan bo‘lsa, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qipchoq, qirg‘iz, qozoq va boshqa turkiy xalqlar

asosan chorvachilik bilan, ba’zilari esa asta-sekinlik bilan o‘troqlasha boshladi.

Xonlikning asosiy boyligi yer bo‘lganligi uchun hosildor yerlarning aksariyati davlatniki hisoblangan. Xonlikda yer egaligi munosabatlari an’anaviy tarzda davom etib, yerga egalikning davlat yoki amlok, xiroj, vaqf, jamoa, mulk, ijara, urg‘u, tanho shakllari mavjud bo‘lgan. Yerning asosiy qismi xon, uning oilasiga tegishli bo‘lgan. Mamlakatda yerga egalik, xo‘jalik hayoti, shaharlar va hududlarining boshqaruvi hukmron sulola, yuqori tabaqa vakillari va yo‘lboshchi qabilalar boshliqlarining qo‘lida bo‘lgan.

XIX asrda xo‘jalikning ixtisoslashgan sohalaridan biri bu hunarmandchilik bo‘lib, uning to‘qimachilik, kulolchilik, temirchilik, misgarlik, duradgorlik va boshqa turlari mavjud bo‘lgan. Hunarmandchilik sohasi xonlikning Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Marg‘ilon, O‘sh, Xo‘jand, Turkiston kabi shaharlari va ayrim qishloqlarida yaxshi rivojlangan.

Ular ishlab chiqargan mahsulotlarning asosiy qismi ichki bozorlarda, bir qismi qo‘shni davlatlar va Rossiyaning yarmarka hamda bozorlarida sotilgan. XIX asr o‘rtalarida xonlik bozorlarida Rossiyada ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari jadal ko‘payib borgan. Bu arzon mahsulotlar mahalliy hunarmandlarga katta zarba berib, ko‘pgina hunarmandlarni kasodga uchrata boshlagan.

Chorvachilik ham mamlakat hayotida asosiy o‘rin tutgan soha bo‘lib, sahro, tog‘ va tog‘ etaklari aholisi bu soha bilan shug‘ullangan. Ko‘chmanchi qirg‘iz qabilalari yashaydigan tog‘li hududlar, Toshkent vohasi hamda Turkistonda yaxshi rivojlangan. Qo‘ychilik va yilqichilik chorvachilikning eng rivojlangan sohalaridan bo‘lgan.

## 3.3. Shaharlarning iqtisodiy markazlar sifatidagi oʻrni va tashqi savdo aloqalaridagi roli

Ma’lumki, qadimgi va Oʻrta asrlar davri shaharlarining taraqqiy etishida hunarmandchilik sohalari muhim oʻrin tutib, turli davrlarda hunarmandchilik – iqtisodiy hayotning asosi hisoblangan. Ushbu an’ana XIX–XX asrning boshlarida ham davom etib, mazkur davrda Fargʻona vodiysining koʻplab shaharlarida turli hunarmandchilik sohalari mavjud boʻlgan. Vodiy shaharlarining koʻpchiligi iqtisodiy markazlar boʻlib, shaharlarda turli hunar sohiblari yashagan hamda iqtisodiy hayotning rivojlanishiga oʻz hissalarini qoʻshgan.

Vodiy shaharlari hunarmandchiligini atroflicha tadqiq etish shaharlarning iqtisodiy markaz sifatidagi ahamiyatini ochib berish bilan birga, hunarmandchilikdagi umumiylik va oʻziga xoslik tomonlarini ajratishga, ular taraqqiyotning mohiyatini toʻgʻri anglashga keng imkoniyat yaratadi.

Oʻrganilayotgan davr Fargʻona vodiysi shaharlaridagi hunarmandchi-likning eng rivojlangan sohalaridan biri toʻqimachilik edi. Shaharlardagi toʻquvchilar yaratgan koʻplab mahsulotlar turlariga nafaqat shaharning oʻzida, balki, atrof qishloqlar, boshqa shaharlar, mamlakatlar, togʻli va dasht hududlarida yashagan aholi orasida talab katta edi.

Manbalarga e’tibor beradigan boʻlsak, Qoʻqon xonligi shaharlari, ayniqsa, Namangan va Margʻilon ipak gazlamalar ishlab chiqaruvchi yirik markazlar edi. “Qoʻqonda ipak va ip gazlamalar toʻqish fabrikalari juda rivojlangan holatda”, deb qayd etilgan edi XIX asrning 40-yillarida[1]. Qoʻqon hunarmandchiligigi haqida yozgan mualliflardan biri “Uni turli deb boʻlmaydi. Uning diqqatiga sazovor yagona sohasi bu Namangan, Qoʻqon va Margʻilon fabrikalarida ipak gazlamalar ishlab chiqarishdir. Bu gazlamalar shoyi (kanaus), adras va beqasamdir. Oxirgi ikkitasi yarim ipakdir.

[1] Хива, или географическое и статическое описание.... – С. 26.

Ularning shu nomdagi Buxoro gazlamalaridan sifati ancha ancha pastroq”, - deb yozadi[1].

Azaldan savdo, hunarmandchilik va madaniyat markazi bo‘lib kelgan, ushbu sohalar orasida katta tarixiy tajribaga ega bo‘lgan Marg‘ilon aholisi bu davrda ham ipakchilik, polizchilik, bog‘dorchilik, kulolchilik, do‘ppido‘zlik, misgarlik kabi hunarlar va savdo-sotiq ishlarini faol davom ettirgan. Marg‘ilon shahridagi bozor viloyatda Qo‘qon bozoridan keyin ikkinchi o‘rinda turgan bo‘lib, ma’murchilik va arzonligi bilan shuhrat qozongan. Yaqin atrofdagi aholi, hatto Marg‘ilon uyezdi markazi bo‘lgan yangi Marg‘ilon aholisi ham bir necha km. masofani bosib o‘tib, aynan shu bozordan xarid qilgan.

Marg‘ilon shahri o‘tgan asrlarda bo‘lganidek, ushbu davrda ham Qashg‘ar bilan savdo munosabatlarida muhim o‘rin tutgan, Qashg‘ardan olib kelingan mollar Farg‘ona viloyatiga, asosan Qo‘qon va Marg‘ilon bozorlariga kelib tushgan va shu yerdan butun Turkistonga tarqalgan.

Marg‘ilondagi ipak gazlamalar ishlab chiqarish ustaxonasi haqida XIX asrning oxirlarida quyidagicha ta’riflanadi: “To‘qish joyi shipdan kichik teshiklar orqali yoritiladigan yarim qorong‘i saroyda joylashgan. Yerga qazib o‘rnatilgan qozonlari bilan bo‘yoqxona ham uncha katta qiziqish uyg‘otmaydi, o‘tin yoqishdan chiqqan tutun faqat ochiq eshiklar orqali chiqib ketadi”[2].

Savdo sohasida esa Marg‘ilon shahri viloyat bo‘yicha Qo‘qondan keyin ikkinchi o‘rinda turar edi. Marg‘ilon shahrida an’anaviy mashhur hunarlardan bo‘lgan ipakchilik ushbu davrda ham mahorat bilan davom ettirilgan. Marg‘ilon ipagini yanada ko‘paytirish va undan katta daromad qilish maqsadida hukumat ipak qurti laboratoriyasini tashkil etadi. Aholini sifatli ipak qurti bilan

---

[1] Хорошхин А. Очерки Коканда.... – С. 43.

[2] Щербин-Крамаренко Н. По мусульманским святынам Средней Азии / Справочная книжка Самаркандской области. – Вып. IV. – М., 1986. – С. 54.

ta'minlashda, ipakchilikni rivojlantirishda uning sifatini yaxshilash bo'yicha izlanishlar bilan bir qatorda mahalliy an'analardan ham keng foydalanilgan. Ipak yetishtirish va uning sifati bo'yicha Farg'ona vodiysida Marg'ilon birinchi o'rinda turardi. Marg'ilon ipak matolari Marselь (Fransiya), Konstantinopol va Rossiyaning Yevropa qismiga olib ketilgan. Shuningdek, Marg'ilon ipakchilik mahsulotlariga Hindiston, Eron kabi mamlakatlarda ham talab katta edi.

Ipak tolasi va matolar, ayniqsa, Rossiya bilan savdo aloqalarida talab yil sayin ortib borgan. Masalan, 1884-yilda Marg'ilondan 1.400 rub. ipak mahsulotlari olib ketilgan bo'lsa, 1885-yilda 228.000 rub. ipak mahsuloti olib ketilgan[1]. Bundan tashqari, Marg'ilondan Rossiyaga mo'ynalar, turli gazlamalar, teri va do'ppi jo'natilgan. Rossiyadan esa Marg'ilonga temir, bo'yoq, qand shakar hamda sanoat mahsulotlari keltirilgan. Ammo, butun Turkiston kabi, Marg'ilon ham metropoliya uchun asosan xom-ashyo manbai edi. Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, 1895 yilda Rossiyadan Marg'ilonga 332.800 so'mlik mahsulot keltirilgan bo'lsa, Marg'ilondan Rossiyaga 911.000 so'mlik, ya'ni 3 barobar ko'p mahsulot jo'natilgan[2]. Temir yo'llar qurilgach, ipak tolasi va matolari olib ketish yil sayin keskin ortib borgan.

Toshkentda ham ipak gazlamalar – shoyi va atlas ishlab chiqarilgan. Lekin, bu ishlab chiqarish cheklangan miqdorda edi. Bozorlarda ushbu gazmol turi juda kam uchrar edi. "Ularni to'qib berishlarini so'rab buyurtma berish yoki tasodifan sotib olish mumkin edi. Chunki, ushbu gazlamalar faqat oila a'zolarining ehtiyojlari uchun tayyorlanar edi", - deb qayd etadi XIX asr muallifi[3].

---

[1] O'zMA. 23-fond, 188–190-yig'ma jild, 115–146-varaqalar.
[2] O'zMA 23-fond, 1-ro'yxat, 188-yig'ma jild. 242-varaq.
[3] Пашино П. И. О фабричной и торговой деятельности.... – С. 123.

Yarim ipak gazlamalar jumlasiga XIX asr ishlab chiqarilgan “Pari-posha” matosini ham kiritish mumkin. Ushbu gazlama ayrim hollarda sof ipakdan boʻlishi ham mumkin edi. Bunday holda ushbu gazlamani toʻqish uchun oliy navli ipakdan foydalanilar edi[1]. Pari-posha gazlamasi Qoʻqon xonligi shaharlarida ham keng ishlab chiqarilgan edi. Bu yerda “oq chiziqli koʻk mato – pari-posha” va shuningdek, “toʻq chiziqli oq mato - banoras” ham toʻqilgan. Mazkur matolarni ishlab chiqarishda jun va ipakdan keng foydalanganlar. Ulardan paranji va oʻzida toʻq aholi esa chakmon tiktirgan[2].

Namangan, Qoʻqon va Margʻilonning toʻquvchilik ustaxonalarida esa adras va beqasam ham toʻkilib, ular yarim ipak gazlamalar sirasiga kirar edi. XIX asr mualliflarining koʻrsatishicha, ularning shu nomdagi Buxoro gazlamalaridan sifati ancha pastroq edi[3].

XIX asrning ikkinchi yarmida Qoʻqon xonliginiing yirik kulolchilik markazlaridan biri Rishton edi. “Rishtonda bizning koʻz oʻngimizda sopol idishlarni yasaganlarini va ularni havo rang bilan sirlaganlarini koʻrdik”, - deb yozadilar shohidlar[4].

Shaharlarda metallning turli xillari – temir, mis, bronza, choʻyan, kumush, oltin kabilardan turli-tuman uy-roʻzgʻor buyumlari, mehnat qurollari, binolar qurilishida ishlatiladigan turli temir moslamalar va buyumlar, zebu ziynat, taqinchoqlar kabilar ishlab chiqarilgan. Hunarmand ustalarning temirchilik sohasidagi turli mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi ularning nomlarida ham oʻz aksini topgan. Jumladan, ayrim hujjatlarda temirchilar – ohangarlar, bronzadan turli buyum quyuvchilar – rextagarlar, choʻyan buyumlarini quyuvchilar – choʻyangarlik, mix

---

[1] Гребенкин А. Ремесленная деятельность таджиков..... – С. 514.
[2] Пашино П. И. О фабричной и торговой деятельности.... – С. 124.
[3] Хорошхин А. Очерки Коканда.... – С. 43.
[4] Путешествия в Среднюю Азию и Францию в 1878 и 1879 годах... – С. 89.

yasovchi ustalar-mehchagarlar tarzida keltiriladi[1]. Ushbu hunar turlaridan eng ko‘p rivojlanganlaridan biri temirchilik edi. Mazkur soha ham o‘z navbatida turli buyumlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan turlarga bo‘linib ketar va ustalar ma’lum mahsulot turini ishlab chiqarish bilan mashg‘ul edi.

Temirchilik ustaxonalari asosan bozorlarda yoki bozorlarning yonida joylashar edi. Qo‘qon bozorlarini tahlil etgan V. Nalivkin va M. Nalivkinalar bu yerdagi do‘konlarda “temirchilar, sarroshlar, egarchilar, tikuvchilar, kumush bilan ishlovchi hunarmandlar va misgarlar ishlab”, shu yerning o‘zida o‘z mahsulotlarini sotganliklarini ko‘rsatadilar[2].

Temirchilik Qo‘qon xonligining boshqa shaharlarida ham keng rivojlangan edi. Jumladan, Namanganda temirchilik keng rivojlangan bo‘lib, temirchilar mahsulot turiga qarab xilma-xil mutaxassisliklarga bo‘linar edi. Ular ichida ayniqsa, pichoqsoz ustalar mashhur bo‘lib, Namangan pichoqsozlari yaratgan mahsulotlarga talab katta edi[3].

Qo‘qon xonligining temirchilik keng taraqqiy etgan shaharlaridan biri Toshkent edi. Bu yerda temirchilar turli mahsulotlar – pichoq, qaychi, ustaralar yasaganlar. Shu bilan birga ular po‘latdan qimmatbaho pichoqlar, turli hunarmandchilik asboblari, xususan, duradgorlar va chilangarlarning ish asboblari bolg‘a va omoch singari mehnat qurollarini ham ishlab chiqarganlar[4].

Temirchilar ayrim hollarda o‘z mahsulotlarini faqat bozorlardagi ustaxonalarida, ayrim hollarda uylarida ham tayyorlaganlar. Bunday hunarmandlar jumlasiga taqachi-nag‘alchilarni kiritish mumkin. Toshkentga oid ma’lumotlarning

---

[1] Казийские документы XVI в.... – С. 75–76.
[2] Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщин оседлого населения Ферганы ... – С. 4.
[3] Қосимов Й. Наманган тарихидан лавҳалар.... – С. 18.
[4] О туземной оружия в Туркестанском крае // Русский Туркестан. – Вып. II. – С. 214; Пашино П. И. О. фабричной и торговой деятельности.... – С. 128.

ko‘rsatishicha, ushbu hunarmandlar o‘z mahsulotlarini uylarida ham yasab, tayyor mahsulotni bozorlardagi do‘konlariga olib borganlar va shu yerning o‘zida buyurtmachilarga nag‘al qoqib berganlar[1].

Cho‘yan va boshqa metall turlaridan xilma-xil metal buyumlarni quyishga ixtisoslashgan hunarmanchilik sohalari vodiyning ko‘pgina shaharlari ham keng rivojlangan edi. Shaharlarda qozon, omoch, qozoncha, hovoncha, arava g‘ildiraklari uchun o‘qlar, chiroqlar, choynaklar va boshqalarni yaratganlar. Bunday hunarmandlarning ustaxonalari ko‘p hollarda bozorlar va unga yaqin joylarda mavjud bo‘lar edi. Ayrim hollarda bunday ustaxonalar hunarmandning uyida ham joylashishi mumkin edi[2]. Cho‘yandan omoch va qozonlar Qo‘qonda ham quyilgan[3]. Marg‘ilonda ham degrezlik ustaxonasi bo‘lgan. N. Sherbin-Kramarenko Marg‘ilonda “Shuningdek, qozon va omoch tishlari quyiladigan ustaxonani ko‘rdim, - deb qayd etadi[4]”.

Shu bilan birga, shaharlarda qurol-yarog‘lar oz bo‘lsa-da, ishlab chiqarilganligini alohida ta’kidlash zarur. XIX asrning 70-yillariga oid ma’lumotlariga ko‘ra, Qo‘qondagi shahar bozorida 15 ta ochiq do‘konda qurol-yarog‘ tayyorlanib, ularda bu ish bilan mashg‘ul “oltita yaxshi usta” mashg‘ul edi[5]. Mazkur davrda Namangan haqida esa, “qurol ishlab chiqarish va xanjarlar yasash bo‘yicha Namangan alohida ajralib turadi”, - deb ma’lumot berilgan[6].

Qo‘qon xonligida to‘p quyish hunari ham rivojlangan edi. 1800 yilda Toshkentda bo‘lgan M. Pospelov va T. Burnashayevlarning xabar berishicha, ushbu shaharda ham to‘p quyilgan bo‘lib, unda “5 ta to‘p bor edi”[7]. Qo‘qon shahrida ham to‘plar quyilgan edi. Bunday

---

[1] Гейер М., Назаров И. Кустарные промыслы в Ташкенте.... – С. 31.
[2] Кирпичников Н. А. Краткий очерк некоторых туземных промыслов.... – С. 125.
[3] Щербин-Крамаренко Н. По мусульманским святыням Средней Азии // СКСО. – Вып. IV. – СПб., 1896. – С. 54.
[4] Иванов П. П. Хозяйства джуйбарских шейхов. – Дек. – № 45. – С. 120.
[5] О туземном оружии в Туркестанском крае.... – С. 217.
[6] Пашино П. О. О фабричной и торговой деятельности.... – С. 217.
[7] Поездка Поспелова и Бурнашева.... – С. 35–36.

ustaxonalardan biri haqida sibirlik kazaklar Milyushin va Batarishkinlar guvohlik berib: “bu ish bilan butun o‘lkada kelib chiqishi bo‘yicha fors bo‘lgan faqat bir usta shug‘ullangan bo‘lib, uning ustaxonasi dastlab Qo‘qonda bo‘lgan, keyinchalik uni Toshkentga ko‘chirdi”, deb yozadi[1].

Shaharlarda yog‘ochdan turli mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunarmandchilik turlari keng rivojlangan edi. So‘nggi o‘rta asr manbalarida ular shonagarlar, xarrotlar va najjorlar tarzida keltiriladi. Xususan, Juybor shayxlarining turli ko‘chmas mulk oldi-sotdisi rasmiylashtirilgan hujjatlarda Ustod Hasan najjorning o‘g‘li Ustod Qosim, Xo‘ja Kalon Najjor va boshqalarning ismlari keltiriladi[2].

Qo‘qon xonligida ham kema va qayiqlar yasash bilan bog‘liq hunarmandchilik turlari keng rivojlangan edi. Xonlikning suvga yaqin joylashgan shaharlari va ularning atroflarida ko‘plab kema, qayiqlarga ehtiyoj katta edi. Mazkur holatni Namangan shahri misolida ham kuzatish mumkin. Shahar Sirdaryo yaqinida joylashgan bo‘lib, N. Aristovning yozishicha, “Sirdaryoning chap qirg‘og‘i bilan Namangan o‘lkasi ahli ko‘p sonli kechuvlardagi qayiqlar va paromlar orqali bog‘langan edi”[3]. F. Nazarov Sirdaryodan kechish uchun Qamishqo‘rg‘on yaqinida “o‘ziga 70 ta tuyani sig‘dira oladigan” beshta ot yordamida tortib u qirg‘oqdan bunisiga o‘tkazib qo‘ygan katta kemaga tushganligini qayd etadi[4]. Shu daryodan o‘tgan Ye. K. Meyendorf esa uni eshkakli qayiqda kechib o‘tganligini qayd etadi[5].

Shaharlarda yog‘ochni ishlash bilan bog‘liq hunarlardan biri aravasozlik edi. Duradgorlar temirchilar bilan birgalikda shaharlar va qishloqlar xo‘jaligida muhim o‘rin tutgan aravalarni yasaganlar.

---

[1] Показания сибирских казаков Митюшина и Батарышкина.... – С. 29.
[2] Иванов П. П. Хозяйство джуйбарских шейхов. – Док. – №43. – С. 119, 247.
[3] Аристов Н. Наманганский округ Кокандского ханства…. – С. 140.
[4] Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях.... – С. 36.
[5] Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару.... – С. 65.

Aravalar aholining xo‘jalik hayoti bilan birga xarbiy yurishlarda keng qo‘llanilgan. Aravasozlik Qo‘qon xonligining Marg‘ilon, Namangan, Toshkent va Qo‘qon shaharlarida keng rivojlangan edi.

Marg‘ilon shahri viloyat ma’muriy markaziga yaqinligi va viloyat markazi temir yo‘ldan chetda bo‘lib, viloyat markazining faqat Marg‘ilon shahri orqali temir yo‘ldan foydalanishi, temir yo‘l tarmog‘ining vodiyning boshqa hududlariga jumladan, Andijonga boruvchi asosiy magistral yo‘lining Marg‘ilon shahridan o‘tganligi shaharning iqtisodiy-ijtimoiy holatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Terini oshlash shaharlar aholisining asosiy hunar turlaridan biri edi. Xususan, Qo‘qon xonligi haqida yozgan V. Velyaminov-Zernov “Erkaklar asosan kulolchilik va terini oshlash bilan shug‘ullanadilar”, - deb qayd etgan edi[1]. Charmgarlar o‘z navbatida, ishlab chiqaradigan charm turlariga qarab bir qancha ixtisosliklarga bo‘linar edilar. Xususan, poyabzalning tag charmi, qora eski charmi – qayroqi, oq zamsha, eshak terisidan barg rang charm – kemuxtni ishlab chiqarganlar. Bunday hunarmandchilik sohalari markaziy shaharlar bilan bir qatorda, kichik shaharlarda ham rivoj topgan edi.

Bunday terilardan turli mahsulotlarni tayyorlaganlar. Jumladan, echki terisi turli rang – qizil, qora va sariqqa bo‘yalib, undan poyabzal tikishda keng foydalanilgan. Etik va kafshlar tikishda eshak va ayrim hollarda ot terisidan tayyorlangan “sag‘ri teridan” ko‘proq foydalanilgan. Poyabzalning tag charmi uchun ishlatiladigan xom-ashyo tuya va xo‘kiz terilaridan tayyorlanar edi.

Turli oyoq kiyimlar keng ishlab chiqariladigan markazlardan biri Toshkent bo‘lib, bu yerda etiklar, maxsilar, kafshlar tikilgan. Xususan, shahar bozorlarida XIX asrning ikkinchi yarmida bu turdagi mollar bilan savdo qiluvchi yuzga yaqin do‘kon bo‘lgan[2]. Toshkent kafshdo‘zlari tomonidan yaratilgan sag‘ri teridan tikilgan kafshlar juda mashhur bo‘lgan.

---

[1] Вельяминов-Зернов В. В. Сведения о Кокандском ханстве.... – С. 123.
[2] Гейне А. К. Управление Ташкентом при Кокандском владычестве.... – С. 524.

Hunarmandchilik sohalaridan biri sovun ishlab chiqarish edi. Sovungarlar mahsulotiga aholi O‘rtasida talab katta edi. Sovun ishlab chiqarish O‘rta Osiyo shaharlarida, jumladan, Qo‘qon xonligi shaharlarida ham rivojlangan edi. XIX asrning mualliflaridan biri xususan, ularda mahalliy aholi ehtiyojlarini qondiruvchi “...kul rang, qora rangdagi mahalliy sovun ham bor”, - deb qayd etgan edi[1].

Samarqand qog‘oz ishlab chiqarishning XVI–XVII asrlarda yirik markazi bo‘lsa, XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrda Qo‘qon qog‘oz ishlab chiqarishning yirik markazlaridan biriga aylandi. Bu yerda ham qog‘oz ishlab chiqarish ustaxonalari Samarqanddagi kabi shahar atrofida joylashgan edi. Shaharga yaqin Qog‘ozgar va Chorku qishloqlarida mashhur Qo‘qon qog‘ozi ishlab chiqarilib, O‘rta Osiyo shaharlari bozorlarida ular bilan keng savdo amalga oshirildi. Qo‘qon qog‘ozgarlari tomonidan yaratilgan ushbu mahsulot turiga ehtiyoj katta edi. Turli ilmiy, tarixiy, badiiy asarlar, xujjatlar bitishda ishlatiladigan bu qog‘ozlarga shuningdek, “yozuv uchun” madrasalarda ham talab katta edi. Qog‘ozgar ustalar tayyorlangan qog‘ozni turli ranglarga - “qizil, ko‘k, sariq va boshqa ranglarga” ham bo‘yar edilar[2].

Shaharlarda keng rivojlangan hunarmandchilik sohalaridan yana biri muqovasozlik edi. Muqovasozlik ustaxonalarida usta “sahhoflar” turli qo‘lyozmalarni muqovalash bilan shug‘ullangan. Bunday ustaxonalar odatda shaharlarning gavjum yerlarida joylashar edi. Muqovasozlik rivojlangan markazlardan biri Qo‘qon edi. Bu haqda XIX asrning “Eng yaxshi muqovasozlar Qo‘qondadirlar. Bu yerda uncha murakkab bo‘lmagan muqovalash asboblari ham tayyorlanadiki, ularni Samarqandda topish qiyin. Yozuv va kitoblar uchun qog‘ozni ham mashhur Qo‘qon fabrikalari yetkazib beradi”, deb qayd etiladi[3].

---

[1] Пашино П. И. О фабричной и торговой деятельности.... – С. 126.
[2] Якубовский Ю. О. Переплетное ремесло у туземцев Самарканда.... – С. 61.
[3] Юқоридаги асар... – С. 64.

Qo‘lyozmalarni muqovalash hunari keng rivojlangan markazlardan yana biri Namangan bo‘lib, bu yerda charm va qog‘ozdan yaratilgan muqovalar O‘rta Osiyoning yirik markazlari – Samarqand va Xivada tayyorlangan muqovalardan qolishmas edi[1]. Muqovasozlik ustaxonalari shaharlarning madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan. Bu yerda ba’zan shoirlar va ma’rifatli kishilar to‘planib turar edi.

Ayrim hunar egalari ba’zi hollarda, ayniqsa, yoz paytida boshqa shaharlarga ish qidirib borar edilar. Ular jumlasiga “Qo‘qon va Namangandan Toshkentga yozda keluvchi” aravasoz-ustalarni kiritish mumkin[2]. Shaharlarning iqtisodiy markaz sifatidagi o‘rni shu bilan izohlanadiki, tadqiq etilayotgan davr mobaynida Farg‘ona vodiysi shaharlarida turli-tuman hunarmandchilik sohalari keng rivojlangan edi. Ularning barchasida aholining kundalik turmushi ehtiyojlariga xizmat qiluvchi hunar turlari – gazlamalar to‘qish, kiyim-bosh xillarini yaratish, uy-ro‘zg‘or buyumlari – kulolchilik, temirchilik, duradgorlik mahsulotlari-ni, oziq-ovqat turlarini ishlab chiqarish kabilar keng rivojlangan bo‘lib, bu ular iqtisodiy taraqqiyotga xos umumiy tomonlarni tashkil qilar edi.

Shu bilan birga vodiy shaharlaridagi hunarmandchilik sohalari bir-biridan farqlanuvchi bir qator jihatlarga ham ega edi. Jumladan, ayrim shaharlarda ishlab chiqilgan ba’zi hunarmandchilik mahsulotlari o‘zining yuqori sifati bilan boshqa shaharlarda yaratilgan bu turdagi mahsulotlardan ajralib turar edi. Tadqiq etilayotgan davr mobaynida shaharlardagi hunarmandchilik sohalari o‘z boshidan taraqqiyot bosqichlari va inqirozli holatlarni kechirdi. Ayrim hunar turlari yanada rivojlanib bordiki, ayrimlari umuman unut bo‘lib bordi. Bunday hunarlar jumlasiga harbiy qurol-aslaha ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunar turlarini kiritish mumkin. Shu bilan birga, XIX asrning birinchi yarmida tayyor fabrika

---

[1] Қосимов Й. Наманган тарихидан лавҳалар.... – Б. 20.
[2] Габбин Н. Арбяное производство в Ташкенте (Арабкаш уста)... – С. 223.

mollarining Rossiyadan kirib kelishi ham keyingi davrda ayrim hunar turlari rivojlanish sur'atlarining pasayishiga olib keldi.

Qo'qon aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida savdo munosabatlari alohida o'rin tutib, savdo-sotiq ishlari ichki va tashqi sohalarga bo'lingan. Ichki savdo o'troq dehqonlar, ko'chmanchi chorvadorlar va shahar – qishloq hunarmandlari O'rtasidagi an'anaviy mahsulot ayrboshlashga asoslangan. Aholining kundalik ehtiyojlari ishlab chiqaruvchilar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar bilan to'la ta'minlab turilgan. Barcha ichki savdo chakana bo'lib, ulgurji savdo deyarli bo'lmagan.

Hunarmandchilik va kosibchilik savdo bilan yaqin aloqada bo'lgan. Hunarmandlar aksariyat hollarda o'z tovarlarini o'zlari sotganlar. Dehqon va chorvadorlar esa haftaning muayyan kunlari o'z mollarini bozorda sotganlar. Shu bilan birga, xonlikda olibsotarlik[1] ham keng tarqalgan. Bozorlardagi narx-navo bir xilda turmagan. U xonlikdagi tinchlik-osoyishtalik, urushlar, ob-havoning yomon kelishi oqibatida hosildorlikning pasayishi kabi omillarga qarab o'zgarib turgan.

Mamlakatning eng asosiy savdo va tijorat markazlari Qo'qon, Toshkent, Marg'ilon, Andijon, Xo'jand, Namangan, O'sh, O'ratepa kabi shaharlar bo'lib, ular orasida Qo'qon nafaqat xonlik, balki butun O'rta Osiyoning savdo markazlaridan biri edi.

Qo'qon bozorlari o'zining tovarlarga boyligi va narx-navoning boshqa shaharlarga nisbatan ancha arzonligi bilan ajralib turgan. Shaharning devorlar bilan o'ralgan katta bozorlari mahalliy aholi va chetdan kelgan savdogorlar bilan doimo gavjum bo'lgan. Potanin XIX asrning 20-yillarida Qo'qonda oltita bozor bo'lganligini qayd etgan[2]. Bozorlar yakshanba, chorshanba va payshanba kunlari

---

[1] Мол савдосида улар "жаллоб" деб аталган.

[2] Записки о Кокандском ханстве хорунжего Потанина.... – С. 281; Набиев Р. Н. Из истории Кокандского ханства.... – С. 199.

ishlagan. Bu yerda qattiq nazorat oʻrnatilgan boʻlib, xaridor haqqiga xiyonat qiluvchilar qattiq jazoga tortilgan[1].

Qoʻqon xonligining iqtisodiy hayotida tashqi savdo ham muhim rolь oʻynagan. Mamlakat gʻarb va janubda Buxoro, Xiva, Afgʻoniston, Eron, Turkiya, Hindiston, sharqda Xitoy (Qashqar orqali), shimolda Dashti qipchoq koʻchmanchilari va ayniqsa, Rossiya bilan keng savdo munosabatlarini oʻrnatgan. Manbalarda xonlikka yaponiyalik va angliyalik savdogarlar ham kelganligi koʻrsatiladi[2].

Tashqi savdo karvonlarda tovar olib borish va olib kelish yoʻli bilan amalga oshirilgan. Xonlikning savdo karvonlari quyidagi yoʻnalishlar boʻylab qatnagan:

1. Qoʻqon– Buxoro savdo yoʻli. Mazkur yoʻl ikki yoʻnalishda markaziy shaharlarni kesib oʻtgan. Ularning birinchisi, Qoʻqon – Beshariq – Mahram – Xoʻjand – Oʻratepa – Jom (Yom) – Robot – Jizzax –Samarqand – Yangiqoʻrgʻon orqali, ikkinchisi, Qoʻqon – Beshariq – Mahram – Xoʻjand – Oʻratepa – Zomin – Jizzax – Samarqand orqali oʻtgan va savdo karvonlari 20–22 kunda Buxoroga yetib borgan[3].

2. Qoʻqon-Toshkent savdo yoʻlining uchta yirik yoʻnalishlari boʻlib, birinchi yoʻnalish: Tilav va Kandir dovoni orqali oʻtib, Tilavda ikki shaxobchaga boʻlingan. Biri Ohangaronning chap tomonidan oʻtib, Kurd orqali Beshkent, Toʻytepa va Toshkentga borgan. Ikkinchisi esa Tilav yonida Ohangarondan oʻtib, Qoraxitoy qishlogʻida ikkiga ayrilgan: biri Toʻytepaga ketgan, ikkinchisi Qovardan Niyozbek orqali Toshkentga kelgan. Bu yoʻl eng uzun hisoblangan va undan faqat suv toshqinlari vaqtida, ya’ni Toʻytepadan Toshkentga yurib boʻlmagan vaqtlarda foydalanilgan.

---

[1] Қўлдошев Ш. Т. Қўқон хонлиги ва шарқий Туркистон: сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар... – Б 125; Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи.... – Б. 234–236.

[2] Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожаланиши.... – Б. 77–78.

[3] Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи.... – Б. 120; Қўлдошев Ш. Қўқон хонлиги ва шарқий Туркистон: сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар....– Б. 115.

Ikkinchi yo‘nalish: Qo‘qondagi Uchtog‘i orqali Rabot (Uralьsk stantsiyasi)da ikki shaxobchaga bo‘lingan. Biri – Bishkent va To‘ytepaga, ikkinchisi chaproq yurib, Bo‘ka, Jafon, Zangi ota qishlog‘i orqali Toshkentga kelgan.

Uchinchi yo‘nalish: Qo‘qon va Namangandan Tirs orqali o‘tgan yo‘l. U Chotqoldan yuqori ko‘tarilib, Qorabura darasidan o‘tib, Avliyo otaga borgan. Uning bir shaxobchasi chapga yo‘nalib, Chimkent orqali Yettisuv tog‘i, Oqjar va Qoplonbek bilan Toshkentga kelgan. Bu yo‘ldan faqat yozda foydalanilgan. Ikkinchi shaxobchasi Sayram vodiysidan Tilav orqali tog‘dan o‘tib, Qo‘qonga borgan. Aniqrog‘i bu Sayram – Qo‘qon yo‘li bo‘lib, u Sayram vodiysidan boshlanib, Yettisuv – Oqjar – Darbesikqopqa dovoni – Aleksandrovsk tog‘lari – Xo‘jand ko‘prigi orqali Chirchiq daryosidan o‘tib, Kuchqo‘rg‘on – Xitoytepa – Qanjig‘aldan o‘tib Tilavga borgan va katta Qo‘qon yo‘li bilan shaharga kirgan. Ushbu yo‘l orqali asosan, qo‘y podalari Avliyootadan Qo‘qonga olib kelingan[1]. Toshkentdan Qo‘qongacha yo‘l 10 kunlik masofani tashkil etgan[2].

3. Qo‘qon – Xiva savdo yo‘lining bir tarmog‘i Buxoro orqali o‘tgan. Ikkinchi tarmog‘i Sirdaryo bo‘ylari bilan borgan. Qo‘qondan Xivagacha karvon yozda 1–1,5 oy yo‘l yurgan.

4. Qo‘qon – Pomir savdo yo‘li Ko‘lob va Qorateginga va u yerdan Pomir tumanlariga borgan. Yo‘l dovonlar orqali o‘tgan va yoz mavsumida amal qilgan.

5. Qo‘qon savdo karvonlari Afg‘onistonga Buxoro amirligi hududlari, ya’ni Termiz orqali bir - bir yarim oyda yetib borgan.

6. Qo‘qon – Eron karvon savdosi asosan, Termiz va Hirot orqali Mashhadga o‘tish yo‘li bilan amalga oshirilgan. Shu yo‘l

---

[1] Терентьев М. А. Статистические очерки. – СПб., 1874. – С. 113.

[2] Петровский Н. Очерки Коканского ханства // Вестник Европы. // ТС. Том. 76. – С. 729–730. Қўлдошев Ш. Қўқон хонлиги ва шарқий Туркистон: сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар.... – Б. 147.

orqali Turkiyaga safarga tinch va osoyishtalik holatida ikki oy sarflangan.

7. Qo‘qon savdo karvonlari Qashg‘arga G‘ulja orqali bir oy davomida yo‘l bosgan. Shuningdek, Qo‘qon xonligi Qashg‘ar orqali Hindiston bilan ham savdo-sotiq munosabatlarini amalga oshirgan;

8. Qo‘qon – Dashti Qipchoq bilan Toshkent, Sayram va Yettisuv orqali savdo qilgan;

9. Qo‘qon – Rossiya savdo yo‘llari Dashti qipchoqdan o‘tib, Omsk, Tomsk, Orenburgga borgan va qulay iqlim sharoitida olti oy vaqt sarflagan[1].

Xonlikdan chet elga asosan ipak va ipak matolari, paxta, charm, qimmatbaho toshlar, oltin, kumush, zargarlik buyumlari, quritilgan mevalar, kulolchilik va boshqa mahsulotlar chiqarilgan. Chet eldan asosan, choy, metall, chinni, uy-ro‘zg‘or buyumlari, tayyor gazlama, kiyim-kechak, poyafzal va boshqalar keltirilgan. Jumladan, xonlik savdogarlari Buxoro va amirlik chegaralaridagi

[1] Аллаева Н. А. XVI–XVIII асрларда Хива хонлиги ва Эрон ўртасидаги ўзаро алоқалар. Тарих фан. ном. автореферати. – Тошкент: Ўзбекистон ФА Тарих институти, 2007. – Б. 25; Ғаффоров Ф. Россия билан Қўқон хонлиги ўртасидаги иқтисодий ва сиёсий алоқалар. XIX асрнинг биринчи ярми ва 60–70-йиллар. Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент: Ўзбекистон ФА Тарих институти, 1969. – Б. 226; Агзамова Г. А. XVI–XIX асрнинг биринчи ярмида Ўзбекистон шаҳарлари ва шаҳарлар ҳаёти.... – 348 б.; O‘sha muallif: Среднеазиатские центры торговли и пути связывающие их с Россией.... – С. 195; O‘sha muallif: О караванных путях из Хивы в Оренбург // Общественные науки в Узбекистане. – 1991. – №12. – С. 43–48; O‘sha muallif: Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида ҳунармандчилик ва савдо. – Тошкент, 2000. – Б. 52; Бартольд В. В., Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие / Записки Российского Археологического Обществa. – 1914. – №2. Т. 12; Бетгер Е. К. Самарский купец Данила Рукавкин и его караван в Хиву в 1753 г. // Известия АН Туркменской ССР. – 1952. – №6. Отдельный оттиск. – С. 10; Веселовский Н. И. Прием в Росии и отпуск Среднеазиатских послов в XVII–XVIII столетие. – СПб., 1884; Гладышев Д., Муравин. Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная в 1740–1741 гг. поручиком Оренбургского драгунского полка Дмитрием Гладышевым и геодизистом Муравиным. Издана с приобщением современной карты Миллерова пути от Орска до Зюнгорских владений и обратно Я. В. Ханыковым.– СПб., 1851; Гулямов Х. Г. Средняя Азия и Россия: истоки формирования межгосударственных отношений (начало XVIII века). – Ташкент: Университет. 2005.– С. 118; Матвеев А. М. Из истории выходцев из Ирана в Средней Азии во второй половине XIX – начале XX вв. / Иран. Сборник статей. – М., 1973. – С. 195–214; Мукминова Р. Г. Традиции взаимосвязей по шелковому пути в позднефеодальный период / На среднеазиатских трассах Великого шелкового пути (Очерки истории и культуры). – Ташкент, 1990. – С. 117–125: Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Akademiya, 2008. – Б. 187–215; Сафаров Т. Т. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Ўрта Осиё савдо йўллари. Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент: ЎзМУ. 2009. – 176 б.; Худойқулов Т. XIX асрда Қўқон хонлигининг сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти. Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент: ЎзМУ. 2009. – 170 б.

shaharlar bilan muvaffaqiyatli savdo ishlarini olib borgan. Ikki davlatning savdogarlari savdoda faol qatnashib, qo‘qonlik savdogarlar Buxoro amirligiga xo‘jalik hayotga zarur bo‘lgan rus temiri, cho‘yan va po‘latdan yasalgan buyumlar, tamaki, ro‘mol, guruch va ba’zi xitoy yoki mahalliy ipak gazlamalari, choy, chinni idishlarni olib borishgan.

Buxorolik savdogarlar esa Qo‘qonga hind choyi, indigo, kolenkor, harir, taryok, bo‘yoq, zardo‘zlik mahsulotlari va ip gazlama olib kelishgan. Rus chiti Buxoroning Qo‘qon xonligi bilan savdosida alohida o‘rin egallagan. U Orenburg yoki Petropavlovskdan Kazalinskka, undan Buxoro, Samarqand va Xo‘jand orqali Qo‘qonga olib kelingan. Shuningdek, xonlikka Mashhaddan olib kelinadigan ingliz gazlamalari, oz miqdorda bo‘lsa ham Qobulning to‘n va sallalari, hind attorlik mollarini ham keltirishgan. Xonlik va Buxoro o‘rtasidagi savdoda aravalardan keng foydalanilganligi boshqa joylarga nisbatan Buxoro bilan ko‘proq tovar ayirboshlash imkoniyatini yaratgan.

Qo‘qon va Buxoro davlatlari o‘rtasidagi siyosiy nizolar savdo aloqalarining ma’lum muddat susayishiga olib kelsada, o‘zaro savdo munosabatlari to‘xtab qolmagan.

Qo‘qonning Qashg‘ar bilan savdo munosabatlari xuddi Buxoro amirligi kabi bo‘lib, Qoshg‘ardan Qo‘qonga afyun, chinni idishlar, kumush, xitoy ipak matolari, tola va gilamlar olib kelingan.

Qozoq juzlarining Rossiyaga qo‘shib olinishi hukmdor tabaqalar O‘rtasidagi o‘zaro urushlarning to‘xtashiga sabab bo‘ldi va bu holat O‘rta Osiyoning Sibirь, Ural, Volga bo‘yi bilan savdo munosabatlariga keng yo‘l ochdi. Qo‘qonga qozoq dashtlaridan Avliyoota orqali 10 minglab qo‘y olib kelingan[1].

O‘rta Osiyo davlatlari qatorida Qo‘qon xonligi ham Hindiston bilan muntazam savdo aloqalarini olib borgan. Hindistondan yiliga

---

[1] Набиев Р. Н. Из истории Кокандского ханства.... – С. 119; Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари. Тарих фан. номзоди. дисс. автореферати. – Тошкент, 2009. – Б. 21.

Qo‘qon, Toshkent, Buxoro va Qoshg‘arga Qobul orqali 10000 dan 15000 tuyagacha tovar yuborilgan. Ular asosan, ip gazlamalar, Kashmir ro‘mollari, salla uchun oq surp, shakar bo‘lib, Qo‘qondan Hindistonga asosan, ipak gazlamalar, ipak, echki juni, otlar va boshqa tovarlar chiqarilgan. Otlar savdoning katta foyda keltiradigan manbalaridan biri bo‘lgan. Bundan tashqari, har yili O‘rta Osiyodan Hindistonga 20 lak[1] oltin olib chiqilgan[2]. Hindiston savdogarlari xonlikdagi shaharlarda yashab tijorat va hatto sudxo‘rlik bilan ham shug‘ullangan[3].

Xonlikning tashqi savdo aloqalarida Qo‘qon-Rossiya savdo munosabatlari alohida o‘rin tutgan[4]. 1758–1853-yillar davomida tovar eksporti 174000 dan 2171000 kumush rublga, import esa 37000 dan 676000 kumush rublgacha oshgan[5]. Rus savdogarlari avval 100 foiz, keyinchalik 70, 50 foiz miqdorida daromad olgan[6].

1854-yilda V.V. Velyaminov-Zernov Rossiya-Qo‘qon savdo munosabatlari haqida shunday deb yozgan edi: “Qo‘qon mutlaqo sanoatsiz mamlakat, uning atrofidagi xalqlar u bilan teng darajada yoki undan ham past darajada rivojlangan. Uning qo‘shnilari ichida Rossiyadan boshqa birorta ham rivojlangan mamlakat yo‘q. Bu hol esa biz uchun juda qulaydir. Ravshanki, Qo‘qon mahalliy imkoniyatlar bilan o‘zining zaruriy ehtiyojlarini qondira olmaydi. Agarda u biror yerdan tovar olmoqchi bo‘lsa, faqat birgina Rossiyadan olishi mumkin”[7].

1861-yil 19-fevral islohoti va krepostnoy huquqining bekor qilinishi natijasida rus sanoatining jadal rivojlana boshlaganligi,

---

[1] Lak – pul birligi o‘lchovi. Bir lak yuz mingga teng.
[2] Гейнс А. К. Собрание литературных трудов. I. II. – СПб, 1888. − С. 532–534.
[3] Тетеревников А. Н. Очерки внутренной торговли Киргизской степи. // ТС. Т. 396. – С. 16; Гейнс А. К. О податях и сборах в Коканском ханстве. / Собрание литературных трудов. Т. II. – СПб., 1899. – С. 519.
[4] Ғаффоров Ф. XIX асрнинг биринчи ярми ва 60–70-йилларда Россия билан Қўқон хонлиги ўртасидаги иқтисодий ва сиёсий алоқалар.... – Б. 170.
[5] Исторический опыт торговли со Средней Азией / Туркестанский сборник. Т. 378.... – С. 98.
[6] Янжул И. Исторический опыт торговли со Средней Азией // Туркестанский сборник. Т. 375... – С. 96.
[7] Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи... – Б. 122.

xom-ashyo bazasi hamda tashqi bozorga bo‘lgan ehtiyojning yanada kuchayganligi Rossiyaning Qo‘qon bozorini faol egallab, undan cheksiz foydalanishining asosiy sabablaridan biri bo‘lgan. General-mayor Chernyaev ham rus savdogarlari manfaatlarini ko‘zlab: “Mening fikrimcha, avvalo, bizning savdogarlarimiz, ularning hayoti va tovarlari uchun xavfsizlikni, erkin, har qanday to‘siqlarsiz savdo qilish imkoniyatini ta’minlash kerak. Bu sharoitlarni ta’minlasak, savdogarlarga tegishli barcha masalalar, ma’muriyat aralashmasdan, o‘z-o‘zidan hal bo‘laveradi”,- deb yozgan edi[1].

Chernyaevning ma’lumotiga qaraganda, Rossiyadan Qo‘qonga temir, mis, po‘lat, cho‘yan va temir buyumlar, chit va sifatsiz gazmollar, oz miqdorda baxmal, shakar, fayans kosalar, oynalar, charm, Rossiyaga tobe bo‘lgan qozoq cho‘llaridan qo‘ylar va uning terisi, charm va charm mahsulotlari, kigiz olib kelingan[2].

1864–1865-yillardagi Toshkent bosqinidan oldin toshkentlik savdogarlar Rossiya bilan savdo aloqalarining kamayishidan afsuslanganliklari haqida Abu Ubaydulloh Toshkandiy, Muhammad Solih Toshkandiy, Muhammad Yunus shig‘ovullar o‘z asarlarida ma’lumot berganlar[3].

Xonlikdan Rossiyaga asosan, paxta olib chiqilgan. Agar 1840–1850- yillarda 18119 rubllik paxta olib ketilgan bo‘lsa, 1862-yilda 160000 rubllik, 1866- yilda 324136 rubllik, 1867-yilda esa 1344400 rubllik xom ashyo olib ketilgan. Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgandan so‘ng xonlik hududi asta-sekin xom ashyo bazasiga aylanib borgan.

1867-yilda Orenburg va Sibir bojxonalari ham Toshkentga ko‘chirilgan. 1868-yilda boj to‘lovlari borasida Turkiston general-gubernatori va Qo‘qon xoni O‘rtasida savdo shartnomasi tuzilgan. Unga ko‘ra, rus savdogarlari ko‘plab imtiyozlarga ega bo‘lgan. Ular

---

[1] Қўлдошев Ш. Қўқон хонлиги ва шарқий Туркистон... – Б. 114.
[2] Тоиб. Тарихи Алиқули амирлашкар // Шарқ юлдузи. – 1995. – №1–2.
[3] Тоиб. Тарихи Алиқули амирлашкар... – Б. 222.

Qo‘qon xonligining istalgan shahar, qishlog‘ida o‘zlariga omborxona, karvonsaroylar qurish, savdo-sotiq masalalari bilan shug‘ullanuvchi agentlar yuborish huquqiga ega bo‘lganlar. Aslida, ushbu agentlar rus razvedkasining josuslari sifatida ham faoliyat yuritgan[1].

Mazkur shartnomaga binoan, Qo‘qonga olib kelinadigan yoki bu yerdan Rossiyaga olib ketiladigan tovarlardan Turkiston o‘lkasida to‘lanadigan boj miqdori tovar narxining yarim foiziga tenglashtirilgan. Yana qo‘shni mamlakatlarga borayotgan rus savdo karvonlariga Qo‘kon xonligi yerlaridan boj to‘lamasdan o‘tish imtiyozi berilgan va ularning xavfsizligi xonlik zimmasiga yuklatilgan[2]. M. A. Terentьev: “Mavjud barcha bozorlardan Qo‘qonni batamom o‘zimizniki, deb ayta olamiz”[3], - deganda shularni hisobga olgan bo‘lsa kerak.

XIX asrning 70-yillarida Qo‘qon va Rossiya savdo munosabatlari yanada kengayib borgan. Buni 1870-yilda Turkiston general-gubernatori Fon Kaufmanning Farmoniga binoan Rossiya va O‘rta Osiyo savdo munosabatlarini rivojlantirish va savdogarlarni iste’molchilar bilan yaqinlashtirish maqsadida Toshkent shahrida ochilgan savdo yarmarkasining tovar almashinuvi haqidagi ma’lumotlarida ham ko‘rish mumkin. Agar yarmarkaga 206039 rubllik paxta keltirilgan bo‘lsa, shundan 90152 rubli, 17007 rubllik ipakdan 14614 rubl miqdoridagisi Qo‘qondan olib kelingan[4].

Qo‘qon xonligi va Rossiya savdo munosabatlarining kengayib borishi bir tomondan qishloq xo‘jaligi ayrim tarmoqlarining rivojlanib, rus madaniyatining ba’zi jihatlarini aholi turmush tarziga kirib borishiga olib kelgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mamlakat

[1] Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи... – Б. 123; Велъяминов-Зернов В. В. Исторические известия о Кокандском ханстве... – С. 154–172[а].
[2] Наши торговые договора с владениями среднеазиатских ханств // Московские ведомости. – 1868. – № 277.
[3] Терентьев М. А. Россия и Англия в борьбе за рынок. – СПб., 1876. – С. 49.
[4] Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи... – Б. 87.

Rossiyaning xom-ashyo bazasi va tashqi savdo bozoriga aylanib bordi. Rossiya bilan savdo aloqalari xonlik qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, rus sanoati tovarlarining kirib kelishi mahalliy hunarmandchilik ishlab chiqarishini inqirozga yuz tutishiga sabab bo‘lgan va unga halokatli ta’sir ko‘rsatgan.

Rossiya sanoat korxonalarining mahsulotlari faqatgina mahalliy hunarmandlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmagan, balki boshqa davlatlar, jumladan Xitoy chinni mahsulotlarini ham raqobatda siqib chiqara boshlagan. Rus fabrika va zavodlari O‘rta Osiyo bozorlarini maxsus mahsulotlar bilan tan’minlay boshladi. Hattoki chinni idishlarda arab yozuvidagi bezaklar paydo bo‘lgan va ularni mahalliy savdogarlar ham muvaffaqiyat bilan sotganlar.

Shaharlarda asosiy savdo shaxobchalari hukmdor tabaqalar qo‘lida bo‘lib mayda savdogarlar bu yerdan foydalanganliklari uchun ma’lum miqdorda haq to‘laganlar[1]. Savdogarlar orasida Rossiya va Sharqiy Turkiston bilan tijorat qiluvchi tadbirkorlar ko‘proq daromad qilganlar.

Qo‘qon savdogarlari XIX asrning yarmida rus yarmarkalarida bo‘lib, xonlikka ko‘p mollarni sotib olib kelar edi. Xonlik bozorlarida har xil rastalar, timlar, do‘konlar va saroylar bo‘lar di. XIX asrning 60-yillarida Toshkent bozorlarida 16 ta karvonsaroy, 2400 ta do‘kon mavjud bo‘lib, 30 ga yaqin rastalari bor edi. Ho‘qand bozorida 5 ta, O‘ratepada 3 ta, Qo‘qon bozorida 1841-yilda 6 ta karvonsaroy o‘z do‘konlari bilan faoliyat ko‘rsatgan.

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, xonlikdagi siyosiy vaziyatning notinchligiga qaramay mamlakat qo‘shni davlatlar bilan qizg‘in savdo-sotiq munosabatlarini olib borgan. Tashqi savdoda farg‘onaliklar asosan Xitoy (Sharqiy Turkiston), Hindiston bilan, Xo‘jand, o‘ratepaliklar esa Buxoro amirligi, Afg‘oniston bilan, Toshkent vohasi savdogarlari esa qozoq hududlari va Rossiya bilan,

---

[1] Абдуллаев В. А. Ўзбек адабиёти тарихи.... – Б. 93–94.

Sirdaryo bo‘ylaridagi shaharlar esa Buxoro va Xiva davlati bilan keng savdo aloqalari olib borgan.

Mamlakat iqtisodiy hayotida alohida o‘rin tutgan savdo markazlari bo‘lgan Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Chimkent, O‘ratepa, Marg‘ilon, O‘sh, Xo‘jand, Jizzax, Sayram, Turkiston kabi shaharlar ichki savdo taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil hisoblangan. Ushbu shaharlarning bozorlari mahalliy va chetdan keltirilgan mahsulotlar bilan to‘lib-toshgan. Metall va fabrika buyumlari Rossiyadan keltirilgan bo‘lsa, Xitoy hamda Hindistondan choy va boshqa tovarlar kirib kelgan.

XIX asrning boshlaridan boshlab xonlik savdogarlari tashqi savdoda Rossiya bilan munosabatlarni keng yo‘lga qo‘ygan. Natijada, Rossiya fabrikalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar nafaqat mahalliy hunarmandlar balki boshqa mamlakatlarning tovarlarini ham siqib chiqara boshlagan.

# XULOSA

O‘rta Osiyo va uning tarkibiy qismi bo‘lgan O‘zbekiston sivilizatsiyasidagi shaharlar masalalarini o‘rgangan ko‘pgina tadqiqotchilarning xulosalariga ko‘ra, bu jarayon o‘zining boshlangan davridan boshlab keyingi (O‘rta asrlar, zamonaviy) rivojlanish bosqichlarigacha aynan urbanistik xususiyatga ega bo‘lgan edi. Urbanizatsiya jamiyat taraqqiyotining eng murakkab jarayonlaridan biri hisoblanib, bu jarayon jadal o‘sib borayotgan taraqqiyotni o‘zida aks ettirish bilan birga ixtisoslashgan savdo-sotiqning o‘sib borishi, mahsulot almashinuvi, ijtimoiy tuzilmalar va boshqaruv organlarining mavjudligi, ishlab chiqarishni nazorat qilish va qo‘riqlash, jamiyat O‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishni ifodalaydi. Farg‘ona vodiysidagi biz o‘rganayotgan davr urbanizatsiya jarayonlari ham bundan mustasno emas.

Umuman olganda, XIX asrning birinchi yarmi, ya’ni Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar Qo‘qon xonligining hududlari kengaygan va aholisining soni o‘sgan. Xonlik hududida hajmi, aholisining soni va joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning rivojlanish darajasi turlicha bo‘lgan, madaniy taraqqiyotning ayrim jihatlari bilan bir-biridan farqlanuvchi ko‘plab katta va kichik shaharlar mavjud edi. Xonlikdagi Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Toshkent, Namangan kabi shaharlari asosiy siyosiy, ijtimoiy kuchlar mujassamlashgan markazlar edi.

Xonlik hududida asosan o‘troq, qisman ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi yashagan. Aholining ko‘pchiligini o‘zbeklar tashkil qilib, xonlikda yana tojiklar, qirg‘izlar, qipchoqlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, qozoq-qipchoqlar, qalmoqlar, uyg‘urlar, forslar, arablar, hindlar, afg‘onlar, lo‘lilar, Turkiston general gubernatorligi tashkil topganidan so‘ng yahudiylar, armanlar ham yashagan.

Ta'kidlash kerakki, XIX asrning O'rtalariga kelib, Rossiya imperiyasi qozoqlar yashaydigan yerlarni turli bahona va sabablar bilan bosib olib, bevosita Qo'qon xonligi chegarlarini bosib o'tishi, Rossiya va Buyuk Britaniya manfaatlarining to'qnashuvini tezlashtirdi. Rossiya harbiy yo'l bilan 1876-yilgacha Qo'qon xonligining ko'pgina shahar va istehkomlarini bosib olgach, ularni o'zining mustahkam tayanchiga aylantirdi.

Rossiya imperiyasi Qo'qon xonligiga qarashli Sirdaryoning quyi oqimidagi shahar va istehkomlarni, Toshkent, Jizzax, O'ratepa, Xo'jand, amirlikka qarashli Samarqand, Yangiqo'rg'on, Zarafshon vodiysining yuqori qismi, Shahrisabz hamda Kitob, Xivaga qarashli ba'zi hududlarini bosib olib Markaziy Osiyoning ma'muriy-hududiy va siyosiy qiyofasi, davlat tizimini butunlay o'zgartirdi.

Rossiyaning imperialistik hukumati Buxoro va Xiva davlatlarini o'ziga tobe bir davlatlar sifatida saqlab qolishga urinib, unga erishgan bo'lsa ham Qo'qon xonligini butunlay barham berishga erishdi. Rossiya imperiyasining bunday siyosat olib borishi bir qancha tashqi va ichki omillar, obektiv va subektiv sabablarga bog'liq edi.

Qo'qon xonligidagi xon va uning avlodi O'rtasidagi toju taxt uchun kurashlar, o'troq va ko'chmanchi aholi O'rtasidagi qarshiliklar, rus harbiylarining bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan goh u va goh bu guruhlar va kuchlarni qo'llab turishi natijasida XIX asrning 70-yillarida xonlikdagi vaziyatni murakkablashtirib, izdan chiqib ketishiga olib keldi. Xalq harakatlari bosqinchilarga qarshi kurashga aylanib ketdi.

Xon va uning amaldorlari o'z hukumatlarini saqlash uchun Rossiya harbiylaridan yordam so'raganlar. Shu bilan Rossiya xonlikning ichki nizolariga faol aralasha boshladi. Qarama-qarshilik ruslarga qarshi millliy-ozodlik kurashga aylanishayotganda, bosqinchilar xonlikka barham berish bilan qutulish yo'lini tan oladilar. O'zaro urush va janjallardan charchagan aholi ham

viloyatning ba'zi shahar va qishloqlarda rus qo'shinlarini kutib olganlar.

Rossiya imperiyasi Farg'ona viloyatidagi shaharlarni bosib olgach, u yerda yangi ma'muriy va harbiy tizimni joriy qildi. Viloyatda siyosiy va hududiy o'zgarishlar amalga oshirildi. O'lkada harbiy-ma'muriy tizim joriy qilindi.

1876-yil 19-fevralda Qo'qon xonligi tugatildi va uning o'rnida yangi mamuriy hudud – Farg'ona viloyati tuzilib, uni harbiy gubernator boshqaradigan bo'ldi. Viloyat shaharlar, uyezdlar, volost va qishloq jamoalariga bo'lindi. Ruslashtirish va rus aholini shaharlar hamda qishloqlarga ko'chirib keltirish siyosati izchillik bilan amalga oshirila boshlandi.

Yangi ko'chib keltirilgan aholi va rus qo'shinlari uchun viloyat shaharlarida rus qism (yoki yangi qismlar, yevropaliklar yashaydigan qism) lar tashkil qilindi. Shaharlarning mahalliy aholi yashaydigan qismlarida rus aholisi kamdan-kam yashagan. Shu bilan vodiy shaharlari yangi urbanizatsion va yangi iqtisodiy munosbatlar doirasiga tortildi. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'zgarishlar shahar memorchiligi, shaharsozlik an'analari va madaniyatiga ta'sir etdi.

O'rganilayotgan davr Farg'ona viloyati shaharlari infratuzilmalari yangi ma'muriyat davrida urbanizatsion va memorchilik jihatlaridan katta o'zgarishlarga duch keladi. Shaharlarning eski qismlarida yangi rus qismining tashkil etilishi viloyat shaharlarining birinchi hududiy va infratuzilmaviy o'zgarishi bo'lsa, alohida hududda yangi shahar, ya'ni, rus qismini barpo etish uning ikkinchi xarakterli tomoni bo'lgan. Shaharlar rus aholisining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotlarinig markaziga aylangach, shahar me'mor chiligi ham shaharliklar hayotining turli sohalariga moslashtirib barpo etildi. Ma'muriy, jamoat va shaxsiy binolar an'avnaviy va yangi uslublarda bino etila boshlandi. O'lka kapitalistik munosabatlarga faol tortilgani, temir yo'llarning

o‘tkazilishi ham viloyat shaharlarning qiyofasini o‘zgartirdi. Aholining didi va estetik zavqiga qarab turli binolar va imoratlar qurila boshlandi.

